R. Xojimatovning fikricha, mamlakatdagi davlat banklari tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini muvofiqlashtirish bilan birga, ularning fond bozorlari rivojiga ijobiy ta'siri nihoyatda muhimdir. Fond bozorlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning samaradorligini oshirishda tijorat banklarining noan'anaviy instrumentlarini keng joriy etish muhim o'rin egallaydi. Xususan, "avvalo mamlakatimizda fond bozorlarini rivojlantirish, bozorlarni yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarning noan'anaviy instrumentlarini keng joriy etish orqali tijorat banklarining kapitallashuvi va bozor kapitallashuvining xalqaro miqyosda mavqeini oshirish uchun o'rnatilgan me'yorlarga tenglashtirish, jahondagi yirik xalqaro moliya-kredit institutlari bilan teng raqobat darajasiga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish uchun o'zlarining yuqori likvid an'anaviy obligatsiyalarini muomalaga chiqarish lozim".⁵¹

Shuningdek, R.Xojimatovning fikricha, mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va banklarning likvidligini oshirish uchun fond bozorlariga tijorat banklarining yuqori likvid an'anaviy obligatsiyalarining xalqaro bozorlarga integratsiyasini rivojlantirish lozim. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun, Markaziy bank transmission kanallarining samarasini

⁴⁸ Алехин, Б. И. Рынок ценных бумаг: учебник и практикум для вузов / Б.И. Алехин. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2023. – 497 с.

⁴⁹ Шохазамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга 1. Учебник.-Т.: Iqtisod-moliya, 2005.-с.13, 31-34.

⁵⁰ Бутиков И.Л.. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистана. БФА.: Диссертация на соискание ученой степени доктор экономического наук. Тошкент.: 2009.г. 416 стр.

⁵¹ Xojimatov R.X. Fond bozorini rivojlantirish xususiyatlari va istiqbolli bank vositalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019-yil.

inflyatsion targetlashga o'tish orqali oshirish maqsadida uning mustaqilligini oshirish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Xalqaro kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini o'rgangan Qulmatov Ch. va To'ychiyev N.larning fikricha, "xalqaro kapital bozori moliyaviy globallashuv jarayoni mahsuli bo'lib, industrial mamlakatlarning umumjahon miqyosida iqtisodiy samaradorligini keskin oshirdi. Lekin bu jarayon rivojlanayotgan mamlakatlar rivojiga ijobiy ta'sirdan ko'ra ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatishi hozirda barchaga ayon bo'lib qoldi. Buning sababi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti industrial davlatlar iqtisodiyotiga ko'proq bog'liqdir"⁵².

Dunyo bo'ylab fond bozori faoliyati va moliyaviy instrumentlarning barqarorligiga hukumatning aralashuv siyosati doimiy ta'sir ko'rsatadi. 2020-yilning birinchi yarmida jahon mamlakatlari COVID-19 pandemiyasini e'lon qilganidan so'ng, fond bozorlari oldingi global moliyaviy inqirozlar (masalan, 1930-, 1987- va 2008-yillar) va Ispan grippi, SARS va Ebola pandemiyasi davridagi darajalarga nisbatan ham misli ko'rilmagan yuqori o'zgaruvchanlikni qayd etdi.⁵³

Qimmatli qog'ozlar moliya bozorida amal qiladigan moliyaviy instrumentlarning boshqa turlaridan farqli o'laroq eng katta va alohida bozoriga ega bo'lgan guruhini tashkil etganligi munosabati bilan uni o'rganish alohida yondashuvni talab etadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida bir paytning o'zida bozor aylanmasining obyekti hamda tomonlarga mulkiy va boshqa turdagi huquqlar bilan birga, majburiyatlarni ham berish xususiyatiga ega bo'lganligi bois, ularning iqtisodiy mohiyatini aniqlashda ushbu iqtisodiy hodisaning ham iqtisodiy, ham yuridik jihatlarini o'zida jamlovchi integratsiyalashgan yondashuv haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1-jadval

To'rtta davlatda fond indeksidagi o'zgaruvchanlik⁵⁴

Chiqish	Shanghai Composite (China)	FTSE Straits Time (Singapore)	Nikkei (Japan)	SET (Thailand)
Funktsiya	Risk chiqishi (Shanghai Composite)	Risk chiqishi (FTSE Straits Time)	Risk chiqishi (Nikkei)	Risk chiqishi (SET)
Eng kam	2737.9539	257.7610	19,247.1191	1222.7189
Eng ko'p	3293.7204	300.5103	22,498.3233	1401.3496
Ayni paytda	2983.7801	275.9812	20,852.3166	1310.2771
O'rtacha	3030.4676	274.4272	20,959.9941	1309.6483
Standart og'ishlar	89.8914	6.6155	531.5557	28.4283
Farqlanish	8080	43.77	282,551	808.2
Egrilik	0.1449	0.2079	0.1323	0.0503
Kurslari	3.0021	3.2586	2.8229	3.0590

1-jadvalda dispersiya va standart og'ish qiymatlari bo'yicha Singapurdagi FTSE Straits Time Shanxay Composite, Nikkei va SET Thailand bilan solishtirganda eng past dispersiyaga (43,77) va

⁵² Qulmatov Ch., To'ychiyev N. Xalqaro kapital bozori rivojlanishining tendensiyalari. Экономика. Научно-аналитический электронный журнал. Выпуск № 2. Июль 2022 года. e-journal.uz www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 845

⁵³ Ahmed Imran Hunjra, Ploypailin, Kijkasiwat, Muruges Arunachalam Helmi Hammami Covid-19 health policy intervention and volatility of Asian capital markets <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0040162521002729>

⁵⁴ <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0040162521002729#tbl0002>

standart og'ishlarga (6,615) ega ekanligini bildiradi. Biroq Nikkei eng yuqori dispersiya (282.551) va standart og'ishlar (531.550) haqida xabar beradi. FTSE Straits Time (Singapur) aksiya baholarida Shanxay Composite (Xitoy), Nikkei (Yaponiya) va SET (Tailand), Nikkei bilan solishtirganda kichikroq o'zgarishlarga duch keldi. (Yaponiya) qimmatli qog'ozlar bahosidagi eng yuqori o'zgarishlarni boshdan kechirdi.

1-jadvaldagi egrilik qiymatlari Shanxay kompozitsiyasi (0,144), FTSE Straits Time (0,2079) va Nikkei (0,1323) bilan solishtirganda SET (0,050) holatida egrilik eng past va nolga yaqin ekanligini ko'rsatadi. Bu shuni ko'rsatadiki, Tailanddagi aksiya baholari normal taqsimotga amal qiladi va shuning uchun Xitoy, Singapur va Yaponiyaga nisbatan kamroq o'zgaruvchan. Tailandda aksiyalar narxining eng yuqori o'zgarishlari ijtimoiy masofalash siyosati tufayli yuzaga keladi, natijada blokirovka siyosatidan keyin 0,3178 foiz punktga o'zgardi. Yaponiyadagi vaziyat boshqacha, bu yerda blokirovka siyosati aksiya bahosining eng yuqori o'zgarishiga olib keldi va natijada 0,4387 foiz punktga o'zgardi. Singapurda parvozlar/sayohatlarni cheklash siyosati 0,333 foiz punktga o'zgarish bilan aksiyalar narxidagi eng yuqori o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Qimmatli qog'ozlar narxining o'zgarishiga eng kam ta'sir ko'rsatgan ikkita siyosat ijtimoiy uzoqlashish va blokirovka edi.

Qimmatli qog'ozlar iqtisodiyotda o'z ahamiyati, o'zni va funksiyalarini allaqachon isbotlaganligiga qaramay, ularning mazmuni to'g'risida hanuzgacha qizg'in bahslar davom etmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda va so'zlashuvda qimmatli qog'ozlar bozori va fond bozori tushunchalari ko'plab uchraydi.

Iqtisodchi E.Jukovning fikricha, "hozirgi paytda qimmatli qog'ozlarning iqtisodiyotni moliyalashtirishda ishtirok etuvchi uchta bozori mavjud: birjadan tashqari, fond (birja) va ko'cha bozori".⁵⁵

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqqan holda, "fond bozori" va "qimmatli qog'ozlar bozori"ni bir xil mazmundagi tushunchalar sifatida qarashni o'rinli, deb hisoblaymiz. Bir vaqtning o'zida qimmatli qog'ozlar fond bozori (qimmatli qog'ozlar bozori)da harakatlanadi.

Fond bozorida bir paytning o'zida bozor aylanmasining obyekti hamda tomonlarga mulkiy va boshqa turdagi huquqlar bilan birga, majburiyatlarni ham berish xususiyatiga ega bo'lganligi bois, ularning iqtisodiy mohiyatini aniqlashda ushbu iqtisodiy hodisaning ham iqtisodiy, ham yuridik jihatlarni o'zida jamlovchi integratsiyalashgan yondashuv haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fond bozoridagi instrumentlar yani bo'sh turgan pul mablag'larini to'plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish, so'ngra uni ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilari (banklar, korxonalar, firmalar, shuningdek, mamlakat aholisi) o'rtasida taqsimlash munosabatlari: qimmatli qog'ozlar, korxonalarning aksiyalari hamda davlat obligatsiyalari bilan oldi-sotdi operatsiyalari olib boriladi. Fond bozori pul kapitalining qayta taqsimlanishida ishtirok etadigan banklar, fond birjalari va boshqa moliya-kredit muassasalari majmuini o'z ichiga oladi. Kapital bozori pul bozori bilan birga iqtisodiyotning tarmoqlari va hukumat uchun tashqi kapital manbai hisoblanadi, ssuda kapitaliga talab va taklifni shakllantiradi.

Kapital bozori kompaniyalar va davlatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari bilan ham shug'ullanadi. Kapital bozori qimmatli qog'ozlarni sotuvchilar va sotib oluvchilar, ixtisoslashgan fond brokerlari, savdo va tijorat banklari, markaziy bank, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya kompaniyalari, sanoat korxonalari, xorijiy investorlar, korxonalar, tashkilotlar ishtirok etadilar. Manbalar va kiritilgan sohalariga qarab xalqaro va milliy kapital bozorlari bor (valyuta bozori, birja).

Kapital bozori ikki asosiy vazifani bajaradi:

a) birlamchi bozor yoki yangi emissiya bozori, bunda investitsiya va boshqa maqsadlar uchun zarur bo'ladigan kapital yangi aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish hisobiga shakllantiriladi;

⁵⁵ Рынок ценных бумаг. /Под-ред. Е.Ф. Жукова. – М.: ЮНИТИ, 2003. – С.13.

b) ikkilamchi bozor, bunda mavjud qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar olib boriladi. Ikkilamchi bozor qimmatli qog'ozlarni sotuvchilardan xaridorlar qo'liga o'tishni yengillashtiradi. Kapital bozori mamlakat moliya tizimida muhim o'rin egallab, aholining jamg'arilgan mablag'larini investitsiyalarga va investitsiyalarni qimmatli qog'ozlar portfeliga aylantirish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda 200 dan ortiq brokerlik idoralariga ega bo'lgan "Toshkent" fond birjasi 1994 yildan boshlab qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanadi.

Kapital bozori (qimmatli qog'ozlar bozori) moliya tizimining asosiy bo'g'ini sifatida uning barqarorligini ta'minlash, mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois rivojlangan mamlakatlarda undan iqtisodiyotga investitsiya jalb qilishning asosiy vositalaridan biri sifatida keng foydalaniladi. Negaki, kapital bozori rivojlanmasa, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hamda investitsiyaviy faollikni oshirish borasidagi barcha harakatlar besamar ketadi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni bilan mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yuzasidan aniq vazifalar belgilab berilganligi kapital bozorini taraqqiy ettirish borasida muhim qadam bo'ldi, deyish mumkin.

Har qanday biznes subyekti, u xoh jismoniy, xoh yuridik shaxs bo'lsin, o'zining biron tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun aksariyat holatlarda qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi. Bizga ma'lumki, bugungi kunda ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish manbasi sifatida davlat tomonidan beriladigan mablag'lar yoki tijorat banklarining kreditlari asosiy dastak vazifasini bajarib kelmoqda. Shuning uchun ham moliyaviy bozorni taraqqiy ettirish bo'yicha hukumatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri kapital bozorini rivojlantirish, qaysidir ma'noda uni bozor iqtisodiyotining samarali elementiga aylantirish va harakatga keltirish masalasi hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilishi belgilangan ishlarning normativ-huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"dagi PQ-90-sonli Qarorini keltirib o'tish o'rinli. Ushbu me'yoriy hujjatda kapital bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilar⁵⁶.

- kapital bozorining raqobatbardoshligini oshirish va uning kapitallashuvini 2023-yil yakuniga qadar 45 trln. so'mga yetkazish, bank tomonidan kreditlashga muqobil bo'lgan samarali moliyalashtirish mexanizmini yaratish;

- xalqaro moliya bozorlari bilan faol integratsiyalashuv, zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish va xorijda muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan ilg'or yondashuvlarni qo'llash orqali barcha toifadagi investorlar uchun kapital bozorining qulayligini oshirish;

- kapital bozorining uyg'un faoliyati va uning barcha segmentlari rivojlanishini ta'minlash orqali 2023-yil yakuniga qadar respublika va hududiy investitsiya dasturlari doirasida loyihalarning qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali moliyalashtirilgan qismini 5 foizga yetkazish belgilangan;

- sohaga ilg'or xalqaro amaliyotni joriy qilish, ortiqcha to'siqlar va cheklovlarni bartaraf etish orqali fond bozorida rivojlanish maqsadlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni faol moliyalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; xalqaro mezonlar va tajribalarni joriy qilgan holda, kapital bozorini tartibga solishning yaxlitligini va tizimli tavakkalchiliklarning oldini olishni ta'minlovchi qonunchilik bazasini yaratish;

- kapital bozorini zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish, istiqbolli, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish uchun jozibador shart-sharoitlarni yaratish;

- kapital bozori uchun soha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tizimli yo'lga qo'yish;

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"dagi PQ-90-son Qarori. <http://lex.uz/uz/docs/-6590025> Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida

- minoritar investorlar, kapital bozorining boshqa ishtirokchilari hamda aholi keng qatlamlarining bilimlari, ko'nikmalari va moliyaviy savodxonligini oshirishni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida 2023-yil yakuniga qadar 40 ming nafar aholini qamrab olish belgilangan edi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, samarali faoliyat ko'rsatuvchi fond bozori instrumentlari iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir. Rivojlangan fond bozori instrumentlari korxonalarga katta hajmdagi sarmoya talab qiluvchi loyihalarni moliyalashtirishda risklarni munosib baholash va diversifikatsiyalash, mablag'larni samarali jalb qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, fond bozori iqtisodiy tendensiyalarning indikatori bo'lib xizmat qilishi mumkin, bu esa manfaatdor tomonlarga (shu jumladan, hukumatga) o'zining harakatlar strategiyasini ishlab chiqish va samarali amalga oshirilishiga imkon beradi.

Fond bozorini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy elementlaridan biri fond bozori to'g'risidagi qonunchilikning uning ishtirokchilari tomonidan amal qilinishi ustidan nazoratdir. Nazorat organlari tajribasi hamda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari faoliyatini umumlashtirish bo'yicha nazorat elementlarini uslubiy jihatdan tizimlashtirish lozimdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha, fond bozorini davlat tomonidan tartibga solish tizimini bilvosita (to'g'ridan-to'g'ri) va bevosita usullarga ajratish mumkin.

Rivojlanayotgan va rivojlangan fond bozorlari instrumentlari tahlili shuni ko'rsatdiki, iqtisodiyot pul resurslari bilan qanchalik to'yingan bo'lsa, xo'jalik aylanmasida qimmatli qog'ozlar komponenti shunchalik yuqori bo'ladi, yalpi ichki mahsulotga nisbatan fond bozori kapitallashuvi shunchalik yuqori bo'ladi.

Fond bozorining instrumentlari rivojlanishi bevosita iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish siyosatiga bog'liq, ammo rivojlanayotgan mamlakatlar har doim ham to'g'ri va malakali siyosat olib boravermaydi. Zamonaviy sharoitda mamlakatning iqtisodiy o'sishi ushbu iqtisodiyot tovar va moliya bozorlarining jahon bozorlariga dinamik ravishda integratsiyalashuviga bevosita bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida bozorlarni erkinlashtirishni talab etadi. Biroq moliya sektorini erkinlashtirish bozor riski (tavakkalchiligi) ko'lamini hisobga olgan holda mutanosib ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak.

Rivojlanayotgan fond bozorini rivojlangan bozorga aylantirishning texnik vazifalari quyidagilardan iborat: jahon fond bozoriga samarali integratsiya qilish uchun zarur infratuzilmani ta'minlash va fond bozoridagi faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish. Ko'pgina rivojlanayotgan fond bozorlariga xos bo'lgan muammo shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlarda odatda fond bozori instrumentlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan davlat va jamiyatning e'tibori yetarli darajada bo'lmaydi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi. Binobarin, fond bozoridagi instrumentlari rivojlanganligi uning mamlakat uchun qanchalik dolzarb va muhim ekanligiga bevosita bog'liq bo'lib, bu davlatning xohish va qat'iyatida o'z aksini topadi. Shuningdek, davlatning siyosiy qo'llab-quvvatlashi milliy fond bozori manfaatlarini xalqaro moliya bozorlarida himoya qilish shaklida ham ayniqsa muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shakat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi . 2018-yil 28-dekabr.
2. Алехин, Б. И. Рынок ценных бумаг: учебник и практикум для вузов / Б.И. Алехин. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2023. – 497 с.
3. Шохазамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга 1. Учебник.-Т.: Iqtisod-moliya, 2005.-с.13, 31-34.
4. Бутиков И.Л.. Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистана. БФА.: Диссертация на соискание ученой степени доктор экономического наук. Тошкент.: 2009.г. 416 стр.
5. Xojimatov R.X. Fond bozorini rivojlantirish xususiyatlari va istiqbolli bank vositalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019-yil.

6. Qulmatov Ch., To'ychiyev N. Xalqaro kapital bozori rivojlanishining tendentsiyalari. Экономика. Научно-аналитический электронный журнал. Выпуск № 2. Июль 2022 года. e-journal.uz www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 845
7. Azizov U.O'. "Kapital bozori: Iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi drayver" <https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-biznes-uz/6939-kapital-bozori-itisodijsishni-ta-minlovchi-drajver>.
8. Elmirzayev S.E. va boshqalar. Moliya bozori. Darslik /– T.: "IQTISODMOLIYA", 2019.–324 b.
9. Xasanov X.N. Iqtisodiyotning korporativ sektoriga kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilish amaliyotini takomillashtirish. Iqt. fan. bo'y. fal. dok. (Ph.D).Avtoref. – T., 2020.
10. Берзон Н.И., Буянов Е.А. Рынок капитала. – М.: «VITI-PRESS», 2006. С. 28.
11. Белоглазова Г.Н. Деньги, кредит, банки. – М.: Высшее образование. 2009. – С. 392.
12. Shomirov A. Kapital bozorini ekstensiv rivojlantirish istiqbollari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №1, fevral, 2022 yil. ISSN: 2181-1016
13. Liu, Q., Wang, C., Zhang, P., Zheng, K. Detecting stock market manipulation via machine learning: Evidence from China Securities Regulatory Commission punishment cases International Review of Financial Analysis, Volume 78, November 2021. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1057521921002143#>!
14. Ahmed Imran Hunjra, Ploypailin, Kijkasiwat, Muruges Arunachalam Helmi Hammami Covid-19 health policy intervention and volatility of Asian capital markets <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0040162521002729>
15. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0040162521002729> 15
16. Рынок ценных бумаг. /Под.ред. Е.Ф. Жукова. – М.: ЮНИТИ, 2003. – С.13.
- Sultonov, Sherali, ET AL. "Development ways of stock market in Uzbekistan (in the case of "TASHKENT" republican stock exchange)." Journal of Critical Reviews 7.11 (2020): 1476-

BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA UNI TA'MINLASHDA RAQAMLI MENEJMENT VA MARKETINGNING KONSEPTUAL JIHATLARI

Abdullayev Abror Bozorbayevich

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi, PhD

Mamatov Mirzohid Maxmudovich

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi

Isroilov Isroil Ixtiyor o'g'li

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi

Raqamlashtirish sanoat va iste'molchilarning xatti-harakatlarini tez o'zgartirayotgan davrda barqaror amaliyotlarning integratsiyasi uzoq muddatli muvaffaqiyatga intilayotgan korxonalar uchun zarur bo'lib qoldi. Ushbu maqola raqamli boshqaruv va marketing strategiyalarining barqaror iqtisodiy o'sishga qanday hissa qo'shishi mumkinligining kontseptual jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, korxonalar nafaqat samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishi, balki ekologik izini kamaytirishi va jamiyat farovonligiga hissa qo'shishi mumkin. Adabiyotlarni keng qamrovli tahlil qilish orqali ushbu maqola ushbu chorrahaning hozirgi tushunchasi haqida tushuncha berishga va tadqiqot va amaliyotning kelajakdagi yo'nalishlarini yoritishga intiladi.

Barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida raqamli menejment va marketing bo'yicha adabiyotlar jadal rivojlanib bormoqda, bu biznes strategiyalarida barqarorlikning ahamiyati tobora ortib borayotganini aks ettiradi. Olimlar ushbu chorrahaning turli jihatlarini, jumladan, katta ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va barqaror ta'minot zanjirini boshqarish, energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va yashil marketing tashabbuslari uchun blockchain kabi raqamli texnologiyalarni

o'zlashtirishni o'rganishdi. Bundan tashqari, tadqiqotlar raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning barqaror iste'mol modellarini osonlashtirish va manfaatdor tomonlarning ishtirokini kuchaytirishdagi rolini ta'kidladi.

Ushbu tadqiqotda qo'llaniladigan usullar tegishli ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqilgan jurnallar, konferensiya materiallari va sanoat hisobotlaridan muntazam ravishda ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Qidiruv so'rovlari "raqamli menejment", "raqamli marketing", "barqarorlik" va "iqtisodiy o'sish" kabi kalit so'zlar yordamida tuzilgan. Inklyuziya mezonlari so'nggi o'n yil ichida raqamli texnologiyalarni barqaror biznes amaliyoti bilan birlashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni qamrab oldi. Tegishli maqolalar tadqiqot mavzusiga aloqadorligi va metodologiyasining qat'iyligi asosida tanlab olindi.

Raqamli menejment va marketing barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mana ba'zi konseptual jihatlar:

1. Ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish: raqamli boshqaruv korxonalarga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Ma'lumotlar tahlilidan foydalangan holda, korxonalar resurslarni taqsimlash, mahsulotni ishlab chiqish va marketing strategiyalari to'g'risida xabardor qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bu operatsiyalarni optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish va barqaror amaliyot imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

2. Maqsadli marketing va shaxsiylashtirish: raqamli marketing korxonalarga aniq demografikani yo'naltirishga va marketing xabarlarini shaxsiylashtirishga imkon beradi. Iste'molchilarning afzalliklari va xatti-harakatlarini tushunib, korxonalar barqaror mahsulotlar va amaliyotlarni targ'ib qilish uchun marketing harakatlarini moslashtirishlari mumkin. Bunga ekologik toza mahsulotlarni targ'ib qilish, korporativ ijtimoiy mas'uliyat tashabbuslarini ta'kidlash va iste'molchilarga barqarorlik masalalari to'g'risida ma'lumot berish kiradi.

Maqsadli marketing va shaxsiylashtirish haqiqatan ham raqamli marketing landshaftida kuchli vositadir, ayniqsa barqaror mahsulotlar va amaliyotlarni targ'ib qilishda. Ma'lumotlar tahlili va iste'molchilarning tushunchalaridan foydalangan holda, korxonalar maqsadli auditoriyasi bilan rezonanslashadigan yanada samarali va ta'sirchan marketing kampaniyalarini yaratishi mumkin.

Masalan, ekologik toza tozalash vositalarini sotadigan kompaniya barqarorlik va ekologik toza mahsulotlarga qiziqqan iste'molchilarga erishish uchun maqsadli marketingdan foydalanishi mumkin. Ular o'zlarining xabarlarini o'zlarining maqsadli auditoriyasining qadriyatlariga mos keladigan toksik bo'lmagan va biologik parchalanadigan mahsulotlarning afzalliklarini ta'kidlash uchun shaxsiylashtirishlari mumkin.

Bundan tashqari, korxonalar iste'molchilarga barqarorlik masalalari va ekologik jihatdan ongli tanlov qilishning ahamiyati to'g'risida ma'lumot berish uchun raqamli marketingdan foydalanishlari mumkin. Bu xabardorlikni oshirishga va barqaror mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirishga yordam beradi va natijada barqaror kelajakka hissa qo'shadi.

Umuman olganda, maqsadli marketing va shaxsiylashtirish korxonalar barqarorlikni targ'ib qilish va iste'molchilarni mazmunli yo'llar bilan jalb qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan qimmatli vositalardir.

3. Onlayn mavjudlik va brendlash: veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochta marketingi kabi raqamli marketing kanallari orqali kuchli onlayn mavjudlikni o'rnatish korxonalar uchun kengroq auditoriyani qamrab olish va brend xabardorligini oshirish uchun juda muhimdir. Barqarorlik harakatlari va qadriyatlarini samarali etkazish orqali korxonalar ekologik ongli iste'molchilarni jalb qilishlari va raqobatchilardan ajralib turishlari mumkin.

Kuchli onlayn mavjudligini o'rnatish va samarali brendlash bugungi raqamli landshaftda rivojlanmoqchi bo'lgan korxonalar uchun muhim tarkibiy qismlardir. Barqarorlik harakatlari va qadriyatlariga e'tibor qaratish ushbu strategiyani qanday kuchaytirishi mumkin:

Veb-saytni optimallashtirish: veb-saytingiz barqarorlikka bo'lgan sadoqatingizni aks ettirishiga ishonch hosil qiling. Barqarorlik tashabbuslari, ekologik toza amaliyotlar va har qanday sertifikatlar yoki ekologik tashkilotlar bilan hamkorlikni batafsil bayon etishga bag'ishlangan

bo'limlar yoki sahifalarni qo'shing. Qidiruv tizimining ko'rinishini yaxshilash uchun saytingizni barqarorlik bilan bog'liq kalit so'zlar uchun optimallashtiring.

Ijtimoiy tarmoqlarni jalb qilish: barqarorlik harakatlaringizni muntazam ravishda namoyish qilish uchun ijtimoiy media platformalaridan foydalaning. Ekologik toza amaliyotlaringiz bilan bog'liq yangilanishlar, sahna ortidagi ko'rinishlar va muvaffaqiyat hikoyalari baham ko'ring. Munozaralarni rag'batlantirish, savollarga javob berish va barqarorlik tashabbuslari haqida fikr-mulohazalarni so'rash orqali tinglovchilaringiz bilan bog'laning.

Kontent marketingi: tinglovchilaringizni barqarorlik mavzulariga o'rgatadigan va ilhomlantiradigan tarkib yarating. Blog postlari, infografika, video va podkastlar sizning brendingizning ekologik javobgarlikka sodiqligini etkazish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Ekologik ongli iste'molchilarni jalb qilish va saqlab qolish uchun ushbu tarkibni raqamli kanallaringizda baham ko'ring.

Elektron pochta marketingi: barqarorlik xabarlarini elektron pochta marketing kampaniyalaringizga qo'shing. Obunachilaringizni xabardor qilish va jalb qilish uchun barqarorlik bilan bog'liq aniq tashabbuslar, aktsiyalar yoki tadbirlarni ta'kidlang. Dolzarbligi va samaradorligini oshirish uchun abonent preferensiyalar va xatti asoslangan elektron pochta shaxsiylashtirish.

Hamkorlik va hamkorlik: barqarorlik haqidagi xabaringizni kuchaytirish uchun fikrlovchi tashkilotlar, ta'sir o'tkazuvchilar yoki faollar bilan hamkorlik qiling. Ekologik ongli brendlar bilan hamkorlik qilish yoki ekologik kampaniyalar va tadbirlarda qatnashish sizning imkoniyatlaringizni kengaytirishga va ijtimoiy mas'uliyatli biznes sifatida ishonchingizni mustahkamlashga yordam beradi.

Mijozlarni jalb qilish va fikr-mulohazalar: fikr-mulohazalar, g'oyalar va takliflarni so'rash orqali barqarorlik sayohatingizda mijozlarning ishtirokini rag'batlantiring. Jamoatchilik faolligini oshirish va shaffoflik va doimiy takomillashtirishga sodiqligingizni namoyish etish uchun barqarorlikka qaratilgan interaktiv tadbirlar, so'rovlar yoki tanlovlarni o'tkazing.

O'lchov va hisobot: tegishli ko'rsatkichlar va asosiy ishlash ko'rsatkichlari (KPI) yordamida barqarorlik harakatlaringiz ta'sirini muntazam ravishda kuzatib boring va baholang. Ishonch va hisobdorlikni oshirish uchun yillik barqarorlik hisobotlari, veb-sayt yangilanishlari va ijtimoiy tarmoqlardagi postlar orqali o'z yutuqlaringiz va yutuqlaringizni manfaatdor tomonlarga oshkora xabar qiling.

Barqarorlikni onlayn mavjudligingiz va brending strategiyangizga qo'shib, siz nafaqat ekologik ongli iste'molchilarni jalb qilishingiz, balki raqobatbardosh bozorda o'z biznesingizni farqlashingiz va sayyoraga ijobiy hissa qo'shishingiz mumkin.

4. Ta'minot zanjiri shaffofligi: raqamli boshqaruv tizimlari tovarlar va materiallar oqimini manbadan manzilga kuzatib borish orqali ta'minot zanjiri shaffofligini oshirishi mumkin. Ushbu shaffoflik korxonalarga samarasizlikni aniqlash, xatarlarni kamaytirish va barqarorlik standartlariga muvofiqligini ta'minlashga imkon beradi. Ta'minlovchilar va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish orqali korxonalar barqaror ta'minot zanjirlarini yaratish ustida ishlashlari mumkin.

5. Mijozlarni jalb qilish va o'qitish: raqamli marketing korxonalar uchun mijozlar bilan muloqot qilish va ularga barqaror amaliyot haqida ma'lumot berish uchun platformalar yaratadi. Interfaol tarkib, ta'lim kampaniyalari va jamoat tashabbuslari orqali korxonalar atrof-muhit muammolari to'g'risida xabardorlikni oshirishi va iste'molchilarni barqaror xatti-harakatlarni qabul qilishga undashi mumkin. Ushbu kelishuv ekologik ongli iste'molchilar o'rtasida sodiqlik va targ'ibotni rivojlantiradi.

6. Innovatsiya va hamkorlik: raqamli platformalar butun dunyo bo'ylab biznes, tadqiqotchilar va siyosatchilarni bog'lash orqali innovatsiya va hamkorlikni osonlashtiradi. Ochiq innovatsion tashabbuslar orqali korxonalar barqaror texnologiyalar, biznes modellari va global muammolarni hal qilishda hamkorlik qilishlari mumkin. Raqamli boshqaruv tizimlari turli manfaatdor tomonlar o'rtasida samarali aloqa, bilim almashish va hamkorlik qilish imkonini beradi.

7. Ta'sir va hisobdorlikni o'lchash: raqamli boshqaruv tizimlari korxonalarga barqarorlik tashabbuslarining ta'sirini o'lchash va maqsadlar sari taraqqiyotni kuzatish imkonini beradi.

Ishlashning asosiy ko'rsatkichlari (KPI) va o'lchovlardan foydalangan holda, korxonalar o'z strategiyalarining samaradorligini baholashlari va takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashlari mumkin. Ushbu javobgarlik manfaatdor tomonlar, shu jumladan, investorlar, mijozlar va tartibga soluvchilar o'rtasida shaffoflik va ishonchni kuchaytiradi.

Raqamli menejment va marketing ma'lumotlarga asoslangan qarorlarni qabul qilish, maqsadli marketing, ta'minot zanjiri shaffofligi, mijozlarni jalb qilish, innovatsiyalar va hisobdorlikni ta'minlash orqali barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omilidir. Raqamli texnologiyalarni o'zlashtiradigan va barqarorlikni o'z operatsiyalari va marketing strategiyalariga qo'shadigan korxonalar tez o'zgaruvchan global landshaftda rivojlanish uchun yaxshi joylashtirilgan.

Topilmalar barqaror iqtisodiy o'sishni rivojlantirishda raqamli boshqaruv va marketing strategiyalarining muhim imkoniyatlarini ta'kidlaydi. Biroq barqarorlik uchun raqamlashtirishning afzalliklaridan to'liq foydalanish uchun raqamli bo'linish, ma'lumotlar maxfiyligi va texnologik to'siqlar kabi muammolarni hal qilish kerak. Bundan tashqari, innovatsiyalarni rivojlantirish va barqaror echimlarni kengaytirish uchun fanlararo hamkorlik va tarmoqlararo hamkorlikka ehtiyoj bor. Raqamli texnologiyalardan strategik foydalanish va barqarorlikka yaxlit yondashuvni qo'llash orqali korxonalar uzoq muddatli rentabellik va barqarorlikni ta'minlash bilan birga jamiyat uchun qiymat yaratishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli menejment va marketing strategiyalarining integratsiyasi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun istiqbolli imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamlashtirishni qabul qilish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirishi, innovatsiyalarni boshqarishi va ekologik va ijtimoiy maqsadlarga hissa qo'shishi mumkin. Biroq ushbu potensialni amalga oshirish siyosatchilar, korxonalar va fuqarolik jamiyatidan mavjud to'siqlarni bartaraf etish va mas'uliyatli raqamlashtirishga ko'maklashish uchun birgalikda harakatlarni talab qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar rivojlanayotgan texnologiyalarning ta'sirini o'rganishga qaratilishi kerak narsalar Interneti (IoT) va virtual haqiqat barqarorlik natijalariga va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda raqamli strategiyalarning samaradorligini o'lchash uchun asoslarni ishlab chiqish.

Ushbu maqola barqaror iqtisodiy o'sishda raqamli menejment va marketingning konseptual jihatlarini haqida to'liq ma'lumot beradi, raqamlashtirish va barqarorlik o'rtasidagi sinergiyani ta'kidlaydi va kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari va biznes va siyosatchilar uchun amaliy ta'sirlarni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Cahyono, B., Haryono, A. T., & Malik, D. (2016). Analisa kekuatan strategi pemasaran melalui online marketing, offline marketing dan service Excellent terhadap loyalitas konsumen PT. Adinata graha raya kaliwungu dengan Kepuasan Konsumen Sebagai Variabel Intervening. *Jurnal Ekonomi dan Bisnis Kontemporer*, 2(1).
2. Daiya, A., & Roy, S. (2016). User and firm generated content on online social media: A review and research directions. *International Journal of Online Marketing (IJOM)*, 6(3), 34-49.
3. Fauzi, A., & Oxtavianus, A. (2014). Pengukuran pembangunan berkelanjutan di Indonesia. *Mimbar: Jurnal Sosial dan Pembangunan*, 30(1), 42-52.
4. Hirano, S. (2003). United Nations Conference on Environment & Development-Rio de Janeiro, Brazil, 3 to 14 June 1992.
5. Jovic, M., & Novčić, B. (2016). Marketing and sustainable development. In XV International Symposium SYMORG.
6. Kotler, P., & Armstrong, G. (2014). *Principles of Marketing* (15th ed.). Pearson.
7. Lee, N., Broderick, A. J., & Chamberlain, L. (2007). What is 'neuromarketing'? A discussion and agenda for future research. *International journal of psychophysiology*, 63(2), 199-204.
8. Marcel, M., & Dragan, M. (2014, June). Sustainable marketing for sustainable development. In *Proceedings of the 11th International Academic Conference in Reykjavik* (pp. 230-248).
9. Martin, D. M., & Schouten, J. W. (2014). Sustainable marketing through the natural step. In *Humanistic Marketing* (pp. 231-243). Palgrave Macmillan, London.

10. Moleong, L. J. (2014). Metode penelitian kualitatif edisi revisi. Bandung: PT Remaja Rosdakarya.
11. Musfar, T. F. (2020). Buku Ajar Manajemen Pemasaran: Bauran Pemasaran sebagai Materi Pokok dalam Manajemen Pemasaran. Media Sains Indonesia.
12. Qurniawati, R. S. (2018). Theoretical Review: Teori Pemasaran Hijau. Among Makarti, 10(2).
13. Rahadian, A. H. (2016, February). Strategi pembangunan berkelanjutan. In Prosiding Seminar STIAMI (Vol. 3, No. 1, pp. 46-56).

MOLIYAVIY BOZORINING HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Abrueva Sevinch Akbar qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti
Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Hozirgi kunda, moliya bozorini tijorat banklari tomonidan investitsiya va emission faoliyatini rivojlantirish bir maromda va xatarsiz muomalada bo'lishi uchun mazkur sohaga oid qonuniy me'yorlarni davr talablari darajasida ishlab chiqish hamda ularni doimiy ravishda takomillashtirib borishni, oddiy fuqarodan tortib, davlat organlarigacha qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari tomonidan qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishni o'zida uyg'unlashtiruvchi tizim zarur asosda tadqiq qilish zarurligini yuzaga keltiradi.

B. Sattarov fikriga ko'ra, "Moliya bozori - bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq tashkillashgan iqtisodiy - huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiyot subyektlari uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo'luvchi tizim"⁵⁷ deb ta'kidlagan. "Moliya bozori moliyaviy vositalardan foydalangan holda moliyaviy bitimlarni amalga oshirish sohasi. Moliya bozori - ortiqcha mablag'larga ega odamlardagi pul mablag'larini pul mablag'lari yetishmayotganlarga o'tkazib berishga xizmat qiluvchi bozor"⁵⁸dir deb ta'riflagan.

Prezidentimiz tomonidan "2020-2025-yillarda moliya bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va erkin muomaladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatini 2025-yil oxiriga qadar kamida 10-15 foizga yetkazish kun tartibidagi asosiy masala ekanligi ta'kidlandi". Bunday ustuvor va dolzarb vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatimizda moliya bozorining xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish hamda moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Moliya bozorini samarali tashkil etish va boshqarishda tartibga solish jarayoni juda muhim, ammo u haddan tashqari qat'iylashtirilmasligi zarur. Ushbu bozor rivojlanishi uchun uning ishtirokchilari ko'lamini kengaytirish va bu jarayon listing talabiga javob bermaydigan korxonalar hisobiga amalga oshirilmasligi darkor.

Moliyaviy resurslarni jalb qilish jarayonida foydalaniluvchi moliyaviy instrumentlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotning korporativ sektorida kapital bozori segmentlarining o'zaro munosabatlari shakllanadi. O'z navbatida, segmentlar o'zaro ta'sirining xususiyatlari va darajasini tahlil qilish qimmatli qog'ozlar bozori va kredit bozorining (kuchli, o'rta, zaif) uch turdagi o'zaro bog'liqligini aniqlash va tavsiflash imkonini beradi. Lekin har qanday bozorni u yoki bu belgi asosida tasniflanishining mazmuni uning tovari xususiyatlari bilan bog'liq holda amaliy ahamiyati bilan belgilanishini hisobga olsak hamda, agar ko'rilayotgan bozor turlaridagi tovarlarni xususiyati, kelib chiqishi va ularning bozor muomalasini bir-biri bilan taqqoslaydigan bo'lsak, albatta sezilarli farq namoyon bo'ladi. Masalan, ishlab chiqariladigan tovarlar muomalasi

⁵⁷ Xolmo'minov Sh.R., Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. -T.: "Fan va texnologiyalar", 2016. 150-155

⁵⁸ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik (Toshkent) Moliya instituti. - Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet.

uchun ularga hos bo'lgan bozor zarur, qimmatli qog'ozlar uchun esa faqat moliya bozori, pul (valyuta) va kreditlar uchun mos ravishda pul bozori va kreditlar bozori bo'lishi kerak va h.k. Bunda real tovar, moliya instrumentlaridan farqli, bir yoki bir necha marotaba oldi-sotti bo'ladi, qimmatli qog'ozlar esa cheklanmagan martta oldi-sotti bo'lishi mumkin.

Mamlakatimiz tijorat banklari jami resurslari tarkibida muomalaga chigarilgan qimmatli qog'ozlari hisobidan shakllantirilgan moliyaviy resurslar, tahlil etilayotgan davr mobaynida juda zaif bo'lib, faqatgina 2020-yil 1-yanvar holatiga 1,3 foizni tashkil etgan, unga qadar bo'lgan yillar davomida ushbu ko'rsatkich bundan ham past darajada bo'lgan. MDH mamlakatlari qimmatli qog'ozlar bozori savdo aylanmalarining YIMga solishtirib ko'radigan bo'lsak O'zbekistonda 1,2%, Qog'og'istonda 1,5%, Qirg'izistonda 1,1%, Rossiyada 5,4% dan iborat ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori savdo aylanmalarining ishtirokchilari sifatida MDH mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda ham, asosan, banklar hisoblanadi. Masalan, mamlakatimiz fond birjasida 2019-yilda qimmatli qog'ozlar bozori savdo aylanmalari jami 438,8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, shuning qariyb 319,5 mlrd so'mi yoki 72,8 foizi tijorat banklari hissasiga to'g'ri kelgan. 2022-yilda iqtisodiyotning 10 ta turli xil soha aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari bilan birja savdolari amalga oshirildi. Eng ko'p bitimlar bank va sanoat sektorlari emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirildi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan 26042 ta bitim tuzildi, bu birja bitimlari umumiy sonining 32,26 foizini tashkil etdi. Sanoat tarmog'idagi 9ta emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan 21 247 ta bitim tuzildi (birja bitimlari umumiy sonining 26,32 foizi)⁵⁹. Milliy moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish muammosi iqtisodiyotni modernizatsiyalash, barqaror industrial va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiyani pasaytirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish zarurligidan kelib chiqadi. Ushbu muammoni samarali yechimi moliya bozorining raqobatbardoshligi va xavfsizligi, barqarorligi va likvidligi, investorlar uchun jozibadorligi va risksizligi darajasini ta'minlash bilan uzviy bog'liq. Bunda turli tashqi va fundamental ichki omillar ta'sirini hisobga olish muhim hisoblanadi⁶⁰.

Hozirda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va uzluksiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqiyosida globallashtirib borayotgan alohida bir butun va o'z muhitiga ega munosabatlar va institutlar majmuasi sifatida namoyon bo'luvchi murakkab tizim ekanligi aniq bo'lmoqda. Bunda moliya bozorlari na faqat milliy iqtisodiyot rivojini, balki global iqtisodiyot rivojini ham belgilamoqda. Bunga tasdiq sifatida iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va moliya bozorining o'zaro bog'liqligini keltirish mumkin.

Uning mazmun-mohiyati quyidagi kontseptual tushuncha va gonuniyatlar asosida belgilanadi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda moliya bozori orgali, bir tomondan davlat korxona va tashkilotlar, aholi o'zlari uchun zarur bo'lgan mablag'ni jalb qilsalar, ikkinchi tomondan korxona, tashkilot va aholi o'zlarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini qimmatbaho qog'ozlar sotib olishga yo'naltirib foyda ko'radilar. Bu esa moliyaviy resurslarning harakatini ta'minlab, iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Moliya bozorining investitsion faolligini oshirish, nafaqat, aktivlar qiymati va savdo hajmlarining o'sishi bilan birga olib borilishi kerak, balki qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari faoliyati ta'minlanishi zarur. Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish moliyaviy resurslarni faollashtirishga, ulardan oqilona foydalanishga va iqtisodiy rivojlanishni bir muncha tezlashtirish uchun qayta taqsimlashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik (Toshkent) Moliya instituti. - Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet.

⁵⁹ <https://www.stat.uz>

⁶⁰ Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 7920-7926

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992 sonli Farmoni, 12.05.2020 yil.

3. Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 7920-7926.

4. <https://www.stat.uz>

5. <https://www.lex.uz>

SECURITY ISSUES IN ELECTRONIC PAYMENT SYSTEMS AND THEIR ANALYSIS

Chunaev Norkuvvat

Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khorazmi
norkuvvatchunaev@gmail.com

In this rapidly developing age, there are many changes, updates and developments in the world economy. This means the transition to a new type of economic system, one of the most important features of which is to inform society and increase the role of innovation, so one cannot help but talk about the importance of the Internet in the modern world. Now almost every home has the Internet, and every day a huge flow of information passes through this global network and a large number of different transactions are performed. Most business processes are also carried out using modern electronic technologies. In these conditions, which provide ample opportunities for the economy, its new sector is emerging -electronic commerce (electronic-commerce), and, in particular, Internet banking, which cannot be imagined without making electronic non-cash payments using many different systems: Internet banking, mobile banking, client banking and others.

The organization of remote banking services helps to significantly increase the efficiency of banks and allows the introduction of new tools and technologies. It also allows you to save a significant amount of time, maintains ease of use, increases the speed of payment, and allows you to track the current state of payment processing, which undoubtedly contributes to the constant increase in the number of clients using electronic payment capabilities.

Despite the wide range of advantages, not all users are in a hurry to completely abandon traditional payment methods. The reason is that recently there are frequent cases of fraud related to the withdrawal and transfer of funds. On the other hand, the uncertainty of many customers regarding the security of such payments stems from many misconceptions and is based on misconceptions; is constantly reinforced by media reports of new attacks on various Internet sites.

Sending electronic payment messages has a number of features:

1) internal systems for organizing the sending and receiving of messages are required guarantee the necessary level of protection when processing electronic data;

2) interaction between the addressee and the sender of an electronic message occurs only indirect way;

3) cryptographic systems are used to protect information;

4) the convenience of clients working with the bank depends on ease of use the remote access capabilities it provides.

The following problems arise from the above features:

1) ensuring the confidentiality and safety of data provided by the client;

2) mutual identification of the parties' authenticity;

3) use of uncertified software that does not provide a guarantee data protection;

4) ease of access to funds through remote access systems increases the risk of illegal seizure of funds.

Most fraudulent transactions associated with payment systems are carried out in two stages: obtaining data from the owner, and then using stolen information to transfer funds to another account or cash them out. Most often, this type of crime is committed with small and medium amounts of money, since not all scammers have the skills to “launder” stolen money.

The most common fraud schemes associated with violations of the security of electronic payments: 1) Operations with counterfeit cards. This type accounts for the largest amount of cash losses. Fraudsters, using highly technical means, skillfully produce homemade plastic cards, applying bank and client details to the stolen card blanks, and also gain the ability to read information from magnetic stripe. Such counterfeits appeared virtually simultaneously with the introduction of electronic payment systems. These operations are often carried out by entire organized criminal groups together with bank employees who have access to confidential customer information.

2) Transactions with stolen or found cards. Damage to the card owner can only be caused if the criminal knows its PIN code. In this situation, the fraudster is free to withdraw large sums of money from the client’s account using ATMs, or pay for any purchases until the card is blocked.

3) Payment for goods and services in amounts that do not reach the “floor limit” threshold and do not require authorization. To transfer funds, a fraudster simply needs to forge the client’s signature. However, when working under this scheme, cash as such remains unavailable to the criminal.

At the first stage, to obtain client data, criminals often use two of the most popular methods: a phishing attack (from the English fishing - fishing) and a Trojan horse.

The essence of the “Trojan horse” scheme is this: criminals send mailings to users emails, but in this case, the letters contain malicious programs that run on the computer without the knowledge of its owner. After the program is installed on the PC, it automatically detects the owner’s data when he uses banking services, and sends this information to the attacker. People who use public computers to work with their personal data are most often susceptible to such attacks by programs created by criminals. After thinking through the fraud scheme in detail, the criminals begin directly to action, gaining access directly to the card or customer account.

Thus, the attack scheme on the payment system can be represented as follows:

- 1) Development of special programs for collecting data and organizing attacks;
- 2) Distribution of letters containing Trojans and links to phishing sites;
- 3) Creation of coordination centers for operations management;
- 4) Carrying out direct operations;
- 5) Hiding traces of operations.

To improve the security of payments using electronic systems, a number of measures should be taken.

First of all, this is an improvement in the technical level of protection. Currently, it is much more difficult to counterfeit a plastic card than banknotes, but this level still needs to be raised even higher. This is facilitated by: the use of chip rather than magnetic cards; prompt provision of information about the client’s account status upon his first request, for example, via text messages to the phone; implementation of an online transaction analysis system that allows identifying abnormal deviations in client transactions; use of certified software in work.

The second measure is to ensure the safety of data in bank branches. The basis of this measure is a clear division of responsibilities between employees and, as a result, restriction of access to confidential client information. It is also necessary to pay special attention to the recruitment of personnel in these departments.

The next measure is to raise the level of awareness not only of clients, but also of bank employees about the rules of safe work with electronic payment systems. For this purpose, various leaflets, manuals, specially designated pages on banks’ websites can be used for clients, and classes and trainings can be conducted for specialists.

It is also necessary to improve the legal framework in the field of electronic payments.

Thus, electronic payment systems are promising due to their ease of use and breadth of application, and are also quite safe if certain precautionary rules are observed.

The target information that must be kept secret from being compromised in any given online payment transaction cycle is the user payment (financial) information. It is therefore necessary that a method and system for authenticating the identity of a user by an authority makes use of multiple layers of protection. The method and system can be augmented by requesting for different security credentials such as PIN, cryptographic key, digital signature, biometrics, etc, to establish multiple layers of authentication. Varying the layers of authentication factors result in greater or lesser security, and the accuracy for any given layer of authentication factor must be concrete enough without compromising the integrity of online users' payment information and the entire system. This means that the authentication factors mechanism should be strong to withstand the various kinds of internet threats used by cybercriminals. The layers of authentication mechanisms used by the different electronic payment systems are illustrated in figure 1

The different electronic payment systems illustrated so far exhibit different levels of authentication factors. The authentication-factor determines the extent to which an electronic payment system is secured. A single-factor authentication mechanism uses or requires a user to prove his or her identity with an item of data only. This means that the electronic payment system is easily compromised if this single authentication-factor fails [19].

A two-factor authentication presents two independent pieces of information in two coherent and dependent steps of just one single process whereas, A three-factor authentication presents three independent pieces of information in three coherent and dependent steps of just one single process.

Authentication by multiple independent factors seeks to decrease the success that the requester is presenting false evidence of its identity in multiple independent, but coherent processes. The number and independency of factors is important, since more independent factors imply higher probabilities that the bearer of the identity evidence indeed holds that identity in another realm [20]. Table 1 shows the categories of electronic payment systems with their number of authentication-factor and authentication types

Electronic payment systems	Number of authentication factor	Authentication type
Electronic cash (eCash)	1	Token encryption
Electronic cheque (eCheque)	2	PIN, digital signature
Smart card	3	PIN, digital signature, biometric (finger print)
Online credit card	2	PIN, digital signature

Electronic payment systems with their authentication factors and types

Electronic payment systems that incorporate three or more authentication factors are stronger than systems that only incorporate one or two of the factors. The electronic payment systems should be implemented so that multiple factors are presented for payment verification process

References

1. Gaikovich Yu.V., Pershin A.S. Security of electronic banking systems. - M: United Europe, 2004 - 412 p.
2. Demin V.S. Automated banking systems. - M: Menatep-Inform, 2007 - 213 p.
3. Shcherbavich I.A. Legal issues of communication. M.: IG "Lawyer", 2007 - 347 p.
4. Materials of the Conference Europol - Ministry of Internal Affairs of Russia "Fighting crime in the field of fraud with payment cards." M.: Ministry of Internal Affairs of Russia, 2009.
5. Skinner K. The future of banking. Global trends and new technologies in the industry. Minsk: Grivtsov Publisher, 2009 – 400 p.

APPLICATION OF BLOCKCHAIN TECHNOLOGY TO ENSURING RELIABILITY AND DATA SECURITY IN THE INTERNET OF THINGS

Chunaev Norkuvvat

Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi
norkuvvatchunaev@gmail.com

Khabibullaev Jakhongirbek

Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi
jahongirkhabibullayev@gmail.com

Nowadays, the Internet of Things (IoT) is becoming increasingly popular and is widely used in various fields of life such as healthcare, transportation, agriculture and many others. However, collecting and storing data from IoT environments are complex tasks that require solving many problems, such as lack of standards, incompatibility of devices and different communication protocols, and information security vulnerabilities.

IoT technologies are the basis for the new industrial revolution (Fourth Industrial Revolution - Industry 4.0). The implementation of IoT solutions and services contributes to significant optimization of production and business processes, improvement of the quality of services and overall standard of living.

The Internet of Things will take over almost every segment in the industrial, business, healthcare and consumer goods sectors. It is important to understand the implications and why these very different industries will be forced to change the way they produce goods and provide services.[2]

The number of interconnected objects has reached an unprecedented level. When discussing developments in this area, it is impossible not to pay attention to the associated risks. The range of values is quite wide, but the order of the numbers is approximately the same. This is confirmed by the findings of IoT Analytics. The consulting company's report said that 11.7 billion devices were connected to the Internet of Things in 2020, while 11 billion were connected to the regular Internet.

Recently, ARM Corporation conducted a study that predicted that by 2035 the number of devices connected to the Internet will reach 1 trillion. Apparently, related projects will continue to develop and increase their potential at a rate of 20% per year in the near future.

To solve these problems, various approaches have been developed, such as centralized and decentralized data collection and storage systems.

However, they have their limitations, such as lack of transparency and data reliability.

However, collecting and storing data in the Internet of Things is challenging because it occurs in environments where many devices operate autonomously without direct human intervention and may also be vulnerable to cyber and other types of security attacks. The solution to these problems can be the use of blockchain technology, which allows for the security and reliability of data storage and transmission.

Blockchain is a ledger of decentralized data exchanged over secure channels [4]. Blockchain technology allows a group of selected participants to exchange data. Blockchain cloud services make it possible to easily collect, integrate, and share transaction data from multiple sources. Blockchain (Blockchain in English) is a chain of blocks. All blocks are added in sequential and chronological order. Each block stores information about all previous transactions, a timestamp, and a link to the previous block.

Blockchain ensures absolute data integrity by providing a single source of truth while eliminating data duplication and increasing data security.

The blockchain system guarantees the absence of fraud and data manipulation, since changes can only be made with the consent of the majority of participants. The blockchain ledger can be

transferred from one person to another, but its contents cannot be changed. If an attempt is made to make changes to the data, all system participants will receive a notification about this and will be able to determine who made the change attempt.

Blockchain is a system for recording the history of transactions, where each block is linked to the previous one and stored in an unchanged form in a peer-to-peer network. Each transaction on the blockchain has a unique identifier, or digital fingerprint, applied using cryptographic trust and guarantees.

This sequence of blocks ensures trust, responsibility, transparency and security. This allows companies and their trading partners to share and access data. This mechanism is called consensus-based third-party trust.

All participants in the system make an encrypted record of every transaction in a decentralized, scalable and flexible environment that cannot be reversed. Blockchain does not require additional costs or intermediaries. A decentralized source of truth can reduce the costs of trusted commercial transactions between parties who may not fully trust each other. Businesses widely use an exclusive blockchain where participants can join the network and make an encrypted record of every transaction.

This unique technology provides many benefits to companies or groups of companies that require a secure, instant and shareable record of transactions. Not having a single data repository improves security and availability because there is no central point of vulnerability.

We can say that a blockchain is a distributed database that is simultaneously stored on many independent computers.

Thanks to the end-to-end inextricable connection of blocks and decentralization, it becomes almost impossible to change information about past transactions.




Figure 1. Blockchain organization

The use of the Internet of Things (IoT) results in huge amounts of data that traditional information technologies simply cannot process. The volume, velocity, and variety of data generated by IoT networks can challenge enterprise systems and reduce the ability to make timely decisions based on reliable data. Implementing blockchain technology on a distributed ledger can potentially solve these problems, providing scalability, increased security and transparency:

- Ensuring IoT data reliability using blockchain technology: Blockchain technology can solve data reliability problems in IoT. Every transaction is recorded on a secure and immutable data chain, ensuring data transparency and security.

- Blockchain technology makes it easier to track bugs in IoT: Blockchain assigns a unique key to each device, which helps quickly track inconsistencies and detect errors

- Smart contracts for fast automation: Blockchain-based smart contracts allow responses to be automatically authorized through the network, facilitating rapid automation of IoT processes

- IoT security is ensured thanks to the decentralization of blockchain technology: Blockchain is decentralized, which makes it safer for storing data, since cybercriminals will not be able to attack one centralized server and corrupt the data

- Blockchain technology makes it easier to evaluate employee performance based on IoT usage logs: Blockchain allows you to track user actions, such as device use, which makes employee

performance evaluation more objective and simplifies the process. For example, when integrating IoT and blockchain for business, it reduces costs, risks and increases safety:

- increases the security of IoT data storage, making it difficult for unauthorized access by intruders.
- provides reliable data encryption, making it impossible to change it.
- Provides transparency by allowing authorized users to view past transactions.
- Speeds up transaction processing and coordination between multiple connected devices.
- increases trust between participants and allows companies to reduce costs by removing IoT-related overhead.
- creates a system protected from counterfeiting and distortion, which eliminates the control of one organization over all data collected by IoT devices.

Blockchain technology has a wide range of applications in the Internet of Things (IoT). Here are some of them:

- Supply chain management and tracking: Blockchain allows you to create a transparent and secure system for tracking goods at every stage of the supply chain. This allows us to improve the efficiency, accuracy and safety of the process of delivering goods from manufacturer to consumer.

- Smart contracts and automation: Blockchain allows the use of smart contracts to automatically execute conditions and agreements in the IoT network. For example, smart contracts can be used to automatically process payments, manage devices, and record events.

- Ensuring security and privacy: Blockchain can provide security and privacy of data in an IoT network. By using encryption and a decentralized structure, blockchain protects data from unauthorized access and manipulation.

- Device management and authentication: Blockchain can be used to manage and authenticate devices in an IoT network. This allows you to check and confirm the identity of devices, ensuring secure communication between them.

- Distributed data storage: Blockchain provides distributed data storage, which increases the resiliency and reliability of the IoT network. Each network participant has a copy of the blockchain, which prevents a single point of failure and ensures data safety in the event of node failure.

- Micropayments and economic model: Blockchain makes it possible to implement micropayments in IoT networks, where devices can conduct financial transactions among themselves without intermediaries. This opens up new opportunities for the economic model of the IoT network and stimulates the development of the ecosystem.

The application of blockchain technology in the Internet of Things has great potential to improve the security, efficiency and reliability of systems.

However, it is necessary to take into account the specifics of each specific case and correctly configure and adapt the blockchain solution to achieve optimal results.

References

1. Genkin A., Mikheev A. "Blockchain. How it works and what awaits us tomorrow." Alpina Publisher, 2018.
2. Perry Lee. "Internet of Things for Architects / Architecture of the Internet of Things." DMK Press, 2019.
3. Swan M. "Blockchain. Scheme of the new economy." Olympus Business, 2017.
4. Website of the Oracle company [Electronic resource]. URL: <https://www.oracle.com/cis/blockchain/what-is-blockchain/> (access date: 03/31/23)

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA BANK-MOLIYALARINING ISHTIROKI

Djabbarov Raximjon Abdullayevich
O'zbekiston Milliy universiteti
Ekonomika va iqtisodiy modelashtirish
kafedrası tayanch doktoranti
E-mail: djabbarov.raximjon@gmail.com

Bugungi kunda milliy va mintaqalar iqtisodiyoti raqobatbardoshliginin oshirishda raqamli iqtisodiyotni jadal va tizimli rivojlantirish, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va boshqa zamonaviy texnologiyalarni maqsadli qo'llash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyot kompaniya va korxonalar oldiga yangi vazifalarni qo'ygan va ularni bozorda faoliyat yuritishning yangi bosqichiga olib chiqqan holda doimiy ravishda o'zgarib borayapti. Oxirgi yillarda axborot texnologiyalari oldinga qadam tashladi. Bu esa bir qator kompaniyalar faoliyatida o'z ifodasini topdi. Bu jarayon ayniqsa, moliyaviy kompaniyalarga, xususan, moliya bozorida faol qo'llaniladigan yangi moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Hozirda elektron bazaga jamlangan axborotlarning raqamlashtirilganligi natijasida avvallari ma'lum muddat kutishga to'g'ri keladigan bank amaliyotlarini bir necha soniyada o'tkazish imkonini beruvchi dasturlar, qurilmalar yaratilgan.

Bank tizimida zamon talablariga mos holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish va shu orqali ko'plab bank xizmatlarini avtomatlashtirish ishlari jadallashgan.

O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasida⁶¹ zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida tijorat banklarini korporativ transformatsiya qilish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasida asosiy vazifalar belgilab olingan:

- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish;

- avtomatlashtirilgan scoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyerlaridan keng foydalanish;

- bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish;

- bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni keng joriy etish (fintex, raqamli bank).

Bu vazifalarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish asnosida aholining moliyaviy va huquqiy savodxonligini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi integratsiyasini jadallashtirishdan iborat.

Fintex (moliyaviy texnologiyalar) — innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish: Big Data, sun'iy idrok va mashinalarni o'rganish, robotlashtirish, blokcheyn (umumiy tarmoqqa birlashtirilgan ko'plab kompyuterlarga taqsimlangan ma'lumotlarni shifrlash va saqlash), bulut texnologiyalari, biometrika va boshqalar».

O'z navbatida, fintex turli omillar ta'sirida rivojlanadi. Bular: elektron tijorat bozorining o'sishi; internetning keng tarqalishi, jumladan, mobil qurilmalarda va buning natijasida shunga o'xshash turdagi xizmatlarni taqdim etish uchun texnik bazaning rivojlanishi; bank tizimining rivojlanishi; investitsiya qilingan kapital rentabelligining oshishi. Bu esa kompaniyani xodimlar va taqdim etilayotgan xizmatlar va operatsiyalarni standartlashtirish uchun xarajatlarni optimallashtirishga majbur qiladi.

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-Mayidagi "2020-2025-yillarga muallif O'zbekiston Respublikasining bank islo qilish Strategy tugrisida"gi PF-5992-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>

Bularning barchasi ayrim operatsiya va xizmatlarni elektron xizmatlarga o'tkazish, shuningdek, moliyaviy xizmatlardan foydalanish vaqtini optimallashtirishni nazarda tutadi.

2023-yilda global moliyaviy texnologiyalar bozori 165,17 milliard dollarga baholanmoqda. Bu 2022-yildagiga nisbatan 25 foiz (131,95 milliard dollar), 2021-yildagiga nisbatan 57 foiz (105,41 milliard dollar) ko'p demakdir. Buni iste'molchilarning an'anaviy bank xizmatlaridan voz kechib, elektron hamyonlar, mobil banking va kriptovalyuta kabi yangi xizmat turlaridan foydalanishga o'tayotgani bilan izohlash mumkin.

Mintaqalar bo'yicha 2023-yilning may oyidagi holatga ko'ra, fintex startaplarning ko'pi Amerikaning hissasiga to'g'ri kelgan – 11 651ta loyiha (jami startaplarning 44,1 foizi). Yevropa, Yaqin Sharq va Afrikada 9681ta (36,7 foiz), Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 5061ta (19,2 foiz) startap faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, 2018-yil bilan taqqoslaganda, fintex startaplar sonining eng katta o'sishi Yevropa, Yaqin Sharq va Afrikada (2,7 barobar) kuzatilmoqda (Amerikada 2,0 barobar, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 1,8 barobar).

2026-yilga borganda fintex sanoati 324 milliard dollargacha o'sishi prognoz qilinmoqda, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 25,2 foizni tashkil etadi[4]. Bunga avtomatlashtirish texnologiyalarining rivojlanishi hamda onlayn va ilovalarga asoslangan xizmatlarning tobora kengayib borishi yordam beradi. Foydalanish imkoniyatining ortishi va xarajatlarning qisqarishi iste'molchilarning ilg'or moliyaviy texnologiyalarga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda raqamli asosda faoliyat yurituvchi 4 ta bank mavjud. Bular: "TBC bank" AK, "Anor bank" AK, "Uzum bank" AK. Shuningdek, "Smart bank" AJ va "Apex bank" AJ kabi raqamli banklarga bank faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berilgan, biroq bu banklar hali o'z faoliyatini boshlamagan.

- 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, mamlakatimizda 3 ta to'lov tizimi operatori mavjud. Bular: "Yagona umumrespublika protsessing markazi" MChJ (www.uzcard.uz), "Milliy banklararo protsessing markazi" MChJ (www.humocard.uz), "Qulay pul" MChJ (www.unitedfintech.uz).

- To'lov tashkilotlari reyestrda (2023-yil 1-iyul holatiga) 52 ta kompaniya ro'yxatga olingan bo'lib, ular orasida Click, Oson, Payme, MyUzcard, ATTO, Paynet va boshqalar mavjud.

- Hozirgi kunda 6 ta bank (ATB "Aloqabank", "Universalbank" ATB, ATB "Agrobank", AT "Uzum bank", "Trastbank" XATB, AT Milliy bank) 17 ta elektron pul tizimini ishlab chiqish va ishga tushirishda ishtirok etdi.

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda bank xizmatlarining sifati va ko'lamini oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Lekin jahonda bo'layotgan [o'zgarishlar](#), [globallashtirish jarayoni](#), [raqobatbardoshlikni haddan ziyod rivojlanishi](#), [tijorat banklarining transformatsiya jarayonini yanada faollashtirish](#), [mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi](#).

Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, bank xizmatlarini masofadan ko'rsatish iqtisodiyotni yangi bosqichga ko'tarish, banklarda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi jarayonlarni kengaytirish maqsadida 12-may 2020-yildagi PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Prezident Farmoniga muvofiq joriy yildan boshlab, banklar transformatsiya jarayonlari o'tkazilishi belgilab qo'yilgan. Farmonga muvofiq zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, kontaksiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish, avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash, kredit konveyeridan keng foydalanish, raqamli bankning tamoyillariga asoslangan biznes-modellarini joriy etish belgilandi. Natijada, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va unda bank masofaviy xizmatlarini yanada kengaytirish mamlakatimiz aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarining shaffof faoliyatini yo'lga qo'yishga hamda axborot texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кабулов В.К. Кибернетическая наука Узбекистана: прошлое, настоящее, будущее// Проблемы информатики и энергетики. – Ташкент, 2004. - №1. 3-4 б.
2. Кенжабаев А.Т., Икрамов М.М. Перспективы развития ИКТ и электронное правительство в экономике Узбекистана// Экономика, статистика и информатика, 2015. №2. 221-223 б.
3. Шермухамедов А.Т. Инновационное развитие экономики Узбекистана: интеллектуальный потенциал. Международная научно-практическая конференция «Интеллектуальный анализ данных и цифровая экономика» в Пятигорске. Филиал РЭУ им. Г.В.Плеханова, 25-27 октября 2018 г.
4. Шохъазамий Ш.Ш. Трактат о смарт цифровой Республике// Монография. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020. 32-34 б.
5. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The second machine age: Work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies. WW Norton & Company.
6. Mesenbourg, T. L. (2001). Measuring the digital economy. US Bureau of the Census, 1, 1-19.
7. Норец, Н. К., & Станкевич, А. А. (2017). Цифровая экономика: состояние и перспективы развития. Инновационные кластеры в цифровой экономике: теория и практика, 173-179.

AGROSANOAT MAJMUASIDA MOLIYA-KREDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Erkinxojiyev I.I.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
katta o'qituvchisi, i.f.f.d.(PhD)

Mamlakatimiz agrar sohasida ekin maydonlaridan samarali foydalanish, fermer, dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi tashkilotlari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq joylarda aholining bandligini ta'minlash va farovonligini yuksaltirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Agrar va oziq-ovqat sohasida investitsion muhitni yanada yaxshilash orqali investitsion jozibadorlikni oshirish, zaruriy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ekishni rag'batlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlash hamda import qilinadigan mahsulot hajmini bosqichma-bosqich qisqartirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini moliyalashtirishning ilg'or va samarali tizimini joriy etish, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish asosiy vazifalardan hisoblanmoqda [1,3].

Umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 2023-yil mobaynida 63,1 foizini dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,8 foizi fermer xo'jaliklariga va 7,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelgan. Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining yuqori ulushi chorva mollarining asosiy qismi aholi xonadonlarida boqilayotganligi va shu bilan birgalikda chorvachilik mahsulotlarining ham asosiy qismi ishlab chiqarilganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, dehqonchilik mahsulotlarida ulushi yuqori bo'lgan sabzavot va mevalarni mamlakatimizda qishloq joylarda istiqomat qiluvchi 49 foiz aholining o'zini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlashi, ishlab chiqarishning katta qismini tashkil etishi sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yilishi, ularga ekin maydonlarining birlashtirilishi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar toifasining ulushini yildan-yilga ortib borishiga omil bo'lmoqda (1-rasm).




1-rasm. Agrar sohada qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarini ulushi tahlili, foizda.

Bugungi kunda agrosanoat majmuasidagi korxonalarning davlat tomonidan moliyalashtirishdagi roli oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining statistik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-martdagi PQ-

103-son qaroriga asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan “Agrobank” ATBga 515 mlrd. so‘m mablag‘lar joylashtirilib, ushbu mablag‘lar hisobidan klaster va fermer xo‘jaliklariga 487 ta qishloq xo‘jaligi texniklari xaridi uchun to‘liq yo‘naltirildi va PQ-413-son qaroriga asosan issiqxona xo‘jaliklari moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish va rivojlantirish bo‘yicha respublika ishchi guruhining 3 ta yig‘ilish bayonlari qabul qilindi. Bunda 3 563 ta issiqxona va muzlatkichli omborxona xo‘jaliklarining 11,4 trln. so‘mlik kreditlarni 14 yilga uzaytirish belgilangan bo‘lib, bugungi kunda 3 088 ta issiqxona va muzlatkichli omborxona xo‘jaliklarining 9,4 trln. so‘m (87%) kredit mablag‘lari uzaytirib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma’lumotiga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha, shu jumladan agrar sohaga ajratilgan kreditlar 2020-yilda 18 772,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 14 602,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha, shu jumladan, agrar sohaga ajratilgan kreditlar hajmi tahlili, mlrd. so‘mda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulot yetishtiruvchilarni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab quvvatlash maqsadida 569,1 mlrd. so‘m subsidiya mablag‘lari ajratib berildi. Jumladan, suv tejovchi texnologiyalar uchun 89,5 mlrd. so‘m, chorvachilik yo‘nalishiga 403,7 mlrd. so‘m, ipakchilik va jun sanoatiga 75,9 mlrd. so‘m. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-iyundagi “Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirishning uzluksizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi PF-98-sonli Farmoniga asosan 2022-yil paxta yetishtirish uchun Jamg‘armadan ajratilgan resurslarning 2,9 trln. so‘mni qaytarish muddati 12 oyga uzaytirilib, klasterlarning moliyaviy xolatidan kelib chiqqan holda qaytarish grafiklari ishlab chiqildi va bugungi kunga qadar grafikka asosan 5,2 trln. so‘mdan 3,9 trln so‘m (76%) qarzdorliklar Jamg‘armaga qaytarildi. Bundan tashqari, 2022-yil paxta yig‘im terim xarajatlarini moliyalashtirish uchun Jamg‘armadan ajratilgan 3,3 trln. so‘m imtiyozli kreditlarning 3,2 trln. so‘m ya’ni 97 foizi Jamg‘armaga qaytarildi. 2022-yil paxta hosilidan fermer xo‘jaliklariga 127 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan 8,5 trln. so‘m yakuniy hisob-kitobdan bo‘lgan qarzdorliklarni to‘lab berilishi ta’minlandi.

2023-yilda qishloq xo‘jaligi maxsulot ishlab chiqaruvchilarga jami 840 mlrd. so‘m subsidiya mablag‘lari ajratilgan. Jumladan:

Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishga. Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan g‘allachilik, sabzavotchilik va oziqabop ekinlar yo‘nalishida 7 463 gektar yer maydonlarida suv tejovchi texnologiyalar joriy qilgan subyektlarga xarajatlarini bir qismini qoplash maqsadida 26,4 mlrd. so‘m subsidiya mablag‘lari ajratib berildi. Ma’lumot uchun: g‘allachilik yo‘nalishida 18,5 mlrd.so‘m,

kartoshka yoʻnalishida 1,6 mlrd. soʻm, ozuqabop ekin yoʻnalishida 5,0 mlrd.soʻm, sabzavot yoʻnalishida 1,3 mlrd. soʻm, subsidiya mablagʻlari ajratilgan [4,3].

Bogʻdorchilikni rivojlantirishga. Qishloq xoʻjaligida xizmatlar koʻrsatish agentligi tomonidan 2023-yilda 225 ta tashabbuskorlarning 240 ta loyihasiga 99,2 mlrd. soʻm, shundan, 4 566 gektar intensiv meva va tokzorlarning tomchilatib sugʻorish tizimlariga 33,6 mlrd. soʻm, 248 ta quduq-nasos stansiyalari uchun 24,7 mlrd. soʻm, 6 907 139 ming dona payvandtag in-vitro koʻchatlari uchun 28,2 mlrd. soʻm, yangi limonzorlar uchun 405 mln. soʻm, uzum plantatsiyalarida oʻrnatilgan 811 866 dona shpalerlar uchun 12 284 mln.soʻm hamda 10 quvvatli muqobil energiya qurilmasi uchun 51 mln. soʻm mablagʻ ajratildi.

Chorvachilik tarmogʻini ragʻbatlantirishga. Veterinariya qoʻmitasi tomonidan chorva, parranda va baliq yetishtirish, import qilingan naslli qoramollar, import qilingan naslli qoʻy echkilar, import qilingan bir kunlik joʻjalar, mahalliy yetishtirilgan naslli qoramollar uchun budjetdan 638,3 mlrd. soʻm ajratilgan. Bunda import qilingan naslli qoʻy va echkilarga 6,4 mlrd soʻm, import qilingan naslli qora mollar uchun 5,3 mlrd. soʻm, import qilingan bir kunlik joʻjalar uchun 22 mlrd. soʻm, ichki xoʻjaliklarda yetishtirilgan naslli qora mollar uchun 1 mlrd. soʻm, tirik vazndagi yirik va mayda shoxli qora mollar goʻshti uchun 168,2 mlrd. soʻm, sut mahsulotini yetishtirishga 43 mlrd soʻm, parranda goʻshti uchun 326,4 mlrd. soʻm, parranda tuxumiga 48 mlrd soʻm, baliq yetishtirishga 18 mlrd soʻm.

Ipakchilik va qorakoʻlchilik sohasini rivojlantirishga. Ipakchilik qoʻmitasi tomonidan, qorakoʻl terisi eksportini ragʻbatlantirishga hamda yaylov va tutzorlarda tik quduqlar burgʻulash, nasos stansiyalarini qurish xarajatlari uchun budjetdan 76 mlrd. soʻm ajratilgan. Jumladan, Qorakoʻlchilik klasterlariga suv chiqarish uchun nasos stansiyalarini qurishga 19,8 mlrd. soʻm hamda qorakoʻlchilik subektilariga ular tomonidan eksport qilingan qorakoʻl va qorakoʻlcha teri uchun 3 mlrd soʻm, ipak qurti urugʻi uchun subsidiya 53,2 mlrd. soʻm. Jumladan, Qorakoʻlchilik klasterlariga suv chiqarish uchun nasos stansiyalarini qurishga 19,8 mlrd. soʻm hamda qorakoʻlchilik subektilariga ular tomonidan eksport qilingan qorakoʻl va qorakoʻlcha teri uchun 3 mlrd soʻm, ipak qurti urugʻi uchun subsidiya 53,2 mlrd. soʻm ajratildi [2,3].

Foydalanilgan adabiyotlar roʻxati

1. Эркинхожиев И.И. Направления финансирования агропромышленных предприятий. //«Проблемы и перспективы развития АПК и сельских территорий: сборник материалов международной научной конференции» г. Смоленск. 28 апреля 2022 года. 261-263ст.
2. Erkinxojiev I.I. Agrar sohani moliyaviy qoʻllab-quvvatlashda xalqaro tajribalardan foydalanish asoslari. //Iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish ilmiy-amaliy va nazariy jurnal.Toshkent, № 5.2021 yil.67-72 b.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligining Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligining yillik hisoboti erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar 2023-yil.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi sayti <https://www.agro.uz>.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi sayti <https://stat.uz>.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bank sayti <https://cbu.uz>.

KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHDA KORPORATIV MOLIYAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Igitov Jurabek Kuzibekovich

Toshkent davlat transport universiteti

igitov2021@gmail.com

Iqtisodiy tarixdan ma'lumki, kompaniyalar faoliyatini rivojlantirish maqsadida ko'proq kredit va investitsiyalar instrumentlaridan foydalanib kelgan. Bu trend bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmayotganiga qaramasdan, moliya bozorida muqobil moliyaviy instrumentlar – korporativ qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish orqali kapital mablag'larini jalb qilish zarurati paydo bo'ldi. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda Markaziy bank va hukumat sanoat korxonalarini moliyalashtirmasligi ularning allaqachon yirik korporatsiyalar sifatida fond bozorlarida muntazam ishtirok etishlari asosida faoliyatlarini moliyalashtirishning imkoniyatlarini topganlari bilan izohlanadi.

Korporativ qimmatli qog'ozlar kompaniyalar tomonidan chiqarilgan har qanday qimmatli qog'oz bo'lib, bu iqtisodiy terminga xorijiy va mahalliy olimlar turlicha fikr bildirishgan. Shunday bo'lsada mazkur iqtisodiy terminga izoh berishda uni korporatsiya va qimmatli qog'ozlar degan ikkita tushunchani alohida o'rganish maqsadga muvofiq.

Korporatsiya - lotincha *corporatio* so'zidan olingan bo'lib, birlashma, uyushma, hamjamiyat degan to'g'ridan-to'g'ri tarjimaga ega. Korporatsiya deganda, biron bir faoliyat uchun uyushgan huquqiy va jismoniy shaxslar majmuidan iborat bo'lgan yirik aksiyadorlik jamiyati tushuniladi. Uzoq davrlar mobaynida "korporatsiya" atamasi mohiyatan mulkiy mustaqillik, o'z qarzlari bo'yicha mustaqil javobgarlik, korporatsiyaning o'zi bilan huquqiy munosabatlarga kirishish qobiliyati sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxsning sinonimi bo'lib xizmat qilgan. Zamonaviy iqtisodiyotda ham xorij mamlakatlari qonunchiligida "korporatsiya" so'ziga yakdil munosabat bildirilmaydi. Korporatsiya – odatda, bir guruh odamlar yoki kompaniya tomonidan muayyan maqsadlar uchun qonunda shunday deb tan olingan yagona shaxs sifatida harakat qilish vakolatiga ega bo'lgan tashkilot.

Amerikalik professor Stefan Presserga ko'ra, yuridik shaxs korporatsiya sifatida e'tirof etilishi uchun quyidagi eng muhim belgilari mavjud bo'lishi kerak:

- 1) aksiyadorlarning cheklangan javobgarligi;
- 2) ishtirok etish huquqini boshqalarga erkin o'tkazish imkoniyati;
- 3) cheksiz mavjudlik;
- 4) markazlashtirilgan boshqaruv: ustav kapitalida ishtirok etish va boshqaruvni ajratish;
- 5) korporatsiyaning mustaqil shaxs sifatidagi huquqiy maqomi.

Milliy qonunchiligimizda "korporatsiya" so'ziga tarif berilmaganligi bois, ko'pgina hollarda aksiyadorlik jamiyatlari korporatsiya sifatida e'tirof etiladi. Biroq aksiyadorlik jamiyatini tashkil etmagan holda yirik kompaniya sifatida faoliyat yuritib kelayotgan xo'jalik subyektlari (misol uchun, Artel Electronics MChJ) mavjud bo'lmaganligi uchun bu e'tirof har doim ham haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Mazkur masalada aniq bir xulosaga kelish uchun korporatsiyalarning turlariga to'xtalib o'tishni lozim topdik. Demak, korporatsiya yirik maqomga ega bo'lgan aniq bir faoliyat maqsadida ta'sischilik asosida tashkil etilgan yuridik shaxs. Aslida, korporatsiya so'zining o'rniga kompaniya, aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat so'zlarini ishlatilsa ham hech qanday qoidaning buzilishi kuzatilmaydi, biroq maqom jihatidan ular korporatsiyaning hajmini aks ettirmasligi ehtimoli uchun bu atamalar bir-birini o'rnin almashtirmaydi.

"Korporatsiya" atamasiga berilgan yuqoridagi tariflardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, **korporatsiya** – bu muayyan maqsadda bir guruh yuridik yoki jismoniy shaxslarning ulushlarini birlashtirish asosida tashkil etilgan, qonuniy jihatdan o'z majburiyat va huquqlariga hamda yuridik maqomga ega bo'lgan yirik kompaniya. Korporatsiya atamasini turlicha talqin qilganimizdan so'ng, endi qimmatli qog'ozlar atamasiga to'xtalib o'tamiz. Qimmatli qog'ozlar

atamasiga “korporatsiya” atamasiga qaraganda, berilgan tariflar va izohlar ancha ko‘p bo‘lib, umumiy ma’noda xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan ma’lum maqsadlarda emissiya qilinadigan yoki ayirboshlanadigan sotib oluvchi yoki egalik qiluvchi shaxslarga egalik, daromad olish va ovoz berish huquqini taqdim etuvchi qimmatli qog‘ozlar tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlar — hujjatlar bo‘lib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham qimmatli qog‘ozlar mavzusi so‘nggi dekananing eng ommabop mavzularidan biri hisoblanadi. Moliya bozorining ushbu segmentiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar yildan-yilga ko‘payib, izlanish mavzulari jahon fond bozorlaridagi eng dolzarb mavzularni o‘zida aks ettirib bormoqda.

Yuqoridagi fikrlarni inkor etmagan holda **qimmatli qog‘ozlar** deganda, bizning qarashimizda – davlat yoki xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan ma’lum maqsadlarda emissiya qilinadigan yoki ayirboshlanadigan, egasiga ma’lum ulushga egalik, daromad olish va ovoz berish huquqini taqdim etuvchi huquqlar majmui tushuniladi.

Korporativ qimmatli qog‘ozlarni boshqa qimmatli qog‘ozlardan farqli jihati shundaki, faqat emissiyalanadigan qimmatli qog‘ozlar korporativ qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, hosilaviy qimmatli qog‘ozlar korporatsiyalar tomonidan muomalaga kiritiladigan bo‘lsa ham, ular korporativ qimmatli qog‘ozlar sifatida tan olinmaydi.

Korporativ qimmatli qog‘ozlar emissiya qilinadigan qimmatli qog‘ozlar bo‘lganligi uchun ularning asosiy turlari 3 ta bo‘ladi:

1. Aksiyalar
2. Obligatsiyalar
3. Veksellar

Ba’zi adabiyotlarda korporativ qimmatli qog‘ozlar tarkibiga banklarning deposit sertifikatlarini va hosilaviy qimmatli qog‘ozlarni ham qo‘shishgan bo‘lib, bizning fikrimizcha ular noemissiyaviy qimmatli qog‘ozlar bo‘lganligi uchun korporativ qimmatli qog‘ozlar sifatida tan olinishi noto‘g‘ri. Shu sababdan korporativ qimmatli qog‘ozlarning yuqorida keltirilgan asosiy turlari bo‘yicha batafsil ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz.

Aksiya korporativ qimmatli qog‘oz sifatida, agar ularning soni ma’lum darajada ko‘p bo‘lsa, aksiyadorga aksiyadorlik jamiyatining tadbirkorlik va boshqa faoliyatni amalga oshirishiga ta’sir qilish imkoniyatini beradi. Muayyan miqdordagi aksiyalarning va shunga mos ravishda ular tomonidan berilgan huquqlarning to‘planishi ularning egasining huquqiy holatining sifat jihatidan o‘zgarishiga olib keladi. An’anaviy vakolatlar uchligidan tashqari, bunday aksiyalar aksiyadorlik jamiyati faoliyatini aniqlash, ayrim hollarda esa uni nazorat qilish imkonini beradigan boshqa huquqlarni ham beradi. Shu sababdan, aksiya mulkiy huquqlar bilan bir qatorda boshqa huquqlarni: aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish huquqi, aksiyadorlik jamiyati faoliyati to‘g‘risida ma’lumot olish huquqi va mulk sifatida tasniflash mumkin bo‘lmagan boshqa huquqlarni taqdim etadi.

Korporativ obligatsiyalar boshqa turdagi obligatsiyalardan alohida emissiya tartibiga egaligi bilan farq qiladi. Korporativ obligatsiyalar – bu emitentlardan kelishilgan shakllar va muddatlarda daromad olish, shuningdek, ilgari avanslangan summani qaytarib olish maqsadida amalga oshirilgan hujjatlashtirilgan investitsiyalardir.

Obligatsiyalar quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) obligatsiya egasi va emitent o‘rtasidagi qarz munosabatlarini ifodalash;
- 2) emitent tomonidan to‘liq summa qoplangunga qadar fond bozorida mustaqil ravishda savdo qilinadi va o‘z kursiga ega bo‘lishi;
- 3) likvidlik, ishonchlilik, rentabellik sifatlariga ega bo‘lishi.

Veksel (nem. Wechsel — ayirboshlash) — ko‘rsatilgan muddatda muayyan miqdordagi pulni to‘lash majburiyati qayd etilgan qarzdorlik haqidagi qimmatli qog‘oz.

Korporativ veksel boshqa korporativ qimmatli qog‘ozlarga nisbatan bir qator xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi:

- 1) emissiya prospektini ro‘yxatdan o‘tkazishning hojati yo‘q;
- 2) veksellar soliqlarni tejaydi, chunki ularni soliq organlari tomonidan qarzlarni bo‘yicha darhol hisobdan chiqarish mumkin emas;
- 3) veksel garovga qo‘yilishi mumkin;
- 4) veksel yangi tashkil etilgan korxonaning ustav kapitaliga hissa qo‘shish shaklida amalga oshirilishi mumkin. Sotuvchilar uchun vekselning to‘lov shaklining afzalligi pul mablag‘larining tez aylanishi bo‘lsa, xaridorlar uchun esa veksel aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish va ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni yetkazib berishni kafolatlash imkonini beradi.

Ichki moliyalashtirish manbalari:

- *Taqsimlanmagan foyda*: kompaniya foydani aksiyadorlarga dividend sifatida taqsimlash o‘rniga o‘z faoliyatiga qayta investitsiya sifatida foydalanishi mumkin;
- *Amortizatsiya*: Amortizatsiya qilingan aktivlar natijasida hosil bo‘lgan mablag‘lar faoliyatga qayta investitsiya qilinishi mumkin;
- *Aktivlarni sotish*: ishlab chiqarish uchun foydalanilmagan yoki to‘liq foydalanilmagan aktivlarni sotish orqali mablag‘larni shakllantirish mumkin;
- *Aylanma kapital*: aylanma mablag‘larni, shu jumladan, inventar, debitorlik va kreditorlik qarzlarni samarali boshqarish orqali korxona faoliyati uchun qo‘shimcha naqd pulni shakllantirish mumkin;
- *Ta’sischilar mablag‘lari*: korxonaning mulkdor(lar)i tomonidan uning faoliyatini moliyalashtirish uchun kiritilgan shaxsiy mablag‘lar.

Moliyalashtirishning tashqi manbalari:

Qarzni moliyalashtirish:

- *Bank kreditlari*: tijorat banklaridan asosiy qarz summasini qo‘shimcha foizlar evaziga belgilangan muddatda to‘lash to‘g‘risida shartnoma asosida qarz olish;
- *Obligatsiyalar*: kapitalni jalb qilish uchun moliya bozorlarida davriy foiz to‘lovlari bilan birga asosiy qarzni qaytarishni va‘da qilish evaziga obligatsiyalar chiqarish;
- *Aktivga asoslangan kreditlash (Asset-based lending)*: garov sifatida inventar, debitorlik qarzi yoki mulk kabi aktivlardan foydalangan holda kredit olish;

Kapitalni moliyalashtirish:

- *Farishta sarmoyadorlar (angel investorlar)*: Mulk kapitali yoki konvertatsiya qilinadigan qarz evaziga kapitalni ta’minlaydigan yuqori daromadli shaxslar;
- *Venchur kapitali*: startaplar va kichik biznesni kapital ulushlari evaziga moliyalashtiradigan investitsiya firmalari;
- *Initial Public Offering (IPO)*: Kompaniya aksiyalarini birinchi marta ommaga taklif qilish, kompaniyadagi egalik ulushlarini sotish orqali kapitalni oshirish;
- *Xususiylashtirish*: Xususiy kompaniyalarning faoliyatini yaxshilash va oxir-oqibat foyda olish uchun sotish maqsadida xususiy kompaniyalarning ulushlarini sotib oladigan investitsiya fondlari.

Davlat grantlari va subsidiyalari: davlat organlari tomonidan muayyan tarmoqlar, loyihalar yoki tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratiladigan mablag‘lar.

Crowdfunding: Ko‘pincha onlayn platformalar orqali ko‘p sonli odamlardan oz miqdorda pul yig‘ish orqali shakllanadigan mablag‘lar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления. – Т.: Молия, 2008. 204 с.
2. Бутиков И. Рынок ценных бумаг. Учебник. – Т.: Консультинформ, 2001. - 496 с.

3. Ludger Hentschel. "Investments: An Introduction". 2008
4. Richard A. Brealey, Stewart C. Myers, Franklin Allen. "Principles of Corporate Finance". 12th Edition, 2020
5. Ludger Hentschel. "Investments: An Introduction". 2008
6. James D. Cox, Robert W. Hillman, Donald C. Langevoort, Ann M. Lipton. "Securities Regulation: Cases and Materials". The Business Lawyer, 2021. Tenth Edition

DAVLATIMIZDA FOND BOZORI RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILAYOTGAN MUAMMOLAR

Kayumova Shodiya Sobir qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiyot fakultiteti
"Moliya va kredit" kafedrası o'qituvchisi
e-mail: diyaka86@gmail.com

Qimmatli qog'ozlar bozori har qanday mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining muhim elementidir. Bu sarmoya jalb etish, korxonalarni kengaytirish, moliyaviy vositalarni rivojlantirish imkonini beradi. Biroq mamlakatimizda fond bozorining rivojlanishini cheklaydigan va uning to'liq ishlashiga to'sqinlik qiladigan fundamental muammolar ham mavjud, afsuski.

Darxaqiqat, moliya bozori, shu jumladan, iqtisodiyotimizning fond bozori sektorining yanada rivojlanishi uchun investitsion faoliyatni rag'batlantirish, takomillashtirish kapital bozori faoliyatini mustahkamlash talab etiladi. Hozirgi zamon talablariga javob beruvchi investitsiya portfeli turini shakllantirish, investorlarni moliya bozorida, jumladan, fond bozoridagi investitsion faoliyatini faollashtirish va pirovard natijada ichki va xalqaro moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshligini yuqori darajasiga erishish davlat tomonidan fond bozorida portfelli investorlar faoliyati tizimini isloh qilishning strategik maqsadi hisoblanadi.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tadbirkorlikni rivojlantirish, sarmoya jalb etish va ish o'rinlari yaratishda ham muhim o'rin kasb etadi. Biroq fond bozori samaradorligini pasaytiradigan va uning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan qator muammolar ham mavjud. Masalan:

1. Likvidlikning etishmasligi: fond bozoridagi past savdo faolligi likvidlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishni qiyinlashtiradi. Bu potensial investorlarni o'chirib qo'yishi va bozorning jozibadorligini kamaytirishi mumkin. Likvidlikning etishmasligi birjada listing kompaniyalari sonining yetarli emasligi, kichik investorlar uchun bozorga kirishning cheklanganligi yoki bozorga ishonchning yo'qligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2. Shaffoflikning yo'qligi: Shaffoflikning yo'qligi investorlar uchun muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki ular kompaniyalar va ularning moliyaviy holati haqida ma'lumotga ega emaslar. Bu ongli investitsiya qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtirishi va investitsiya xavfini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, shaffoflikning etishmasligi bozorda manipulyatsiya va adolatsiz amaliyotlarni rag'batlantirishi mumkin, bu esa ishonch va barqarorlikka putur yetkazadi.

3. Noadekvat tartibga solish: Qimmatli qog'ozlar bozorining noto'g'ri tartibga solinishi bozor ishtirokchilari tomonidan manipulyatsiya va firibgarlik kabi axloqsiz xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Samarasiz tartibga solish, shuningdek, investorlar huquqlarining yetarli darajada himoyalanganligiga olib kelishi va bozor ishtirokchilari uchun adolatsiz sharoitlar yaratishi mumkin. Bozorning barcha ishtirokchilarining manfaatlarini samarali tartibga solish va himoya qilishni ta'minlash uchun qonunchilik va nazorat organlarini takomillashtirish zarur.

4. Makroiqtisodiy omillar: Qimmatli qog'ozlar bozoriga ko'pincha inflyatsiya, foiz stavkalari, siyosiy beqarorlik va xalqaro voqealar kabi makroiqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar bozorda noaniqlik va beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa investorlarni tushkunlikka

soladi. Fond bozorining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun makroiqtisodiy siyosatni takomillashtirish va iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish zarur.

5. Investorlarning yetarli darajada ta'lim va xabardorligi: investorlarning yetarli darajada ta'lim va xabardorligi ham fond bozorining rivojlanishi uchun muammoga aylanishi mumkin. Aksariyat investorlar moliyaviy bozorlar haqida yetarli bilimga ega emaslar va bozor sharoitlarini tahlil qilish va bashorat qila olmaydilar. Bu xatolikka olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda eksportni rivojlantirish bu investitsion faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas bir qismidir. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etilishi iqtisodiyot mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarni yo'lga qo'yish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va natijada mamlakat aholisining turmush darajisini ko'tarilishi va daromadlarini oshishiga olib keladi. Moliya bozorlarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rini oshirish uchun samarali tartibga solish tizimi o'rnatilishi lozim. Moliya bozorini tartibga soluvchi organlar ishtirokchilar va investorlarning firibgarlik va manipulyatsiyadan aziyat chekmasligini ta'minlashga e'tibor qaratadi. Shuningdek, regulyatorlar bozorlarning samarali ishlashini va bozor ishtirokchilarining bozor yaxlitligiga ishonchlarini ta'minlashga e'tibor qaratadi. Likvidlilik, keng qamrovdagi ishtirokchilar hamda ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi moliya bozorlarining samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi. Ushbu faktorlarni moliya bozorlarida yuzaga keltirish, ishtirokchilar faoliyatini mavjud xalqaro standartlarga moslashtirish mamlakatimizda moliya bozorini rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati

1. "O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi: muammolar va istiqbollari" (A.I.Hayraddinov, 2019)
2. "O'zbekiston fond bozorining uzoq muddatli rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar" (G.A.Rakimova, 2016 y.)
3. "O'zbekiston fond bozorida investitsiya faoliyati: holati, muammolari, istiqbollari" (M.M.Yusupov, 2017)
4. O'zbekiston Respublikasi prezidentini 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
5. <https://dutyfree58.ru/uz/kak-rabotaet-fondovyi-rynok-mehanizm-rabotyrynka-akcii>
6. <https://dutyfree58.ru/uz/kak-rabotaet-fondovyi-rynok-mehanizm-rabotyrynka-akcii>

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Maxkamova Nodira Saidmuratovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti
Iqtisodiyot fakulteti Moliya va kredit kafedrasi katta o'qituvchisi

Matyagubova Feruza Alisher qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Moliya sohasidagi huquqiy fan va amaliy faoliyat uchun "davlat moliyaviy nazorati" va "davlat audit" tushunchalarini ajratish muhim ahamiyat kasb etadi, shu maqsadda ushbu tadqiqotda

davlat moliyaviy nazoratining nazariy va huquqiy asoslarini, moliyaviy nazoratning kontsepsiyasi va mohiyatini ko'rib chiqish hamda o'rganish vazifasini oldi.

Davlat moliyaviy nazorati-davlat boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, u qonuniylik, muvofiqlik va moliyaviy resurslarni hamda boshqa davlat mulkini boshqarish samaradorligining qabul qilingan qonunlar va standartlaridan chetga chiqishlarni nazoratni o'z ichiga oladi.

Davlat moliyaviy nazoratining (DMN) asosiy maqsadi ishlab chiqarishning barcha sohalarida moliyaviy resurslarni boshqarish amaliyotining davlat moliyaviy siyosatining vazifalariga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Davlat moliyaviy nazoratining eng muhim vazifasi davlat organlari va jamiyatni davlat mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha keng qamrovli va ishonchli axborot bilan ta'minlashdan iborat. Davlat moliyaviy nazoratining maqsadi davlat budjeti va budjetdan tashqari moliyaviy vositalar va davlat mulkidan foydalanishning qonuniyligi va samaradorligini ta'minlashdan iborat. Ushbu asosiy vazifalarga muvofiq, DMN quyidagilarni o'z ichiga oladi⁶²:

- budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarning hajmi, tuzilishi va maqsadlari bo'yicha daromad va xarajatlar moddalarining o'z vaqtida bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish;
- davlat mablag'lari sarf-xarajatlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash va davlat mulkdan foydalanish;

O'zbekiston Respublikasida 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida jami yirik korxonalar tomonidan 559,2 ming dona elektr isitgichlar ishlab chiqarilgan. Mazkur ishlab chiqarish 2022-yilning tegishli davriga nisbatan 37,8 % ga oshgan. O'zbekistonda 2023-yilning oktabr oyida yirik korxonalar tomonidan 69 ming dona elektr isitgichlar ishlab chiqarilgan. 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida Toshkent shahrida nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan 28 834,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan. Ularning tarkibida bino va inshootlar qurilish ishlarining ulushi – 69,9 %ni, fuqarolik obyektlari qurilish ishlari ulushi – 14,3 %ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari ulushi – 15,8 %ni tashkil etgan⁶³. Davlat moliyaviy nazorati bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda boshqaruv organlari iqtisodiy-huquqiy harakatining kompleksli va maqsadga yo'naltirilgan tizimidir. Moliyaviy nazoratni tashkil etishda mamlakatning Konstitutsiyasi hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Uning huquqiy reglamenti davlatning tipiga, uning sotsial-siyosiy yo'naltirilganligiga, iqtisodiy tarqqiyot darajasiga, mulkchilik shakllarining nisbatiga bog'liq.

Davlat moliyaviy nazorati yalpi ichki mahsulot taqsimlanishining qiymat proporsiyalarini kuzatishga qaratilgan. Bu nazorat davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, ularning to'liq va o'z vaqtida tushib turishi va ulardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq bo'lgan pul resurslari harakatining barcha kanallariga (tarqatiladi) tegishli hisoblanadi⁶⁴. Bu narsa, eng avvalo, barcha darajalardagi budjetlar va nobudjet fondlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va ijro etish, korxona va tashkilotlar, banklar va moliyaviy korporatsiyalarning moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni anglatadi. Agar umummilliy iqtisodiy manfaatlar bilan belgilangan (aniqlangan) bo'lsa, davlat moliyaviy nazoratchilari ham davlat sektorida va xususiy hamda korporativ biznes sektorida taftish va tekshirishlarni amalga oshirish huquqiga egadir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ko'p yillik tajriba asosida jahonda davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning asosiy tamoyillari ishlab chiqarilgan bo'lib, har bir sivilizatsiyalashgan davlatlarga amal qilingan va intiladi. Bu tamoyillar qonuniylik, daxlsizlik, obyektivlik, malakalilik, oshkoralikni talab qiladi.

Qonuniylik – moliyaviy nazoratning muhim tamoyillaridan biri bo'lib, birinchidan, davlat va mahalliy moliyaviy va moddiy resurslardan fodalanihdagi qonuniylikni ko'zda tutsa, ikkinchidan, nazorat organlari faoliyati ham qonun asosida belgilangan vakolatlari doirasida tashkil etilmog'i kerak.

⁶² O'zbekiston Respublikasi "Budjet kodeksi" O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami. 52 (I) son, 2013-y

⁶³ www.stat.uz

⁶⁴ A.K.Ibragimov, I.K.Ochilov I.N.Qo'ziyev, N.Q.Rizayev (2007) "Moliyaviy va boshqaruv hisobi" o'quv qo'llanma.

Nazorat-iqtisodiy ishlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, xo‘jalik yuritishning yuqori natijalariga erishishga, davlat daromadlarining oshishiga hamda davlat mablag‘laridan samarali, maqsadga muvofiq foydalanishga ta’sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi” O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 52 (I) son, 2013-y.
2. Arens E.A, Lobbek Dj.K. (1995) Audit. Per. s angl. - M.; “Finansi i statistika”. - S. 205 s.
3. www.stat.uz

JAVOBGARLIK MARKAZLARI BO‘YICHA DAROMAD VA XARAJATLARNI ANIQLASH

Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna

“Bank hisobi va auditi” kafedra dotsenti, PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
shahnoza.pardayeva.94@gmail.com

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda segmentar hisobotni tuzishda eng muhim bosqich, bu segmentlar, ya’ni mas’uliyat markazlari bo‘yicha daromad va xarajatlarni aniqlashdir.

Segmentlarning daromadlari va xarajatlarini hisobga olish bo‘yicha buxgalteriya hisobining 14-sonli “Segmentar hisobot” nomli xalqaro standarti (BHXS)ga ko‘ra, segmentar hisobotda daromad va xarajatlar quyidagi moddalar bo‘yicha hisobga olinishi, maqsadga muvofiq:

- tashqi mijozlardan olinadigan daromadlar;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning boshqa segmentlari bilan bo‘ladigan muomalalardan olinadigan daromadlar;
- aktivlarning balans summasi;
- boshqa segmentlarning majburiyatlari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotib olish xarajatlari;
- amortizatsiya xarajatlari;
- boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ishtirok etishdan olingan sof foyda yoki zararlar va investitsiyalar hissasi;
- daromadlar va xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarni taqqoslash.

Yuqorida qayd qilingan, ya’ni buxgalteriya hisobining 14-sonli “Segmentar hisobot” nomli xalqaro standarti (BHXS)ga ko‘ra, segmentar hisobotda segment daromadlariga quyidagi ko‘rsatkichlar tegishli emasligi ko‘rsatilgan:

- moliyaviy qo‘yilmalarni sotishdan olingan foizlar, dividendlar va daromadlar (bunday daromadlar segmentning asosiy faoliyati bo‘lgan hollar bundan mustasno);
- favqulodda daromadlar (fors-major majburiyatlar).

BHXS me’yoriga ko‘ra segment xarajatlari – bu bevosita segment tarkibiga kiritilishi mumkin bo‘lgan xarajatlar yoki ularning xo‘jalik yurituvchi subyekt umumiy xarajatlarining bir qismi sifatida namoyon bo‘lishidir. Segmentlar xarajatlarini quyidagi moddalar bo‘yicha hisobga olish tavsiya etilgan:

- asosiy materiallar sarfi xarajatlari;
- yordamchi materiallar sarfi xarajatlari;
- bevosita mehnat (ish) haqi xarajatlari;
- texnologik ehtiyojlar uchun boshqa bevosita xarajatlar;
- umumishlab chiqarish xarajatlari (mas’uliyat markazi ustalarining mehnat haqi xarajatlari, uskunalarining eskirishi, elektr energiya xarajatlari, kichik xizmat ko‘rsatuvchi xodim va mutaxassislar mehnat haqi xarajatlari va boshqa umumishlab chiqarish xarajatlari)

Segment xarajatlariga quyidagilar kiritilmaydi:

- qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar bo'yicha xarajatlar (ular segmentning asosiy faoliyati bo'lgan hol bundan mustasno);

- daromad (foyda) solig'i;

- favqulodda xarajatlar (fors-major majburiyatlari).

Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob amaliyoti an'alariga muvofiq segmentar hisobotni buxgalter boshqaruv hisobi ma'lumotlariga asoslanib tuzadi.

Javobgarlik markazlari bo'yicha hisobda bo'lgan talablarning o'sishiga axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida imkoniyatlarning o'sishi ham bevosita ijobiy ta'sir qiladi. Javobgarlik markazlari bo'yicha hisobning kengayib borayotgan imkoniyatlarining sabablarini ikki yo'nalish bo'yicha guruhlash mumkin: 1) zamonaviy hisoblash kompyuter dasturlari ma'lumotlarni o'z vaqtida olishga va uni talab qilingan o'lchamlarda aniqlashga imkoniyat yaratadi; 2) internet, yo'ldosh aloqa televideniyesi, uyali telefon aloqasi ma'lumotlarni vaqtning haqiqiy tartibida ixtiyoriy masofaga uzatish imkonini beradi.

Shunday qilib, iqtisodiyot va axborot texnologiyalaridagi obyektiv jarayonlarning amalga oshishi munosabati bilan javobgarlik markazlari bo'yicha hisob istiqboldagi yo'nalish hisoblanadi.

Javobgarlik markazlari bo'yicha hisobni tatbiq etish bo'yicha mavjud adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar natijalari, amaliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hanuzgacha bu boradagi masalalarning ko'pchiligi munozarali xarakterga ega va hal etilmagan. Qarama-qarshi fikrlar javobgarlik markazlari bo'yicha hisobning nafaqat konseptual masalalariga, balki uning uslubiy va ish rejasi masalalariga ham tegishli. Ana shunday yondoshuvlar va bu boradagi muammolarni quyidagicha guruhlash mumkin:

– xo'jalik yurituvchi subyektning zamonaviy iqtisodiy tizimda javobgarlik markazlari bo'yicha hisobining iqtisodiy mohiyati, uning o'rnini, vazifalarini aniqlashga yondashuvlar muhokama etilmoqda;

– javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruv hisobini takomillashtirish va modellashtirish imkoniyati ko'rib chiqilmoqda;

– buxgalteriya hisob tizimida va undan tashqarida javobgarlik markazlarining xarajatlari va ularning faoliyat natijalari hisobi mexanizmi muhokama qilinmoqda;

– umumkorporativ xarajatlarning mas'uliyat markazlariga taqsimlanishi maqsadga muvofiq ekanligi isbotlanmagan hamda mazkur bilvosita xarajatlarning mos ravishda taqsimlanishiga ko'mak beruvchi uslublar ishlab chiqish bosqichida;

– strategik yo'nalishlarni tezkor yo'nalishlarga olib borish mexanizmlari, mas'uliyat markazlari bo'yicha hisobga kiritish imkoniyatlari va uning maqsadga muvofiqligi borasida munozaralar davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pardayeva Sh.A. Strategik boshqaruv hisobida ko'rsatkichlar tizimi. "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy jurnali, 2023 yil 2-son. 227-232 betlar.

2. Sh Pardayeva. Strategik boshqaruv hisobining mohiyati, vazifalari, funksiyalari va metodlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2023 yil 7-son, 342-348 betlar.

FINANCIAL FOUNDATIONS OF NON-PERFORMING LOANS ACCUMULATION

Rustamov Jonibek Ravshanbek ugli

PhD candidate, Banking and Finance academy of the Republic of Uzbekistan


Teacher, British Management university in Tashkent

j.rustamov@bmu-edu.uz; paradise.enough.me@gmail.com

Financial markets play a significant part in economy because they help to calculate risk and efficiently distribute assets among investors. Furthermore, banks are practically the most significant players in the financial markets. Thus, banks serve as a convenient source for borrowers to finance their business. In this process, banking loans are considered as a primary source for business entities and companies.

In banking lending, there are some conceptualizations of banks' loans which are commonly appropriately labelled as loan theory. Kenneth R. Szulczyk [4] said "Every financial instrument, except stock, has a principal, interest, and maturity. Principal is the loan amount that the borrower received from the lender. Then, the borrower pays interest as periodic payments to the lender because the lender allows the borrower to use the funds. Interest is a cost to the borrower, but income to the lender. Finally, a maturity is the date when the security expires, or the final date when the borrower pays the last payment for the principal plus an interest". According to Moorad Choudhry [6], "The loan term is usually fixed, and the repayment may be "bullet", meaning the initial borrowed amount is paid in one go on maturity, or it may be amortizing, meaning the borrower pays down a regular portion of the loan during its life". Generally, there are following four crucial terms which identify the amount of a loan and how quickly the debtor can pay it back:

- A principal is the amount of money that is taken as a debt from the bank by borrower.
- Loan term is the amount of time that a debtor should pay a loan back to a bank. Loan term is determined based on the agreement between a bank and a debtor
- Interest rate is the percentage of principal that is loaned money which the lender charges to a bank for using bank's money. The interest rate on a loan is defined as an annual percentage rate.
- Loan payments are the amount of money that a borrower must pay every month to provide the repayment of a loan. An amortization table is based on these four terms of a loan.



Picture-1. The loan relationship between banks and borrowers

Source: Authorized by author

Considering above terms of a loan, we can demonstrate the financial relationship between banks and borrowers as in Picture-1.

In today's competitive economy, there are many areas of business that need significant investment. Commercial bank loans are mostly used to finance some of these massive investments. In this regard, banks play an important part in a country's overall economic development. The

economic growth of countries is the most important factor for the credit system of the banks. Antoshin et al [2] stated that 10% increase in the growth of bank credit to the private sector would boost real GDP growth by 0.6-1 percent, as well as, it leads to the growth rate of private gross fixed capital formation up to 2% - 2.5%. However, while granting credit to consumers, a bank should have a method of analyzing its borrowers in order to reduce the risk of default. The impact of defaulted loans is not restricted to damaging the earnings of a single bank, as well as, it has a broader impact on the economy as a whole. As a result, prudent banks are concerned about the quality of their loans as well as the efficacy of their risk management methods. Almir Alihodzic et al [1] stated that the quality of the credits is a key aspect in the bank credit system.

The first glance of literature review indicates that there is no internationally accepted definition for non-performing loans (NPLs). This implies that NPL classifications vary among different jurisdictions [5]. While non-performing loans have not a uniform definition across countries, International Monetary Fund (IMF) stated that loans would be considered as NPLs, if borrowers do not repay payments (an interest and principal amount) for at least of 90 days.

Some international organizations or scientific institutes as well as researchers divided the loans into several groups relying on their scientific and practical knowledge. The main purpose of this is to work on loan quality and to further clarify non-performing loans. The International Monetary Fund [3] defines loans as NPLs when (a) payments of principal and interest are past due by 90 days or more; (b) interest payments equal to 90 days interest or more have been capitalized (reinvested into the principal amount), refinanced, or rolled over (payment delayed by agreement); or (c) evidence exists to reclassify them as NPLs even in the absence of a 90-day past due payment. For instance, when the debtor files for bankruptcy after classifying the loan as NPLs.

There are some convincing significant reasons for high NPLs and the causes of NPLs are different with bank policies and macroeconomic regulations. As a result, the classification of non-performing loans' causes has discrepancy from a bank to a bank, as well as, among countries. In general, the reasons of NPLs are divided into two separate groups: internal (bank specific) factors and external (non-related bank performance) factors. Weak credit procedure, unexperienced credit specialists, baseless credit principles, lack of monitoring policy of the borrowers are considered as internal reasons for the accumulation of NPLs. The following factors briefly explain how to arise internal reasons and in which process of bank performance during the period of loan transactions:

- lack of regular control of repayment due to labor deficit of a bank;
- lack of consultation and connection with defaulters;
- overstating the collateral value in the estimation process;
- insufficient credit information that is collected from other commercial banks;
- the presence of employees who abuse their work in order to increase their loan portfolio and bonus points by realizing loan contracts without in-depth analysis;

Furthermore, there are some external factors for high NPLs and these reasons are closely related to government economic policy and borrowers' business strategy. Following listed reasons are implied as main external factors of NPLs:

- To use the principal amount for other purposes;
- Economic and political policies;
- Influence of vulnerable fiscal and monetary policy;
- Non-existence of credit awareness system in the financial market;
- Unfair competition between banks;
- The financial laws do not work perfectly.

In conclusion, the financial consequences of Non-Performing Loans (NPLs) accumulation are very significant. NPLs, which represent loans where borrowers have failed to make scheduled payments for an extended period, can stem from both external factors such as economic downturns or regulatory changes, as well as internal reasons like poor lending practices or inadequate risk management. Addressing NPL accumulation requires a comprehensive approach that involves proactive risk assessment, prudent lending strategies, and timely interventions to mitigate potential

financial risks. By understanding the causes and implications of NPL accumulation, financial institutions can better navigate challenges and safeguard their financial stability in an ever-evolving economic landscape.

References

1. Almir Alihodzic, Ibrahim Halil Eksi (2018), "Credit growth and non-performing loans: evidence from Turkey and some Balkan countries" Eastern journal of European studies Volume 9, Issue 2, pp. 229-249.
2. Antoshin, S., Arena, M., Gueorguiev, N., Lybek, T., Ralyea, J. and Yehoue, E. (2017), Credit Growth and Economic Recovery in Europe After the Global Financial Crisis, IMF Working Paper, No. WP/17/256, International Monetary Fund, Washington, D.C.
3. International Monetary Fund. Financial Soundness Indicators: Compilation Guide; International Monetary Fund: Washington, DC, USA, 2006; ISBN 978-1-58906-385-3.
4. Kenneth R. Szulczyk "Money, banking, and international finance" 2th editon, p.26
5. Khalil Alnabulsi, Emira Kozarevic, Abdelaziz Hakimi "Non-performing loans as a driver of banking distress: a systematic literature review" Commodities 2023, 2, p. 111-130.
6. Moorad Choudhry "An introduction to banking principles, strategy and risk management" 2th edition, p. 16.

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISH MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

Ruzmanov Shuxrat Usmonovich

O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti
"Ekonometrika va iqtisodiy modellash" kafedrasida katta o'qituvchisi
shuxratruzmanov@gmail.com

Mikromoliyalash dunyoning ko'plab mamlakatlarida kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy rivojlanishning samarali vositasi sifatida e'tirof etilgan. O'zbekistonda mikromoliya tashkilotlari (MMT) kam ta'minlangan aholiga moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda, ayniqsa, an'anaviy bank xizmatlari cheklangan qishloq joylarida tobora muhim rol o'ynamoqda. Biroq O'zbekistonda mikromoliya sektorining o'sishiga qaramay, MMTlar aholining eng zaif qatlamlarini, xususan, ayollarni qamrab olishda hali ham jiddiy muammolarga duch kelmoqda.

O'zbekistonda mikromoliyalashning me'yoriy-huquqiy bazasi vaqt o'tishi bilan rivojlanib bordi. 2019-yil 23-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4400-sonli qarori qabul qilindi [1], mamlakatda mikromoliyaviy operatsiyalarning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlab berdi. Qonun mikromoliya tashkilotlarini (MMT) ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalashni nazarda tutadi va ularning faoliyatiga qo'yiladigan talablarni belgilab berdi. 2019-yilda "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, u shaffoflik va hisobdorlik bo'yicha yangi talablarni joriy etish orqali mikromoliya sektorini yanada tartibga soldi [2].

O'zbekistondagi MMTlarning biznes modellari ularning hajmi, tuzilishi va maqsadli aholi soniga qarab farqlanadi. Mamlakatda NNT, banklar va kredit uyushmalari kabi turli xil MMTlar mavjud. Ba'zi MMTlar o'qitish va biznesni rivojlantirish xizmatlari kabi moliyaviy bo'lmagan xizmatlarni ham taqdim etadilar.

Tijorat banklari va mikrokredit tashkilotlarining kichik tadbirkorlik subyektlarini kreditlash faoliyatini tahlil etish masalalari xorijlik bir qator taniqli iqtisodchilar, Larionova I.V. [3], Lavrushin O.I [4], Merkulova I.V., Lukyanova A.Yu. [5], kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.


O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Abdullaeva Sh.Z. [6], Arifxodjaeva M.I [7], Astanov X.Z [8], U.Sh. Dusqobilovlarning [9] ilmiy ishlarida mazkur masalaning aloxida muhim jihatlari o'z aksini topgan.

Ammo O'zbekiston Respublikasining bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti ushbu masalani har tomonlama kengroq ko'rib chiqishni taqazo etmoqda.

Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun aralash usulli tadqiqot loyihasini qabul qiladi. Ushbu yondashuv sifat va miqdoriy ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Yig'ilgan ma'lumotlar ham sifat, ham miqdoriy ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalangan holda tahlil qilinadi. So'rovning miqdoriy ma'lumotlari tavsiflovchi statistik ma'lumotlar, jumladan, chastotalar, vositalar va foizlar yordamida tahlil qilinadi. O'zbekistonda mikromoliya xizmatlari muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ma'lumotlar regression tahlil qilinadi. Tadqiqot ma'lumotlarni tahlil qilish uchun Statistik paket (Stata) dasturidan foydalanadi.

Bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida bank tizimiga o'zaro to'ldiruvchi qism sifatida nobank kredit tashkilotlarida potensial mijozlarning mikromoliyaviy xizmatlarga bo'lgan oshib borayotgan talablarini ta'minlash orqali respublika miqyosida ular faoliyati ommabopligini ta'minlash choralari ko'rib borilmoqda.




1-rasm. Nobank kredit tashkilotlari soni.

Xususan, 2021-yilda nobank kredit tashkilotlari bozoriga yangi ishtirokchilarning kirib kelishi, ya'ni 8 ta mikrokredit tashkiloti hamda ularning 30 ta filial va chakana xizmatlar markazlari, 9 ta lombardlar tashkil qilinganligi natijasida nobank kredit tashkilotlarining umumiy soni ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti bilan birga 144 taga yetdi[10].

Shuningdek, lombardlar jami aktivlari 2022-yil 1-yanvar holatiga 209 mlrd. so'mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 43 foizga oshishi asosan lombardlar tomonidan kreditlash hajmining o'sishi bilan bog'liq hisoblanadi.


Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti jami aktivlari o'tgan yil mos davriga nisbatan 3 barobarga (871 mlrd. so'mga) oshib, 1,3 trln. So'mga yetdi. Bunda aktivlarning oshishi asosan kreditlash sur'atlarining yuqori darajada (846 mlrd. so'mga) o'sishi hisobiga yuz berdi[10].



2-rasm. Nobank kredit tashkilotlari kredit qo'yilmalari qoldig'i va jami bank tizimidagi ulushi.

O'z navbatida, hisobot yilida ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti tomonidan aholini arzon uy-joylarga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojini qondirish maqsadida tijorat banklariga ajratilgan kreditlari 2020-yilga nisbatan qariyb 4 barobarga (846 mlrd. so'mga) ortib, 1,1 trln. so'mga teng bo'ldi.

2021-yilda mikrokredit tashkilotlari va lombardlar tomonidan ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi 2020-yilga nisbatan 2 barobarga oshib, 3,1 trln. so'mni tashkil etdi. Natijada, 2022-yilning 1-yanvar holatiga mikromoliyaviy xizmatlarning qoldig'i 43 foizga ortib, 1,3 trln. so'mga yetdi.



3-rasm. Mikrokredit tashkilotlari va lombardlar tomonidan ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar qoldig'i, mlrd. so'mda.

Mikrokredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan mikroqarz, mikrokredit va mikrolizing xizmatlari qoldig'i 2020-yilga nisbatan 43 foizga oshib, 1 160 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, lombardlar tomonidan ajratilgan kreditlar qoldig'i 40 foizga oshib, 176 mlrd. so'mni tashkil etdi. Natijada, hisobot yilida nobank kredit tashkilotlari kredit qo'yilmalari jami qoldig'i 2020-yilga nisbatan 2 barobarga o'sib, 2,5 trln. so'mga (tizimdagi ulushi 0,8 foizga) yetdi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistondagi MMTlar turli muammolarga duch kelmoqda, jumladan, moliyalashtirishning cheklanganligi, infratuzilmaning yetarli emasligi va mijozlarning moliyaviy savodxonligi yo'qligi. Shu bilan birga, MMTlar o'z mahsulot va xizmatlarini aholining o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga moslashtirib, targ'ibot ishlarini kengaytirish va xizmatlarini yaxshilash imkoniyatlariga ega. Bundan tashqari, tadqiqot mikromoliyalash O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va gender tengligiga hissa qo'shish salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kelgusi tadqiqotlar O'zbekistonda mikromoliya xizmatlarini yaxshilashga qaratilgan muayyan tadbirlar samaradorligini sinash uchun keng ko'lamli so'rovlar yoki tasodifiy nazorat sinovlari o'tkazish orqali ushbu tadqiqotga asoslanishi mumkin. Umuman olganda, tadqiqot O'zbekistonda moliyaviy inkluzivlikni rag'batlantirish va kambag'allik va gender tengsizlikni bartaraf etishda mikromoliyalash muhimligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'hati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4400-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvinining 2019-yil 10-avgustdagi 18/7-son qarori.
3. Larionova I.V. Upravlenie aktivami i passivami v kommercheskom banke. –M.: «Konsaltbankir» 2003.
4. Lavrushin O.I. i dr. Dengi, kredit, banki. Uchebnik. – M.: KNORUS, 2010. -560 str.
5. Merkulova I.V., Lukyanova A.Yu. Dengi, kredit, banki. Uchebnoe posobie. – M.: KNORUS, 2010. – 352 str.
6. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. - T.:Iqtisod-moliya, 2017.
7. Arifxodjaeva M.I. Tijorat banklarining innovatsion rivojlanishida marketingning roli./Monografiya/ Akademik S.S.G'ulomov taxriri ostida.-T.: "Navruz", 2017-y. 288 b.
8. Astanov X.Z. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish. O'quv qo'llanma.- T.: "Iqtisodiyot". 2015 y. 121 b.

9. Dusqobilov U.Sh. O'zbekistonda monetar siyosatni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari./Monografiya/.-T.: "navruz" 2017-y. 172 b.

10. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 2021 йилдаги фаолияти тўғрисидаги ҳисобот Toshkent-2022 y. 2000 bet

11. https://cbu.uz/uz/press_center

12. <https://siat.stat.uz/>

TIJORAT BANKLARINING MOLIYA BOZORIDAGI FAOLIYATI VA OPERATSIYALARI

Sotvoldiyev Alisher Dilshod o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti
Iqtisodiyot fakulteti Moliya va kredit kafedrası o'qituvchisi

Muxammadiyeva Munisa Rasul qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Insonlarning iqtisodiy ongi o'sishi bilan moliyaviy bozorlar kundan kunga rivojlanib bormoqda, buning natijasida moliyaviy bozorlar jahonda yetakchi bozorlardan biri bo'lib kelmoqda. Moliyaviy bozorlarning asosiy moliyaviy vositachilaridan biri bu tijorat banklari hisoblanadi. Tijorat banklarining moliya bozorida tutgan o'rni juda muhim va ular bilan bog'liq operatsiyalar global mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Banklar tomonidan amalga oshirilgan turli operatsiyalar, investitsiyalash, kreditlash kabi muammolar hozirgi kun uchun juda muhim hisoblanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020-yildagi PF-5992-son farmoniga ko'ra, "Xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi yangilangan qonunlari qabul qilindi. Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda."⁶⁵

Banklar mablag'lar, kreditlar, valyutalar, aksiyalar va boshqa moliyaviy vositalarni o'z ichiga oladi va bular orqali mijozlarga xizmat ko'rsatib daromad oladi. Tijorat banklari mijozlariga kredit va omonat xizmatlarini taklif qilish orqali, jismoniy va yuridik shaxslar uchun moliya vositalarini taqdim etish bilan shug'ullanadi." Shuningdek, banklar qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat ko'rsatish uchun eng qulay shart-sharoitlarga ega hisoblanadi. Xususan, bank xodimlarining qimmatli qog'ozlar haqida tushunchalarga egaligi, banklarning muomalaga qimmatli qog'ozlarni va avvalo, aksiyalarni chiqarib turuvchi emitent sifatida ishtirok etishi, banklarda katta miqdorda o'z mablag'lari va qarz resurslarining mavjudligi uchun fond bozorida yirik sarmoyador sifatida qatnashish uchun imkoniyatlari mavjudligi va respublika qonunchiligi banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritishini cheklamaganligi qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etish uchun yetarli omillar hisoblanadi."⁶⁶

Iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologik vositalar, jumladan, bank tizimidagi yangi innovatsion tizimlar asosiy bo'g'inlardan biri bo'lib kelmoqda. Tijorat banklari ham mijozlar o'rtasidagi operatsiyalarni osonlashtirish orqali to'lov tizimida asosiy rol o'ynaydi. Pul

⁶⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-4811025?ONDATE=18.03.2022%2000>


⁶⁶ Sh.Sh.Shoha'zamiy, K.Ismoilov, Sh.Q.Fozilchayev, J.I.Karimqulov. "Moliya bozori". O'quv qo'llanma 2012 y.

o'tkazmalari, elektron to'lovlar va cheklar berish kabi xizmatlar orqali banklar jismoniy shaxslar va korxonalarga pulni tez va xavfsiz tarzda o'tkazishda yordam beradi.

Tijorat banklarining moliya bozorida ishtiroki asosan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'ladi. "O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka asosan tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida bajarishi mumkin bo'lgan operatsiyalarga:

- muomalaga qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi emitentlar sifatida;
- boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat qimmatli qog'ozlarini sotib oluvchi sarmoyadorlar sifatida;
- fond bozorida brokerlik va dillerlik faoliyatini yurituvchi sifatida;
- investitsiya va fondlarni boshqaruvchi sifatida;
- depozit xizmat ko'rsatuvchi sifatida;
- mijozlarga qimmatli qog'ozlar bo'yicha maslahatlar beruvchi sifatida va boshqalar kiradi"⁶⁷.

Bugungi kunda O'zbekiston fond bozori mamlakatda amalga oshirilayotgan bir qator iqtisodiy islohotlar ta'siri natijasida yangi pog'onaga ko'tarildi. Fond bozori aylanmasining o'sishi, fond bozoriga xizmat qiluvchi barcha infratuzilmalarning rivojlantirilishi, qonunchilikning takomillashtirilishi fond bozori ishtirokchilarining qiziqishlarini kuchaytirmoqda. "Toshkent" Respublika fond birjasi O'zbekiston fond bozorining asosiy savdo maydoni hisoblanadi. Ushbu fond birjasining statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil boshidan 29-mart sanasigacha bo'lgan tahliliga ko'ra: "2024-yil birinchi 3 oyligidagi moliya bozorida sohalar bo'yicha tuzilgan bitimlar"⁶⁸.




1-rasm. Bitimlar soni bo'yicha top sohalar bo'yicha bitimlar soni qimmatli qog'ozlar.

1-rasmdan ma'lumki 2024-yil dastlabki 3 oyi mobaynida umumiy 1136 ta bitim imzolangan bo'lib, ulardan eng ko'pi, ya'ni 449 tasi bank sohasiga oid hisoblanadi. Keyingi o'rinlarni esa boshqa sohalar (160 ta bitim), sug'urta sohasi (118 ta bitim), aloqa sohasi (110 ta bitim), energetika sohasi (91 ta bitim), agrosanoat sohasi (87 ta bitim), sanoat sohasi (83 ta bitim), qurilish sohasi (33 ta bitim), lizing sohasi (3 ta bitim) va transport sohalari (2 ta bitim) egallab turibdi.

⁶⁷ <https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/tijorat-banklarining-qimmatli-qog-ozlar-bilan-operatsiyalari>

⁶⁸ <https://uzse.uz/abouts/itogitorguz?locale=uz>



2-rasm. 2024-yilgacha moliya bozorida sohalar kesimida tuzilgan bitimlar soni va hajmi⁶⁹.

2024-yil mart oyi oxiriga ko'ra eng ko'p bitimlar sanoat va qurilish sohalarida imzolangan. Keyingi o'rinda esa bank sektori emitentining qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan bitim turibdi. Bank sohasi bo'yicha tuzilgan bitimlar birjadagi umumiy bitimlarning 13,8 foizini tashkil etadi. Keyingi o'rinlarni esa boshqa sohalar, aloqa sohasi, energetika sohasi, agrosanoat sohasi, transport sohasi, sug'urta sohasi va lizing sohasi bo'yicha tuzilgan bitimlar egallaydi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologik vositalar, jumladan, bank tizimidagi yangi innovatsion tizimlar asosiy bo'g'inlardan biri bo'lib kelmoqda. Tijorat banklari ham mijozlar o'rtasidagi operatsiyalarni osonlashtirish orqali to'lov tizimida asosiy rol o'ynaydi. Pul o'tkazmalari, elektron to'lovlar va cheklar berish kabi xizmatlar orqali banklar jismoniy shaxslar va korxonalarga pulni tez va xavfsiz tarzda o'tkazishda yordam beradi.

1-jadval

“AT “Asakabank”ning 2019-2022-yillardagi aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlar va investitsiyalarning o'rni”⁷⁰

№	Aktivlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1	Qimmatli qog'ozlar va ularga qilingan investitsiyalar	215 398 728	776 426 000	845 089 000	1 196 218 657
		0,62	1,71	1,71	2,34
2	Investitsiyalar	382 348 038	187 696 000	254 112 000	1 117 491 716
		1,1	0,41	0,51	2,18
3	Kredit va lizing operatsiyalari	26 321 800 862	35 806 386 000	37 695 638 000	35 665 599 472
		75,9	79	76,3	69,7
4	Jami aktivlar	34 698 117 291	45 314 354 000	49 394 591 000	51 180 350 649
		100	100	100	100

Tijorat banklari an'anaviy bank xizmatlaridan tashqari o'zlarining boyliklarni boshqarish bo'linmalari orqali ham investitsiya faoliyati bilan shug'ullanadilar. Ushbu bo'linmalar mijozlarga vaqt o'tishi bilan boyliklarini oshirishga yordam berish uchun sarmoyaviy maslahat, aktivlarni boshqarish va pensiya rejalashtirish kabi xizmatlarni taklif qiladi. Shu o'rinda mamlakatimizdagi yirik banklardan biri bo'lgan “Asakabank” misolida yurtimizdagi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar bilan amalga oshirayotgan operatsiyalarini 1-jadvalda ko'rib chiqamiz.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, tijorat banklari muhim xizmatlarni taqdim etish, risklarni boshqarish va texnologik yutuqlarni qo'llash orqali moliya bozorida muhim rol o'ynaydi. Mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan rentabellikni samarali muvozanatlash orqali tijorat banklari iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikka hissa qo'shadi. Bundan tashqari tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyatini asosan qimmatli qog'ozlar ta'minlaydi va banklar qimmatli qog'ozlar

⁶⁹ <https://uzse.uz/abouts/itogitorguz?locale=uz>

⁷⁰ www.Asakabank.uz sayti ma'lumotlari

bozorida ishtirok etadi. Shu sababdan tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan savdosiga oid yengilliklar yaratish va mamlakatda qimmatli qog'ozlar bo'yicha insonlarda qiziqish uyg'otish mamlakat iqtisodiy ahvolidan yaxshilanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.Sh. Shoha'zamiy, K.Ismoilov, Sh.Q.Fozilchayev, J.I.Karimqulov. "Moliya bozori". O'quv qo'llanma 2012-y.
2. A.Vahobov, T.Malikov "Moliya". Darslik 2011-y.
3. Shoha'zamiy Shohmansur Shohnazir o'g'li "Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar". Darslik – 2012-y.
4. Jasurbek Ataniyazov "Stock Market in Uzbekistan: Current Situation and Development Prospects". Maqola 2022 y.
5. <https://uzse.uz/abouts/itogitorguz?locale=uz>
6. <https://bjmas.org/index.php/bjmas/article/download/117/306/111>
7. <https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/tijorat-banklarining-qimmatli-qog-ozlar-bilan-operatsiyalari>
8. <https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19133>
9. <https://lex.uz/uz/docs/-4811025?ONDATE=18.03.2022%2000>
10. <https://www.Asakabank.uz>

MOLIYAVIY BOZORNING MOHIYATI, ZARURLIGI, ASOSIY VAZIFALARI VA TURLARI

Tangirqulov Isomiddin Sirojiddin o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Hozirgi kunda, moliya bozorini tijorat banklari tomonidan investitsiya va shuningdek, emission faoliyatini rivojlantirish bir maromda va xatarsiz muomalada bo'lishi uchun mazkur sohaga oid qonuniy me'yorlarni davr talablari darajasida ishlab chiqish hamda ularni doimiy ravishda takomillashtirib borishni, oddiy fuqarodan tortib, davlat organlarigacha qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari tomonidan qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishni o'zida uyg'unlashtiruvchi tizim asosida tadqiq qilish zarurligini yuzaga keltiradi. Farmon bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston - 2030,, strategiyasi tasdiqlandi. Hujjatda quyidagi asosiy g'oyalar aks ettirilgan⁷¹:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;

- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida o'z dolzarbligini yo'qotmagan barcha maqsadlarga erishish, shuningdek, Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta'minlanadi.

B.Sattarov fikriga ko'ra, "Moliya bozori - bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq tashkillashgan iqtisodiy - huquqiy mexanizm bilan

⁷¹ <https://www.norma.uz>

ta'minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiyot subyektlari uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo'luvchi tizim"⁷² deb ta'kidlangan.

A.V. Vahobov, T.S. Malikovlar o'zlarining "Moliya kitobida", Moliya bozori moliyaviy vositalardan foydalangan holda moliyaviy bitimlarni amalga oshirish jarayonlari amalga oshirish vositasi ekanligini takidlangan. Moliya bozori - ortiqcha mablag'larga ega odamlardagi pul mablag'larini pul mablag'lari yetishmayotganlarga o'tkazib berishga xizmat qiluvchi bozor"⁷³dir deb ta'riflagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-2025-yillarda moliya bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va erkin muomaladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatini 2025-yil oxiriga qadar kamida 10-15 foizga yetkazish kun tartibidagi asosiy masala ekanligi ta'kidlanmoqda. Bunday ustuvor va dolzarb vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatimizda moliya bozorining xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish hamda moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Moliya bozorini samarali tashkil etish va boshqarishda tartibga solish jarayoni juda muhim, ammo u haddan tashqari qat'iylashtirilmasligi zarur. Ushbu bozor rivojlanishi uchun uning ishtirokchilari ko'lamini kengaytirish va bu jarayon jahon talabiga javob bermaydigan korxonalar hisobiga amalga oshirilmasligi darkor. Moliyaviy resurslarni jalb qilish jarayonida foydalaniluvchi moliyaviy instrumentlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotning korporativ sektorida kapital bozori segmentlarining o'zaro munosabatlari shakllanadi. O'z navbatida, segmentlar o'zaro ta'sirining xususiyatlari va darajasini tahlil qilish qimmatli qog'ozlar bozori va kredit bozorining (kuchli, o'rta, zaif) uch turdagi o'zaro bog'liqligini aniqlash va tavsiflash imkonini beradi. Lekin har qanday bozorni u yoki bu belgi asosida tasniflanishining mazmuni uning tovari xususiyatlari bilan bog'liq holda amaliy ahamiyati bilan belgilanishini hisobga olsak hamda, agar ko'rilyotgan bozor turlaridagi tovarlarni xususiyati, kelib chiqishi va ularning bozor muomalasini bir-biri bilan taqqoslaydigan bo'lsak, albatta, sezilarli farq namoyon bo'ladi. Masalan, ishlab chiqariladigan tovarlar muomalasi uchun ularga hos bo'lgan bozor zarur, qimmatli qog'ozlar uchun esa faqat moliya bozori, pul (valyuta) va kreditlar uchun - mos ravishda pul bozori va kreditlar bozori bo'lishi kerak va h.k. Bunda real tovar, moliya instrumentlaridan farqli, bir yoki bir necha marotaba oldi-sotdi bo'ladi, qimmatli qog'ozlar esa cheklanmagan martta oldi-sotdi bo'lishi mumkin.

Mamlakatimiz tijorat banklari jami resurslari tarkibida muomalaga chigarilgan qimmatli qog'ozlari hisobidan shakllantirilgan moliyaviy resurslar, tahlil etilyotgan davr mobaynida juda zaif bo'lib, faqatgina 2020-yil 1-yanvar holatiga 1,3 foizni tashkil etgan, unga qadar bo'lgan yillar davomida ushbu ko'rsatkich bundan ham past darajada bo'lgan. MDH mamlakatlari qimmatli qog'ozlar bozori savdo aylanmalarining YIMga solishtirib ko'radigan bo'lsak O'zbekistonda 1,2%, Qog'og'istonda 1,5%, Qirg'izistonda 1,1%, Rossiyada 5,4% dan iborat ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori savdo aylanmalarining ishtirokchilari sifatida MDH mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda ham asosan banklar hisoblanadi. Masalan mamlakatimiz fond birjasida 2019-yilda qimmatli qog'ozlar bozori savdo aylanmalari jami 438,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, shuning qariyb 319,5 mlrd. so'mi yoki 72,8 foizi tijorat banklari hissasiga to'g'ri kelgan. 2022-yilda iqtisodiyotning 10 ta turli xil soha aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari bilan birja savdolari amalga oshirildi. Eng ko'p bitimlar bank va sanoat sektorlari emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirildi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan 26042 ta bitim tuzildi, bu birja bitimlari umumiy sonining 32,26 foizini tashkil etdi. Sanoat tarmog'idagi 9 ta emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan 21247 ta bitim tuzildi (birja bitimlari umumiy sonining 26,32 foizi)⁷⁴.

⁷² Xolmo'minov Sh.R., Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Fan va texnologiyalar", 2016. 150-155 b

⁷³ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik (Toshkent) Moliya instituti. - Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet.

⁷⁴ <https://www.stat.uz>

“Milliy moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish muammosi iqtisodiyotni modernizatsiyalash, barqaror industrial va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, inflyatsiyani pasaytirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish zarurligidan kelib chiqadi. Ushbu muammoni samarali yechimi moliya bozorining raqobatbardoshligi va havfsizligi, barqarorligi va likvidligi, investorlar uchun jozibadorligi va risksizligi darajasini ta’minlash bilan uzviy bog‘liq. Bunda turli tashqi va fundamental ichki omillar ta’sirini hisobga olish muhim hisoblanadi”⁷⁵

Hozirda moliyaviy bozorning tarkibi tuzilmasi yanada kengayib, tizimlashtirilib, jahon moliyasining asosiy bog‘iniga aylanib bormoqda. Bunda moliya bozorlari nafaqat milliy iqtisodiyot rivojini, balki milliy iqtisodiyotning ko‘lamini, samaradorligini shu bilan birga, barqarorligini ham belgilamogda.

Hozirda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va uzluksiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallashib borayotgan alohida bir butun va o‘z muhitiga ega munosabatlar va institutlar (qatnashchilar) majmuasi sifatida namoyon bo‘luvchi murakkab tizim ekanligi aniq bo‘lmoqda. Bunda moliya bozorlari nafaqat milliy iqtisodiyot, balki global iqtisodiyot rivojini belgilamoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda moliya bozori orqali, bir tomondan davlat korxona va tashkilotlar, aholi o‘zlari uchun zarur bo‘lgan mablag‘ni jalb qilsalar, ikkinchi tomondan korxona, tashkilot va aholi o‘zlarining vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini qimmatbaho qog‘ozlar sotib olishga yo‘naltirib foyda ko‘radilar. Bu esa moliyaviy resurslarning harakatini ta’minlab, iqtisodiy o‘sishga turtki beradi. Moliya bozorining investitsion faolligini oshirish, nafaqat, aktivlar qiymati va savdo hajmlarining o‘sishi bilan birga olib borilishi kerak, balki qimmatli qog‘ozlar bozorining barcha ishtirokchilari faoliyati ta’minlanishi zarur. Qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish moliyaviy resurslarni faollashtirishga, ulardan oqilona foydalanishga va iqtisodiy rivojlanishni bir muncha tezlashtirish uchun qayta taqsimlashga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik (Toshkent) Moliya instituti. - Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-5992 sonli Farmoni, 12.05.2020-yil.
3. Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 7920-7926.
4. <https://www.stat.uz>
5. <https://www.lex.uz>
6. <https://www.norma.uz>

⁷⁵ Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 7920-7926

DAVLAT SEKTORI MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

To‘raxo‘jayeva Azizabonu Ilxom qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank va Moliya akademiyasi magistranti

Buxgalteriya hisobi va nazorati davlat sektori muassasalarida moliyaviy boshqaruvning eng muhim vositalari hisoblanadi. Biroq, mavjud hisob va nazorat tizimi ko‘pincha samarasiz bo‘lib, zamonaviy talablarga javob bermaydi. Buxgalteriya hisobi va nazorat tizimini takomillashtirishga e‘tibor qaratish orqali moliyaviy ma‘lumotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirishga, ichki nazoratni kuchaytirishga hamda firibgarlik va noto‘g‘ri boshqaruv xavfini minimallashtirishga hissa qo‘shishi, shuningdek, u davlat sektorida yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, qoidalarga rioya qilish hamda samaradorlikni o‘lchash va baholash zarurati kabi paydo bo‘layotgan muammolar va murakkabliklarni hal qiladi. Ushbu tezisda biz ushbu muammoning asosiy sabablari yoritib berilgan va davlat sektori muassasalarida buxgalteriya hisobi va nazoratini takomillashtirish yo‘nalishlari aytib o‘tilgan.

Davlat sektori muassasalarida buxgalteriya hisobi va nazorati davlat mablag‘laridan shaffof va samarali foydalanishni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Biroq zamonaviy muammolar va texnologik taraqqiyot bu sohani doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi.

Birinchidan, zamonaviy axborot tizimlarining joriy etilishi hisob va nazorat jarayonlarini samarali avtomatlashtirish imkonini beradi. Ular barcha operatsiyalarni, hisoblarni tez va aniq qayd etish, avtomatik ravishda hisobot va ko‘rsatkichlarni yaratish imkonini beradi. Bu odatiy vazifalarni bajarish uchun sarflangan vaqtni sezilarli darajada qisqartiradi va ma‘lumotlarning aniqligini oshiradi.

Ikkinchidan, buxgalteriya hisobi va nazoratini takomillashtirishning muhim jihati xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirishdir. Xodimlar buxgalteriya hisobi va nazorati sohasida zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, shuningdek, budget jarayonining xususiyatlarini bilishi va tushunishi kerak. Muntazam ravishda o‘qitish xodimlarning qonunchilik va qoidalardagi so‘nggi o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishini, shuningdek, yangi vositalar va usullardan foydalanishni ta‘minlaydi.

Moliyaviy qoidabuzarliklar va xatolarni o‘z vaqtida aniqlash va oldini olishni ta‘minlaydigan ichki nazorat tizimini joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Bunga budget ijrosini monitoring qilish, operatsiyalarning budget qoidalari va tartiblariga muvofiqligini ta‘minlash, xavflarni baholash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy muammolarni oldindan ko‘rish kiradi. Zamonaviy tahliliy vositalar va monitoring tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish ham budget sohasida buxgalteriya hisobi va nazoratini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Ular moliyaviy ko‘rsatkichlarni to‘liq tahlil qilish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zaifliklar va muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali strategiya elektron-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Va albatta davlat moliyasini samarali boshqarishga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqib, davlat sektori institutlarida buxgalteriya hisobi va nazorati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois davlat mablag‘larini sarflashda shaffoflik, samaradorlik va mas‘uliyatni ta‘minlash uchun mazkur jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha faol ish olib borish zarur.

Nihoyat xulosa qiladigan bo‘lsak, muhim davlat mablag‘larining sarflanishi to‘g‘risidagi axborotning shaffofligi va ochiqligini oshirish, 55lectron budget va 55lectron davlat xaridlarining joriy etilishi, shuningdek, davlat portallari va ochiq ma‘lumotlarning ishlab chiqilishi fuqarolar va manfaatdor tomonlarga mablag‘larning sarflanishi to‘g‘risida o‘z vaqtida va ishonchli ma‘lumotlarni olish imkonini bermoqda. Shunday qilib, davlat sektori muassasalarida buxgalteriya hisobi va nazoratini takomillashtirish zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish, xodimlarning malakasini oshirish, ichki nazorat tizimini joriy etish, tahliliy vositalarni ishlab chiqish va axborotning mavjudligini yaxshilashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hamdamov B.K. va boshq. Budjet nazorati. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod moliya”, 2016.
2. Ibragimov K.Sh. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida). iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. – T.: 2018.
3. Mehmonov S.U. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: “Iqtisod moliya”, 2016.
4. Ostanaqulov M. Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. - T.: "Iqtisod-moliya", 2010.
5. Ostonokulov A.A. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. ISBN 978-9943-7453-2-2 T.: “VNESHEWESTPROM” nashriyoti, 2021.
6. Ostonokulov A. Improvement of methodology for accounting of extra-budgetary resources of public educational and medical institutions //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021.

MONETAR SIYOSAT VA UNING DAVLAT MOLİYASINI SAMARALI BOSHQARISHDAGI AHAMIYATI

Xamidullayeva Madinabonu Xayrulla qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti
2-kurs Iqtisodiyot (matematika iqtisodiyoti)
yo'nalishi talabasi

Monetar siyosat deganda, markaziy bank tomonidan iqtisodiyotda pul taklifi, foiz stavkalari va kreditlarni nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar tushuniladi. Monetar siyosatning asosiy maqsadi inflyatsiyani nazorat qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va moliya tizimida barqarorlikni saqlash kabi makroiqtisodiy maqsadlarga erishishdir. Monetar siyosat yordamida foiz stavkalari va pul massalarini to'g'ri mutanosiblikda saqlash orqali inflyatsiya nazorat qilinadi. Markaziy bank foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiy tanazzul yoki turg'unlik davrida iqtisodiyotni barqarorlashtirishga yordam berishi mumkin. Foiz stavkalarini pasaytirish qarz olish va xarajatlarni rag'batlantirishi mumkin, foiz stavkalarini oshirish esa haddan tashqari qizib ketgan iqtisodiyotni sovutishga yordam beradi.

Davlat qarzlarini qiymatiga markaziy bank tomonidan belgilangan foiz stavkalari ta'sir qiladi. Past foiz stavkalari hukumatning qarz olish xarajatlarini kamaytiradi, davlat xarajatlarini moliyalashtirish va davlat qarzini boshqarishni osonlashtiradi. Markaziy bank pul-kredit siyosatidan banklarning majburiy rezerv talablarini tartibga solish orqali moliya tizimida barqarorlikni saqlashga erishadi. Pul-kredit siyosati hukumatlar faoliyat yuritadigan iqtisodiy muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, ularning davlat moliyasini samarali boshqarish va makroiqtisodiy barqarorlikka erishish qobiliyatiga ta'sir qiladi.

“Pul-kredit siyosati – Markaziy bank tomonidan pul massasi va pullar qiymatini boshqarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bo'lib, mamlakatda baholar, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi”⁷⁶.

“Pul-kredit siyosati – davlat iqtisodiyotni tartibga solish borasidagi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, pul bozoridagi talab va taklif uning obyekti hisoblanadi”⁷⁷.

⁷⁶ Малкина МЮ Инфляционные процессы и денежно-кредитные регистрации в России и за рубежом. Учебное пособие. М:ИНФРА-М, 2012. С.24.

⁷⁷ Моисеев С.Р Денежно-кредитная политика: теория и практика. Учебное пособие. Московская финансово-промышленная академия. 2011. С21.

Pul-kredit siyosati foiz stavkalari, inflyatsiya (va hokazolar) orqali davlat daromadlari, xarajatlari va qarzlarini boshqarish kabi davlat moliyasining asosiy jihatlariga ta'sir qiladi. Foiz stavka pastligi davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun qarz olishiga qulay sharoit yaratadi va natijada davlat xarajatlari salohiyati oshadi. Aksincha, yuqori foiz stavkasi qarz olishni qiyinlashtiradi.

Yuqori inflyatsiya davlat daromadlarining real qiymatini tushib ketishiga olib keladi, xarid qobiliyatlarini pasaytiradi, davlat qarzlarini ortishiga sabab bo'ladi.

Pul-kredit siyosati, shuningdek, iqtisodiy o'sish va qarz menejmentida ham muhim rol o'ynaydi. Pul-kredit siyosatini ikkiga ajratib ko'rsatish mumkin: kengaytirilgan va qisqartirilgan pul-kredit siyosati. Kengaytirilgan pul-kredit siyosatida foiz stavkalari pasaytiriladi, pul massasi ko'paytiriladi va bu o'z navbatida iqtisodiy faollikni rag'batlantirishi va soliqlar orqali davlatga katta daromad olib kelishi mumkin. Aksincha, qisqartirilgan pul-kredit siyosati iqtisodiy o'sishni susaytirish qobiliyatiga ega, chunki bu siyosat natijasida davlat daromadlari pasayib, qarzlarini ortib ketadi.

Markaziy bank o'z siyosiy maqsadlariga erishishda va monetar siyosatni qo'llashda turli yo'llardan foydalanadi. Open Market Operations(OMO) Markaziy banklar tomonidan pul taklifi nazoratida qo'llanuvchi asosiy vositalardan. Bunda markaziy banklar muomaladagi pul massasini nazorat qilish uchun ochiq bozordagi davlat qimmatli qog'oz (obligatsiyalari)ni sotadi va sotib oladi. Markaziy bank obligatsiyalarni sotib olsa, iqtisodiyot katta pul bilan ta'minlanadi. Aksincha holatda esa (markaziy bank obligatsiyalarni sotsa), pul taklifi massasi kamayadi. Boshqa bir usuli: qayta moliyalash stavkasi. Bu to'g'ridan-to'g'ri banklarga ta'sirini o'tkazadi, sababi banklar depositlarga aynan shu ko'rsatkichga asoslanib foiz belgilaydi (natijada bu pul taklifiga ta'sir ko'rsatadi).

Monetar siyosatning adabiyotlarda ikki asosiy turlari keltiriladi:

1. Restriksion monetar siyosat.
2. Ekspansionistik monetar siyosat.

Restriksion monetar siyosat deganda, odatda, muomaladagi pul massasining o'sish sur'atlarini jilovlashga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi.

Restriksion monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi:

- Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalarining darajasi oshiriladi;
- tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotib olish sharti bilan sotiladi;
- Markaziy bank tomonidan hukumatga va tijorat banklariga tegishli bo'lgan vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari depozit hisobraqamlariga jalb etiladi;
- Markaziy bank valyuta siyosati doirasida milliy valyutadagi pul mablag'lari hajmining o'sish sur'atlarini cheklashga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Ekspansionistik monetar siyosat deganda, muomaladagi pul massasining multiplikativ kengayishini ta'minlash asosida to'lovga qobil talabni rag'batlantirishga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi. Ekspansionistik monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi:

- Markaziy bank qayta moliyalash stavkalarini pasaytiradi va tijorat banklariga beriladigan markazlashgan kreditlarning hajmini oshiradi;
- tijorat banklarining kreditlash hajmiga nisbatan Markaziy bank tomonidan belgilangan limitlar hajmi oshiriladi, ya'ni banklarga kreditlar miqdorini oshirishga imkoniyat yaratiladi;
- Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalari pasaytiriladi;
- tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotish sharti bilan sotib olinadi;
- Markaziy bank valyuta siyosati doirasida milliy valyutadagi pul mablag'lari hajmining o'sish sur'atlarini oshirishga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Milliy valyutaning qadrsizlanishi umumiy talabning qisqarishiga olib kelgan sharoitda Markaziy bank tomonidan restriksion pul-kredit siyosatining qo'llanilishi milliy iqtisodiyotning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, YIMning o'sish sur'ati sekinlashadi⁷⁸.

2008-yildagi moliyaviy krizis vaqtida ko'plab Markaziy banklar iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun ekspansionistik monetary siyosatni qo'lladi. Misol uchun AQSH Federal rezervi stavkasini nolga yaqin darajalarga pastlatdi. Bu davlat qarzlarini narxini pasaytirib, AQSh hukumatiga o'zining rag'batlantirish paketlari va qutqaruv dasturlarini arzon narxlarda moliyalash imkonini berdi.

Aksincha, markaziy banklar inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun restriksion pul-kredit siyosatini qo'llaganda, bu davlat qarzlarini xarajatlarining oshishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, 1980-yillarning boshida AQSh Federal rezerv tizimi yuqori inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun foiz stavkalarini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa AQSh hukumati qarz olish xarajatlarining keskin oshishiga va federal budjet taqchilligiga olib keldi.

Hozirgi kunda ko'pgina markaziy banklar pul-kredit siyosatining bir qismi sifatida inflyatsiyani jilovlashga harakat qiladi. Inflatsiyani maqsadli diapazonda ushlab turish orqali markaziy bank iqtisodiy barqarorlikni rag'batlantirish va fiskal barqarorlikni ta'minlashni maqsad qiladi. Misol uchun, Avstraliya Zaxira banki inflyatsiya darajasini yiliga 2-3% dan oshmasligini maqsad qilib qo'ygan, bu barqaror iqtisodiy sharoitlarni saqlashga yordam beradi va hukumatning fiskal maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Pul-kredit siyosatining asosiy muammolardan biri inflatsiya yoki deflyatsiya xavfidir. Foiz stavkalarini pasaytirish yoki pul taklifini ko'paytirish kabi pul-kredit siyosati choralari talabni rag'batlantirishi va inflyatsiyaga olib kelishi mumkin. Aksincha, inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun pul-kredit siyosatini kuchaytirish deflyatsiya bosimiga olib kelishi mumkin, bu esa iqtisodiyotga zarar yetkazishi mumkin.

Markaziy banklar ko'pincha qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik sababli turli muammolarga duch kelishadi. Misol uchun, qisqa muddatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun past foiz stavka o'rnatish uzoq muddatda yuqori inflyatsiya yoki aktivlarning keskin ko'tarilishiga olib kelishi mumkin.

Globalashgan iqtisodiyotda bir mamlakatdagi pul-kredit siyosati boshqa mamlakatlarga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, ichki talabni rag'batlantirish maqsadida foiz stavkalarini pasaytirish boshqa mamlakatlarga kapitalning chiqib ketishiga va valyuta qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Mamlakatlar bo'ylab global darajada pul-kredit siyosati harakatlarini muvofiqlashtirish qiyin bo'lishi mumkin va har doim ham samarali bermasligi mumkin.

Makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror davlat moliyasiga erishish uchun pul-kredit va fiskal siyosatini muvofiqlashtirish ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishga sabab bo'ladi. Ikkala siyosat ham iqtisodiy faoliyatning umumiy darajasiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan, ammo turli mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

Pul-kredit siyosati: Markaziy banklar iqtisodiyotdagi pul massasi, foiz stavkalari va kredit shartlarini nazorat qilish uchun pul-kredit siyosatidan foydalanadilar. Ushbu ko'rsatkichlarni nazorat qilish orqali markaziy banklar yalpi talab, inflyatsiya va iqtisodiy o'sishga ta'sir qilishi mumkin.

Fiskal siyosat: Hukumat davlat xarajatlarini, soliqqa tortish va qarz olishni boshqarish uchun ushbu moliyaviy siyosatdan foydalanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni tuzatish orqali hukumat yalpi talab, investitsiyalar va iqtisodiy o'sishga ta'sir qilishi mumkin.

Ushbu ikki siyosatni muvofiqlashtirish bir necha sabablarga ko'ra muhimdir:

Pul-kredit va fiskal siyosat ba'zan aksincha natija berishi mumkin. Misol uchun, agar hukumat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun kengaytiruvchi fiskal siyosatni (xarajatlarni oshirish yoki soliqlarni qisqartirish) amalga oshirsa, lekin markaziy bank bir vaqtning o'zida qisqaruvchi pul-kredit siyosatini (foiz stavkalarini oshirish) amalga oshirsa, fiskal siyosatning samaradorligi pasayishi mumkin.

⁷⁸ Bobakulov T.I, Abdullayev U.A Monetar siyosat O'quv qo'llanma, "Iqtisod-moliya", 2018.

Monetar siyosatning davlat moliyasida ahamiyati katta. Foiz stavkadagi o'zgarishlar davlat qarzlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Pul-kredit siyosati inflatsiyaga ham ta'siri orqali davlat daromad yoki qarzlarini oshirib yuborishi (va aksincha) mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Малкина МЮ Инфляционные процессы и денежно-кредитные регистрации в России и за рубежом. Учебное пособие. М:ИНФРА-М, 2012. С.24.
2. Моисеев С.Р Денежно-кредитная политика: теория и практика. Учебное пособие. Московская финансово-промышленная академия. 2011. С21.
3. Bobakulov T.I, Abdullayev U.A Monetar siyosat O'quv qo'llanma, "Iqtisod-moliya", 2018.

LOGISTIK KORXONALAR FAOLIYATIDA MOLIYAVIY MEXANIZMNI TAKOMILLASHTIRISH

Xolmo'minov Xumoyun Odil o'g'li
O'zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoranti

Jahonda globallashuv jarayonlarining tobora kuchayib borishi sharoitida turli tarmoqdagi korxonalar faoliyatida xarajatlarni minimallashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash orqali raqobat kurashida muvaffaqiyat qozonib barqaror iqtisodiy faoliyat yuritishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda korxonalar faoliyatida nafaqat iste'molchilarning talabani mahsulot bilan qodirish, balki iste'molchilarning boshqa talablarini ham qondirishga to'g'ri kelmoqda. Natijada korxonalar iste'molchi talablarini qondirish uchun mahsulotlari kerakli vaqtda, kerakli miqdorda, kerakli joyga yetkazib berishni taqazo etmoqda, bu esa korxonalar faoliyatida logistik xizmatlarga bo'lgan talabni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari logistik xizmatlarning iqtisodiyotga ta'siri tobora ortib, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, milliy iqtisodiyotning rivojlanishi logistik xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi va uning rivojlanishini taqozo qilmoqda. Boshqa tomondan, logistik xizmatlar rivojlanib borar ekan, u iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Rivojlanayotgan iqtisodiy davrda logistik xizmatlarni rivojlantirish, ularning tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmasini takomillashtirish, logistik xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni moliyalashtirish har bir mamlakat oldida turgan asosiy dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Buni tasdig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish, transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish hamda yuk tashish xarajatlarini 30 foizgacha kamaytirish"⁷⁹ singari ustuvor vazifalar qo'yilgan.

Logistik xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda moliyaviy mexanizmni takomillashtirish, aylanma aktivlarni samarali boshqarish, moliyalashtirish manbalari va yo'llari bo'yicha bir qancha iqtisodchi olimlar tadqiqot ishlari olib borgan. Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlar Devid B.Grant, Aleksandr Trautrim hamda Chee Yew Wong logistika va ta'minot zanjiri, ular orasidagi bog'liqlik, logistika tizimida aylanma mablag'larni moliyalashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ushbu olimlar o'zining tadqiqot ishlarida logistik korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash, moliyaviy risklarni kamaytirish orqali umumiy ta'minot zanjirini samaradorligini oshirish uchun aylanma mablag'larni optimallashtirish mumkinligini isbotlagan⁸⁰. Shuningdek, Stefen Gong va Kevin Kullinen o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida xalqaro logistik tizimdagi korxonalar faoliyatida

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. // www.lex.uz

⁸⁰ <https://www.amazon.com/Sustainable-Logistics-Supply-Chain-Management/dp/0749478276>

moliyaviy boshqaruv, ushbu tizimda risklarni tahlil qilish va boshqarish vositalari, investitsiyalarni jalb qilish kabi muhim masalarni yoritib berishgan⁸¹.

Mahalliy olimlarimizdan Mahmudov S.B. o'z ilmiy tadqiqot ishida logistik korxonalarni moliyalashtirish usullari, logistik korxonalarida aylanma aktivlarni samarali boshqarish, moliyalashtirish manbalari, logistik korxonalarni moliyalashtirish uchun korxona va davlat budjetini jalb qilish bo'yicha ilmiy yondashuvlarni asoslab bergan⁸².

Logistik korxonalar faoliyatida moliyaviy boshqaruv eng asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Logistik tizimdagi korxonalarida moliyaviy resurslarni to'g'ri boshqarish ularning daromadlarini oshirishga va xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Bu jarayonda debitorlik, kreditorlik qarzlari, pul oqimi va moliyalashtirish jarayonlarini samarali boshqarish moliyaviy boshqaruvda asosiy vazifalar hisoblanadi. Logistik tizimda moliyaviy boshqaruvni to'g'ri tashkil qilish uchun quyidagi beshta bosqichni tushunib olish zarurdir:

- moliyaviy boshqaruvning asosini tushunish va maqsadlarni belgilash
- moliyaviy rejani tuzish
- moliyaviy jarayonlarni monitoring va tahlil qilish
- moliyaviy boshqaruv uchun strategiyalarni yaratish
- moliyaviy strategiyalarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish.

Yuqoridagi bosqichlarni to'g'ri tashkil qilish orqali logistik korxonalar barqaror iqtisodiy faoliyatga erishishi, raqobat kurashida o'z mavqeini saqlab qolmasdan, balki muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi. Xarajatlarni monitoring qilish va moliyalashtirish bugungi kunda har bir korxona oldidagi turgan asosiy muhim masalardan biri hisoblanadi. Logistik korxonalar samarali faoliyat yuritishi uchun ular faoliyatida moliyaviy uzilishlar bo'lmasligi va moliyalashtirish dasturi ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Logistik korxonalarni moliyalashtirish manbalari korxonaning umumiy maqsadlariga erishishga, daromadlarini oshirishga yo'naltiruvchi tizimdir. Moliyalashtirish manbalari bir tomondan, o'zining xususiyatlari va ma'lum qonuniyatlariga ega bo'lgan tizim hisoblansa, ikkinchi tomondan esa korxonani moliyaviy boshqarish umumiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida boshqaruv tizimidir. Korxonalarni moliyalashtirish tizim sifatida, moliyaviy soliqlar, baho, mehnatga haq to'lash, investitsiya siyosati, foiz stavkalari va davlatning tartibga solish tadbirlari orqali turli xil boshqaruv qarorlari ta'siriga egiluvchan bo'ladi.⁸³


Logistik korxonalarni moliyalashtirish uchun esa o'z navbatida moliyaviy resurslarni to'g'ri taqsimlash, ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy resurslar nafaqat tadbirkorlarga belgilangan imkoniyatlardan foydalanish imkonini beradi, balki korxonaning foyda olish qobiliyatiga ham hissa qo'shadi⁸⁴. Logistik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar moliyaviy manbalarni jalb qilish uchun uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishi, pul oqimlarining rejasini tuzishi muhimdir. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida aytishimiz mumkinki, quyida keltirilgan moliyaviy manbalar logistik korxonalarni moliyalashtirish uchun asosiy manbalar hisoblanadi (1-rasm).

⁸¹ <https://www.amazon.com/Finance-Management-International-Logistics-Supply/dp/0128138300>

⁸² <https://ziyonet.uz/ru/search?search=LOGISTIKA%20TIZIMIDAGI%20KORXONALARNI%20MOLIYALASHTIRISHNI%20TAKOMILLASHTIRISH&audios=1&books=1&sites=1&blogs=1&questions=1&users=1>

⁸³ <https://www.bankofcanada.ca/wp-content/uploads/2012/02/fsr-0603-armstrong.pdf>

⁸⁴ https://books.google.co.uz/books/about/A_General_Theory_of_Entrepreneurship.html?id=0FxO_Wsh30kC&redir_esc=y



1-rasm. Logistik korxonalarni moliyalashtirish manbalari⁸⁵

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy bozordan moliyaviy resurlarni jalb qilishning bir nechta usullari mavjud bo‘lib, bu o‘z navbatida logistik korxonalarni moliyalashtirish uchun turli xil muqobil variantlarni taqdim etmoqda va buning natijasida logistik korxonalar samarali faoliyat yuritishiga imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Logistik kompaniyalarni moliyalashtirish real aktivlar oqimi kompaniya qimmatli qog‘ozlari va pul oqimlari harakatini sinxronlashtirish uchun vositalar to‘plami bo‘lib, ulardagi logistik moddiy axborot va moliyaviy resurslarning harakatini rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish hamda kompaniya moliyaviy boshqarishning kombinatsiyasida savdo munosabatlarining ikki tomonining manfaatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Logistik kompaniyalar faoliyatida to‘lovni kechiktirish, mijozlar sonining o‘sishi, sotish geografiasining kengayishi, bozor ulushining o‘sishi, xaridlar, logistika va saqlash xarajatlarini kamaytirish, yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi to‘lov jarayonlaridagi muammolar yuzaga keladi. Ushbu holatda logistik kompaniyalarni moliyalashtirishda qisqa muddatli kredit, lizing va faktoring amaliyotlarini amalga oshirish vujudga keladi. Korxonalarni moliyalashtirishda turli darajadagi moliyaviy manbalar, budjetdan tashqari fondlar, xususiy investorlar va boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Moliyalashtirish miqdori rejalashtirilgan xarajatlar va ularni qo‘llab-quvvatlash manbalari asosida belgilanadi. Umuman olganda, logistika korxonalarining iqtisodiy daromadlilik darajasini oshirish uchun, ularning faoliyatida barqarorlikni ta‘minlash uchun ushbu tizimda, moliyaviy mexanizmni yaxshilash zarurdir. Logistika tizimini samarali moliyalashtirish orqali mamalakat iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni oshirish, iste‘molchilar talabini samarali qondirish, ishlab chiqarish va taqsimot jarayonlari orasidagi uzviylikni ta‘minlashga erishish, mamalakatning eksport salohiyatini oshirishni ta‘minlashga erishish mumkin bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, milliy iqtisodiyotda logistika sohasi muhim hisoblanadi va u barcha iqtisodiy tarmoqlarni harakatga keltirib ularni rivojlanishi uchun hissa qo‘shadi. Garchi bu sohada sezilarli kamchiliklar bo‘lsada, ularni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi, xorijiy tajribalarning amaliyotga joriy qilinishi logistika faoliyatining yangi bosqichiga olib chiqilishiga xizmat qiladi.

Logistik kompaniyalarning moliyalashtirishda

- lizing xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalarini chuqurroq o‘rganish;
- lizing oluvchilarni rag‘batlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- lizing xizmati ko‘rsatish chog‘ida qoniqmagan ehtiyojlarni aniqlash;
- respublika va xalqaro moliya bozorlarida bank kapitalni faol aralshuvini ta‘minlash;
- moliyaviy xizmatlar bozorini jadal rivojlantirish;

⁸⁵ Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

- yirik moliyalashtirish manbalarining fond bozoriga yo'naltirish;
- bank kreditlarini past foizli stavkalarini joriy etish;
- o'z tasarrufida transport logistik korxonasini yo'lga qo'yishi, boshqa logistik korxonalarini moliyaviy jihatdan ta'minlanishida ushbu logistik korxonalarga mamlakat ichida va tashqarisida multimodal logistik tashuvlarini amalga oshirish, uni xalqaro darajada yo'lga qo'yishdan iboratdir. Logistik korxonalarda samararali moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqilishi, yangi moliyaviy resurlarni yaratilishi, moliyaviy mexanizmni takomillashtirilishi logistik korxonalar uchun uzoq muddatli raqobatbardosh iqtisodiy faoliyatga erishishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Umarova D.M., Bo'ronova M.A. Logistik: O'quv qo'llanma. – Toshkent: ToshDTU, 2006-y.
2. Eshov M. (2019). Korxonalarda moliyaviy faoliyatning pul oqimi o'sishiga va pasayishiga ta'sirini baholash masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar elektron jurnali, (4), 70–80. https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/10848.
3. Mahmudov S.B. Logistik kompaniyalarni moliyalashtirishda xorij tajribasi. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil.
4. Alexandru BURDA "Logistics role in the economy" "Dimitrie Cantemir" Christian University Knowledge Horizons - Economics Volume 7, No. 1, pp. 170–173 2015
5. Mahmudov S.B. Logistik tizimidagi korxonalarning moliyaviy faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(2), 392–403. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a63

O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYASINI JORIY ETISHDAGI MAVJUD SHART-SHAROITLAR

Yangiboyeva Oydin Anvar qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Budget nazorati va g'aznachiligi
yo'nalishi 1-kurs talabasi
oydin7161@gmail.com

Bugungi kunda Islom moliyasiga ko'pgina davlatlar qiziqish bildirib kelishmoqda, natijada Islom moliyasi dolzarb kun tartibiga qo'yildi. Islom moliyasidan nafaqat musulmon davlatlar, balki musulmon bo'lmagan davlatlar ham keng miqyosda foydalanishadi. Hozirda iqtisodiy o'sishning yangi yo'nalishlarini izlab, ham musulmon, ham musulmon bo'lmagan ko'plab davlatlar iqtisodiy diversifikatsiya uchun Islom iqtisodiyotiga jiddiy e'tibor qaratmoqda. «Deutsche Bank», «HSBC», «Citi» va «MasterCard» Islomiy moliya mahsulotlarini taklif qilmoqda. «Nestle», «Carrefour», «Walmart» va «Whole Foods» halol chakana mahsulotlarni sotadi. Global «Nielsen» tadqiqotining natijalariga ko'ra, iste'molchilarning 66 foizi halol mahsulotlarga ko'proq pul to'lashga tayyor. Yosh iste'molchilar esa yanada sodiqroq — 73 foiz millionerlar halol mahsulot uchun ortiqcha pul to'lashga tayyor. Shu tariqa, global transmilliy korporatsiyalar Islom moliyasiga katta qiziqish bildirimoqda. Masalan, birgina Londonning o'zida 6 ta islomiy bank faoliyat yuritadi. Nega aynan Londonda islomiy banklar ko'p degan savol paydo bo'lishi mumkin. Buning asosiy sababi Angliyada islomiy banklarga diniy muassasa sifatida emas, balki oddiygina tijorat banki sifatida qarashadi, ularda islom banklari paydo bo'lgan davrda ham an'anaviy banklar va islomiy banklar huquqi teng qilib belgilab qo'yildi.

Islom moliyasi umumiy jahon moliyasida ulushi 2% ni egallaydi, bunday kam qismni egallashiga sabab esa islom moliyasi tarixi bilan bog'liq. Islom moliyasi shakllanib, rivojlana

boshlagan paytda asosiy musulmon mamlakatlar katta katta Yevropa va Gegemon davlatlarning mustamlakasi edi. Natijada Islom moliyasi sust rivojlanib bordi, ammo bugungi kunga kelib islom moliyasi o'z nufuzini deyarli tiklab bormoqda.

Islom dunyoning barcha sivilizatsiyalashgan jamiyatlarida deyarli umumiy bo'lgan axloqiy me'yorni ham belgilab bergan. Islomiy moliyaning tuzilishi qarzdand olingan har qanday daromadni (ribo) ta'qiqlash va daromadning qonuniyligi atrofida aylanadi. Ribo - qarzdandan mukofot sifatida olinadigan o'sishdir. Bu pulni pulga almashtirish yoki to'lovni kechiktirish hisobiga ssuda/qarzlarni sotish bo'yicha kelishilgan narxga qo'shish bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha daromadni anglatadi. Iqtisodiyotda nomutanosiblik keltirib chiqaradiganligi sababli shariat buni man qilgan. Chunki foizlarni to'lash bilan bog'liq barcha operatsiyalar qat'iyman etiladi.

Shunday qilib, qarz aloqalarini ustama yoki chegirma bilan sotish mumkin emas va pul yoki oltin va kumush kabi puldan norozi bo'lgan tovarlar almashinuvi teng va qo'l bilan teng bo'lishi kerak. "Tengga teng" atamasi aniq bo'lsa-da, bir tomondan har qanday o'sish ribo bo'lishini anglatadi, lekin biznes sifatida pul almashinuvi ham qo'l bilan bo'lishi kerak, chunki aks holda, odam o'zi ishlatgan puldan foyda olishi mumkin, yoki u boshqa tomon foyda olishi mumkin bo'lgan qarshi qiymatini bermagan holda olgan. Ikkinchi taqiq - Gharar (noaniqlik). Islom axloqi tamoyillariga amal qilgan holda, islomiy moliya Gharardan (noaniqlikdan) saqlaydi. Gharar shartnomaning yakuniy natijalari, obyektning tabiati va spetsifikatsiyasi yoki tomonlarning huquq va majburiyatlari to'g'risida mutlaq xavf yoki noaniqlik sharoitida shartnoma tuzishni anglatadi. Gharar, shuningdek, tegishli qiymatga tegishli ma'lumotlarning etishmasligi yoki har qanday hayotiy ma'lumotlarning noaniqligi va tomonlardan birining ekspluatatsiyasiga olib keladigan noaniqlik va noaniqlik mavjud bo'lsa ham ishtirok etadi. Insofsizlik, firibgarlik yoki qimmatga tegishli ma'lumotlarni qasddan yashirish Ghararga tengdir⁸⁶.

Islom banklarida ribo aralashmaydi, ular loyihalarni moliyalashtirishdan foyda ko'rishadi. Omonatchilar faqatgina dividendlarga e'tibor qaratgan holda, o'z mablag'larini nimaga investitsiya qilishini bilmaydigan an'anaviy banklardan farqli ravishda, Islom banklarida omonatchi pul mablag'larini kelgusidagi harakatini ko'rish mumkin, bunda mablag' biznesga investitsiya qilinadi va foydasi bank va omonatchi o'rtasida taqsimlanadi. Agarda foyda ko'rilmagan taqdirda bank ham mijoz ham daromad olmaydi, mijoz zarar ko'rgudek bo'lsa, u holda zarar ham ikkala o'rtada teng taqsimlanadi.

Islom moliyasiga O'zbekistonda ehtiyoj bormi, degan masalada so'rovnomalar o'tkazilgan. 2 mingdan ortiq biznes vakillari, 5 mingdan ortiq jismoniy shaxslar ishtirok etgan va natijaga ko'ra, biznes vakillarining 38 foizi, jismoniy shaxslarning 56 foizi o'z diniy qarashlari tufayli an'anaviy banklarga murojaat qilmasligini aytib o'tgan. Bu kichik raqam emas. Kichik va o'rta biznes moliyalashtirishga katta ehtiyoj sezadi. Lekin yuqorida aytganimizdek, ko'pchilik diniy qarashi tufayli riboga asoslangan davlat kreditlaridan foydalanmaydi. Aholining 15-20 foizi an'anaviy banklar tizimidan foydalanmaydi, bu esa islomiy banklarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Prezidentimiz ham Namangandagi uchrashuvda islomiy moliya tizimini qo'llab-quvvatlashi haqida gapirdi. Hukumat doirasida ham islom moliyasiga e'tibor borligini ko'rish mumkin. So'rovnomalardagi islomiy banklardan foydalanmasligi degan savolga 60-70 foiz kishi foydalanishga tayyor ekanligini bildirgan. Aholimizning aksar qismi musulmon bo'lgan holatda islom moliyasini joriy qilish muhim ekanini ko'rish mumkin. Tor ma'nodagi bank faoliyatidagi islom moliyasi nuqtai nazaridan O'zbekistonda yangi bank qonuni ishlab chiqishga ehtiyoj bor. Hozirda qonun loyihasi bor. Umuman olganda, O'zbekistonda islom moliyasiga ehtiyoj bor. Qonun loyihasi ishlab chiqilgani katta narsa. Lekin loyihaga ba'zi o'zgarishlar kiritish lozim. Masalan, litsenziya berish masalasi bor. Islomiy bank ochish, an'anaviy bankda islom moliyasi darchasi ochish va an'anaviy banklarda islomiy shartnomalar tuzish masalasida litsenziya beriladi. Bu litsenziyani Markaziy bank berishi aytilgan, lekin islom moliyasida din bilan bog'liq qismlar ham bor. Ya'ni litsenziya berishda Markaziy bankda

⁸⁶ Islom moliyasi Oybek Akhmadjonov Akhrorjon Abdullaev Jamshidbek Anvarov Sardorbek Ismoilov Article in Scientific Reports · February 2022

islomiy qoidalarga to'g'ri kelganlikni baholaydigan kadrlar, me'yorlar bormi, degan masala ham bor. Ya'ni mutaxassislar kerak bo'ladi buni baholash uchun. Bu vaziyatda litsenziya berish faqat Markaziy bankning ishi emas, balki shar'iy kengashni jalb qilish kerak bo'ladi. Qonunchilikda ko'rib chiqish kerak bo'lgan yana bir narsa bor. Qonun loyihasida bankning o'zi tuzgan shar'iy kengash Markaziy bank tomonidan tasdiqlanishi kerak, deb belgilab qo'yilgan. Banklar aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi va o'z kengashi, mustaqil qaror qabul qilish nuqtalari bor. Shu jihatdan olganda, bu masalani o'ylab ko'rish kerak bo'ladi. Ya'ni Markaziy bank tomonidan tasdiqlanish kooperativ boshqaruvga halaqit beradi. Agar an'anaviy banklar kuzatuv kengashlarini tasdiqlashi shart bo'lmay, islomiy banklar tasdiqlatishi kerak bo'ladigan bo'lsa, bu yerda tenglik bo'lmaydi. Diskriminatsiya paydo qilgandek ko'rinadi. Ikkinchidan, bankning mustaqil faoliyat olib borishiga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, banklar tashqaridan mutaxassislar jalb qilishi mumkin, chunki O'zbekistonda islom moliyasi bo'yicha mutaxassislar yetarli emas. Bizdagi islomdan ta'lim beruvchi oliygohlarda bu sohadan dars berilmaydi. Deylik, 10 ta bank islom moliyasi darchasi ochsa, shar'iy kengashda kamida 3 ta a'zo bo'lishi kerakligi belgilangan holatda mutaxassislar topolmay qoladi. Chet ellik mutaxassislarni Markaziy bankdan tasdiqlatish ham qo'shimcha byurokratik to'siq bo'lishi mumkin. Islom moliyasi bo'yicha dars beruvchi fakultetlar yoki institutlar, muassasalar tashkil etish ham kerak bo'ladi. Mutaxassislarimiz chet elda ta'lim olib kelishidan, shu yerda ta'lim olishi, seminarlarda qatnashishi arzonroq bo'ladi. Bundan tashqari, islom moliyasi to'g'risida suhbatlar, tushuntirishlar olib borish ham kerak, odamlarda tushuncha paydo bo'lishi lozim⁸⁷. Lekin O'zbekistonda ushbu sohaning yanada rivojlanishi Islom banklarining paydo bo'lishiga huquqiy-me'yoriy asosning yetishmasligi, soliq va boshqaruv infratuzilmasining yo'qligi, shuningdek, aholi orasida, ayniqsa, islomiy moliyalashtirishga aloqador moliyaviy savodxonlikning pastligi halaqit bermoqda. Afsuski, Global Islamic Fintechning 2022-yildagi hisobida Fintechning 375 talik ro'yxatida O'zbekistonda faqat bitta (IMAN INVEST) o'rin egallagan, bu achinarli holat, albatta.

Iqtisodiyotda financial bubble degan narsa bor, ya'ni oldi-sotdi jarayonida narxlarning sun'iy ravishda oshib borilishi. Masalan 2008-yildagi jahon moliyaviy inqirozida shu holat kuzatiladi. Ipoteqa banklaridan ipoteqa krediti asosida uy-joy olinib, uchinchi bir shaxsga sotilgan paytda narxning oshishi sodir bo'ladi va bu hodisa financial bubble deyiladi. Bu yerda to'lovga qobiliyatli shaxs bo'lmaydi, narxlar sun'iy tarzda oshirilishi natijasida kreditni qoplay ham olmaydi. Islomda bo'lsa, nimadir narsani avval o'ziniki qilib undan keyin sotishga buyuriladi. Agarda islom huquqi asosida sotmoqchi bo'lsangiz, bu paytda ba'zi hollarda ikki marta soliq to'lashingizga to'g'ri keladigan vaziyatlar mavjud. Bunday hollarda qonunchilik tizimimizda ikki marotaba soliq to'laganda unga imtiyoz berishilishi ta'kidlab o'tilgan, bu esa qonunchiligimizdagi ijobiy tomoni hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yurtimizda islom moliyasining joriy etilishi nafaqat iqtisodiyotga, balki aholining ijtimoiy ahvoliga ham katta ta'sir etadi. Agar islomiy darchalar tijorat banklarining qoshida tashkil etilsa, kredit olishning muqobil varianti paydo bo'ladi. Diniy e'tiqodi sabab kredit olmaydigan, lekin tadbirkorlik qobiliyati mavjud bo'lgan aholi qatlamiga keng imkoniyat yaratib beradi. Natijada tadbirkor ham ma'lum miqdorda davlat iqtisodiyotiga o'z hissasini qo'shadi. Bu ham islom moliyasi yurtimizda tashkil etilishining muhim sabablariga misol bo'la oladi. Shuningdek, yurtimiz aholisining ko'pchiligi islom diniga e'tiqod qilganligi tufayli, diniy e'tiqodidan kelib chiqqan holda, banklarda omonat saqlamaydilar. Agarda, islom banklari va islomiy darchalar hududimizda tashkil qilinsa, omonat qo'yuvchilar soni ko'payadi, bu esa o'z navbatida naqd pulning iqtisodiyotdagi aylanmasining ulushi ko'proq bo'lishini ta'minlaydi. Naqd pulning iqtisodiyotda keng aylanmasi inflyatsiyani kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, islom moliyasining joriy etilishi qo'shimcha ish o'rinlari sonining yaratilishiga olib keladi. Umuman olganda, islom moliyasining ta'sis etilishi har tomonlama foydali bo'ladi. Islom moliyasini joriy etishdan oldin kadrlar va mutaxassislar masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu sohada kadrlar yetishmasligi muammosi deyarli o'z yechimini topmagan va bu islom moliyasini ta'sis etishdan oldin birinchi

⁸⁷ <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/17/islamic-finance/>

darajada e'tibor qaratadigan masala deb o'ylayman. Biz shu sohadagi yetuk kadrlar va salohiyatli yoshlarga ega bo'lsakkin oldinga siljish nafaqat ijtimoiy hayotda, balki aholining siyosiy hayotida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni bu gapim bilan nima demoqchiman, aholining islomiy moliyalashtirishga aloqador moliyaviy savodxonligi ham ancha ko'tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/islom-moliyasi-1/viewer>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/17/islamic-finance/>
3. <https://www.qfc.qa//media/project/qfc/qfcwebsite/documentfiles/research/global-islamic-fintech-report>.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom_bank_ish_i_va_moliyasi
5. <https://www.qardus.com/news/the-islamic-financial-services-industry-statistics#:~:text=Currently%2C%20the%20Islamic%20finance%20sector,over%202.7%20trillion%20USD%20globally>
6. DinarStandard & Ellipses - The Global Islamic Fintech Report 2021 [https://www.salaamgateway.com/specialcoverage/islamic-fintech-2021]
7. Global Islamic Fintech Report 2022
8. Islom moliyasi Oybek Akhmadjonov, Akhrorjon Abdullaev, Jamshidbek Anvarov, Sardorbek Ismoilov Article in Scientific Reports · February 2022

TASHQI QARZ: MOHIYATI, TURLARI VA XUSUSIYATLARI

Zafarov Rustam Zafar o'g'li

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy
rassomlik va dizayn instituti Bosh auditori

Davlat daromadlari va xarajatlari doim ham bir biriga mutanosib bo'lavermaydi. Biroq iqtisodiy rivojlanishni doimiy rag'batlantirib borish, ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash uchun daromadlardan ko'ra ko'proq xarajat qilinishi talab qilinadi. Bunday hollarda har bir davlat tashqi manbalarga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Xalqaro moliya tizimi bo'yicha Garvard Kennedi maktabi professori Karmen Reynxartga ko'ra tashqi qarz olish mamlakat uchun zararli emas, balki zarur hisoblanadi⁸⁸. Tashqi qarzdan samarali foydalanish, tarmoqlar va sohalar kesimida to'g'ri taqsimlash, provardida qarzni qaytarib to'lashga xizmat qiluvchi loyihalarni amalga oshirish uchun uning mohiyati va u bo'yicha Jahon tajribasini doimiy tahlil qilib borish dolzarb masala hisoblanadi.

Tashqi qarz – bu davlat va xususiy sektor qarzining xorijiy kreditorlardan, shu jumladan, tijorat banklaridan, hukumatlardan yoki xalqaro moliya institutlaridan olingan qismi. Ushbu kreditlar, shuningdek, foizlar, odatda, kredit berilgan valyutada to'lanishi kerak. Kerakli valyutani olish uchun qarz oluvchi davlat kredit beruvchi mamlakatga tovarlarni sotishi va eksport qilishi mumkin. U Xalqaro valyuta fondi tomonidan rezidentning norezident oldidagi qarz majburiyatlari sifatida belgilanadi, yashash joyi esa kreditorlar va qarzdorlarning fuqaroligiga qarab emas, balki odatda, qayerda joylashganiga qarab belgilanadi.

Ba'zi hollarda tashqi qarz bog'langan kredit shaklida bo'ladi, ya'ni moliyalashtirish orqali ta'minlangan mablag'lar moliyalashtirishni ta'minlovchi davlatda sarflanishi kerak. Masalan, kredit bir davlatga kredit bergan mamlakatdan o'ziga kerakli resurslarni sotib olish imkonini berishi mumkin.

Tashqi qarz, xususan, "bog'langan" ssudalar, qarz oluvchi va qarz beruvchi tomonidan belgilanadigan maxsus maqsadlar uchun belgilanishi mumkin. Bunday moliyaviy yordam gumanitar yoki tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish uchun ishlatilishi mumkin. Misol uchun, agar biror

⁸⁸ Shamsitdinova X.M. Tashqi qarzni samarali boshqarish taraqqiyotning muhim omili. Miasto Przyszłości. Vol. 35. 2023 (<https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/download/1385/1289/1353>)

mamlakat kuchli ocharchilikka duch kelsa va o'z resurslari bilan aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmasa, u bog'langan kreditni taqdim etuvchi davlatdan oziq-ovqat sotib olish uchun tashqi qarzdan foydalanishi mumkin.

Xuddi shunday, agar mamlakat o'zining energetika infratuzilmasini shakllantirishi kerak bo'lsa, u resurslarni, masalan, kam ta'minlangan hududlarda elektr stansiyalarini qurish uchun materiallarni sotib olish bo'yicha kelishuvning bir qismi sifatida tashqi qarzdan foydalanishi mumkin.

Iqtisodiyotidagi muammolar tufayli mamlakat tovarlar ishlab chiqarish va sotish hamda foyda ko'rishga qodir bo'lmagan holatda tashqi qarzlarni to'lash qobiliyatini yo'qotadi. Aynan ushbu holat "tashqi qarz inqirozi" deb baholanadi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) davlatlarning tashqi qarzlari hisobini yuritib boruvchi iqtisodiy institutlardan biri hisoblanadi. XVF Jahon banki bilan birgalikda mamlakatlarning tashqi qarzlarning choraklik statistikalarini chop etib boradi.

Agarda biror davlat o'zining tashqi qarzini to'lashga qodir bo'lmasa yoki qarzni to'lashdan bosh tortsa, ushbu mamlakat "suveren qarz inqirozi" holatida deb ataladi. Bu kelajakda tashqi manbalardan keladigan investitsiyalar hajmi kamayishiga, qarz beruvchilar tomonidan risk yuqori bo'lgan subyekt sifatida baholanishiga sabab bo'ladi.

Qarzlarni to'lay olmaslik holatlari qarzidor davlatga olingan qarzni to'lash bilan birga qo'shimcha shartlar, jarimalarni ham yuklashi mumkin.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqadiki, tashqi qarz – hukumat yoki xususiy sektor tomonidan tashqi manbalardan, ya'ni boshqa davlatlar, ulardagi tijorat banklar yoki moliya institutlaridan olingan qarzlardir.

Tashqi qarz asosan quyidagi turlarga bo'linadi:

- Davlat qarzi va davlat tomonidan kafolatlangan qarzlardir;
- Kafolatlanmagan xususiy sektor qarzlari;
- Markaziy bank depozitlari;
- Xalqaro valyuta fondidan olingan qarzlardir⁸⁹.

Biroq qarzlarni turlarga ajratish turli mamlakatlarda turlicha yuritilishi mumkin. Masalan, Misrda tashqi qarzlarni yuqoridagi to'rt turi tasniflansa, Hindistonda qarzlardir quyidagi yetti turga bo'linadi:

- Ko'ptomonlama qarzlardir;
- Ikki tomonlama qarzlardir;
- Xalqaro valyuta fondidan olingan qarzlardir;
- Savdo krediti;
- Tijorat qarzlari;
- Rezident va norezidentlar qarzlari;
- Milliy valyuta – rupida olingan qarzlardir;
- Nepal rupisida olingan qarzlardir⁹⁰.

Qaysi ko'rinishdagi qarz bo'lmasin, qarzlardan to'g'ri, samarali foydalanish, qarzning barqarorlik darajasini ta'minlash qarz munosabatlaridagi eng muhim masala hisoblanadi. Barqaror qarz - bu qarzidor davlatga joriy va kelajakdagi qarzga xizmat ko'rsatish majburiyatlarini to'liq hajmda, qarzni kechiktirish yoki qayta rejalashtirishga murojaat qilmasdan, qarzlardir to'planishiga yo'l qo'ymasdan, iqtisodiy o'sishning maqbul darajasini ta'minlaydigan qarz darajasi⁹¹.

Tashqi qarz barqarorlik tahlili odatda o'rta muddatli ssenariylar kontekstida amalga oshiriladi. Ushbu ssenariylar iqtisodiy o'zgaruvchilarning harakatlari va boshqa omillarni hisobga olgan holda tashqi qarz va boshqa ko'rsatkichlarni zarur darajada barqarorlashish sharoitlarini, iqtisodiyot uchun

⁸⁹ "External Debt Statistics: Guide for Compilers and Users, 2003—Part I: Conceptual Framework."

⁹⁰ External debt - Wikipedia (06.04.2024)

⁹¹ Mutinta M. Lunda. The effect of sovereign debt on Capital inflows to Zambia. Debt sustainability. Page 34. 2016 [content \(uct.ac.za\)](http://content.uct.ac.za)

asosiy xavflarni, siyosiy o'zgarish va tuzatishlar qilish hajmini aniqlash uchun raqamli baholashlardir⁹².

Jahon banki va Xalqaro valyuta fondiga ko'ra, "tashqi davlat qarzining sof joriy qiymatini mamlakat eksportining qariyb 150 foiziga yoki mamlakat daromadlarining 250 foiziga tushirish" ushbu "uzoq muddatli qarz barqarorligi uchun hal qiluvchi to'siq"ni bartaraf etishga yordam beradi⁹³.

Tashqi qarzning barqaror darajasini aniqlash uchun turli ko'rsatkichlar mavjud. Muayyan vaziyatlarni hal qilish uchun har birining o'ziga xos afzalligi va o'ziga xos xususiyati bo'lsa-da, iqtisodchilar o'rtasida yagona ko'rsatkich bo'yicha yakdil fikr yo'q. Ushbu ko'rsatkichlarni mamlakatning "to'lov qobiliyati" ko'rsatkichlari sifatida ko'rish mumkin, chunki ular ma'lum bir vaqtdagi qarzlar miqdorini mamlakatning to'lanmagan qoldiqni to'lash uchun resurslarni yaratish qobiliyati bilan bog'liq holda hisobga oladi.

Qarz yuki ko'rsatkichlari o'z ichiga umumiy qarzning YIMga nisbati, tashqi qarzning eksportga nisbati, davlat qarzining joriy fiskal daromadga nisbati kabilarni oladi.

Ushbu ko'rsatkichlar to'plami to'lanmagan qarzlar tarkibini ham qamrab oladi, jumladan: tashqi qarz ulushi, qisqa muddatli qarz va umumiy qarz miqdorida imtiyozli qarz⁹⁴.

Ko'rsatkichlarning ikkinchi to'plami mamlakatning qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlariga nisbatan qisqa muddatli likvidlikka bo'lgan talablarga qaratilgan. Ushbu ko'rsatkichlar nafaqat qarzga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolarning foydali erta ogohlantiruvchi belgilari, balki o'tmishdagi qarz olish qarorlaridan kelib chiqadigan vaqtlararo kelishuvlarning ta'sirini ham ta'kidlaydi.

Likvidlik monitoringi ko'rsatkichlariga misollar:

- Qarzga xizmat ko'rsatishning YIMga nisbati;
- Tashqi qarzga xizmat ko'rsatishning eksportga nisbati;
- Davlat qarziga xizmat ko'rsatishning joriy fiskal daromadlarga nisbati va boshqalar.

Quyida 1980-1983-yillarda tashqi qarz inqirozini boshdan kechirgan Lotin Amerikasi davlatlaridan biri, Meksikaning inqiroz davridagi iqtisodiy ko'rsatkichlarini tashqi qarz bo'yicha yuqorida keltirilgan tavsiyaviy miqdorlar bilan taqqoslab ko'ramiz (1-jadval).

1-jadval

1980-1983-yillarda Meksika tashqi qarzi, uning YIM va umumiy eksport hajmiga nisbati⁹⁵

Yillar	Tashqi qarz (mlrd. AQSH dollari)	YIMga nisbatan % da	Umumiy eksport hajmiga nisbatan % da
1980	57,57	28%	276%
1981	78,41	30%	301%
1982	86,27	47%	324%
1983	93,16	60%	329%

Meksika tashqi qarzi 1980-yildan 1983-yilgacha 57,57 mlrd. AQSH dollaridan 93,16 mlrd. AQSH dollarigacha o'sishni qayd etib, qariyb 62% ga oshgan. Davr mobaynida mamlakatning tashqi qarz miqdori YaIMning 28% idan tavsiya etilgan eng yuqori ko'rsatkich, 60 foizigacha yetganini ko'rish mumkin. YIMga nisbatan olinganda qarz miqdori tavsiyaviy miqdordan oshmagan bo'lsada, 1980-yilning o'zidayoq Jahon Banki va XVF tomonidan tavsiya etilgan tashqi qarz miqdorining

⁹² IMF. "Debt- and Reserve-Related Indicators of External Vulnerability", Policy Paper, 2000

⁹³ World Bank and International Monetary Fund. ["The Challenge of Maintaining Long-term External Debt Sustainability"](#), Page 4. April 2001, ii +48 pp.

⁹⁴ [External debt - Wikipedia](#) (06.04.2024)

⁹⁵ [www.macrotrends.net](#) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

(<https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/MEX/mexico/exports> (06.04.2024))

(<https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/MEX/mexico/gdp-gross-domestic-product> (06.04.2024))

(<https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/MEX/mexico/external-debt-stock> (06.04.2024))

umumiy eksportga nisbatan hajmi 150% dan deyarli ikki barobar yuqori bo'lgan (276%). Ushbu ko'rsatkich mamlakat suveren inqiroz holatida deb tan olingunga qadar 329% ga yetgan. Jadval ma'lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, Meksikaning tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish darajasi past bo'lgan va olingan mablag'lar qarzlarni qaytarib to'lash uchun eksportbop tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilmagan.

Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash, budjet defitsitini qoplash va boshqa davlat xarajatlari uchun tashqi investitsiyalar, tashqi qarzlardan foydalanish kerak bo'ladi. Biroq ushbu qarzlardan samarali foydalanmaslik mamlakat uchun ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan bir qancha salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu kabi oqibatlarning oldini olish maqsadida tashqi qarzlar tahlili bo'yicha mexanizmlarni doimiy ravishda rivojlantirib, statistikasini yuritib borish, mamlakatning qarzga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini tahlillarga asosan oshirib borish, tashqi qarzni boshqaradigan institutlar faoliyati va tashqi qarzga bevosita ta'sir ko'rsatadigan makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish, xalqaro tajribani o'rgangan holda xalqaro institutlar bilan hamkorlikda ishlash va boshqa shu kabi ta'sir etuvchi iqtisodiy-siyosiy choralar ko'rish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsitdinova X.M. Tashqi qarzni samarali boshqarish taraqqiyotning muhim omili. Miasto Przyszłości. Vol. 35
<https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/download/1385/1289/1353>
2. IMF. "External Debt Statistics: Guide for Compilers and Users, 2003—Part I: Conceptual Framework."
3. Mutinta M. Lunda. The effect of sovereign debt on Capital inflows to Zambia. Debt sustainability. Page 34. 09.12.2016 content (uct.ac.za)
4. IMF, "Debt- and Reserve-Related Indicators of External Vulnerability", Policy Paper, 2000
5. World Bank and International Monetary Fund. "The Challenge of Maintaining Long-term External Debt Sustainability", Page 4. April 2001
6. External debt - Wikipedia (06.04.2024)
7. www.macrotrends.net

ТРАНСФОРМАЦИЯ ФИНАНСОВО-КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ В КОНТЕКСТЕ ЦИФРОВОЙ РЕВОЛЮЦИИ

Бекташева Асель Джумаевна

аспирант, преподаватель

Ошский Государственный Университет

asbekatsheva@yandex.ru

В последние десятилетия мир стал свидетелем быстрого развития цифровых технологий, которые кардинально изменяют способы взаимодействия людей, бизнеса и государства. Этот процесс, известный как цифровая революция, оказывает значительное воздействие на различные аспекты жизни, включая экономику. В частности, финансово-кредитная система становится объектом интенсивных трансформаций, адаптируясь к новым вызовам и возможностям, предоставляемым цифровыми инновациями.

Следует рассмотреть причины цифровой трансформации финансово-кредитной системы. Цифровая революция в сфере финансов обусловлена рядом факторов. Во-первых, стремительное развитие информационных технологий и интернета создало новые возможности для эффективного взаимодействия с клиентами, автоматизации процессов и обеспечения безопасности финансовых операций. Во-вторых, увеличение объемов данных и развитие аналитических инструментов позволяют финансовым институтам принимать более обоснованные решения на основе данных. Кроме того, технологии блокчейн и цифровые

валюты открывают новые перспективы для проведения трансграничных транзакций и улучшения прозрачности финансовых операций.

Так, целью данного исследования является анализ процесса трансформации финансово-кредитной системы в условиях цифровой революции и выявление его ключевых аспектов, тенденций, а также потенциальных преимуществ и рисков.

Изучение основных технологических инноваций, оказывающих влияние на финансовый сектор, включает анализ следующих ключевых технологий. *Блокчейн технология* предоставляет возможность создания надежных и прозрачных баз данных, где записи невозможно изменить или подделать. В финансовом секторе блокчейн применяется для улучшения процессов расчетов, снижения издержек, ускорения транзакций и повышения безопасности. *Распределенные реестры*, основанные на технологии блокчейн, также используются для создания эффективных и надежных систем хранения и передачи данных в финансовом секторе.

Криптовалюты, такие как Биткоин и Эфириум, становятся все более популярными среди инвесторов и предпринимателей. Они обеспечивают новые способы хранения и передачи ценности, а также могут использоваться для проведения платежей и инвестиций без участия посредников.

В настоящее время центральные банки также начинают изучать возможность выпуска цифровых версий *национальных валют* (центробанковские цифровые валюты), что может изменить облик традиционных финансовых систем.

Технологии *искусственного интеллекта* и машинного обучения используются в финансовом секторе для автоматизации процессов, анализа данных, прогнозирования трендов и рисков, а также для создания персонализированных финансовых услуг. Банки и финансовые компании используют алгоритмы машинного обучения для выявления мошенничества, кредитного скоринга, управления портфелем и других задач.

Интернет вещей предоставляет данные о потреблении и поведении клиентов, что помогает финансовым институтам лучше понять потребности своих клиентов и предложить им персонализированные услуги. В финансовом секторе интернет-вещей (internet of things, IoT) также используется для создания умных устройств и сенсоров, позволяющих автоматизировать процессы в банковском и инвестиционном секторах.

Облачные сервисы предоставляют финансовым компаниям доступ к большим объемам данных и вычислительным ресурсам, что позволяет им эффективно обрабатывать информацию, сокращать издержки на ИТ-инфраструктуру и предоставлять клиентам онлайн-сервисы.

Финансовые институты все больше используют биометрические технологии для идентификации клиентов и обеспечения безопасности финансовых транзакций.

По мнению экспертов [1-2] важнейшим итогом становления цифровой экономики является построение цифрового банка. Стратегия развития цифрового банкинга [3] определяет цифровой банкинг как «комплекс современных технологий, позволяющих осуществлять взаимодействие банков, и клиентов, республиканских органов государственного управления и коммерческих организаций посредством электронных каналов коммуникаций (например, системы дистанционного банковского обслуживания, мобильные устройства, веб-сайты, блоги, социальные сети, сообщества, форумы)». Сегодня по данным исследования, проведенного в рамках Digital Bank Report [4], более 70% финансовых учреждений во всем мире рассматривают развитие цифрового банка как одного из важнейших стратегических приоритетов в условиях развития цифровой экономики.

Становление цифрового банкинга является ответом на изменение потребностей клиентов: новый клиент требует к себе персонализированного подхода, желает получать от банка интересные предложения не только, когда придет в его отделение, но и в процессе

своей повседневной жизни. Так, персонализированное взаимодействие с клиентами обеспечивает банку неограниченные возможности по их привлечению независимо от демографической ситуации или уровня использования информационно-коммуникационных технологий в государстве. Банки стараются предвосхищать потребности клиентов разных поколений, поэтому стремятся соответствовать нынешним цифровым ожиданиям клиентов и развивать банковские и финансовые услуги с учетом их предпочтений [5].

Таким образом, по результатам проведенного исследования можно сформулировать следующие предложения по дальнейшему развитию электронных технологий в финансово-кредитной сфере:

1. Необходимо обеспечение омниканальности банковских услуг, их максимальное наполнение и функциональная унификация для повышения доверия населения и уровня использования электронных сервисов. На сегодняшний день далеко не все сервисы переведены в цифровой формат, что особенно проявляется в сегменте услуг для юридических лиц.

2. Актуальным является внедрение в процесс обслуживания клиентов элементов биометрической аутентификации, что снизит риски и операционные затраты, в том числе при обслуживании клиентов в отделениях.

3. Целесообразно развитие специализированных удаленных центров продаж банковских услуг. Наряду с широкими функциональными сервисными операциями работа в контакт-центре может быть максимально автоматизирована посредством внедрения технологий самообслуживания (речевые технологии, голосовая биометрия), расширения каналов доступа (интеграция мобильными приложениями, социальными сетями и мессенджерами).

4. Следует использовать возможности цифровых технологий для внедрения партнерств банков и небанковских учреждений (торгово-сервисных и страховых организаций, операторов мобильной связи), что позволит развивать комплексные онлайн-экосистемы кросс-продаж клиентских сервисов, существенно расширяющие границы выбора для конечного потребителя.

5. Необходимо интенсивное развитие и использование всеми банками системы межбанковской идентификации, которая обеспечит возможность клиентам различных финансово-кредитных учреждений пользоваться сервисами любого финансово-кредитного учреждения, независимо от наличия счета в нем.

6. Важным является совершенствование организационных структур банков для обеспечения качественного управленческого процесса в условиях цифровой трансформации. Требуется переход на процессные и проектные технологии, выделение новых структурных единиц, – подразделений по цифровой трансформации, а также формирование новых компетенций персонала банка.

7. Цифровизация требует от банковских работников доукомплектования спектра компетенций гибкими навыками (цифровые коммуникации, цифровая психология) и специализированными знаниями (создание цифрового контента, цифровая безопасность).

8. Целесообразно широкое применение комплекса аналитических методик, обеспечивающих качественную работу банков при цифровой трансформации. На этапе формирования стратегических планов можно ограничиться такими классическими инструментами, как SWOT и GAP-анализ. Но для поддержания непрерывной системы принятия управленческих решений на различных уровнях банка необходимо внедрение Big Data (большие данные), системы интерактивных дэшбордов (интеллектуальная доска), продвинутой аналитики Business Intelligence (бизнес-аналитика), которые обеспечат автоматический сбор, накопление и аналитическую обработку любых массивов данных.

Список использованной литературы

1. Голенда, Л.К. Цифровое продвижение банка как фактор повышения его конкурентоспособности / Л.К. Голенда, Н.Н. Говядинова, К.А. Забродская / Материалы международной науч. конф. «Тенденции экономического развития в XXI веке» – Мн: БГУ, 28 февраля, 2019.
2. Ковалев, М. Цифровая трансформация банков / М. Ковалев // Банкаўскі веснік. – 2018. – № 11 (664). – С. 50–60. Репозиторий ПолесГУ
3. Платежная система и цифровые технологии. – Национальный банк Республики Беларусь, 2000–2019. – Режим доступа: www.nbrb.by/Legislation/documents/DigitalBankingStrategy2016.pdf.
4. Забродская К. А., Голенда Л. К., Говядинова Н. Н. Современное состояние и развитие цифровизации финансово-банковской деятельности. – 2019.
5. Лагунина, Е. В. Трансформация банков в контексте развития цифровой экономики Республики Беларусь / Е. В. Лагунина; науч. рук. Н. Н. Морозова // Исследования и разработки в области машиностроения, энергетики и управления: материалы XIX Междунар. науч.-техн. конф. студентов, аспирантов и молодых ученых, Гомель, 25–26 апр. 2019 г. / М-во образования Респ. Беларусь, Гомел. гос. техн. ун-т им. П. О. Сухого ; под общ. ред. А. А. Бойко. – Гомель: ГГТУ им. П. О. Сухого, 2019. – С. 441-444.

MILLIY VALYUTANI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

**G'ofurov Olimjon — G'olib o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi Xalq O'zbekistoni
universitet o'qituvchisi**

Milliy valyutani boshqarish mexanizmlari davlatning iqtisodiy siyosatining asosiy vositalaridan biridir. Ular kursni tartibga solish, narxlarni barqarorlashtirish, moliyaviy barqarorlikni saqlash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan harakatlar va tadbirlar majmuidir.

Milliy valyutani boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri bu pul-kredit siyosatidir. U mamlakat Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi va pul massasi hajmini, foiz stavkalarini va bank tizimining likvidligini tartibga solishga qaratilgan. Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirish uchun turli xil vositalardan foydalanishi mumkin, masalan, ochiq bozor operatsiyalari, kreditlar va depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini o'zgartirish, tijorat banklari uchun zaxira talablari. Milliy valyutani boshqarishning yana bir mexanizmi fiskal siyosatdir. U hukumat tomonidan amalga oshiriladi va davlat xarajatlari, soliq siyosati va davlat qarzini tartibga solishni o'z ichiga oladi. Fiskal siyosat kengaytiruvchi bo'lishi mumkin, bunda davlat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun xarajatlarni ko'paytiradi va soliqlarni kamaytiradi yoki inflyatsiya yoki budjet taqchilligiga qarshi kurashish uchun xarajatlarni kamaytiradi va soliqlarni oshiradi. Shuningdek, milliy valyutani boshqarish mexanizmlari savdo siyosati va valyuta aralashuvidir. Savdo siyosati tovarlar va xizmatlar importi va eksportini tartibga solish uchun bojxona to'lovlari, kvotalar va boshqa cheklovlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Valyuta intervensiyalari Markaziy bank tomonidan milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan istalgan kursini saqlab qolish uchun amalga oshiriladi.

Biroq milliy valyutani boshqarish mexanizmlari ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, kengaytiruvchi pul-kredit siyosati iqtisodiyotning o'sishiga va ishsizlikning pasayishiga yordam berishi mumkin, ammo inflyatsiya va iqtisodiyotning haddan tashqari xavfli vaziyatga olib kelishi mumkin. Siqilgan fiskal siyosat budjet taqchilligi va inflyatsiyaga qarshi kurashishda yordam berishi mumkin, shu bilan birga ijtimoiy dasturlar va umumiy iqtisodiy pasayish xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

Markaziy banklar milliy valyutani boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Ular mamlakat moliya tizimining barqarorligi va samaradorligini ta'minlaydigan mexanizmlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javobgardir. Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotdagi pul taklifini

nazorat qilishdir. Markaziy bank pul massasini boshqarish uchun turli xil vositalardan foydalanishi mumkin, shu jumladan, foiz stavkalarini o'zgartirish, ochiq bozor operatsiyalari va tijorat banklari uchun zaxira talablarini belgilash. Ushbu mexanizmlar Markaziy bankka mavjud mablag'lar miqdorini nazorat qilish va narxlarning barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. Markaziy bank faoliyatining yana bir muhim jihati milliy valyuta kursini saqlab qolishdir. Markaziy bank boshqa valyutalarga nisbatan qiymatini saqlab qolish uchun o'z milliy valyutasini sotib olish yoki sotish orqali valyuta bozoriga aralashishi mumkin. Bunday aralashuvlar milliy valyutaning juda tez mustahkamlanishining oldini olish va uning haddan tashqari zaiflashuvining oldini olishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, Markaziy banklar moliya tizimining regulyatori vazifasini bajarishi mumkin. Ular milliy valyuta egalarining manfaatlarini himoya qilish, bank tizimining barqarorligi va moliyaviy inqirozlarning oldini olishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar va siyosatni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar. Markaziy bank kapital va likvidlik talablarini belgilash, shuningdek, muntazam tekshiruvlar va auditlarni o'tkazish orqali tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishi mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, Markaziy banklarning roli tanqid ob'ekti bo'lishi mumkin. Ba'zi iqtisodchilarning ta'kidlashicha, milliy valyutani boshqarishga markazlashtirilgan yondashuv iqtisodiyotning Real ehtiyojlaridan yetarlicha moslashuvchanlik yoqolishiga va uzoqlikka olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, valyuta bozoridagi foiz stavkalari yoki aralashuvlar bilan manipulyatsiya moliyaviy barqarorlik va qulay investitsiya muhitini yaratish uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Natijada, Markaziy banklar milliy valyutani boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Ular pul taklifini nazorat qiladi, kurs barqarorligini saqlaydi va moliya tizimining regulyatori vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, Markaziy bank ishining samaradorligi va samaradorligi tegishli qonunchilikka, faoliyatning shaffofligiga va muvozanatli boshqaruv mexanizmlariga bog'liq⁹⁶.

Pul-kredit siyosati vositalari milliy valyutani boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Ular davlatga pul-kredit munosabatlari ustidan nazoratni amalga oshirishga, inflyatsiya darajasiga va milliy valyuta kursining barqarorligiga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Ushbu bo'limda biz milliy valyutani boshqarish uchun ishlatiladigan pul-kredit siyosatining asosiy vositalarini ko'rib chiqamiz.

Birinchi vosita - foiz stavkalari. Markaziy bank pulga talab va taklifga ta'sir qilish uchun foiz stavkalari darajasini o'zgartirishi mumkin.

Yuqori foiz stavkalari kreditlar va pul sarflashning pasayishiga olib keladi, bu inflyatsiyani ushlab turishi va milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlashi mumkin. Past foiz stavkalari, aksincha, iqtisodiy faollikni oshiradi va iste'mol va investitsiyalarni rag'batlantiradi.

Ikkinchi vosita-ochiq bozor operatsiyalari. Markaziy bank davlat qimmatli qog'ozlarini ochiq bozorda sotib olish yoki sotish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin. Davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olayotganda, Markaziy bank pul taklifini ko'paytiradi, bu esa pul taklifining o'sishiga va foiz stavkalarining pasayishiga yordam beradi. Davlat qimmatli qog'ozlarini sotishda, aksincha, pul massasi kamayadi, bu pul sarfini cheklashi va inflyatsiyani ushlab turishi mumkin.

Uchinchi vosita-zaxira talablari. Markaziy bank tijorat banklarining zaxiralarini saqlash bo'yicha majburiy standartlarni belgilashi mumkin. Zaxira talablarining ko'payishi tijorat banklarining o'z mablag'laridan foydalanish imkoniyatini cheklashiga olib keladi va kreditlash hajmi va iqtisodiyotdagi pul sarflanishiga ta'sir qilishi mumkin.

To'rtinchi vosita-valyuta aralashuvi. Markaziy bank milliy valyutani sotib olish yoki sotish orqali valyuta bozoriga aralashish imkoniyatiga ega. Milliy valyutaning narxi oshgan taqdirda, Markaziy bank o'z kursini pasaytirish uchun milliy valyutani sotishni amalga oshirishi mumkin. Milliy valyuta kursi pasaygan taqdirda, Markaziy bank o'z kursini ushlab turish uchun milliy valyutani sotib olishi mumkin.

Beshinchi vosita-chet el valyutalari bo'yicha majburiyatlarni tartibga solish. Markaziy bank xorijiy kompaniyalar yoki fuqarolar tomonidan qarz berish hajmi va shartlariga cheklovlar qo'yishi, shuningdek, milliy valyutani xorijiy valyutaga aylantirish bo'yicha operatsiyalarni tartibga solishi

⁹⁶ Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник / под ред. Красиной Л.Н. -3-е изд., перераб. и доп. -М.: Финансы и статистика, 2006. -576 с.

mumkin. Bu kapital oqimini nazorat qilish va milliy valyutaning barqarorligini himoya qilishga yordam beradi⁹⁷.

Valyuta kursi siyosati va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri valyuta kursi siyosati milliy valyutani boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biridir. U milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan qiymatini tartibga solishga qaratilgan turli chora-tadbirlar va vositalarni qamrab oladi. Valyuta kursi siyosatining asosiy vositalaridan biri bu Markaziy bankning aralashuvi. Markaziy bank o'z milliy valyutasini o'z yo'nalishini o'zgartirish maqsadida bozorda sotib oladi yoki sotadi. Misol uchun, agar Markaziy bank o'z valyutasini zaiflashtirmoqchi bo'lsa, u ortiqcha taklif yaratish va uning qiymatini pasaytirish uchun o'z valyutasining katta miqdorini sotishi mumkin. Aksincha, agar u o'z valyutasini mustahkamlamoqchi bo'lsa, u taklif kamomadini yaratish va uning qiymatini oshirish uchun katta miqdordagi valyutani sotib olishi mumkin.

Valyuta kursi siyosatining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri sezilarli bo'lishi mumkin. Milliy valyutaning zaiflashishi bilan eksport raqobatbardosh bo'ladi, chunki tovarlar va xizmatlar chet ellik xaridorlar uchun arzonlashadi. Bu eksportni ko'paytirishga va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, valyutaning zaiflashishi import qilinadigan tovarlar va xizmatlar narxining oshishiga olib kelishi mumkin, bu inflyatsiya va fuqarolarning turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Boshqa tomondan, milliy valyutani mustahkamlash eksportning pasayishiga olib kelishi mumkin, chunki tovarlar va xizmatlar chet ellik xaridorlar uchun qimmatroq bo'ladi. Bu mahalliy korxonalarning daromadligini pasaytirishi va ishsizlikning o'sishiga bosim o'tkazishi mumkin. Shu bilan birga, valyutani mustahkamlash, shuningdek, import qilinadigan tovarlar va xizmatlar narxining pasayishiga olib kelishi mumkin, bu inflyatsiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va iste'molchilarga arzonroq narxlarida ko'proq tovarlarni sotib olishga imkon berishi mumkin. Valyuta kursi siyosati tashqi savdo va kapital qo'yilmalar bilan ham bog'liq. Misol uchun, agar mamlakat o'z valyutasining past kursiga ega bo'lsa, u arzon ishchi kuchidan foydalanmoqchi bo'lgan yoki aktivlarni arzonroq narxlarida sotib olmoqchi bo'lgan xorijiy investorlarni jalb qilishi mumkin. Boshqa tomondan, yuqori valyuta kursi xorijiy investorlarni chetlashtirishi mumkin, chunki bu mamlakatda investitsiyalarni kamroq foyda keltiradi.

Milliy valyutani boshqarish har qanday davlat uchun muhim vazifadir. Bu iqtisodiyotni tartibga solish, inflyatsiyani boshqarish va moliya tizimining barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. Ushbu bo'limda biz milliy valyutani boshqarishning afzalliklari va xatarlarini ko'rib chiqamiz. Milliy valyutani boshqarishning asosiy afzalliklaridan biri bu pul taklifini nazorat qilish qobiliyatidir. Davlat muomaladagi pul miqdorini o'zgartirishi mumkin, bu esa o'z navbatida inflyatsiya va foiz stavkalari darajasini nazorat qilish imkonini beradi. Masalan, agar iqtisodiyot tanazzulga yuz tutsa, Markaziy bank kredit berish va iste'mol qilishni rag'batlantirish uchun foiz stavkalarini pasaytirishi va pul taklifini oshirishi mumkin. Milliy valyutani boshqarishning yana bir afzalligi valyuta kursini tartibga solish qobiliyatidir. Markaziy bank boshqa valyutalarga nisbatan kerakli milliy valyuta kursini saqlab qolish uchun turli mexanizmlardan foydalanishi mumkin. Bu eksportning raqobatbardoshligini saqlab qolish va importni nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, milliy valyutani boshqarish davlatga o'z iqtisodiyotini tashqi zarbalardan himoya qilishga imkon beradi. Misol uchun, agar xalqaro bozorda neft narxining keskin pasayishi kuzatilsa, eksport qiluvchi mamlakat bunday zarbaning salbiy ta'sirini yumshatish uchun valyuta boshqaruvidan foydalanishi mumkin. Markaziy bank tovarlar va xizmatlarni jahon bozorida raqobatbardosh qilish uchun milliy valyuta qiymatini vaqtincha pasaytirishi mumkin. Biroq milliy valyutani boshqarish ham ma'lum xavflarni keltirib chiqaradi. Agar davlat iqtisodiy vaziyatni noto'g'ri baholasa yoki samarasiz boshqaruv vositalarini qo'llasa, bu inflyatsiya yoki valyutaning qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Milliy valyutani boshqarishning muvozanatsiz yondashuvi noaniqlikni keltirib chiqarishi va biznes faoliyati va investitsiyalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy valyutani

⁹⁷ Nazarova G.G., Haydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: 2005.; R. R. Tojiev "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari". Toshkent, TDIU nashriyoti, 2005-yil, 284-b.

boshqarishning yana bir xavfi-bu davlat tomonidan manipulyatsiya qilish imkoniyati. Ba'zi mamlakatlar savdo va eksportdan foyda olish uchun o'z valyutalarining qiymatini ataylab kamaytirishi mumkin. Bu adolatsiz raqobatni keltirib chiqarishi va boshqa mamlakatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy valyutani boshqarish mexanizmlarining asosiy jihatlari tahlil qilish asosida bir qator muhim xulosalar chiqarish mumkin. Boshqaruv mexanizmlariga kirish ushbu sohaning davlatning iqtisodiy siyosatidagi ajralmas rolini ta'kidlaydi. Markaziy banklar tomonidan taqdim etilgan turli xil vositalar va usullar milliy valyutaning barqarorligi va rivojlanishiga ta'sir qilish uchun keng imkoniyatlarni namoyish etadi. Milliy valyutani boshqarishda muhim rol o'ynaydigan Markaziy banklar pul aylanmasi, foiz stavkalari va inflyatsiyaning umumiy darajasini nazorat qiluvchi moliyaviy barqarorlik qo'riqchilari sifatida ishlaydi. Ularning harakatlari milliy valyutaning qiymatini va uning mamlakatning tashqi savdo operatsiyalariga ta'sirini belgilaydigan valyuta kursi siyosati bilan chambarchas bog'liq.

Foiz stavkalari va pul massasi hajmining o'zgarishi kabi pul-kredit siyosati vositalaridan foydalanish Markaziy banklarga inflyatsiya darajasi va iqtisodiy faoliyatga ta'sir qilish vositalarini taqdim etadi. Biroq ushbu chora-tadbirlar moliyaviy bozorlar va umumiy iqtisodiy barqarorlik uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan muvozanatni talab qiladi. Valyuta kursi siyosati, o'z navbatida, mamlakatning savdo munosabatlariga bevosita ta'sir qiladi va uning jahon bozorida raqobatbardoshligini shakllantiradi. Optimal valyuta kursini tanlash ichki va global iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan tahlil qilishni talab qiladi. Milliy valyutani boshqarishning afzalliklari makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, balansning buzilishi va moliyaviy bozorlarga ta'siri bilan bog'liq xavflar mavjud⁹⁸.

Valyuta kursi siyosati milliy iqtisodiyotni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Bu tovarlar va xizmatlarning eksporti va importiga, inflyatsiya darajasiga, ish bilan ta'minlashga va xorijiy investorlar uchun jozibadorlikka ta'sir qiladi. Valyuta kursi siyosatini to'g'ri boshqarish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi va farovonligiga hissa qo'shishi mumkin.

Shunday qilib, milliy valyutani boshqarish iqtisodiy siyosatning murakkab va zarur jihatini hisoblanadi. Moslashuvchanlik va global iqtisodiy tendensiyalarni chuqur tushunishga asoslangan tartibga solish mexanizmlaridan oqilona foydalanish davlatlarga barqarorlik va farovonlikka erishishga imkon beradi.

Pul-kredit siyosatining turli vositalaridan foydalanish davlatga pul-kredit munosabatlarini nazorat qilish va milliy valyutani boshqarish imkonini beradi. Ushbu vositalarni qo'llash muvozanatli bo'lishi va moliyaviy tizimning barqarorligiga erishish va milliy valyutaga ishonchni saqlab qolish uchun mavjud iqtisodiy vaziyatni tahlil qilishga asoslangan bo'lishi kerak.

Milliy valyutani boshqarish mexanizmlari davlat iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu mexanizmlarni bilish hukumatlarga moliyaviy barqarorlikni saqlash, inflyatsiyaning nazorat qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun samarali choralar ko'rish imkonini beradi. Shu bilan birga, salbiy ta'sirlarni minimallashtirish va kerakli natijalarga erishish uchun ushbu mexanizmlardan foydalanish bilan bog'liq potensial xavflarni hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Veretennikova, O. B., Mamin, D. V. zamonaviy sharoitda dinamik valyuta kursining ko'p faktorli iqtisodiy va matematik modelini yaratish muammolari // Moliya va kredit. – 2019. – № 9. 15-25-betlar.
2. Elistratova, D. A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda dollar kursini ekonometrik o'rganish // yosh olim. – 2016. – № 12 (116). 1235-1237-betlar.

⁹⁸ Journal of Policy Modeling Volume 34, Issue 4, July–August 2012, pages 568-578.; Old and new proposals for global monetary reform Page:533–558Published: 28 Oct Volume 10: Issue 4.Rogoff, Kenneth. 2001. "Why Not a Global Currency?" American Economic Review, 91 (2): 243-247.

3. Kassel, G. inflyatsiya va valyuta kursi. - M.: Elf press, 1995-yil. 102 b.

4. Keyns, J.M. Bandlik, foizlar va pulning umumiy nazariyasi. - M.: Yurayt, 2020 [elektron resurs]. - Rejim dostupа: [https://urait.ru/viewer/the-general-theory-of-employment-interest-money-obshchaya-teoriya-zanyatosti-procenta-i-deneg-454946#/\(kirish-sanasi:08.01.2021\)](https://urait.ru/viewer/the-general-theory-of-employment-interest-money-obshchaya-teoriya-zanyatosti-procenta-i-deneg-454946#/(kirish-sanasi:08.01.2021)).

5. Leontieva, E. L. jahon inqirozi sharoitida Yaponiya iqtisodiyoti (2008 yil-2009 yilning birinchi choragi) // Yaponiya yilnomasi. – 2009. - №38 [elektron resurs]. - Kirish rejimi: <https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomika-yaponii-v-usloviyahmirovogo-krizisa-2008-g-pervyy-kvartal-2009-g> (kirish sanasi: 08.01.2021).

ЦИКЛИК ТЕБРАНИШЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АЙРИМ ЖИХАТЛАРИ

Жаббаров К.Й.

Иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Циклик тебранишлар, аниқроқ айтганда, иқтисодий циклар тўғрисида Қадимги Греция ва Қадимги Хитой манбаларида ҳам маълумотлар келтирилган. Бу масалага, асосан, файласуфлар эътибор қаратганлар. Биринчи жаҳон иқтисодий инқироzi 1857 йилда бўлиб ўтганига қарамадан иқтисодий циклар борасидаги илмий изланишларда расман силжишлар XIX асрнинг бошларида – 1929 йилда содир бўлган Буюк Депрессиядан кейин кузатила бошланган ва олимлар иқтисодий циклар бўйича фаол илмий тадқиқотларни олиб борганлар.

Изланишлар натижасида “иқтисодий цикл” тушунасига турли таърифлар берилган. Хусусан, иқтисодиётнинг юксалиб ва пасайиб туришидан иборат тўлқинсимон ҳаракатини ўз ичига олувчи давр иқтисодий цикл деб аталади. Бошқача айтганда, ишлаб чиқаришнинг бир иқтисодий инқироздан иккинчи иқтисодий инқирозгача такрорланиб турадиган ҳаракати иқтисодий циклни ташкил этади.

Фанда иқтисодий циклар ривожланиш тенденциясига кўра қуйидаги турларга ажратилади: 100 йиллик (асрларга тенг бўлган), бир неча 10 йилликларни қамраб олувчи циклар, нормал иқтисодий циклар, кичик циклар, иқтисодиётнинг маълум бир тармоқларида рўй берувчи ўзига хос циклар (қишлоқ хўжалиги, саноат ва бошқалар) ва алоҳида кўринишда намоён бўлувчи иқтисодий циклар (заҳиралар ҳажми).

Ҳозирги давр фанида иқтисодий цикларнинг тўлқинлар деб аталувчи 1380 дан ортиқ турлари фарқланади. Цикларга кўп ҳолатларда уларни тадқиқ этган олимларнинг исмлари берилади. Масалан, 50-60 йиллик даврни қамраб олувчи Н. Кондратьев циклари, 18-25 йиллик даврийликка эга бўлган С.Кузнец циклари, 7-12 йиллик К.Жуглар, 2-4 йиллик Дж. Китчин, 200 йиллик Форрестер цикли ва 1000-2000 йиллик Тоффлер цикли кабилар.

Яқин ўтмишда жаҳонда циклик тебранишларни ўрганишларга қизиқишнинг ортиши ХХI асрнинг дастлабки йилларига, хусусан, 2008 йилда содир бўлган жаҳон моливий-иқтисодий инқирозига бориб тақалади. Анъанавий тарзда фундаментал ва амалий хусусиятга эга бўлган долзарб материалларни чоп этувчи “Вопросы экономики” журналида 2004 йилдан бошлаб то инқироз бошланган 2008 йилнинг охиригача иқтисодиёт ривожланишининг барқарорлиги муаммоларига бағишланган бирорта ҳам мақола босиб чиқарилмаган. Инқироз бошланганидан кейин эса мутаносибликни таъминлаш, иқтисодиёт ривожланишининг барқарорлиги мавзусига бағишланган тахлилий мақолалар маҳаллий, МДХ давлатлари ва чет эл нашрларида босилиши анча жонланган⁹⁹.

Бозор иқтисодиётининг ўзига хос жиҳатларидан бири бу бизнес цикларнинг кўтарилиши ва пасайиши иборат циклик ривожланишида кўзга ташланади. Бу циклилик ЯИМнинг реал ҳажми, инвестициялар ҳажми, ишсизлик даражаси каби асосий

⁹⁹ Жаббаров К.Й. Иқтисодий инқирозлар ва уларга қарши дастурлар самарадорлигини ошириш йўллари. – Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2020. – 130 б.

макроиктисодий кўрсаткичларнинг ўзгаришида кузатилиши мумкин. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви шароитида циклик ривожланиш маълум босқичлардан ўтиб, бир қанча хусусиятларга эга бўлди.

Циклик ҳаракатга таъсир қилган факторлар каторида қуйидагиларни алоҳида кўрсатиб ўтиш керак:

Интеграция ва либерализация жараёнлари;

Халқаро меҳнат тақсимотининг кучайиши;

АКТ, дастурий таъминот, нанотехнология ва композит материаллар соҳаларининг жадал суръатларда ривожланиши ҳамда оммавий тарзда қўлланилиши¹⁰⁰.

Шарқий Европа мамлакатлари иқтисодиёти бозор иқтисодиётига трансформацион ўтиш жараёнининг якунланиши муносабати билан циклик тебранишларнинг ўзига хослиги билан ажралиб туради. Россия ҳам глобал бозорга хос бўлган циклик тебранишлар дуч келган. Бу 2008 йилда содир бўлган жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози даврида яққол кўзга ташланди. Россия иқтисодиёти иқтисодий циклнинг барча фазаларини бошдан кечирган.

Бундан ташқари, Россия 2008-2010 йиллар оралиғида инқирозни бошдан кечирган минтақавий Америка (АҚШ) – Европа (Германия, Франция) иқтисодий циклининг домига тушиб қолади. Миллий иқтисодиётлар бир-бирига боғлиқлигининг кучайиши иқтисодий цикллилик асинхронлиги ўз ўрнини минтақавий цикллиликка бўшатиб беришига сабаб бўлади. Чунки минтақадаги юқори салоҳиятли мамлакатларда циклик тебранишларда ўзгаришларнинг содир бўлиши минтақанинг бошқа мамлакатлари иқтисодиётига сезиларли даражада таъсир кўрсатади.

1-расмда келтирилган маълумотлардан шуни айтишимиз мумкинки, Ўзбекистондан ташқари барча мамлакатларда 2008 йилги инқироздан кейин 2009 йилда иқтисодий ўсиш пасайган ва 2010 йилда ўсиш суръатларига эга бўлган.


АҚШ ва Европанинг етакчи давлатлари иқтисодий циклига Россия тушиб қолган. Ўзбекистон ва Хитойга бу пайтда минтақавий ва жаҳондаги иқтисодий циклларнинг таъсир даражаси нисбатан кам бўлган.

Лекин сўнги йилларда жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви ва интеграция жараёнларининг кучайиши бу икки мамлакатни ҳам жаҳондаги иқтисодий цикллар таъсирига тушиб қолишига сабаб бўлган. Бу, айниқса, 2020-2022 йилларда яққол кўзга ташланади. Covid-19 дан кейин 2020 йилда бутун дунёда иқтисодий пасайиш кузатилган, хусусан, Ўзбекистон ва Хитойда ҳам. Бу жаҳондаги циклик тебранишларнинг мамлакатимиз иқтисодиётига сўнги йилларда таъсир доираси кенгайиб бораётганидан далолат беради.

Маълумотларга қараганда, XIX асрнинг биринчи ярмида техникавий янгиланиш, яъни мавжуд техниканинг ўз муддатини ўтаб бўлиши ёки яроқсиз ҳолатга келиши учун 12-15 йил керак бўлган бўлса, XX асрнинг охирига келиб бу муддат 3-5 йилга тушиб қолган¹⁰¹. Бунинг устига талаб-эҳтиёж ҳам тез янгиланган. Шу сабабдан, ўсиш ва пасайишдан иборат тебранма ҳаракат қисқарган.

¹⁰⁰ Петухов В.А. Особенности экономических циклов в условиях глобальных технологических сдвигов. – Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М., 2013. – 28 с.

¹⁰¹ Мўминов Н.Г., Эгамбердиев Ф.Т., Азизов Р.К. Макроиктисодиёт. - Т.: Центр инновационный технологии., 2017, - Б. 144.



1-расм. 2006-2022 йилларда жаҳонда ва айрим мамлакатларда ЯИМнинг йиллик қўшимча ўсиши¹⁰², % да.

XIX асрда саноат цикли давомийлиги 10-12 йилни ташкил этгани ҳолда XX асрда унинг давомийлиги 7-9 йилгача камайган. Хулоса қилиб айтганда, бугунги глобаллашув ва мамлакатлар ўртасидаги иқтисодий интеграция кучайган шароитда янги техника ва технологияларнинг янгилашиш даврининг кескин қисқариши, табиий офатларнинг зарар даражасининг ортиши ва жаҳон молия бозорларини тартибга солишнинг халқаро миқёсида етарлича мувофиқлаштирилмаганлиги сабабли саноат цикллари ҳаракатига таъсир қувватли омиллар сони ортган ва цикллarning даврий тақрорланиш оралиғи 2-4 йилгача қисқарган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Жаббаров К.Й. Иқтисодий инқирозлар ва уларга қарши дастурлар самарадорлигини ошириш йўллари. – Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2020. – 130 б.
2. Петухов В.А. Особенности экономических циклов в условиях глобальных технологических сдвигов. – Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М., 2013. – 28 с.
3. Жаҳон банки (<https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG>) маълумотлари.
4. Мўминов Н.Г., Эгамбердиев Ф.Т., Азизов Р.К. Макроиқтисодиёт. - Т.: Центр инновационный технологии., 2017, - Б. 144.

¹⁰² Жаҳон банки (<https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG>) маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

АҲОЛИ ФАРАВОНЛИГИНИ ЮКСАЛТИРИШДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

А.М.Закимов,

Қорақалпоқ давлат университети доценти

Жаҳонда қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг асосий мақсадларидан бири аҳолини сифатли ва экологик тоза маҳсулотлари билан таъминлаш ҳисобланади. Табиий (ер ва сув) ресурслар чекланган шароитида қишлоқ аҳолиси сони (айниқса Осиё ва Африка минтақасида) кўпаётган бир пайтда уларнинг тобора ўсиб бораётган эҳтиёжларини сифатли таъминлаш устувор вазифалардан бири бўлмоқда. “Ҳозирги кунда дунёда қишлоқ аҳолисининг 89 фоизи Осиё ва Африка минтақаларга тўғри келади. 2050 йилга бориб бу кўрсаткич 91 фоизга этади¹⁰³”. Бу, авваломбор, мазкур минтақада жойлашган давлатлар қишлоқ хўжалигини интенсив ривожлантириш, тармоққа ресурсларни, электр энергияни, вақтни ва инсон кучини тежайдиган технологияларни кенг қўллаш, жараёнларни автоматлаштириш ва рақамлаштириш, қулай институционал муҳит ва зарур институционал асослар яратиш бўйича изчил ишларини олиб боришни тақозо этади.

Бутун дунёда қишлоқ хўжалигида илмий-техник тараққиётни жорий этишга кўпроқ ресурслар сарфлаш, бу ресурслардан, биринчи навбатда, ер ва сувдан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, қишлоқ хўжалиги ресурсларидан биринчи навбатда озиқ-овқат мақсадларида фойдаланиш, қишлоқ хўжалигини ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ва бунинг учун мос институтлар (тузилмалар)ни ривожлантириш ва ҳуқуқий асосларини яратиш, шу соҳада банд бўлган аҳолининг фаровонлигини ошириш бўйича тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Республикамызда ҳам ҳудудларда қишлоқ хўжалигини интенсив ривожлантириш бўйича жадал ишлари олиб борилмоқда ва истиқбол учун катта мақсадлар қўйилмоқда. Жумладан, “қишлоқ хўжалигини илмий асосда интенсив ривожлантириш орқали деҳқон ва фермерлар даромадини камида 2 баравар ошириш, қишлоқ хўжалигининг йиллик ўсишини камида 5 фоизга етказиш..... Ҳудудларни мутаносиб ривожлантириш орқали ҳудудий иқтисодиётни 1,4-1,6 бараварга ошириш¹⁰⁴” мақсадлари қўйилган. Ана шу мақсадларини амалга оширишда республикамыз ҳудудларида қишлоқ хўжалиги субъектлари самарали фаолият юритиши учун ўзаро муносабатларни бозор механизмларига асосланиб шакллантириш, қишлоқ хўжалигини ривожлантирувчи институтларни аниқлаш ва улар бозор шароитига мос ҳолда ишлаши учун институционал муҳит яратиб бериш, мулкчилик ва шартномавий муносабатларни нормаларни такомиллаштириш ва уйғунлаштириш орқали ривожлантириш муҳим вазифалардан бири саналади.

Ўзбекистон Республикаси “Деҳқон хўжалиги тўғрисида”ги 2021 йил 1-апрелдаги ЎРҚ-680-сон Қонуни (янги таҳрири), Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28-январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги, 2021 йил 26-февралдаги ПФ-5009-сон “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясида белгиланган вазифаларни 2021 йилда амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2020 йил 12 ноябрдаги ПҚ-4889-сон “2020-2023 йилларда Қорақалпоғистон Республикасини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2020 йил 11 майдаги “Республика ҳудудларини қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштиришга ихтисослаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4709-сонли қарор ва фармонлари ҳамда мазкур соҳага тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш лозим.

¹⁰³ <http://www.demoscope.ru/weekly/2018/0775/barometer775.pdf>


¹⁰⁴ О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-й. ПФ-60-сон “2022-2026-йилларга мо‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

Умуман назарий, ҳам амалий жиҳатдан бозор иқтисодиётига ўтиш ва бозор муносабатларининг ривожланиб бориши шароитида иқтисодиёт тармоқларида таркибий ўзгаришлар биринчидан тармоқларнинг ялпи ички маҳсулот таркибидаги улушида ўз аксини топса, иккинчидан тармоқлар ичидаги таркибий ўзгаришлар, хусусан, қишлоқ хўжалигида ер майдонларининг тақсимланиши, саноат тармоқларида эса ишлаб чиқаришдаги улуши каби кўрсаткичларда ўз аксини топади, учинчидан эса тармоқлараро ва тармоқлар кесимида янгидан ташкил этилган, мазмун ва моҳияти жиҳатидан шу давргача бўлган ҳолатлардан кескин фарқланувчи янги ташкилий-бошқарув тузилмаларининг шаклланиши ва ривожланиши билан изоҳланади.

Шу жиҳатдан қараганда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сонли Фармонининг қабул қилиниши миллий иқтисодиётимизнинг бошқа тармоқларида бўлгани каби қишлоқ хўжалиги ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш саноати тармоқларини ривожлантиришда ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Мазкур Фармоннинг “Қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантириш” борасида, асосий масалалардан бири қилиб аграр соҳада “Таркибий ўзгаришларни чуқурлаштириш ва қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини изчил ривожлантириш, мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини янада мустаҳкамлаш, экологик тоза маҳсулот ишлаб чиқаришни кенгайтириш, аграр секторнинг экспорт салоҳиятини сезиларли даражада ошириш”¹⁰⁵ лозимлиги белгилаб қўйилган.

Бундай вазифаларни ҳал этиш мақсадларида кейинги йилларда агросаноат мажмуаси тармоқлари, шу жумладан, қишлоқ хўжалигини янада ривожлантириш бўйича ташкилий-бошқарув ва хизмат кўрсатиш тузилмаларини республика ва унинг ҳудудлари даражасида ислоҳ қилиш, уларнинг фаолиятини бошқаришни мақсадли ва самарали ташкил этиш йўналишларида ишлар олиб борилмоқда. Мисол учун Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 октябрдаги “Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари фаолиятини янада ривожлантириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори билан Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва туман бўлинмаларига ҳамда “Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларига комплекс хизмат кўрсатиш марказлари”га эга бўлган “Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши” ташкил этилиб, уларнинг зиммасига фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг ҳуқуқларини ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, уларга зарурий моддий ресурслар, уруғ ва кўчатлар, техника воситаларини етказиб бериш, ҳуқуқий, иқтисодий, технологик соҳаларда маслаҳатлар бериш, бизнес режалар тузишда қўмаклашиш, маҳсулотларни реализация қилишда воситачилик хизматларини кўрсатиш вазифалари юкланганлиги мамлакатимизда фермер, деҳқон ва томорқа ер эгалари фаолиятини мувофиқлаштириш ва хизматлар кўрсатиш тизимида амалга оширилган таркибий ўзгаришларнинг бир кўриниши дейиш мумкин. Алоҳида таъкидлаш лозимки қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларини қўллаб қувватлаш ва уларни бошқариш жараёнларини замонавийлаштириш мақсадларида алоҳида тармоқлар кесимида яъни балиқчилик, ипакчилик, ёнғоқ етиштириш, катта экспорт салоҳиятига эга бўлган қизилмий етиштириш, асалчилик каби қатор йўналишларда уларни етиштирувчи ва қайта ишлаш корхоналари фаолиятини мувофиқлаштиришни кўзда тутувчи ассоциацияларнинг ташкил этилиши ҳам тармоқлар бўйиса янги таркибий тузилмалар шаклланганлигидан дарак беради.

¹⁰⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сонли Фармони. 1-илова 3.3-банди.



1-расм.Қорақалпоғистон Республикасида институционал ислохотлар даври мобайнида фермер ва деҳқон хўжаликлари сони ўзгариши динамикаси, бирликда.

Юқорида қайд этилган ташкилий бошқарув тузилмалари мулкчиликнинг нодавлат шакллари асосида ташкил этилган. Бундан ташқари мамлакатимиз раҳбарияти томонидан иқтисодий тармоқларида давлат бошқаруви ва сиёсатини амалга ошириш ваколати берилган вазирлик ва бошқа давлат органлари фаолиятида ҳам катта ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Қишлоқ хўжалиги, озиқ-овқат хавфсизлиги ва сув истеъмоли соҳаларидаги ҳақиқий ҳолатни ва ривожланиш истиқболларини чуқур таҳлил қилиш асосида уларни стратегик режалаштириш сиёсати бўйича таъсирчан ишларни йўлга қўйиш, мазкур йўналишлар бўйича бошқарув тизимини тубдан такомиллаштириш мақсадида, шунингдек, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ҳамда Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислохотлар концепциясида белгиланган вазифаларга мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 февралдаги “Қишлоқ ва сув хўжалиги давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўрисида”ги ПФ-5330-сон Фармонида мувофиқ алоҳида “Қишлоқ хўжалиги вазирлиги” ташкил этилганлиги республикада қишлоқ хўжалигини бошқариш тизимида катта таркибий ўзгаришлар юз берганлигини билдиради. Айтиш лозимки бу ўзгаришлар ўз навбатида Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва туманларда ҳам қишлоқ хўжалиги бошқаруви тизимида тегишли ўзгаришларни амалга оширишни талаб этади. Бунда асосий эътиборни қишлоқ хўжалиги вазирлиги тизимида юз берган ўзгаришлар ва юқорида қайд этилган тармоқ ассоциацияларнинг ташкилий бошқарув тизими ва улар таркибига киритилган деҳқон, фермер хўжаликларининг тайёрлов, қайта ишлаш корхоналари ўртасидаги ташкилий-иқтисодий ва ҳуқуқий муносабатларни замонавий талаб ва тамойиллар асосида ўрнатилишига қаратиш янгидан ташкил этилган уюшмалар фаолиятини бошқариш самарадорлигини ошириш ва такомиллаштириш иқтисодийнинг барқарор ривожланишида катта аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 февралдаги “Қишлоқ ва сув хўжалиги давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўрисида” ги ПФ-5330-сон Фармони.

2.Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 27 январидagi “Ўзбекистон Республикасида қизилмия ва бошқа доривор ўсимликларни етиштириш ҳамда саноат усулида қайта ишлашни янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида” ги № 63-сонли қарори.

3.Қорақалпоғистон Республикаси қишлоқ хўжалиги бошқармаси маълумотлари

МОЛИЯВИЙ РИСКЛАРНИ БАҲОЛАШНИНГ САМАРАЛИ ВОСИТАСИ СИФАТИДА СТРЕСС-ТЕСТДАН КЕНГ ФОЙДАЛАНИШ

Каримов Комилжон Иброгимович

мустақил тадқиқотчи

E-mail: komil_karimov@yahoo.com

Республикамиз банк тизимида сўнги йилларда амалга оширилаётган ислохотлар тижорат банклари фаолиятида ҳалқаро меъёрларни жорий қилишни тақозо этмоқда. Хусусан, 2020 йил 12 майдаги “2020 — 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислох қилиш стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5992-сонли фармонида стресс-тест ўтказиш талабларини ишлаб чиқиш қўйилди. Рискларни баҳолаш воситаларидан бири сифатида айнан стресс-тесни Фармонда қайд этилиши уни нақадар долзарб ва муҳимлигини англатади. Ушбу Фармон ижросини таъминлаш мақсадида Адлия вазирлигида 2023 йил 18 апрелда 3427-сон билан рўйхатдан ўтган “Банклар ва банклар гуруҳларининг таваккалчиликларни бошқариш тизимига доир талаблар тўғрисида”ги Низом тасдиқланди ва унда стресс тест ўтказишга қўйиладиган талаблар аниқ белгиланди. Унга қадар қўпчилик тижорат банкларида стресс тест “сезгирлик таҳлили (анализ чувствительности)” шаклида соддароқ қилиб ўтказиб келинаётган эди.

Хориж банкларида ҳам банкни турли қутилмаган ҳолатларга молиявий бардошлилигини баҳолашда кенг қўлланиладиган усулларида бири “стресс-тест усули” ҳисобланади. Стресс-тест – бу истисноли, аммо эҳтимолий ҳодисаларга хос бўлган бир қатор риск факторларидаги ўзгаришларни банк молиявий ҳолатига потенциал таъсирини баҳолаш учун ўтказиладиган услубдир. Шунинг таъкидлаш жоизки, рискларни баҳолашнинг ички модели сифатида стресс-тест йирик ҳалқаро банklar томонидан 1990 йилларда амалиётга жорий этилган¹⁰⁶. Стресс-тестнинг муҳимлигини Банк назорати бўйича Базель қўмитасининг 1996 йил январда чоп этилган “Бозор рискига нисбатан капитал бўйича Келишув”га қўшимчаларда қуйидагича таъкидлаган: “Бозор рискларни ҳисобга олган ҳолда капитал етарлилигига нисбатан талабларга мувофиқ бўлиш учун ички моделлаштириш ёндашувидан фойдаланадиган банklar стресс-тест ўтказиш бўйича аниқ ва ҳар томонлама дастурга эга бўлишлари лозим”¹⁰⁷. Банкда комплекс стресс-тест ўтказишда активлар бўйича катта миқдорда зарарлар келтириши мумкин бўлган ёки рискларни бошқаришни бирмунча қийинлаштириши мумкин бўлган бир қатор факторлар ҳисобга олинади. Ушбу факторлар бозор, кредит ва ликвидлик рискларини турли компонентларидан таркиб топади.

Стресс-тест миқдорий ва сифат таҳлилларини ўз ичига олади. Миқдорий таҳлил, аввало, номақбул ҳодисаларнинг масштаби ва пайдо бўлиш кетма-кетлиги ҳамда уларни банк фаолиятининг турли кўрсаткичларига таъсир кучини аниқлашга йўналтирилади. Сифат таҳлили иккита асосий мақсадни қўзлайди:

- Банк капиталини мумкин бўлган йирик зарарларни қоплаш имкониятини баҳолаш;
- Риск даражасини камайтириш ва капитални сақлаб туриш учун банк томонидан қабул қилиниши лозим бўлган чора-тадбирлар мажмуини аниқлаш.

Банкда стресс-тест ўтказишни асосий усули сценар таҳлил ҳисобланади. Шунингдек, банк активлар портфелининг риск факторлари ўзгаришига сезувчанлик таҳлили ўтказилади ва максимал йўқотишлар миқдори ҳисобланади. Сценар таҳлил қоида тариқасида асосан “портфелли” ёки “ҳодисавий” ёндашувга асосланади. Содда қилиб айтганда, портфел ёндашувида сценарий тузиш риск бўлинмаси томонидан банк активларини заиф томонларини аниқлашдан бошланади. Бу заиф томонларни аниқланиб, мумкин бўлган сценарий шакллантиради. Масалан, стресс-тест ўтказиляётганда банкда фоиз rischi асосий риск манбаи

¹Mario Quagliariello, Stress-testing the Banking System: Methodologies and Applications (2009) https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1325756

²Basel Committee on Banking Supervision “Amendment to the capital accord to incorporate market risks”. 1996.

бўлганда, сценарий фоиз ставкаларини ўзгаришини ҳисобга олган ҳолда шакллантирилади. Ҳодисавий ёндашувда сценарий мумкин бўлган ҳодисалар ва уларнинг банк портфелида мавжуд бўлган риск факторларига таъсири асосида тузилади. Максимал йўқотишлар миқдорини ҳисоблаганда риск факторлари комбинацияси ҳамда уларнинг банкка потенциал зарар келтириши мумкин бўлган салбий динамикаси аниқланади. Банкка жиддий потенциал хавфлар аниқланганда банк бошқаруви рискларни минималлаштириш бўйича тегишли қарорни қабул қилади.

Мисол тариқасида “Бизнесни ривожлантириш банки” АТБда стресс-тест ўтказишда қуйидаги омиллар таъсири камида учта сценарий бўйича баҳоланади:

- Кредит портфели сифатини эҳтимолий ёмонлашиши, шу жумладан йирик қарздорлар бўйича;

- Мижозлар ҳисобварақлари қолдиғини камайиши, хусусан йирик депозиторлар томонидан депозитларни муддатидан олдин олиб чиқиб кетилиши;

- Миллий валютани хорижий валютага нисбатан айирбошлаш курсини девальвацияси;

- Миллий ва хорижий валютадаги активлар ҳамда мажбуриятлар бўйича фоиз ставкаларининг ўзгариши;

Юқоридаги ҳар бир ҳолат бўйича тегишли кўрсаткичлар ҳисобланиб якуний стресс йўқотишлар миқдори топилади. Якуний натижада сценарийлар бўйича стресс йўқотишларнинг банкнинг асосий молиявий кўрсаткичлари, пруденциал меъёрлар ва морлиявий ковенантларга таъсири кўрсатиб берилади.

Жаҳон молия бозорларида рўй берган инқирозлар ва геосиёсий келишмовчиликлар таъсирини тижорат банкларида стресс-тестдан ўтказиш усуллари маълум даражада чекланганлиги намоён қилди ва бунинг натижасида мавжуд баҳолаш воситаларини тезкор равишда қайта ишлаш зарурияти туғилди. Мазкур нобарқарорликлар амалиётда фойдаланилган стресс-тест ўтказишни тўртта йўналиш бўйича камчилигини кўрсатди:

- Рискларни бошқариш жараёнида ижро органи томонидан стресс-тест натижаларидан тўлиқсиз ва чекланган даражада фойдаланиш;

- Стресс-тест ўтказиш услубиётини такомиллаштирилмаганлиги;

- Сценарийларни нотўғри танлови (реал стресс шартлари билан номувофиқ бўлиш)

- Ўзига хос рисклар ва алоҳида маҳсулотлар билан боғлиқ бўлган бизнес жараёнларда стресс-тест ўтказишнинг мавжуд эмаслиги.

Молиявий барқарорлик бўйича Кенгаш¹⁰⁸, банк назорати бўйича Базел қўмитаси¹⁰⁹, Европа марказий банки¹¹⁰, Халқаро молия институти¹¹¹ каби халқаро ташкилотлар глобал инқирозлардан чиқарган хулосалари натижасида бир қатор стресс-тест ўтказиш бўйича қўлланма ва тавсиялар ишлаб чиқишди. Ушбу қўлланма ва тавсияларда стресс-тест банкларда риск-менежментнинг муҳим воситаси эканлиги таъкидланади. Хулоса қилиб айтганда, сўнги йилларда республикаимиз тижорат банкларида рискларни бошқаришни такомиллаштириш бўйича етакчи молия институтлари ва консалтинг компаниялари билан ҳамкорликда амалга оширилаётган ишлар, рискларни бошқариш, айниқса, стресс-тест ўтказиш бўйича халқаро даражадаги профессионал экспертлар томонидан ўқув-семинарлар ташкил қилинаётганлигини ҳамда Марказий банк томонидан 2023 йилда жорий қилинган янги Низомда стресс тест ўтказишда эътибор бериладиган жиҳатларни аниқ ёзилганлиги ижобий баҳолаш мақсадга мувофиқдир. Булар эса ўз навбатида тижорат банклари томонидан рискларни бошқариш бўйича ички меъёрий ҳужжатларини такомиллаштириб боришларига туртки бўлмоқда.

³ <https://www.fsb.org/wp-content/uploads/P130721.pdf>

⁴ <https://www.bis.org/bcbs/publ/d450.pdf>

⁵ <https://www.bankingsupervision.europa.eu/banking/tasks/stresstests/html/index.en.html>

⁶ <https://www.elibrary.imf.org/display/book/9781484310717/9781484310717.xml>

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Mario Quagliariello, Stress-testing the Banking System: Methodologies and Applications (2009) https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1325756
2. Basel Committee on Banking Supervision “Amendment to the capital accord to incorporate market risks”. 1996.
3. <https://www.fsb.org/wp-content/uploads/P130721.pdf>
4. <https://www.bis.org/bcbs/publ/d450.pdf>
5. <https://www.bankingsupervision.europa.eu/banking/tasks/stresstests/html/index.en.html>
6. <https://www.elibrary.imf.org/display/book/9781484310717/9781484310717.xml>

ЎЗБЕКИСТОНДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Мусаев Озоджон Шавкат ўғли
ТДИУ, Бизнес бошқаруви ва логистика
кафедраси таянч докторанти

Бугунги кунда кичик бизнес олдида турган энг асосий муаммолардан бири молиявий ресурслар муаммосидир. Бу вазифани бажариш, яъни кичик бизнесни молиявий маблағлар билан таъминлаш, уларга имтиёзли фоиз ва муддатларда кредит маблағларини ажратиш тижорат банклари зиммасига юклатилган.

Кичик бизнесни ривожлантиришни замонавий ривожланган банк тизими орқали, ишлаб чиқариш корхоналарга фоиз ставкалари унчалик юқори бўлмаган кредитлар ажратиш йўли билан амалга ошириш мумкин. Микрокредитлаш тизимини кенгайтириш, бу ишни халқаро молия корпорацияси, Жаҳон банки, Осиё банки каби халқаро молия ташкилотлари ёрдамида амалга ошириш талаб этилади.

Лекин бугун кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш соҳада кўзланган мақсадларга эришиш осон кечмаяпти ва қўрилаётган чора-тадбирларга қарамай муаммолар ўз ечимини кутиб турган, айниқса молиявий таъминот борасида масалалар кўп. Ана шу масала ва муаммоларни комплекс ўрганиб уларга жавоб топиш заруриятини белгилайди.

Қуйидаги келтирилган 1-жадвал маълумотларидан 2021 йилда кичик тадбиркорликнинг асосий кўрсаткичлари таҳлил қилинган, маълумотларга кўра фаолият юритаётган кичик корхона ва микрофирмалар сони 2022 йилда 33264 бирликка кўпайиб 262930 тага етганлигини кўришимиз мумкин. Шунгдан янги ташкил этилган кичик корхона ва микрофирмалар сони 2017 йилга нисбатан 10755 тага кўпайиб, 48922 тани ташкил қилган.

Шу билан бирга таъкидлаш жоизки, кичик тадбиркорликнинг ЯИМ даги улуши 2022 йилда 51.8 % ни, 2023 йилда -0.6% га пасайиб 51,2 % ни ташкил қилган.

1-жадвал

Кичик тадбиркорликнинг асосий кўрсаткичлари ҳақида маълумот (2023 йилнинг январ - декабрида) [4]

№		ўлчов бирлиги	2022 й.	2023 й.	(+-)
	Фаолият юритаётган кичик корхона ва микрофирмалар сони	бирлик	229666	262930	33264
1	Янги ташкил этилган кичик корхона ва микрофирмалар	бирлик	38167	48922	10755
2	ЯИМ	%	51.8	51.6	-0.6
3	Саноат	%	41,2	34,7	-0.4
	Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик	%	98,1	98,1	0,0

4	хўжалиги				
5	Инвестиция	%	34,8	34,9	0,1
6	Қурилиш	%	66,2	66,6	0,4
7	Савдо	%	88,3	86,3	-2,0
8	Хизматлар	%	58,4	55,2	-3,2
9	Юк ташиш	%	54,2	54,4	0,2
10	Юк айланмаси	%	77,7	79,6	1,9
11	Йўловчи ташиш	%	90,1	90,8	0,7
12	Экспорт	%	22,0	26,5	4,5
13	Импорт	%	53,6	55,8	2,2

Саноатда ҳам кичик тадбиркорликнинг улуши -0.6% га пасайган, яъни 2022 йилда 41,2 % ни ташкил қилган бўлса 2023 йил якунида 34,7 % га тенг бўлган. Савдо ва хизматлар соҳа-сида ҳам кичик тадбиркорликнинг улуши пасайиш тенденцияси кузатилган. Мазкур ҳолат республика-мизда ўрта ва йирик бизнес субъектларининг ривожланиб бораётганлиги билан изоҳланади.

Ҳозирги кунда, Ўзбекистонда кичик бизнесни кредитлашдаги мавжуд муаммолар қуйидагилардан иборат:

- Кичик бизнес субъектларининг миллий иқтисодиёт ривожини таъминлашдаги ўрнини баҳолаш;

- Кичик бизнес субъектлари фаолиятининг молиявий асосларини таҳлил қилиш ва кўрсатиш;

- Амалиётда кичик бизнес соҳасини ҳар – хил манбалар орқали молиялаштиришни таҳлил қилиб, уни оптимал услубларини кўрсатиш ва уни такомиллаштириш;

- ривожланган давлатларда кичик бизнесни кредитлашни тараққий этиш тажрибасини ўрганиш асосида уни республикада қўллаш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш;

- кичик бизнесни кредитлашни қўллаб-қувватлашда нодавлат ташкилотларнинг ва нобанк молиявий институтларнинг фаоллигини ошириш бўйича аниқ таклифлар ишлаб чиқиш;

- молиялаштиришнинг лизинг шаклидан кичик бизнес фаолиятини ривожлантиришда фойдаланиш тизимини ўрганиб, уни кенг миқёсда амалиётга тадбиқ қилиш йўллари-ни белгилаш.

- Кичик бизнес субъектларини кредитлашда бюджетдан ташқари фондлар ва марказлашган ресурслар ҳиссаси камлиги;

- Кичик бизнесни кредитлашда фоиз ставкалари ва бошқа чекламалар мавжудлиги ва бунга муқобил равишда ушбу соҳани кредитлаш борасидаги имтиёзларни ошириш, бунинг натижасида банкни кичик бизнес субъектларини кредитлашдаги манфаатдорлигига эътибор бериш;

- Банкларнинг кичик бизнес субъектларини кредитлаш жараёнидаги ташкилий муносабатларни соддалаштириш;

- Банкларнинг кредит таъминотлари ва уларнинг реализацияси билан боғлиқ муаммолар;

- Ушбу муаммоларни ҳал қилиш учун қуйидаги вазифаларни тўлиқ ва изчил давом эттириш лозим деб ўйлаймиз.

- Ички бозорни товар ва хизматлар билан тўлдириш, аҳолини иш билан таъминлаш, унинг даромадларини ошириш;

- Кам сармоя талаб қилиш ҳисобидан ишлаб чиқаришни енгилроқ ва тез модернизация қилиш;

- Мулкдорлар ўрта синфини шакллантириш.

Ўзбекистонда ҳам аҳоли шахсий жамғармаларини шакллантириш, кўпайтириш ва

уларнинг бизнес кўникмаларини янада ривожлантириш йўлида маҳаллий нодавлат ташкилотлари орқали микрокредитлар ажратишни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқдир.

Корхоналарнинг фаолияти давомида айланма маблағлари тақчиллигини вақтинчалик қоплаш усулларида бири векселлардан фойдаланишини Ўзбекистонда ҳам амалиётга босқичма-босқич татбиқ этиш мақсадга мувофиқ.

Кичик бизнес субъектларини микрокредитлар билан таъминлаш хажмларини ошириш, шу билан бирга кредитларнинг мақсадли ишлатилишини таъминлаш лозим.

Ҳозирда, янги ташкил этилаётган кичик ва хусусий корхоналарни қўллаб-қувватлаш мақсадида Имтиёзли кредит жамғармасининг ресурс базасини икки баробар ошириш кўзда тутилган. Бунинг натижасида кичик бизнес субъектларига ажратилган кредитлар миқдори йилдан-йилга сезиларли даражада ошиб бормоқда.

Давлат дастури доирасида тижорат банкларининг барча филиалларида “Тадбиркорлар хонаси” ташкил этилди, банкларнинг мунтазам янгиланган туриладиган веб-сайт ва порталлари орқали кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларига ахборот хизмати кўрсатиш тизими кенгайтирилди.

Яратилган шароит ва имтиёзлар натижасида тижорат банклари томонидан мазкур соҳа вакиллари кўрсатилаётган хизматлар кўлами кенгайиб, сифати ошиб бормоқда.

Қайд этилдики, тижорат банклари доимий равишда кичик бизнес субъектларини, айниқса, оилавий тадбиркорликни молиявий қўллаб-қувватлаш, таълим муассасаларини битирувчи ёшларнинг бизнес режаларини молиялаштириш масалаларига катта эътибор қаратиб келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Қонуни. “Тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлашга, хусусий мулкни ҳар томонлама ҳимоя қилишга ва ишбилармонлик муҳитини сифат жиҳатидан яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”. –Т.: 2016 йил 29 декабрь, №ЎРҚ-418.2

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. “Тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлашга, хусусий мулкни ҳар томонлама ҳимоя қилишга ва ишбилармонлик муҳитини сифат жиҳатидан яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”. –Т.: 2016 йил 5 октябрь, ПФ-4848-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”. –Т.: 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон

4. <https://stat.uz/uz/>

МИРОВОЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ НА ДОЛГОСРОЧНУЮ ПЕРСПЕКТИВУ

Олимов О.

Национальный университет Узбекистана
Магистрант 1-курса

Стратегия экономического и социального развития страны является стержнем системы стратегического управления, определяет вектор развития, и на котором базируются все элементы системы. Стратегия содержит четкие цели и пути их достижения, а также набор мероприятий, позволяющих оценить прогресс страны в социально-экономическом развитии.

В западных странах наличие документа, в котором отражены приоритеты и цели развития территории на долгосрочный период, закреплено на законодательном уровне и

является базовым документом для координации деятельности между различными уровнями власти и для принятия решений по распределению финансовых ресурсов.

Несмотря на разнообразие стратегических документов некоторых стран, все национальные стратегии социально-экономического развития имеют определенные общие характеристики, такие как комплексность, долгосрочность, консолидация, публичность.

Мировая практика подтверждает, что достижение долгосрочных целей социально-экономического развития невозможно без использования методов стратегического планирования, которые прочно вошли в практику управления ведущих стран Запада, таких как США, Франция, Япония, Южная Корея, Китай, как на макро-, так и на мезо- и микроуровне.

Суть стратегического планирования в США состоит в выборе главных приоритетов развития национальной экономики на федеральном уровне и выстраивании на этой основе отношений федеральной власти с администрациями штатов, бизнесом, обществом. На государственном уровне определяются направления развития общества, перспективные рынки и технологии, сектора экономики, которым будет отдаваться предпочтение.

Такие страны, как Франция, Япония, также идут по пути выбора приоритетных отраслей промышленности с точки зрения важности их развития в целом для экономики. Эти страны формируют долгосрочные и пятилетние планы развития, сочетая методы индикативного и директивного планирования.

Всё отчетливее стало складываться понимание необходимости формирования нового набора управленческих инструментов, которые позволяли бы решить следующие задачи: – расширить временную глубину государственного прогнозирования и планирования, выйдя за рамки бюджетного цикла (более 3-х лет), предусматривая реализацию долгосрочных решений (со сроком реализации 6 и более лет) в рамках взаимосвязанных средне- и краткосрочных задач, подчиненных общей цели;

- определить последовательность разработки долгосрочных и среднесрочных документов государственного стратегического планирования и их взаимоувязки по целям и приоритетам, регламентировав периодичность их разработки и корректировки;

- упорядочить сроки подготовки документов государственного стратегического управления и мер бюджетной политики между собой;

- сбалансировать планируемые мероприятия, требующие значительных затрат, по ресурсным и организационным возможностям (проекты в энергетике, транспорте, демографии и национальной безопасности);

- обозначать долгосрочные ориентиры для бизнеса (в области формирования новых перспективных рынков товаров и услуг, развития транспортной инфраструктуры, энергетической и минерально-сырьевой баз, рынка рабочей силы, социальной инфраструктуры, науки и технологий), позволяющие снизить риски при принятии долгосрочных инвестиционных решений.

Анализируя опыт стран мира, можно выделить общие условия формирования действенной стратегии социально-экономического развития:

- обеспечение приверженности нации идеям и целям стратегии социально-экономического развития;

- консолидация общества вокруг единых целей;
- учет глобальных тенденций развития;
- учет региональных тенденций развития;
- комплексный подход к изучению, оценке влияния и прогнозированию социально-экономической системы, учет взаимосвязи и взаимодействия всех ее элементов;
- многомерное согласование интересов разных субъектов и иерархических уровней;
- четкое понимание целей и задач развития страны в долгосрочной перспективе;
- активное участие частного сектора, аналитических центров, общественности;
- концентрация ресурсов и усилий общества для реализации стратегических приоритетов;

- широкие консультации на национальном и международном уровне;
- наличие эффективной статистической системы, обеспечивающей достоверность, полноту и своевременность статистических данных;
- эффективная система казначейства, гарантирующая эффективное и прозрачное использование ресурсов, среднесрочное бюджетирование и система бюджетирования, ориентированного на результат;
- выбор очередности реализации стратегических приоритетов, программ и выбор наиболее эффективных мер государственной политики среди всех возможных альтернативных инструментов.

При разработке стратегии социально-экономического развития страны необходимо четко определить временные рамки планирования - достижение долгосрочных целей требует определения более коротких этапов. Поэтому долгосрочный стратегический план в зарубежных странах сочетается со среднесрочными документами, что позволяет периодически отодвигать горизонт планирования и вносить необходимые коррективы. Если заявленная цель стратегии говорит о том, чего именно страна хочет достичь, какие позиции занять в мире, то задачи должны говорить, как именно страна намерена это сделать и что необходимо предпринять в той или иной сфере, чтобы продвигаться вперед к поставленной цели. Задачи должны быть детализированы в конкретных национальных и секторальных стратегиях и программах, разработанных в сопряжении друг с другом и обеспечивающих поступательное движение страны по пути развития.

В последние годы органы государственного управления и экспертное сообщество зарубежных стран уделяют большое внимание проблеме стратегического планирования регионального развития. Сегодня достаточно серьезный аналитический опыт социально-экономического развития регионов накоплен за рубежом. Так, в США одной из распространенных форм оценки социально-экономического положения штатов и городов является ежегодная разработка так называемых статистических карт. Также распространение получил метод анализа местной экономики через сравнение конкурентных преимуществ. Используя такие методы оценки и анализа, в США определяются мероприятия по реализации региональной политики и объемы необходимых для этого ресурсов.

Опыт ЕС в области регионального развития весьма поучителен своей последовательностью и динамизмом. Основой проведения региональной политики в ЕС стала многоуровневая система регионов. Используя Номенклатуру территориальных единиц (NUTS) для статистического учета и анализа уровня социально-экономического развития региона, определяются приоритеты развития, цели и задачи, мероприятия региональной политики и распределения ресурсов.

Следует выделить два аспекта, оказывающих непосредственное влияние на успех национальной стратегии развития зарубежных стран:

- 1) реальная оценка необходимых ресурсов для реализации стратегических приоритетов;
- 2) соответствие этих ресурсов возможностям страны и структуре макроэкономики.

Главная суть стратегии социально-экономического развития зарубежных стран - это не просто набор целевых ориентиров, а четко выстроенная программа конкретных действий, которые необходимо предпринять в долгосрочной перспективе для достижения поставленных целей. В стране на законодательном уровне должна быть утверждена и принята к реализации долгосрочная стратегия социально-экономического развития, которая станет единой основой комплексной системы стратегических документов страны.

Список использованной литературы

1. Барицька В. Г. Проблеми реформування системи прогнозування та планування соціально-економічного розвитку держави / В. Г. Барицька // Фінансовий проспер. - 2011. - № 2 (2). - С. 80-82.
2. Билык Р. Р. Задачи усовершенствования институционально-правового обеспечения региональной политики в Украине / Р. Р. Билык // Вкник Вшницького полгтехшчного шституту. - 2014. - № 4.
3. Стшкова Н. П. Довгостроковий сегмент стратегчного планування національного розвитку / Н. П. Стгнтова // Економта та держава. - 2012. - № 10. - С. 8-11.
4. Хомич Л. В. Стратегя регіонального розвитку і планування територп / Л. В. Хомич // Стратегчы прюритети. - 2007. - № 4 (5). - С. 142-149.
5. Шаповалова І. В. Удосконалення програмно-прогнозного механізму державного регулювання регіональним розвитком [Електронний ресурс]. - Режим доступу : <http://kbuara.kharkov.ua/e-book/db/2007-2/doc/2/20.pdf>

МАМЛАКАТДА ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗИЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Сотволдиев Алишер

Ўзбекистон Миллий университети иқтисодий факультети
“Молия ва кредит” кафедраси ўқитувчиси

Уткурова Дурдона

ALFRAGANUS UNIVERSITETI Магистранти

Жаҳонда иқтисодий хавфсизликни таъминлаш асосида миллий иқтисодиётни рағбатлантириш, ўзаро манфаатли иқтисодий муносабатларни ривожлантириш, ресурслардан самарали фойдаланиш, инфратузилмани такомиллаштириш ва янгилаш, аҳолининг иқтисодий фаоллигини ошириш, барқарор ижтимоий муҳитни яратиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Бир қатор хорижий давлатлар ҳукуматлари миллий иқтисодиётни тартибга солиш бўйича фаол чораларни кўрмоқдалар. Ялпи ички маҳсулот, ишсизлик, олтин-валюта захиралари даражасини пасайтириш, аҳоли даромадларининг табақаланишини ошириш ва иқтисодий хавфсизликни бошқариш кенг йўлга қўйилган. ЯИМ бўйича энг иқтисодий мустақил давлатлар АҚШ ҳисобланади – 18124,7 трлн. дол., Хитой – 11211,9 трлн. дол., Япония – 4210,4 трлн. дол., Канада – 1462,3 млрд.дол., Жанубий Корея–1321,2 млрд. дол., Испания – 1242,4 млрд. дол., Австралия–1200,8 млрд. дол.¹¹².

Мамлакатимизнинг халқаро муносабатларидаги очик ва амалий ҳамда фаол ташқи сиёсатни олиб бораётганлиги натижасида ишончли ҳамкор сифатида мамлакатимизнинг халқаро обрўси йилдан-йилга тобора ортиб бормоқда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти айнан иқтисодий хавфсизликни таъминлаш ва барқарор иқтисодий ўсишни амалга ошириш борасида қуйидаги фикрларини келтириб ўтмоқчимиз: “Янги Ўзбекистон стратегияси, аввало, барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашга қаратилганлигини таъкидлаб” ўтган¹¹³.

Ҳозирги пайтда мамлакатнинг иқтисодий хавфсизлиги бу – мамлакат иқтисодиётини доимий барқарор ривожлантириш ва такомиллаштиришга қаратилган чора-тадбирларнинг умуммиллий мажмуаси бўлиб, у, албатта, давлатнинг ижтимоий-сиёсий барқарорлиги ва мустақиллигини ҳамда ташқи ва ички таҳдидларга қарши туриш механизмини кўзда тутди.

¹¹² Дунё мамлакатларининг 2019 йилдаги ЯИМ <http://visasam.ru/emigration/vybor/vvp-stran-mira.html#i-2>

¹¹³ Шавкат Мирзиёев Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. 464 б.

Мамлакат иқтисодий хавфсизлигининг энг муҳим бўғинларидан бири – бу ҳудудларнинг иқтисодий хавфсизлиги ҳисобланади. Чунки ҳудудларнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминланиши мамлакат даражасидаги иқтисодий хавфсизликни таъминлашга ва барқарор иқтисодий ўсишга замин яратади.

Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ҳамда уларнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш давлат сиёсатининг муҳим йўналиши ҳисобланади.

Ўз навбатида мамлакат ҳудудларида иқтисодиётни барқарор ўсишини таъминлаш ва ҳудудлар иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш бир қатор омилларга боғлиқдир (1-расм). Юқоридаги 1-расмдан кўриниб турибдики, ҳудудлар иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш омиллари қаторида саноат ишлаб чиқариши ва унинг таркиби ҳам алоҳида ўринга эга. Демак, биз ҳудудий саноат ишлаб чиқариши ҳажми ва унинг таркиби бўйича кўрсаткичларни таҳлил қилиб, ўша ҳудуднинг иқтисодий хавфсизлик ҳолатига маълум бир маънода баҳо беришимиз мумкин. Сўнгги йилларда мамлакатимиз саноат тармоқларида ишлаб чиқариш ҳажмини барқарор оширишга алоҳида эътибор берилмоқда. Бу масала бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бир эканлигига Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев ҳам алоҳида тўхталиб, қуйидаги фикрларни билдириб ўтганлар: “Саноатнинг 12 та етакчи тармоғида модернизациялаш ва рақобатдошликни кучайтириш дастурлари жадал амалга оширилмоқда.



1-расм. Ҳудудлар иқтисодий хавфсизлигини таъминловчи омиллари¹¹⁴

2022 йилда 2015 йилга нисбатан мамлакатимиз иқтисодиётида ишлаб чиқарилган ялпи саноат маҳсулотлари Навоий вилоятида 5,2 пунктга, Қашқадарё вилоятида 7,5, Тошкент вилоятида 0,1, Андижон вилоятида-35,8, Қорақолпоғистон республикасида – 21,0 Самарқанд вилоятида – 2,0 , Бохоро вилоятида – 2,8, Жиззах вилоятида – 8,9, Наманган- 2,8, Хоразм вилоятларида – 11,2 пунктга ортган. Аксинча, Фарғона вилоятида -0,5 пунктга, Сирдарё вилоятида – 3,6, Сурхандарё вилоятида – 3,3, Тошкент шаҳрида – 5,7 пунктга камайганлигини кўришимиз мумкин(1-жадвал).

1-жадвал

Ҳудудлар бўйича саноат маҳсулоти ишлаб чиқаришнинг ўсиши, ўтган йилга нисбатан, фоизда¹¹⁵

Ҳудудлар	2015	2022*	Ўзгариши
Ўзбекистон Республикаси	105,3	105,3	
Қорақалпоғистон Республикаси	121,5	100,5	-21,0
Андижон	87,0	122,8	35,8
Бухоро	108,8	106,0	-2,8

¹¹⁴ Муаллиф ишланмаси

¹¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>

Жиззах	117,1	108,2	-8,9
Қашқадарё	102,6	110,1	7,5
Навоий	100,9	106,1	5,2
Наманган	111,9	109,1	-2,8
Самарқанд	110,6	108,6	-2,0
Сурхондарё	107,5	104,2	-3,3
Сирдарё	105,5	109,1	3,6
Тошкент	105,6	105,7	0,1
Фарғона	104,0	104,5	0,5
Хоразм	126,2	115,0	-11,2
Тошкент ш.	112,0	106,3	-5,7

Худудлар иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий омилларидан бири худудий саноат ишлаб чиқариш ҳажми ҳисобланар экан, бу омил бўйича жорий ҳолатни тасаввур қилиш учун сўнгги йилларда худудларимиз томонидан ишлаб чиқарилаётган саноат маҳсулотлари ҳажмининг ўсиш суръати бўйича статистик маълумотларни таҳлил қилсак мақсадга мувофиқ бўлади.

Юқоридаги жадвал маълумотлардан кўриниб турибдики, мамлакат миқёсида ва унинг худудларида саноат ишлаб чиқариши ҳажмининг ўсиш суръатларида ижобий ҳолат кузатилган. Умумий қилиб айтганда, кўрсаткичлар барқарор ўсишни кўрсатмаяпган ва худудлар бўйича ўсиш динамикаси турли йилларда турлича салбий ҳолатлар ҳам кузатилган бўлсада, Республика бўйича саноат маҳсулоти ишлаб чиқаришнинг сўнгги олти йилликдаги ўртача ўсиш кўрсаткичи кузатилганини кўриш мумкин.

Таҳлилларда айрим даврлардаги худудларда пасайиш кузатилганлиги саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини барқарор ўсишини таъминлашда айрим муаммолар мавжудлиги ва уларни бартараф этиш бўйича тизимли чора-тадбирлар амалга оширилишига алоҳида эътибор берилишини талаб этади. Шунингдек, бу чора-тадбирлар ўз навбатида худудлар иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш учун хизмат қилади.

Мамлакатимиз худудларининг ижтимоий-иқтисодий даражалари ва иқтисодий-табiiй салоҳиятидаги фарқлар уларни истикболда худудий ҳамда тармоқ хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ривожлантириш дастурларини ишлаб чиқиш орқали саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини барқарор ўсишини таъминлаш ва бу орқали худудлар иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш жараёнларини такомиллаштиришни тақозо этади.

Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича қабул қилинган дастурларни самарали амалга ошириш, худудларнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш механизмини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш учун қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

- худудларни ривожлантириш бўйича республика ҳамда худудий дастурларни танлаш ва уларни амалга оширишда худудларнинг ресурс ва ишлаб чиқариш салоҳиятининг ўзига хос хусусиятларига алоҳида эътибор бериш;

- республика ва худудий дастурларни амалга ошириш механизмини такомиллаштириш, бунинг учун маҳаллий ҳокимликлар ва тегишли ташкилотларнинг масъулиятларини ошириш;

- иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш бўйича давлат дастурларининг худудий жиҳатларини кучайтириш;

- тармоқ дастурларининг худудий жиҳатлари мониторингини ташкил этиш;

- худудлар ва тармоқ имкониятлари, захираларини чуқур ўрганиш ва ҳисобга олиш асосида прогноз кўрсаткичларини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш;

- дастурларни амалга ошириш устидан қатъий назоратни кучайтириш, назорат тизимини яратиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Дунё мамлакатларининг 2019 йилдаги ЯИМ <http://visasam.ru/emigration/vybor/vvp-stran-mira.html#i-2>
2. Шавкат Мирзиёев Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. 464 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИ СИЁСАТИДА БАҲОЛОВЧИ ТАШКИЛОТЛАР РЕЙТИНГИНИ БАҲОЛАШ ВА РЕЙТИНГИНИ АНИҚЛАШНИНГ КОМПЛЕКС ЁДАШУВИ ЗАРУРАТИ

Ташпулатов Гиёс Тохирович

Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби “Молия ва бухгалтерия ҳисоби”
кафедраси доценти в.б., (PhD)
e-mail: giyos_tashpulatov@mail.ru

Янги Ўзбекистонда молия-кредит тизимини, айниқса, хизматлар бозорини ривожлантириш, янги илғор инновацион технологияларни жалб қилган ҳолда уларнинг бозордаги улушини ошириш бугунги кундаги долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Жаҳонда мулк қийматини баҳолаш хизматлари бозорининг нисбатан узоқ муддатли ривожланиши давомида баҳоловчи ташкилотлар рейтингини баҳолашнинг нисбатан аниқ, синалган ва бир-биридан кескин фарқланувчи кўп миқдорда методологиялари ишлаб чиқилган бўлиб¹¹⁶, улар ичида йирик Халқаро рейтинг агентликларининг хизматлари кўпчилик учун афзаллиги¹¹⁷ билан ажралиб туради. Улар ичида барча экспертлар томонидан умумэътироф этилган универсал методологиянинг йўқлиги баҳоловчи ташкилотлар рейтингини ишончли баҳолашда қийинчиликни келтириб чиқармоқда, чунки бир нечта рейтинг агентликлари бир компанияга бир-биридан фарқланувчи турли рейтинг баҳолаш тақдим этади. Бундай салбий ҳолат мижозлар томонидан баҳоловчи ташкилотларни танлашда ноаниқликка ва маълум даражадаги ишончсизлигига сабаб бўлмоқда.

Ўзбекистонда жаҳондаги мулк қийматини баҳолаш хизматлари бозорида кенг фойдаланилаётган рейтинглардан фойдаланиш қонуний даражада етарли бўлмасада, тўғри танланган рейтингни баҳолаш методологияси ва унинг асосида тузилган рейтинг ва рэнкинглар ушбу бозор учун ишончли маълумот манбаи бўлиб хизмат қилиши мумкин. Бунда “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида барқарор иқтисодий ўсиш суръатларини таъминлашда белгиланган мақсадлардан келиб чиқиб, мамлакатимиздаги баҳоловчи ташкилотларининг рейтингини жорий этиш уларнинг рақобатбардошлигини таъминлашга хизмат қилади.

Бугунги кунда баъзи хусусий компаниялар давлатга қараганда юқори профессионал даражада ишлайди, аммо уларга давлат мулкни кадрлашга йўл қўйилмайди. Ҳолис рейтинг бу муаммони ҳам ҳал қилиши мумкин. Давлат ҳокимияти органлари мулкни баҳолашни давлат

¹¹⁶ Шеремет А.Д. Комплексный анализ хозяйственной деятельности / А.Д. Шеремет. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 415 с.; Солодов А.А. Математические принципы построения рейтинговых систем // Экономика, статистика и информатика. – 2016. – № 1. – С. 75–81; Азимова Т. Рейтинг оценщиков повысился / Т. Азимова // Биржа [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.gazetabirja.uz/index.php?option=com_content&task=view&id=18921&Itemid=34.

¹¹⁷ Бунда фақат Нью-Йоркнинг “катта учталиқ” деб юритилувчи йирик рейтинг агентликлари улуши мазкур бозорнинг 90 фоизига яқин улушини ташкил қилади, яъни: Standard & Poor’s (S&P) – 40%, Moody’s Investors Service – 40% и Fitch Ratings – 10% (Моисеев С.Р. Регулирование деятельности рейтинговых агентств на национальном рынке // Вопросы экономики. 2009. № 2. С. 39.). Зеро, ушбу халқаро рейтинг агентликлари (жумладан А.М. Best Company Inc., Duff and Phelps ва бошқлар) хизматларининг нархи жуда юқори (Онучак В.А. Международные рейтинговые агентства и их оценки: Учебное пособие. – М.: Анкил, 2012. -165 с.).

ташкilotлари эмас, балки рейтинг бўйича аниқланган энг яхши баҳоловчи ташкilotларга топшириши керак. Бунда баҳолаш ташкilotларининг ишбилармонлик обрўси рейтингини шакллантириш ва мунтазам нашр этишнинг мақсадга мувофиқлиги тўғрисидаги таклифни қўллаб-қувватлаши билдирилди, бу эса рейтинг баҳолашнинг илғор хориж тажрибаси асосида тегишли инфратузилма ва унинг меъёрий-ҳуқуқий базасини яратиш ҳамда баҳоловчи ташкilotлар рейтингини натижаларидан давлат идоралари, тижорат банклари ва бошқа ташкilotлар ҳамкорлик учун баҳолаш ташкilotларини танлаш бўйича танловлар ва тадбирларни ўтказишда фойдаланишлари кераклигини аниқлатади.

Ҳозирги кунда бутун дунёда турли компаниялар рейтингини баҳолашда турли рейтинг агентликларининг методологиялари ва уларга мос шкалалари қўлланилмоқда. Натижада, турли хил методикалардан фойдаланган ҳолда бир хил фаолиятли фирмаларни таҳлил қилишда натижалар фарқланиш ҳолатлари юзага келиши кузатилмоқда. Бунда рейтинг агентликларининг муқобил методологиялари, рейтинг баҳолаш шкала ва стандартларидаги фарқланишлар, турли мазмундаги омил (кўрсаткич)лар қўлланилиши турли фарқланувчи рейтинг баҳоларга сабаб бўлмоқда. Масалан, дунёнинг энг йирик учта халқаро рейтинг агентликларининг рейтинг шкала стандартлари 1-жадвалда¹¹⁸ келтирилган, бўлиб, улардаги рейтинг шкалалари синфларга ва гуруҳларга ажратилган¹¹⁹. Ушбу 1-жадвалда келтирилган шкалалар банклардан ташқари бошқа турдаги ташкilotлар рейтингини баҳолашда ҳам қўлланилади.

Баҳоловчи ташкilotларнинг рейтинг ва рэнкинг баҳолари 1-жадвалда берилган 5-устунидаги Халқаро рейтинг агентликлари шкалалари синфларининг рақамли аналогини сифатида [1; 27; -n] интервалаги сонлар тўпламидан иборат ўтиш шкаласини қабул қилиш мумкин.

Ушбу агентликлар шкаланинг 22-25 сонлиларига мос индексга тушиб қолган компанияларга рейтинг хизматини кўрсатмаслиги уларни дефолт синфи гуруҳларига оидлигидир. Бунда [1; 27; -n] интервалаги 1 сонига молиявий ўлчамнинг энг катта миқдори тўғри келса, -n сонига молиявий ўлчами манфий бўлган баҳоловчи ташкilot тўғри келади.

1-жадвал

Ўрта халқаро рейтинг агентликларининг рейтинг шкалаларини солиштириш¹²⁰

Рейтинг шкалалари градацияси				Шкалалар синфларининг рақамли аналогини
S&P Bank Deposits (кредитга лаёқатлилики)	Fitch Bank Deposits (кредитга лаёқатлилики)	Moody's Bank Deposits (кредитга лаёқатлилики)	Moody's BFSR (молиявий баркарорлик)	
1	2	3	4	5
AAA	AAA	Aaa	A	1
AA+	AA+	Aa1	-	2
AA	AA	Aa2	-	3
AA-	AA-	Aa3	A-	4
A+	A+	A1	B+	5

¹¹⁸ Курбатова Е.В., Безбородова Т.И. Рейтинговая оценка как экономическая категория. // В монографии: Теоретико-методологические подходы к формированию системы устойчивого развития предприятий, комплексов, регионов. Под ред. В.В. Бондаренко, И.А. Игошиной, М.А. Таниной, Т.И. Безбородовой. - Пенза: Изд-во ПГУ, 2016, 508 с. - с.185-192.; Карминский А.М., Пересецкий А.А., Петров А.Е. Рейтинги в экономике. — М.: Финансы и статистика, 2005. — 240 с.; Карминский А.М. Модели корпоративных кредитных рейтингов. — М.: Российская экономическая школа, 2009. - http://fir.nes.ru/ru/programs/econ/Documents/Препринты/2010/Karminsky_2010.pdf.; Карминский А.М. Информационно-аналитическое обеспечение бизнеса. — М.: Финансы и статистика, 2007. — 272 с.

¹¹⁹ Масалан, Moody's рейтинг агентлигида 9 та синф (Aaa, Aa, A, Baa, Ba, B, Saa, Ca, C) бўлиб, улардан биринчи 4 та инвестицион ва кейинги 4 та спекулятив турларга оид, охиригиси C эса – дефолт синфига оид. Ўз навбатида, синфлар гуруҳларга бўлинган.

¹²⁰ Изоҳ: Одатда, мазкур 1.2-жадвалда келтирилган Халқаро рейтинг агентликлари 5-устунидаги шкаланинг 22-25 сонлиларига мос индексга тушиб қолган компанияларга рейтинг хизмати кўрсатмайди.

A	A	A2	B	6
A-	A-	A3	B-	7
BBB+	BBB+	Baa1	C+	8
BBB	BBB	Baa2	C	9
BBB-	BBB-	Baa3	C-	10
BB+	BB+	Ba1	D+	11
BB	BB	Ba2	D	12
BB-	BB-	Ba3	D-	13
B+	B+	B1	E+	14
B	B	B2	-	15
B-	B-	B3	-	16
CCC+	CCC+	Caa1	-	17
CCC	CCC	Caa2	E	18
CCC-	CCC-	Caa3	-	19
C	C	Ca1	-	20
D	D	Ca2	-	21
-	-	Ca3	-	22
-	-	C1	-	23
-	-	C2	-	24
-	-	C3	-	25
-	-	-	-	26
-	-	-	-	27
-	-	-	-	-n

Мулк қийматини баҳолаш хизматлари бозори профессионал институтлари бўлмиш баҳоловчи ташкилотлар фаолиятининг хосса ва хусусиятларини тўлиқ ҳисобга олувчи такомиллаштирилган рейтинг ва рэнкинг баҳолаш тамойиллари ва методологиясини ҳамда уларга мос равишда аниқланадиган рейтинг баҳоларнинг халқаро рейтинг агентликлари шкаласига мувофиқлаштирилган миллий шкаласини қуйидаги ёндашувга асосланиб таклиф қилиш мумкин.

Таклиф этилган комплекс ёндашув қуйидаги тамойилларга асосланиб, уларнинг амалга оширилишини таъминловчи методикалар мажмуи эса рейтинг ва рэнкинг баҳолаш методологиясини ташкил этади. Ёндашувни қуйидаги тамойиллар ва методикалар шакллантиради. Баҳоловчи ташкилотнинг сифатий ва миқдорий параметрларини қамровчи мезоний кўрсаткичларни иккита йирик интеграллашган гуруҳ мезоний (индекс) кўрсаткичларга ажратиб рейтинг ва рэнкингни баҳолаш тамойили.

Ушбу тамойил доирасида қуйидаги иккита йирик интеграллашган гуруҳ индекслардан фойдаланиш мумкин:

1) баҳоловчи ташкилотнинг баҳолаш хизматлари бозоридаги фаоллиги (фаолиятининг муваффақияти, ишончилиги, рақобатдорлиги, обрўси) рейтингини сифатий кўрсаткичлар тўплами ёрдамида адекват ифодаловчи сифатий рейтинг индекс (СРИ) бўйича баҳолаш;

2) баҳоловчи ташкилотнинг молиявий ҳолати ва молиявий ўлчами рейтингини баҳоловчи ташкилотнинг бухгалтерия баланси (БТББ) асосий 4 та интеграл (суммар) кўрсаткичи тўплами ёрдамида адекват ифодаловчи миқдорий рейтинг индекс (МРИ) бўйича баҳолаш.

Баҳоловчи ташкилот ҳолатини мос равишда сифатий ва миқдорий ифодаловчи ҳар иккала интеграл индекс (СРИ ва МРИ) ривожининг ўзгариши ва шаклланиши натижалари бир-бирига эквивалент категориялар. Баҳоловчи ташкилот фаолиятининг ҳолатини ўзаро эквивалент бўлган СРИ ва МРИ категориялар алоҳида-алоҳида равишда акс этиши мумкин.


Баҳоловчи ташкилот ҳолатининг эквиваленти деб қабул қилинган СРИ ва МРИ индекслар ўзгаришини учинчи регулятив омил (РО) белгилайди. Бунда РО, СРИ ва МРИ эса:

- баҳоловчи ташкилот фаолиятида машғул бўлган инсон капиталининг (яъни ташкилот эгалари, хизматчи ва ишчилари, бошқарувчилари каби жисмоний шахсларнинг)

маҳсулдорлиги, жумладан, инновация ва рақамли технологиялардан фойдаланиш самарадорлигига;

- давлат макроиктисодий сиёсатига боғлиқ равишда фаолият юритувчи баҳолаш хизматлари бозорининг ривожланганлик даражасига боғлиқ.

Илмий-фалсафавий нуқтаи назардан СРИ ва МРИ категориялари диалектиканинг миқдорни сифатга ва сифатни миқдорга айланиши қонунига асосан РО воситасида ўзаро сабаб-оқибатий алоқада бўлганлиги учун, улар РО орқали бир-бирига айланиш ва бир-бирининг ўзгаришини шакллантириш хоссасига эга. Шу сабабли, СРИ ва МРИ бир-бири билан РО орқали боғлиқ эквивалент категориялар деган гипотезанинг мақсадга мувофиқлигини илгари суриш мумкин. Чунки бу гипотезанинг ижтимоий-иктисодий системология қоидалари асосида тўғрилиги профессор Ш. Шоҳаъзамий томонидан математик исботланган¹²¹. Мазкур қоидалар ва исботга асосланган гипотеза мазмун-моҳиятини ифодалаш мақсадида 1-расм кўринишидаги тороидал шаклдаги модель ўринли.



1-расм. СРИ ва МРИ категорияларнинг РО орқали боғлиқлигини ифодаловчи тороидал шаклдаги тузилмавий-функционал модель

Мазкур 1-расмда: ТО – МРИ ва СРИ категорияларга бир вақтда таъсир кўрсатувчи ташқи омиллар; ХЧК – СРИ категориянинг чиқиш кўрсаткичлари (индикаторлари), улар бир вақтда РО категорияга таъсир кўрсатади;

НЧК – МРИ категориянинг чиқиш кўрсаткичлари, улар бир вақтда РО категорияга таъсир кўрсатади; РО – МРИ ва СРИ категориялар учун умумий регулятор;

ҚФО ва НФО – РО томонидан шакллантириладиган ҳамда мос равишда СРИ ва МРИ категорияларнинг функцияларига таъсир этадиган ички омиллар. Бунда РО, ТО ҳисобга олинган ҳолда, ХЧК ва НЧК асосида ички омиллар (ҚФО, НФО) шакллантиришдан иборат бўлган мувозанатлайдиган механизм функциясини бажаради. Барча омиллар ўзаро сабаб-оқибатлилик алоқада бўлади.

Шундай қилиб, юқорида айтилганлар асосида 1-чи тамойилнинг амал қилиши СРИ ва МРИ категориялар эквивалент эканлигининг математик исботи ва ижтимоий-иктисодий системология қоидаларига таянади дейиш мумкин.

Агарда баҳоловчи ташкилотнинг молиявий ҳолати БТББ асосий (4 та интеграл) кўрсаткичлари асосида МРИ аниқ ҳисобланиб топилиши мумкинлигини¹²² ҳисобга олсак, ҳар қандай баҳолаш ташкилоти рейтинги ва рэнкингини баҳолашда МРИ қўлланилиши унинг

¹²¹ Шоҳаъзамий Ш.Ш. Трактат о смарт цифровой республике. Монография. –Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. - 352 с.; Shoha’zamiy Sh.Sh. Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari. Darslik. - Т.: Iqtisod-moliya, 2018. - 492 b.

¹²² Шоҳаъзамий Ш.Ш., Суннатов Ю.У. Фирмалар бухгалтерия баланси асосида молиявий-хўжалик фаолиятини таҳлил қилишнинг янгича ёндашуви.// “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали №5, 2017 йил сентябр.-20 б.;

миқдорий индекс сифатида ҳисоблаб топилиши осон ва содда бўлганлиги учун ҳам афзалроқ бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, баҳоловчи ташкилотлар рейтингини баҳолаш ва рэнкингини аниқлаш бўйича таклиф қилинган умумлашган ёндашувни (методологияни) қўллаш тамойиллари ва методологияси жаҳон рейтинг баҳолаш амалиётида мавжуд бўлган методикалар бўйича СРИ баҳолари бир-биридан кескин фарқланиши сабабли, мазкур методикалар асосида баҳоланган сифатий рейтинг индекслари (яъни СРИ) миқдорини 1-тамойилга кўра миқдорий рейтинг индексга (МРИ) эквивалентлигини таъминлаш учун таклиф қилинган ёндашув асосида ҳисоблаб топиладиган молиявий ўлчам кўрсаткичидан СРИларнинг эквивалентлилик коэффициенти сифатида фойдаланиш лозим. Шу асосда, агарда СРИ ва МРИ ёрдамида рейтингни баҳолаш ва рэнкингни аниқлашга мижоз истак билдирса, у ҳолда ҳар бир индекс (яъни СРИ ва МРИ) ўзаро эквивалент категориялар бўлганлиги учун улар 0,5 миқдордаги тенг вазнларга эга бўлади. Яъни умумлашган мезон сифатида бир-бирига тенг вазнли икки индекс (СРИ ва МРИ) ёрдамида ҳисоблаб топиш имконини берувчи ҳар бир индекснинг ўз вазн коэффициенти (уларнинг ҳар бири бир-бирига тенг бўлган 0,5 вазнга ҳамда баҳолаш аниқлиги нисбатан 4 (тўрт) баробарга юқори бўлган миқдорий 0,75, сифатий 0,25 вазнларга эга) билан кўпайтмаларининг суммаси кўринишидаги мезондан фойдаланиш мумкин.

Халқаро рейтинг агентликлари шкалалари синфларининг рақамли аналоги сифатида қабул қилинган [1; 27; -n] интервалаги сонлар тўпламидан иборат ўтиш шкаласи воситасида МРИ ёки СРИлар бўйича рэнкинглаш тавсия этилди. Ушбу агентликлар шкаланинг 22-25 сонлиларига мос индексга тушиб қолган компанияларга рейтинг хизматини кўрсатмаслиги уларни дефолт синфи гуруҳларига оидлиги ва бунда [1; 27; -n] интервалаги 1 сонига молиявий ўлчамнинг энг катта миқдори тўғри келса, -n сонига молиявий ўлчами манфий бўлган баҳоловчи ташкилот тўғри келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.Шоҳаъзамий Ш.Ш. Трактат о смарт цифровой республике. Монография. –Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. - 352 с.; Shoha’zamiy Sh.Sh. Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari. Darslik. - Т.: Iqtisod-moliya, 2018. - 492 b.

2.Шоҳаъзамий Ш.Ш., Суннатов Ю.У. Фирмалар бухгалтерия баланси асосида молиявий-хўжалик фаолиятини таҳлил қилишнинг янгича ёндашуви.// “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали №5, 2017 йил сентябр.-20 б.;

3.Курбатова Е.В., Безбородова Т.И. Рейтинговая оценка как экономическая категория. // В монографии: 4.Теоретико-методологические подходы к формированию системы устойчивого развития предприятий, комплексов, регионов. Под ред. В.В. Бондаренко, И.А. Игошиной, М.А. Таниной, Т.И. Безбородовой. - Пенза: Изд-во ПГУ, 2016, 508 с. - с.185-192.;

5.Карминский А.М., Пересецкий А.А., Петров А.Е. Рейтинги в экономике. — М.: Финансы и статистика, 2005. — 240 с.;

6.Карминский А.М. Модели корпоративных кредитных рейтингов. — М.: Российская экономическая школа, 2009.-http://fir.nes.ru/ru/programs/econ/Documents/Препринты/2010/Karminsky_2010.pdf.;

8.Карминский А.М. Информационно-аналитическое обеспечение бизнеса. — М.: Финансы и статистика, 2007. — 272 с.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ИЧКИ НАЗОРАТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Тошпулатов Фаррух Бахтиёрович

Тошкент Кимё халқаро университети мустақил изланувчиси

Аудиторлик-консалтинг компанияси томонидан ўтказилган сўровга мувофиқ¹²³, ички назорат ва аудит мутахассисларининг 54 фоизи ички назорат тизимини автоматлаштириш ва такомиллаштириш учун янги технологияларни жорий этишни ички назоратнинг асосий вазифалари сифатида эътироф этадилар. BigData, буюмлар интернет, блокчейн ва шу каби янги рақамли технологиялардан фойдаланиш хўжалик юритувчи субъект фаолиятини мониторинг қилиш учун янги имкониятлар очади ва ички назоратнинг барча элементларига таъсир қилиши мумкин:

1) назорат муҳити. Бизнес жараёнларини автоматлаштириш ташкилотга ташкилий тузилмани қайта ташкил этиш орқали назорат муҳитини оптималлаштиришга имкон беради: фаолиятнинг кўплаб соҳаларида янги технологияларни жорий этиш туфайли қўл меҳнатига эҳтиёж қолмайди, бу эса ходимларнинг мунтазам операцияларга сарфлаган вақтини қисқартиради. Автоматлаштириш компанияларга муҳимроқ масалаларни, шу жумладан стратегик вазифаларни ҳал қилиш ёки ходимларни қисқартириш орқали харажатларни оптималлаштириш учун бепул инсон ресурсларини йўналтиришга имкон беради. Асосий ечимлардан бири нисбатан кам сонли ходимлар, асосан, топ-менежерлар ва асосий хизматчилар ва юқори даражадаги аутсорсинг билан тавсифланган виртуал ташкилий тузилмаларни яратишдир.

Илмий-техник тараққиёт ютуқларидан фойдаланишнинг яна бир йўналиши булутли технологиялар ва мобил қурилмалар ёрдамида масофавий ишларни ташкил этиш, бу эса ходимларга ўз меҳнат мажбуриятларини турли кириш нуқталаридан бажариш имконини беради. Бинобарин, рақамли трансформация ташкилотнинг “мослашувчанлигини” оширади, чунки у тезда муҳитидаги ўзгаришлар учун жавоб бериш имкониятини беради;

2) хатарларни баҳолаш. Инсон меҳнатини машина меҳнати билан алмаштириш мунтазам операцияларда инсон омилининг таъсирини камайтиради: агар инсон эътиборсизлик ёки бошқа сабабларга кўра айнан бир хил вазифаларни бажаришда хатога йўл қўйиши мумкин бўлса, у ҳолда компьютернинг ишлашида хатолик эҳтимоли анча паст бўлади. Бундан ташқари, ходимнинг ишга ноўрин муносабати билан боғлиқ хатолар хавфи камаюди: компьютер билан хизмат вазифаларини бажариш учун фақат дастурни тўғри сошлаш керак, шу билан бирга ходимнинг иш сифати кўплаб омилларга боғлиқ. Бу омилларнинг барчаси мунтазам ишларни бажариш билан боғлиқ бўлган ноаниқ хавфларнинг камайишини кўрсатади.

Рақамли трансформациянинг навбатдаги афзаллиги маълумотларни таҳлил қилиш имкониятларини кенгайтиришдир. Катта маълумотлар оқимини таҳлил қилиш турли манбалардан, шу жумладан, сенсорлар ёки видео ва аудио ёзув қурилмаларидан маълумотларни қабул қилиш ва қайта ишлаш имконини беради. Ушбу технологиялар ташкилотга хавфларни ўз вақтида аниқлаш учун башоратли таҳлиллардан фойдаланиш имконини беради. Хавфни баҳолаш нуқтаи назаридан биз рақамли инқилоб натижаларидан фойдаланиш ташкилотларга хавфларнинг таъсири ва эҳтимолини аниқроқ аниқлашга ёрдам беради деб тахмин қилишимиз мумкин, масалан, имитацион моделлаштириш ёки фазовий ва статистик таҳлил орқали;

3) ички назорат муолажалари. Энг катта ўзгаришлар ички назоратнинг ушбу элементига таъсир қилади, чунки бизнес-жараёнларга янги технологияларни жорий этиш туфайли автоматик бошқарув воситаларини жорий этиш имкониятлари ҳам кенгаймоқда. Ички назорат

¹²³ Управление функцией внутреннего контроля. // РwC.– 2022. – Текст : электронный.

муолажалари мисолида рақамли трансформациянинг бошқарув ҳаракатларига таъсирини кўриб чиқамиз:

-ҳужжатли расмийлаштириш. Электрон ҳужжат айланиши ҳужжатларни марказлаштирилган ва тизимли сақлашни таъминлайди, шунингдек қоғоз воситаларини босиб чиқариш ва сақлаш харажатларини камайтиради. Шартнома ёки молиявий ҳисобот шакллари каби ҳужжатлар учун намуналарни жорий этиш маълумотларнинг таққосланишини таъминлайди;

-ҳужжатнинг бошқа ҳужжатларга ёки белгиланган талабларга мувофиқлигини тасдиқлаш. Назорат рўйхатини (саволнома) яратиш ёки маълумотларни фақат тўпладан тўлдириш имкониятини чеклаш каби автоматик мувофиқликни бошқаришни амалга ошириш тавсия этилган қийматлар операцияларни бажаришда хатолар эҳтимолини камайтиради;

-битимлар ва операцияларни авторизация қилиш. Рақамли технологияларнинг энг кенг тарқалган дастурларидан бири бу шартномалар ва операцияларнинг электрон келишувидир. Ушбу авторизация шаклининг афзаллиги шундаки, текшириш излари тизимда сақланади: шунинг учун ваколатли шахслар томонидан берилган шарҳлар тизимда сақланиши мумкин. Тасдиқланган ҳужжатларни таҳлил қилиш жараёнида улар тизимда қолади, бу эса назорат босқичларини четлаб ўтиш хавфини камайтиради. Электрон тасдиқлаш тартиби, шунингдек, имзолаган шахсга шартноманинг долзарб версиясини тақдим этиш учун зарур бўлган вақтни қисқартириш орқали қарор қабул қилиш жараёнини тезлаштиради;

-маълумотларни таққослаш. Ушбу турдаги назорат ҳаракатлари, айниқса, молиявий ҳисоботларни тайёрлаш жараёнини назорат қилиш учун жуда муҳимдир: амалда энг кўп ишлатиладиган мисоллардан бири бу турли хил бухгалтерия регистрлари ўртасида маълумотларни автоматик равишда таққослашдир. Имкониятлар рақамлаштириш математик аниқликни текшириш билан чекланмайди: мураккаб тизимлардан фойдаланганда турли блоklarдаги маълумотларни таққослаш мумкин, масалан, омборни ҳисобга олиш тизимидан инвентаризация буюмлари тушумларини таъминот бўлими томонидан берилган буюртмалар билан солиштириш. Матн ва рақамларни автоматик таниб олиш технологиялари турли ҳужжатлар, масалан, контрагентларнинг ярашиш ҳисоботлари билан бухгалтерия маълумотлари ўртасидаги мувофиқликни текшириш учун зарур бўлган вақтни қисқартиради;

- ваколатларни тақсимлаш. Рақамли технологиялар мустақил равишда бошқарув қарорларини қабул қилиш учун кодир эмаслигига қарамай ишни ташкил этиш соҳасида улар раҳбариятга тегишли маълумотларни тақдим этишлари мумкин. Масалан, визуализация маълумотларни аниқ ва тушунарли форматда тақдим этишга ёрдам беради, бу эса маълумотларни таҳлил қилиш жараёнини соддалаштиради. Ваколатларнинг бўлиниши ва ваколатларнинг айланиши нуқтаи назаридан компьютер технологияларидан фойдаланиш вариантларидан бири бу “ваколат муддати”, “ҳодим ижро этувчи вазифасини бажарадиган вазифалар” каби тоифаларни таҳлил қилиш қобилиятига эга маълумотлар базасини яратишдир. Ушбу восита, айниқса, асосий гуруҳ аъзоларининг мустақиллигини таъминлаши керак бўлган аудиторлик ташкилотлари ёки маълум вақт давомида мажбурий ротацияга учраган директорлар кенгашида мустақил директорлари бўлган йирик корпоратив тузилмалар учун долзарбдир;

-ҳақиқий мавжудлик ва ҳолатни назорат қилиш, киришни чеклаш. Автоматлаштирилган тизимларни жорий этишнинг яна бир афзаллиги – ишлаб чиқариш объектларида ўрнатилган ўлчов сенсорларидан аниқ маълумот олиш имконияти мавжудлиги ва ҳолатини масофадан назорат қилиш, инвентаризацияни бошқариш, айниқса, қийин иш шароитлари билан боғлиқ бўлган тармоқлар учун долзарбдир.

Хавфсизлик тизимларини, шу жумладан, видеокузатув тизимларини ўрнатиш активларни ўғирлаш хавфини камайтиради, шунингдек уларнинг ҳаракатини кузатишга имкон беради. Бир мисол – транспорт воситаларига видеокузатув камераларини ўрнатиш: бу ечим нафақат усқунанинг йўқолиши эҳтимолини камайтиради, балки муаммоларни ўз вақтида аниқлаш ва дастурий таҳлилларни яратиш имконини беради;

- белгиланган мақсадларга эришишни назорат қилиш. Рақамли технологиялардан фойдаланиш бизнес-режанинг бажарилишини, шу жумладан, бюджет кўрсаткичларидан ҳар қандай оғишларни таҳлил қилиш имкониятини кенгайтиради.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, рақамлаштиришнинг асосий тенденцияларидан бири фойдаланувчиларга корхоналарда онлайн режимда олиб бориладиган ишлаб чиқариш операциялари тўғрисида маълумот берадиган интеграциялашган тизимларни қуришдир.

Ушбу тизимлардан фойдаланиш хўжалик юритувчи субъектга қутилмаган вазиятларга тезроқ жавоб беришга имкон беради ва шу билан муҳим салбий ҳодисаларнинг олдини олиш таъминланади;

4) ахборот ва коммуникация. Ташкилот ичида электрон маълумотлар базалари ва булутли технологиялардан фойдаланиш қўғоз воситаларини сақлаш харажатларини камайтиради, шунингдек, офисда шахсий иштироксиз керакли маълумотларга тезкор киришни таъминлайди.

Янги алоқа каналларининг пайдо бўлиши (видео ва аудио конференциялар, суҳбатлар) бу компания ичидаги ўзаро таъсир жараёнини тезлаштириши, шунингдек ходимларни қоидалар ва бошқа маҳаллий ҳужжатлар билан таништириш тартибини соддалаштириши мумкин.

Электрон таълим платформаларини яратиш харажатларни камайтиради, ташкилотнинг юзма-юз тренинглар ўтказиш харажатлари (ўқув муассасаларини ижарага олиш ёки сақлаш харажатлари, озиқ-овқат ва бошқалар), шунингдек, муддатларни қайта режалаштириш имконияти туфайли тренингни яқунлашда мослашувчанликни таъминлайди;

5) мониторинг. Ички назоратни мониторинг қилиш нуқтаи назаридан рақамлаштиришнинг асосий афзаллиги реал вақтда кузатиш қобилиятидир, бу бузилиш содир бўлиши ва уни аниқлаш ўртасидаги вақтни сезиларли даражада қисқартиради. Шунингдек, автоматик бошқарув элементлари тизимда тегишли регистрлардаги маълумотларни очиш ёки ўзгартириш ҳақида белгилар қолдиради. Мониторинг самарадорлигини оширишга оғишларнинг пайдо бўлишини башорат қилувчи башоратли технологиялардан фойдаланиш орқали ҳам эришилади.

Шу билан бирга, аниқ афзалликлар билан бир қаторда, янги технологияларни жорий этиш янги бизнес хатарлари билан боғлиқ. Рақамли трансформация муаммоларини олдини олиш ва бартараф этиш учун ички назорат тизимини ташкил этишда тегишли ўзгаришлар зарур. Бундан ташқари, рақамлаштиришнинг асосий камчиликлари кўриб чиқилади ва уларни юмшатишга қаратилган ички назорат чоралари таклиф этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Управление функцией внутреннего контроля. // РwC.— 2022. — Текст : электронный.

“ЎЗБЕКИСТОН-2030” СТРАТЕГИЯСИ ДОИРАСИДА МИЛЛИЙ ФОНД БОЗОРИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Шеркузиева Насиба Абборовна

Тошкент Давлат Иқтисодиёт Университети доценти

nsh272707@gmail.com

Барчамизга маълумки, кейинги йилларда мамлакатимизда миллий фонд бозорини ривожлантириш, шу жумладан, мамлакатимизда капитал ҳаракатини босқичма-босқич эркинлаштириш ҳамда йирик корхоналарни ва улардаги акция пакетларини, фонд биржаси орқали хусусийлаштириш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Биобарин, бугунги кунда қимматли қоғозларни чиқариш, уларни жойлаштириш ва муомалада бўлишини таъминлашни тартибга солувчи барча зарурий меъёрий-ҳуқуқий база мавжуд. Жумладан, “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги, “Биржалар ва биржа фаолияти тўғрисида”ги, “Инвестиция ва пай фондлари тўғрисида”ги қонунлар, шунингдек, бир қатор қонуности ҳужжатлар ва савдо ташкилотчиларининг қоидалари амал қилмоқда. Шу билан биргаликда миллий капитал бозорининг рақобатбардошлиги ва барқарорлигини таъминлаш мақсадида қимматли қоғозлар бозорини ривожлантириш ва унинг инвестицион жозибадорлигини оширишга доир дастурлар қабул қилинмоқда. Пировард натижада, Ўзбекистон фонд бозори ривожланишининг янги босқичга кўтарилиб бораётганлигини, бунда мамлакатда амалга оширилаётган қатор иқтисодий ислохотлар таъсири катта бўлаётганлигини кўришимиз мумкин. Шулар қаторида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 2 сентябрдаги ПҚ-291-сонли «Капитал бозорини ривожлантиришнинг қўшимча чоратadbирлари тўғрисида»ги қарорида капитал бозорининг инфратузилмасини такомиллаштириш, инвесторларни капитал бозорига жалб этишни рағбатлантириш, чет эл инвесторлари учун маҳаллий фонд бозорида қатнашиш тартибини соддалаштириш капитал бозорини ривожлантиришнинг биринчи навбатда ҳал этилиши лозим бўлган долзарб вазифалар эканлиги қайд этилган. Шу билан биргаликда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли “Ўзбекистон — 2030” стратегияси тўғрисидаги Фармонига кўра мамлакатимизнинг инвестициявий жозибадорлигини янада ошириш ва қимматли қоғозлар бозорини жадал ривожлантириш мақсади қўйилиб, унга кўра 2030-йилгача эришиладиган қуйидаги самарадорлик кўрсаткичлари белгилаб қўйилган.

Фикримизча юқорида келтирилган кенг қамровли вазифаларни бажаришда, айнан фонд бозорини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилишида бир неча сабаблари бор, хусусан:

- компаниялар учун қўшимча молиялаштириш манбаларини яратиш зарурияти;
- молиявий барқарорликни оширган ҳолда, мамлакатга доимий капитал оқимини келиб туришини таъминлаш имконияти;
- хусусий инвесторлар учун қўшимча молиявий воситаларни яратиш;
- умуман олганда, мамлакат молиявий тизимининг самарадорлигини, шаффофлигини ва рақобатбардошлигини ошириш имкониятлари ва бошқалар.

Албатта, давлат дастурида кўрсатилган топшириқлар ижросини таъминлашда тегишли идоралар мутахассислари, соҳанинг профессионал иштирокчилари, бу йўналишда илмий таҳлилларни олиб бораётган олимлар ўртасидаги ҳамкорликни ўрнатиш, соҳадаги мавжуд муаммоларни аниқлаш ва уларни ҳал этиш бўйича атрофлича изланишларни олиб бориш муҳим аҳамият касб этади.

2. Социальная солидарность: Механизмы социального страхования основаны на принципе социальной солидарности, при котором более обеспеченные слои населения вносят свой вклад для поддержки тех, кто оказался в более уязвимом положении. Это способствует сокращению социальных неравенств и повышению социальной справедливости.

3. Стимулирование заботы о здоровье и безопасности: Через программы социального страхования можно стимулировать заботу о здоровье и безопасности, поскольку часть страховых выплат может зависеть от соблюдения определенных условий или профилактических мер.

Социальное страхование играет важную роль в обеспечении социальной защиты населения во многих странах мира. Эта форма социального обеспечения основана на принципе взаимопомощи и солидарности, где люди собираются в общий фонд, чтобы защитить себя от различных рисков и несчастных случаев.

Основные принципы социального страхования:

1. Обязательность: Участие в системе социального страхования обычно является обязательным для граждан определенной страны или категорий работников. Обязательность обеспечивает широкое покрытие и сбор средств для финансирования социальных программ.

2. Распределение рисков: Социальное страхование предоставляет защиту от различных рисков, таких как потеря работы, болезнь, инвалидность, старость и т.д. Распределение рисков позволяет смягчить негативные последствия этих событий для отдельных лиц.

3. Солидарность: Принцип солидарности заключается в том, что более обеспеченные члены общества субсидируют тех, кто находится в более уязвимом положении. Этот принцип позволяет создать более справедливую и поддерживающую среду для всех членов общества.

Недавнее исследование оценило эффективность системы социального страхования в стране. Результаты показали, что:

- Система социального страхования способствует снижению уровня бедности и социального неравенства в обществе.

- Работники, пользующиеся социальным страхованием, имеют более стабильный доход и чувствуют большую уверенность в будущем.

- Социальное страхование содействует сохранению здоровья и благополучия населения, поскольку обеспечивает доступ к медицинским услугам и другим социальным льготам.

Эти результаты подчеркивают важность развития и поддержки системы социального страхования как средства обеспечения социальной защиты и благополучия населения. Социальное страхование является неотъемлемой частью социальной политики многих стран и продолжает эволюционировать в ответ на изменяющиеся потребности общества и экономики.

В заключении статьи о социальном страховании как одной из форм социальной защиты населения, можно подвести итоги и выделить основные аспекты:

1. Значение социального страхования: отметить, что социальное страхование играет важную роль в обеспечении социальной защиты населения, предоставляя финансовую поддержку в случае возникновения определенных жизненных ситуаций, таких как болезнь, инвалидность, безработица или потеря кормильца.

2. Принципы функционирования: обсудить основные принципы, на которых строится система социального страхования, такие как обязательность участия, солидарность, актуарная справедливость и универсальность.

3. Преимущества и недостатки: провести анализ преимуществ и недостатков социального страхования. Среди преимуществ можно выделить обеспечение стабильности и предсказуемости для граждан в случае необходимости получения социальной поддержки. Однако, недостатки могут включать ограниченность покрытия, бюрократические сложности и неэффективное использование ресурсов.

4. Перспективы развития: рассмотреть возможные направления развития системы социального страхования с учетом современных вызовов и тенденций, таких как демографические изменения, технологические инновации и экономическая нестабильность.

Список использованной литературы

1. В.Д. Роик «Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор России?» - СПб.: Питер, 2014, стр. 40.
2. Кусаинова Айман Акаевна, Геращенко Ирина Петровна Особенности организации и управления социальным страхованием: передовой опыт и выявление проблем // Наука о человеке: гуманитарные исследования. 2018. №3 (33). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-organizatsii-i-upravleniya-sotsialnym-strahovaniem-peredovoy-opyt-i-vyyavlenie-problem>

СУҒУРТА СОҲАСИДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Илмий раҳбар: Таджибаев Закир Маликович

Фарғона давлат университети

Иқтисодиёт факультети

Молия кафедраси доценти

Раҳмоналиев Миркамол Хасанбой ўғли

Фарғона давлат университети

Иқтисодиёт факультети талабаси

mirkamolrakhmonaliev04@gmail.com

Суғурта замонавий иқтисодиётда муҳим роль ўйнайди. Ўзбекистонда суғурта бозори ривожланиш босқичида бўлиб, унинг имкониятлари ва муаммолари мавжуд. Суғурта соҳасидаги халқаро ҳамкорликнинг ривожланиши мамлакатда суғурта бизнесини такомиллаштиришга ёрдам берадиган муҳим омиллардан биридир. Мавзунинг долзарблиги Ўзбекистоннинг халқаро суғурта ташкилотларидаги иштироки миллий суғурта бозори ривожланишининг муҳим таркибий қисми эканлиги билан изоҳланади.

Ўзбекистон 3 та халқаро суғурта ташкилотига аъзо: МАС, АСО ва ССП. Суғурта бизнесида халқаро ҳамкорликнинг аҳамияти. Суғурта бизнесидаги халқаро ҳамкорлик миллий ва жаҳон суғурта бозорларининг ривожланиши ва барқарорлиги учун катта аҳамиятга эга. Халқаро ҳамкорлик янги бозорлар ва мижозларга киришни таъминлаш орқали имкониятларни кенгайтиради, бу эса бизнесни ривожлантириш ва диверсификация қилиш имкониятларини, миллий даражада суғурта қилиб бўлмайдиган катта ва мураккаб хавфларни суғурталаш қобилиятини оширади.

Шунинг билан бирга, мамлакатлар ўртасида тажриба ва илғор тажриба алмашиш куйидагиларга олиб келади:

- а) суғурта маҳсулотлари ва хизматлари сифатини яхшилаш;
- б) табиий офатлар, эпидемиялар, кибер таҳдидлар каби халқаро хавфларни биргаликда бошқариш;
- в) катта молиявий барқарорликни таъминлайдиган кўплаб иштирокчилар ўртасида хатарларни тақсимлаш;
- д) халқаро савдо ва инвестициялар учун янада қулай муҳит яратиш;

е) ривожланаётган мамлакатларда иқтисодий ўсиш ва ижтимоий фаровонликка ҳисса қўшадиган суғурта соҳасини ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш ва бошқалар.

Маълумки, бозор муносабатлари шароитида суғурта бозорининг рақобатбардошлигини ошириш катта аҳамиятга эга. Шу сабабли, халқаро дастурларда иштирок етиш ва хорижий суғурталовчилар билан ҳамкорлик мамлакат суғурта бозорининг жаҳон миқёсидаги рақобатбардошлигини оширишга имкон беради. Бундан ташқари, халқаро ҳамкорлик суғурта билимларини тарқатиш ва аҳоли ўртасида суғурта маданиятини оширишга ёрдам беради. Бу жуда фойдали. Гап шундаки, бизда бу масала билан боғлиқ муаммолар мавжуд.

Бозор муносабатлари ривожланишнинг ҳайдовчиси бўлиб, ушбу муносабатларнинг барча иштирокчиларини, шу жумладан, суғурта ташкилотларини, уларнинг фаолияти доимий равишда хавф билан бирга бўлган шароитда, ушбу омилни ҳисобга олмаган ҳолда ва унга қарши чоралар кўрмасдан, хўжалик юритувчи субъектларнинг фаолияти ўта муаммоли бўлиб, хорижий компанияларда хатарларни қайта суғурталаш суғурталовчиларга ўз рискларини диверсификация қилиш ва молиявий барқарорлигини ошириш имконини беради.

Суғурта ҳамкорлиги халқаро муносабатларни мустаҳкамлаш ва мамлакатлар ўртасидаги ўзаро манфаатли ҳамкорликни ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди. Шу сабабли, халқаро суғурта иштирокчилари сони ва уларнинг айланмаси доимий равишда ўсиб бормоқда. Дунё бўйлаб, суғурта компаниялари сони ҳақида 50,000. Улардан 1000 га яқин трансмиллий компаниялар ва polis эгалари 1 миллиарддан ортиқ жисмоний ва юридик шахслардир. 2023 йилда global суғурта мукофотининг ҳажми 7,4 триллон долларни ташкил этди ва умумий суғурта мукофотидаги халқаро суғурта улуши 25% ни ташкил этади. 2023 йилда халқаро суғурта бозори ҳажмига келсак, у 1,85 трлн.

Табиийки, суғурта бозори ва умуман бозор муносабатлари ривожланган мамлакатларда ривожланган, бу ерда Шимолий Америка етакчи бўлиб, улуши 34%, ундан кейин Европа -33% ва алоҳида мамлакатлар орасида суғурта раҳбарлари яна АҚШ каби ривожланган давлатлар - \$1,2 триллон, Хитой-720 миллиард доллар, Япония-320 миллиард доллар.

Юқоридаги рақамлардан хулоса қилиш мумкинки, ривожланган бозор муносабатлари суғурта бизнесини ривожлантириш учун асосдир. Ўз навбатида, суғурта бозор муносабатлари ва умуман бозор иқтисодиёти ривожланишининг муҳим атрибутлари ва омилларидан биридир.

Таъкидлаш жоизки, прогнозларга кўра, келгуси 4 йил ичида жаҳон суғурта бозори йилига 5-5% га ўсиши кутилмоқда ва умумий суғурта мукофотидаги халқаро суғурта улуши ортади.¹³¹

Бундай шароитда Ўзбекистоннинг халқаро суғурта ташкилотлари билан ҳамкорлиги нафақат мантиқий, балки ижтимоий-иқтисодий ривожланиш нуқтаи назаридан ҳам фойдалидир. Ҳозирги кунда Ўзбекистон қуйидаги халқаро суғурта ташкилотлари - халқаро суғурталовчилар уюшмаси (ХСУ) аъзоси ҳисобланади¹³², Марказий Осиё мамлакатлари суғурта ташкилотлари ассоциацияси (МОСТА) ва суғурта мукофоти Кенгашига аъзодир.¹³³(СМК). 2023 йилда Ўзбекистон яшил карталар Бюросига аъзо бўлиш учун мурожаат қилди¹³⁴.

Ўзбекистоннинг халқаро суғурта ташкилотларидаги иштироки даражасига келсак, уни фаол деб таърифлаш мумкин, чунки мамлакат ушбу ташкилотларнинг учрашув ва

¹³¹ Швейцария Ре: <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research.html>

¹³² <https://www.iaisweb.org/>

¹³³ (<https://www.cobx.org/>)

¹³⁴ <https://www.cobx.org/article/4130/green-card-system-final>

тадбирларида мунтазам иштирок этади. Масалан, 2023 йилда Ўзбекистон ХСУ Кенгашига сайланди ва 2022 йилда Ўзбекистон (МОСТА) Бош Ассамблеясида иштирок этди.

Ўзбекистон аъзо бўлган халқаро суғурта ташкилотлари сони, у 2023 йилда иштирок этган халқаро суғурта тадбирлари сони эса 10тани ташкил қилди.

Халқаро суғурта бозорига фаол кириш натижасида Ўзбекинвест 2023 йилда халқаро суғурта бозоридаги фаолиятини кенгайтириб, 693,4 миллиард сўм миқдорида қайта суғурта мукофотларининг ялпи йиғилишини таъминлади.

Ўзбекинвест компанияси қайта суғурталаш учун 53 мамлакатда 136 млн. Долл. миқдорида мукофотлар йиғилишини таъминлади. Сўнгги етти йил ичида компаниянинг суғурта портфелидаги хизматлар экспортининг улуши 0,1% дан 48,5% гача ўсди.¹³⁵

Айтиш керакки, халқаро суғурта ташкилотларида иштирок этишнинг афзалликларини ўрганиш шунини кўрсатадики, бу соҳадаги ҳамкорлик Ўзбекистонга суғурта соҳасидаги илғор тажрибалардан фойдаланиш имконини беради, бу эса мамлакатга суғурта тизимини такомиллаштириш ва суғурта хизматлари сифатини оширишга ёрдам беради.

Бундан ташқари, бундай суғурта ташкилотлари билан Халқаро ҳамкорликнинг ривожланиши Ўзбекистонга суғурта соҳасига хорижий инвестицияларни жалб қилиш, шунингдек, суғурта бозорини кенгайтириш имконини беради. Шу билан бирга, халқаро суғурта ташкилотларига аъзолик Ўзбекистонга суғурта тизимининг рақобатбардошлигини ошириш ва хорижий мижозларни жалб қилиш, шунингдек суғурта хизматларини экспорт қилиш имконини беради.

Мавжуд вазият таҳлили шунини кўрсатадики, Ўзбекистон халқаро суғурта ташкилотларида иштирок этиш масаласига онгли равишда ёндашмоқда ва уни фақат фаол деб аташ мумкин. Бу республика суғурта бизнесида бир нечта халқаро ташкилотларнинг аъзоси эканлигидан далолат беради. Улар орасида:

- Халқаро актуарлар бюроси (БИА) 1993 йилдан бери;
- Лотин Америкаси, Кариб денгизи ва Испания суғурта нозирлари ассоциацияси (ЛАСНА) 2017 йилдан бери;
- Халқаро суғурта ҳуқуқи ассоциацияси(ХСҲА) - 2018 йилдан бери;
- Бутунжаҳон суғурта ассоциациялари Федерацияси(БЖСА) - 2019 йилдан бери;
- Молиявий барқарорлик Кенгашига(МБК) - 2020 йилдан бери кузатувчи сифатида аъзолик.

Ўзбекистон, юқорида таъкидлаб ўтилганидек, халқаро суғурта ташкилотлари аъзоси сифатида нафақат уларнинг йиллик анжуман ва форумларида, балки минтақавий семинар ва тренингларда ҳам қатнашади. Республика, шунингдек, халқаро суғурта ташкилотлари томонидан ўз компания ва ташкилотлари вакиллари билан ташкил этилган учрашувларнинг фаол иштирокчисидир. Буларнинг барчаси Ўзбекистонга маълум манфаат олиб келади ва улар қуйидагилардан иборат:

Энг яхши амалиётларга кириш:

- суғурта соҳасидаги энг яхши жаҳон амалиётини ўрганиш;
- суғурта бозори мутахассисларининг малакасини ошириш;
- Янги суғурта маҳсулотларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш;

Халқаро суғурта ташкилотлари билан ҳамкорликнинг илғор тажрибалари билан бир қаторда, Ўзбекистон инвестицияларни жалб қилиш имкониятига эга бўлади, чунки ҳамкорлик хорижий инвесторларнинг Ўзбекистон суғурта бозорига бўлган ишончини оширади, бу эса республика суғурта секторига хорижий инвестицияларнинг ўсишига ёрдам беради¹³⁶.

¹³⁵ <https://www.gazeta.uz/ru/2024/03/11/uzbekinvest/>

¹³⁶ [https://napp.uz/storage/files/shares/reports/Indicators%20of%20the%20insurance%20market%20for%2012M\(rus\).pdf](https://napp.uz/storage/files/shares/reports/Indicators%20of%20the%20insurance%20market%20for%2012M(rus).pdf)

Ўзбекистоннинг суғурта бозорини ривожланиши

Кўрсаткич	2017 йил	2022 йил	Ўсиш
Суғурта мукофотлари ҳажми	1,2 трлн. Сўм	3,5 трлн. сўм	2,9 марта
Суғурта мукофотларини ЯИМда улуши	1,2%	2,5%	2,1 марта
Суғурта ташкилотлари сони	27	42	55,6% га

Манба: Ўзбекистон МБ: <https://www.cbu.uz/ru/>

1-жадвал маълумотлари шуни кўрсатадики, Республика суғурта бизнесида ижобий тенденциялар кузатилмоқда, чунки суғурта бозорида суғурта мукофотлари сезиларли даражада ошмоқда. 2017 йилда суғурта мукофотлари ҳажми 1,2 трлн 2022 йилда бу кўрсаткич 3,5 трлн. сўм, яъни ўсиш 2,9 бараварни ташкил қилди. Бундан хулоса қилиш мумкинки, суғурта бозорининг кенгайиши ва суғурта маҳсулотларига талабнинг ошиши юз бермоқда. Шунинг билан бирга, суғурта мукофотларининг ЯИМдаги улуши ортиб бормоқда. Масалан, 2017 йилда бундай мукофотларнинг улуши 1,2% даражасида эди ва 2022 йилга эса келиб бу кўрсаткич -2,5% га етди, яъни 2,1 баравар ошди. Бу мамлакат иқтисодиётида суғуртанинг роли ортиб бораётганидан далолат беради.

Суғурта бизнесидаги юқоридаги қайд қилинган ютуқларга эришишда суғурта ташкилотлари сонининг кўпайиши катта ўрин тутди, чунки 2017 йили суғурта ташкилотлари 27 тани ташкил қилган бўлса, 2022 йилга келиб, улар сони 42 тага етди, яъни 55,6% га ошди. Бу суғурта бозорида рақобатнинг кучайиши ва истеъмолчилар учун танловнинг ошганлигини кўрсатади.

Шуни таъкидлаш керакки, суғурта соҳасидаги эришилган бир қатор ютуқларга қарамай, ушбу хизмат кўрсатиш соҳасини янада ривожлантиришга тўсқинлик қиладиган турли хил муаммолар мавжуд. Бундай салбий жиҳатларга қуйидагилар киради:

1. Суғурта маданиятини пастлиги;
2. Ўтмишдаги салбий тажриба;
3. Суғурта маҳсулотлари ҳақида хабардорликнинг йўқлиги;
4. Фирибгарлик ҳолатлари.

Буларнинг барчаси суғурта маҳсулотларига талабнинг пастлиги ва суғурта бозорининг чекланган ўсишига олиб келади. Буни Ўзбекистон Республикасида суғурта статистикаси тасдиқлайди, унга кўра суғурта полиси аҳолининг атиги 20%ида мавжуд. Ваҳоланки, ривожланган 21 мамлакатда аҳоли 100% умумий давлат ва бирламчи хусусий тиббий суғуртага эга.¹³⁷

Айтиш керакки, тиббий суғурта соҳасидаги ишларнинг ҳолати ҳаётни суғурталашдан унчалик фарқ қилмайди. Бу ерда мавжуд вазиятни белгиловчи ҳолатлар: а) мажбурий тиббий суғуртанинг етишмаслиги; хусусий тиббий суғуртанинг камлиги ва инфратузилманинг етарли даражада ривожланмаганлиги. Бларнинг салбийнинг оқибати оқибатлари - бу тиббий суғуртанинг кириб бориш даражасининг пастлиги, аҳолининг бир қисми учун юқори сифатли тиббий хизматларнинг мавжуд эмаслиги ва суғурта бозорини ривожлантириш имкониятларининг чекланганлигидир.

Ўзбекистонда тиббий суғурта бозорида аҳоли жон бошига ўртача харажат 0,16 АҚШ долларини ташкил этади. Таққослаш учун, Қўшма Штатлар суғурта мукофотлари ва ҳаётни суғурталаш мукофотларининг умумий харажатлари бўйича дунёдаги энг юқори

¹³⁷ https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.1efd10db-66123f48-fd5ac80f-74722d776562/https/en.wikipedia.org/wiki/

кўрсаткичларга эга. Ушбу мамлакатда аҳоли жон бошига суғурта мукофотлари ҳажми тахминан 5600 АҚШ долларини ташкил этади (ижтимоий таъминотдан ташқари). Ушбу сумманинг 3 минг доллардан ортиғи ҳар йили ҳаётни суғурталашга сарфланади¹³⁸.

Ўзбекистонда ялпи суғурта мукофотининг йиллик ўсиш суръати (2024-2028 йилларда) 4,57 фоизни ташкил этиши прогноз қилинмоқда, натижада 2028,03 йилга келиб бозор ҳажми 2028 7,3 млн АҚШ долларини ташкил этиши кутилмоқда.

https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.c5935a1f-66121d37-b052c668-74722d776562/https/www.statista.com/outlook/fmo/insurances/non-life-insur

Ўзбекистон Республикасидаги суғурта бозорининг таҳлили шуни кўрсатдики, суғурта бозорига салбий таъсир ўтказётган бир қатор ҳолатлар мавжуд ва уларнинг натижалари, хусусан:

а) қонунчиликнинг номукамаллиги, яъни қонунчиликнинг халқаро стандартларга етарли даражада мослашмаганлиги;

б) суғурта бозорининг жадал ривожланиши;

в) суғурта қилдирувчиларнинг манфаатларини етарли даражада ҳисобга олмаслик.

Ўз навбатида, бу омилларнинг салбий оқибатлари қуйидагича:

- Суғурта қилдирувчилар учун хавф-хатарни мавжудлиги;
- Суғурта маҳсулотларини ишлаб чиқиш имкониятларини чекланиши
- Суғурта бозори рақобатдошлигини пасайиши;
- Назорат ва назорат тизимининг номукамаллиги;
- юридик хабардорликнинг паст даражаси;

Юқоридаги тадқиқот ва таҳлиллардан келиб чиқиб, республикада суғурта бизнесини қуйидаги жиҳатлар бўйича такомиллаштириш зарур:

- суғурта маданиятини такомиллаштириш ошириш;
- аҳолининг молиявий масалалар тўғрисида хабардорлигини ошириш;
- шахсий молияни бошқариш кўникмаларини ривожлантириш;
- фирибгарлик ва молиявий йўқотишлар хавфини камайтириш мақсадида молиявий саводхонликни ошириш бўйича ахборот кампаниялари.

Давлат суғурта компанияларини бевосита субсидиялаш, давлат кафолатларини таъминлаш, мажбурий суғурта тизимини яратиш ва суғурта бозори ривожланишини рағбатлантиришга қаратилган қонун ҳужжатларига ўзгартириш киритиш учун турли воситалардан фойдаланган ҳолда суғурта бозорини ривожлантириш имконияти қўлга киритилиши мумкин.

Ушбу воситалардан фойдаланиш суғурта бозорининг ўсишига, аҳоли турмуш даражасининг ошишига ва мамлакат иқтисодиётининг мустаҳкамланишига олиб келиши мумкин.

Хулоса Қилиб айтганда, бир қатор муаммоларга қарамай, Ўзбекистонда суғурта бозори сезиларли ривожланиш салоҳиятига эга. Ушбу потенциални амалга ошириш учун тартибга солиш ва назорат тизимини такомиллаштириш, суғурта маданиятини ошириш ва инфратузилмани ривожлантириш бўйича комплекс чораларни кўриш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. “Суғурта фаолияти тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 23.11.2021 йилдаги ЎРҚ-730-сон. lex.uz/uz/docs/5739120
2. Борисова Н.О. Состояние и перспективы развития рынка страхования жизни в узбекистане. <https://cyberleninka.ru/article/n/sostoyanie-i-perspektivy-razvitiya-rynka-strahovaniya-zhizni-v-uzbekistane>.

¹³⁸ <https://lifeinsurance.kz/evropa/kto-v-mire-bolshe-vseh-strahuet-svoyu-zhizn>

3. Азимов Р.С. Современное состояние страхового рынка Узбекистана. <http://interfinance.tfi.uz/wp-content/uploads/2022/070.pdf>
4. Международная ассоциация страховщиков (МАС): <https://www.iaisweb.org/>
5. Ассоциация страховых организаций стран Центральной Азии (АСО): <https://www.caiaus.org/>
6. Совет по страховым премиям (ССП): <https://www.cobx.org/>
7. Центральный банк Республики Узбекистан: <https://cbu.uz/en/>
8. Страховой рынок Узбекистана: итоги 2023 года и перспективы развития: <https://uzbekinvest.uz/ru/analytics-statistics>
9. Ўзбекинвест расширил деятельность на международном рынке страхования: <https://www.gazeta.uz/ru/2024/03/11/uzbekinvest/>

ЎЗБЕКИСТОНДА ХАЁТНИ СУҒУРТАЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Илмий раҳбар: Таджибаев Закир Маликович
Фарғона давлат университети
Иқтисодиёт факультети
Молия кафедраси доценти

Хомидов Самариддин Озоджон ўғли
Фарғона давлат университети
Иқтисодиёт факультети талабаси
thekhomidov11@gmail.com

Хаётни суғурталаш одамларнинг молиявий фаровонлигини ҳимоя қилишнинг муҳим воситасидир. Бу одамларга вафот этган тақдирда ўз яқинларини таъминлаш, шунингдек, капитал тўплаш имконини беради. Ўзбекистонда хаётни суғурталаш бозори ривожланиш босқичида. 2022 йилда бозор ҳажми 6,2 трлн. сўмга етди. Бу шуни кўрсатадики, бозор ўсиш учун катта имкониятларга эга. Ўзбекистонда хаётни суғурталаш бозорини ривожлантириш долзарб вазифадир. Бунинг сабаби шундаки, хаётни суғурталаш одамларнинг молиявий фаровонлигини ҳимоя қилишда муҳим рол ўйнаши мумкин.

Мақолада Ўзбекистонда хаётни суғурталашни такомиллаштириш йўллари бўйича ўтказилган тадқиқот натижаларига мувофиқ бозор салоҳиятини рўёбга чиқариш учун қуйидагилар зарур: хаётни суғурталаш маҳсулотларини танлашни кенгайтириш; хаётни суғурталаш бозори инфратузилмасини ривожлантириш; хаётни суғурталашнинг афзалликлари тўғрисида жамоатчилик хабардорлигини ошириш.

Хаётни суғурталаш-бу суғурталанган шахснинг хаёти ва ўлими билан боғлиқ мулкый манфаатларини ҳимоя қилишни таъминлайдиган восита. Хаётни суғурталаш одатда суғурта қилдирувчи шахснинг узоқ муддатли манфаатлари билан боғлиқ, чунки хаёт узоқ муддатли ҳолат сифатида қаралади ва шунга мос равишда ўлим ҳодисаси олдиндан айтиб бўлмайдиган ва узоқ деб ҳисобланади.

Хаётни суғурталаш суғурталанган шахснинг вафот этган ёки ногирон бўлган тақдирда унинг оиласини молиявий ҳимоя қилади. Бу, айниқса, оиланинг боқувчиси бўлган одамлар учун жуда муҳимдир, чунки суғурта тўлови оилага дафн маросими харажатларини қоплашга, қарзларни тўлашга ва болаларга таълим беришга ёрдам беради ва ҳ.к.ларга хизмат қилади.

Шу билан бирга, хаётни суғурталашнинг айрим турлари, масалан, инвестицион суғурталаш, суғурталанган шахсга капитал тўплашга имкон беради, бу эса одамга молиявий мақсадларига эришишда ва қулай қариликни таъминлашда ёрдам беради. Бундан ташқари, хаётни суғурталаш одамларга тинчлик ҳисси ва қутилмаган ҳодисалар юз берганда яқинларини молиявий ҳимояланишига асос бўлади.

Ўзбекистонда, суғурта, бошқа цивилизацияга эришган мамлакатларда бўлгани каби, мавжуд. Бироқ мамлакатда ҳаётни суғурталаш бозори ривожланишнинг дастлабки босқичида турибти.

Ўзбекистонда кейинги 5 йил ичида тузилган суғурта шартномалари сони 5,9 миллиондан 8,4 миллионга, мукофотлар миқдори 0,9 трлн. сўмдан 6,2 трлн. сўмгача, аҳоли жон бошига суғурта мукофоти эса 5,5 доллардан 15,7 долларгача ошди. Унинг ЯИМдаги улуши 0,7 фоизни, суғурта компанияларининг иқтисодиётга киритган инвестициялари ҳажми 4,8 трлн. сўмни ташкил этди.

Сўнгги беш йил ичида баъзи миқдорий ўзгаришларга қарамай, мамлакатда суғуртада бир қатор тизимли муаммолар мавжуд. Суғурта хизматларининг ЯИМдаги улуши дунёнинг ўртача кўрсаткичдан анча паст, аҳоли жон бошига суғурта мукофоти ҳам жиддий равишда паст бўлиб қолмоқда.

Дунёда аҳоли жон бошига суғурта мукофотлари ўртача \$874, Қозоғистонда - \$92, Белоруссияда - \$77, Озарбайжонда - \$50, Арманистонда - \$32, Ўзбекистонда - \$15.7.¹³⁹

Суғурта бозоридаги мавжуд вазият ушбу бозорнинг ривожланишига тўсқинлик қиладиган кўплаб салбий омилларнинг натижасидир. Улар орасида: а) ҳаёт суғуртаси фойдалари ҳақида хабардорликни йўқлиги. 2022 йилда ўтказилган сўров шуни кўрсатдики, Ўзбекистонликларнинг атиги 30 фоизи ҳаётни суғурталаш ҳақида билишади ва кўпчилик ҳаётни суғурталаш қандай ишлашини ва уларга қандай фойда келтириши мумкинлигини тушунмайди;¹⁴⁰

б) **Ўзбекистонда молиявий саводхонлик даражасини пастлиги.** Жаҳон банки маълумотларига кўра, Ўзбекистонда молиявий саводхонлик даражаси 36 фоизни ташкил этади. Бу шуни англатадики, кўпчилик ўз маблағларини қандай қилиб тўғри бошқаришни билмайди, бу эса жиддий муаммоларга олиб келиши мумкин. Асосий муаммолардан бири-одамларнинг ўз келажagini режалаштира олмаслиги. Ўз даромадларини қандай қилиб тўғри бошқаришни билмай, улар осонгина қарзга ботиши ёки нафақага чиқиш учун етарли маблағга эга бўлмаслиги мумкин. Яна бир муаммо-**молиявий махсулотлар ва хизматлар ҳақида билимларнинг етишмаслиги.** Одамлар кредитни қандай тўғри танлашни, ҳаёт суғуртасидан қандай фойдаланишни ёки пулларини қандай инвестиция қилишни билишмайди. Бу уларни фирибгарлар ва нопок компаниялар олдида ҳимоясиз қиладди. Молиявий саводхонликнинг паст даражаси ҳам мамлакат иқтисодиётининг ривожланишига салбий таъсир кўрсатади. Молиясини қандай қилиб тўғри бошқаришни билмайдиган одамларни сармоя киритиш ва тадбиркор бўлиш эҳтимоли камроқ;

в) **суғурта компанияларига ишончсизлик.** Ўзбекистонда суғурта бозорининг асосий муаммоларидан бири бўлиб, бунга ўтмишда мижозлар олдидаги мажбуриятларни бажармаслик, айрим компанияларнинг ноаниқ фаолияти ва фирибгарлик ҳолатлари сабаб бўлган. Ўзбекистон суғурта бозорини ривожлантириш агентлигига 2021 йилнинг 10 ойида 946 та жисмоний ва юридик шахслардан шикоят ва аризалар келиб тушди, бу олдинги йилга нисбатан 1,5 баравар кўпдир¹⁴¹. Бу нарса суғурта компанияларига ишончсизлик туғдириб, суғурта бозорининг ривожланишига салбий таъсир кўрсатмоқда.

д) **Ўзбекистонда суғурта соҳасидаги қонун ҳужжатларининг номукамаллиги.** Суғурта қилдирувчиларнинг ўз ҳуқуқлари тўғрисида хабардорлигини паст даражаси. 2023 йилда ўтказилган сўров натижаларига кўра, Ўзбекистондаги суғурта қилдирувчиларнинг атиги 15 фоизи ўз полиси шартлари билан тўлиқ таниш. Бу суғурта қилдирувчиларни суғурта ҳодисаси юз берганда ўз манфаатларини тўлиқ ҳимоя қила олмаслигига олиб келади. Суд жараёнлари қийматини юқорилиги ва давомийлиги, суғурта бахслари бўйича ишларни кўриш амалиётини етарли эмаслиги туфайли суд тартибида ҳуқуқларни ҳимоя қилишни мураккаблаштиради; е) **қонунчиликнинг халқаро стандартларга мувофиқлик**

¹³⁹ <https://www.spot.uz/ru/2023/11/15/insurance/>

¹⁴⁰ <https://uzreport.news/>).

¹⁴¹ <https://uz.kursiv.media/2021-11-18/uzbekistancy-stali-chasche-zhalovatsya-na-strakhovschikov>.

келмаслиги. Суғурта бозорининг шаффофлиги етарли эмас. Суғурта компаниялари тўғрисидаги маълумотларни ошкор қилишнинг ягона тизимининг йўқлиги ва суғурталовчиларнинг молиявий ҳолати тўғрисидаги маълумотларга олишнинг қийинлиги.

Ўзбекистон Республикасида ҳаётни суғурталаш бўйича олиб борилган тадқиқотлар ва таҳлиллар асосида ушбу ишларни қуйидаги йўналишларда такомиллаштириш лозим деб ўйлаймиз

1. Жамоатчилик хабардорлигини ошириш. Оммавий ахборот воситалари, ижтимоий тармоқлар, семинарлар ва бошқа каналлар орқали ҳаётни суғурталашнинг афзалликлари ҳақида маълумот тарқатиш, турли хил ҳаёт суғуртаси маҳсулотлари ҳақида содда ва тушунарли материаллар яратиш ва ҳаётни суғурталаш одамларга қандай ёрдам бериши мумкинлигини кўрсатиш учун ҳаётний мисоллардан фойдаланиш.

2. Молиявий таълимни такомиллаштириш. Мактаб ва университет дастурларига ҳаётни суғурталаш бўйича модулларни киритиш, катталар учун молиявий режалаштириш, шу жумладан ҳаётни суғурталаш бўйича тренинглар ва семинарлар ўтказиш.

3. Ҳаёт суғуртаси маҳсулотларини кенгайтириш. Кам таъминланган одамлар учун мос бўлган паст даражадаги ҳаётни суғурталаш маҳсулотларини яратиш ва қишлоқ аҳолиси учун мавжуд бўлган микро суғурта маҳсулотларини таклиф қилиш.

4. Суғурта қилдирувчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизимини яратиш. Суғурта қилдирувчилар ва суғурта компаниялари ўртасидаги низоларни ҳал қилиш механизмларини ишлаб чиқиш ва суғурта қилдирувчиларнинг ўз ҳуқуқлари тўғрисида хабардорлигини ошириш.

5. Ҳаётни суғурталаш бозорининг ривожланиши. Ҳаётни суғурталашга инвестицияларни рағбатлантириш

6. Суғурта қилдирувчилар ва суғурта компаниялари учун солиқ имтиёзлари бериш ва суғурта компаниялари учун қулай инвестиция муҳитини яратиш.

7. Хорижда ҳаёт суғуртаси бўйича тўпланган бой тажрибани ўрганиш. Ривожланган мамлакатлар тажрибасини таҳлил қилиш, яъни бошқа уларда ҳаётнинг суғурталашни ривожлантиришда эришган ютуқларини ўрганиш ва улар амалиётидаги ижобий ҳолатларни Ўзбекистон шароитларига мослаштириш.

Ушбу чора-тадбирларнинг амалга оширилиши Ўзбекистонда ҳаётни суғурталаш бозорининг сезиларли даражада ўсишига ва аҳолининг молиявий фаровонлигини ҳимоя қилишдаги ролини оширишга олиб келиши мумкин.

Ўзбекистонда ҳаётни суғурталашни такомиллаштириш узоқ муддатли жараён бўлиб, давлат, суғурта компаниялари ва жамоатчиликнинг биргаликдаги саъй-ҳаракатларини талаб қилади.

Ўзбекистонда ҳаётни суғурталаш бозорини ривожлантириш ҳаётни суғурталаш маҳсулотларини танлашни кенгайтириш, ҳаётни суғурталаш бозори инфратузилмасини ривожлантириш ва аҳолининг ҳаётни суғурталашнинг афзалликлари тўғрисида хабардорлигини оширишга қаратилган чора-тадбирлар мажмуини амалга ошириш орқали ҳал қилиниши мумкин бўлган муҳим вазифадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. “Суғурта фаолияти тўғрисида” ЎР қонуни, 23.11.2021 йилдаги ўрқ-730-сон
2. “Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантиришнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 01.03.2024 йилдаги ПҚ-108-сонли қарори
3. Борисова Н.О. Состояние и перспективы развития рынка страхования жизни в Узбекистане. <https://cyberleninka.ru/article/n/sostoyanie-i-perspektivy-razvitiya-rynka-strahovaniya-zhizni-v-uzbekistane>
4. Кулдашев К.М. Современное состояние накопительного страхования жизни _в Узбекистане и проблемы его развития. <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennoe-sostoyanie-nakopitelnogo-strahovaniya-zhizni-v-uzbekistane-i-problemy-ego-razviti>
5. «У населения не сформировано доверие к страховым услугам» <https://www.spot.uz/ru/2023/11/15/insurance/>

МАЖБУРИЙ ТИББИЙ СУҒУРТАНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ МАНБАЛАРИ

Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи
ЎзМУ, “Макроиктисодиёт” кафедраси
доцент вазифасини бажарувчи, PhD
E-mail: motabar.umurzaqova@mail.ru

Суғурта бозорининг ўзига хос хусусияти шундаки, иқтисодиётнинг шаклланиш даврида унинг ривожланиши ва юксалиши биринчилардан бўлиб бошланади. Шу билан бирга, суғурта давлат иқтисодиётида бир қатор муҳим функцияларни (компенсация, молиялаш, профилактика, инвестиция, назорат) бажаради ҳамда юридик ва маълум бир ҳудуддаги жисмоний шахсларнинг муваффақиятли фаолият кўрсата олиш имкониятларини ҳам белгилайди.

Давлат иқтисодиётини молиялаштиришнинг муҳим воситаларидан бири - бу Мажбурий тиббий суғурта фонди (МТСФ) бўлиб, унинг асосини иш берувчиларнинг меҳнатга ҳақ тўлаш фондидан тушадиган мажбурий ажратмалари ташкил этилади.

Тиббий хизматларни молиялаштириш ва сифатини бошқаришни таъминловчи мажбурий тиббий суғурта тизими (МСТ) дунё ва МДХ таркибига кирувчи кўплаб давлатларида кенг тарқалган бўлиб, тиббий ёрдам сифатини мустақил экспертизадан ўтказиш учун ноёб имконият ва соғлиқни сақлаш соҳаси учун бюджетдан ташқари қўшимча маблағлар манбаи ҳисобланади. Унинг ёрдами билан давлат мамлакат аҳолисининг соғлиғини муҳофаза қилиш билан боғлиқ манфаатларини ижтимоий ҳимоя қилишни таъминлайди. Зарур бўлганда, суғурталовчи томонидан тўпланган маблағлар ҳисобидан одамларга кафолатланган ёрдамдан фойдаланиш имконияти ҳам берилади.

Ҳар бир мамлакатда соғлиқни сақлаш соҳасини молиялаштиришнинг ўзига хос тизими (бюджет, бюджет суғуртаси ва аралаш) мавжуд. Улар ичида бюджет суғуртаси тизими ходимларнинг ўзлари ёки уларнинг иш берувчилари томонидан тўланадиган суғурта бадалларига асосланган мажбурий суғурта тизимидан фойдаланади. Бунда иш берувчилар давлат олдида Меҳнатга ҳақ тўлаш Фонди(жамғармаси)га белгиланган фоизлар кўринишида бадалларни тўлаш мажбуриятини оладилар.

Шимолий ва Ғарбий Европанинг иқтисодий жиҳатдан ривожланган аксарият мамлакатларида тиббий суғурта тизими тиббий ёрдам харажатларини тўлашнинг учта асосий манбасини қараб чиқади:

суғурталанганларнинг иш ҳақидан ушлаб қолинишлар: Францияда - иш ҳақининг 6%, Германияда - 11,8%, Белгияда - 8,4%, Австрияда - 10,1%, Франция ва Нидерландияда - 19%;

давлат бюджетидан ажратмалар: Нидерландияда - 10%, Германияда - тахминан 20%, Скандинавия мамлакатларида - 20 дан 50% гача;

тадбиркорларнинг даромадларидан ажратмалар - Германияда 50%, бошқа мамлакатларда тиббий ёрдам учун барча маблағларнинг тахминан 5%.

Бу мамлакатларда суғурталанган аҳоли сони умумий аҳоли сонининг 60-80% ини ташкил қилади [1].

МТС тизимига кўра, иш берувчилар, ҳам ходимлар томонидан деярли тенг улушларда тўловларни амалга ошириладиган мамлакатлар ҳам мавжуд. Россия Федерациясида эса бу мажбурият фақат иш берувчига юкланган (меҳнатга ҳақ тўлаш фондининг 5,1 %).

Турли мамлакатларда МТС ни молиялаштириш манбалари 1-жадвалда келтирилган.

Хорижий мамлакатлар тажрибасини таҳлил қилар эканмиз, шуни таъкидлаш жоизки, суғурта бадали миқдори меҳнатга ҳақ тўлаш фондига нисбатан 7 % дан 18 % гача боради, мажбурий тиббий суғурта харажатларининг умумий соғлиқни сақлаш харажатларидаги улуши эса Францияда 74 % ни ташкил этади. Нидерландия ва Люксембургда, Германия ва Белгияда 62 %, Австрияда 48 %. Умумий харажатларнинг бир қисмини аҳолининг шахсий харажатлари

(15-25 %) ташкил этишини ҳисобга олсак, бу кўрсаткичлар умумий давлат харажатларидаги МТС улушининг 70-85 % га тўғри келади [2].

1-жадвал

Турли давлатларда МТС ни молиялаштириш манбалари

Давлатлар	Молиялаштириш манбалари, %			Суғурта бадалининг қиймати (даромаддан % ларда)
	давлат	иш берувчилар	ишчилар	
Италия	7.3	83.3	9.4	13.1
Белгия	31.4	79.5	19.1	7.3
Германия	19.0	42.7	38.3	16.0
Нидерландия	6.3	42.5	51.2	9.3
Дания	80.0	11.0	9.0	22.0
Швейцария	21.2	0,02	78.7	17.7
Франция	81,0	12.5	6.5	16.0
Япония	88,0	5.5	6.5	7.2
Россия Федерацияси	37.5	62.5	-	5.1
Болгария	30.0	35,0	35,0	6.0
Грузия	48.2	52.8	-	3.0
Қозоғистон	68.7	32.3	-	2,0-5,0
Қирғизистон	65,0	35,0	-	2.0
Литва	маълумот йўқ	10%	4%	маълумот йўқ
Словакия	маълумот йўқ	3%	6%	маълумот йўқ
Молдова	40.4	47.2	12.4	3.5
Чехия	маълумот йўқ	ЯТТ (якка тартибдаги тадбиркор) даромадининг 2/3 қисми	ЯТТ (якка тартибдаги тадбиркор) даромадининг 1/3 қисми	Иш ҳақиға қараб 16 % гача
Польша	50,0	25.0	25.0	7%

Манба:Муаллиф томонидан тузилган

Собиқ Иттифоқ мамлакатларида суғурта бадалининг қиймати анча паст - 2-7 %. Эстония, Хорватия, Чехия, Словения бундан мустасно (меҳнатга ҳақ тўлаш фондининг 13-18 %).

2-жадвал

Турли мамлакатларда тиббий суғурта бозори ривожланишининг асосий кўрсаткичлари

Мамлакат	Тиббий суғуртанинг кириб бориш даражаси (суғурта мукофотининг ЯИМ даги улуши), %	Тиббий суғурта зичлиги кўрсаткичи (жон бошига суғурта мукофоти), АҚШ долларида
АҚШ	2.8	1605.0
Германия	2.1	1482.2
Франция	1.4	935,0
РФ	0,27	3.6
Қозоғистон	0,15	2.6
Молдова	0,09	1.8
Грузия	0,05	1.6
Украина	0,19	2.8
Белоруссия	0,10	2.0
Ўзбекистон	0,14	2.3

Муаллиф томонидан [3,4,5] асосида тузилган.

Тиббий суғуртанинг ривожланиш даражасини баҳолаш учун абсолют кўрсаткичлардан ташқари - суғурта мукофотлари ҳажмига қўшимча равишда бир нечта нисбий хусусиятлар қўлланилади, уларнинг асосийлари халқаро ва маҳаллий амалиётда қўлланиладиган

кўрсаткичлар: тиббий суғуртанинг кириб бориш даражаси ва тиббий суғурта зичлиги кўрсаткичи (2-жадвал).

2-жадвалдаги маълумотлардан кўриниб турибдики, турли мамлакатларда тиббий суғуртанинг ривожланиши жуда катта фарқ қилади. Ривожланган мамлакатларда тиббий суғурта зичлиги 900 АҚШ долларида 2000 АҚШ доллагача, тиббий суғуртанинг кириб бориш даражаси эса 1% дан 3% гача бўлади. МДХ мамлакатларида тиббий суғуртанинг ривожланиш кўрсаткичлари ҳам шунга яқин.

Тиббий суғурта ривожланиши билан кўплаб ижтимоий-иқтисодий ва экологик омиллар ушбу тенденцияга таъсир қилади, режалаштирилган кўрсаткичлардан ўзгаришлар ва оғишлар бўлади. Шунинг учун, маълум бир даврдан кейин (2-3 йил) кейин мониторингдан олдинги ва мониторинг даврининг бир неча йиллари учун мониторингларни ягона методологиядан фойдаланган ҳолда қайта ҳисоблаш керак, бунинг асосида мониторинглар тузатилади. Мониторинг (таҳлил) маълумотларини такомиллаштириш узок муддатли истикболда тиббий суғуртани ривожлантиришнинг муқобил сценарийларини янада аниқроқ такомиллаштириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мних, М.В. Медицинское страхование и возможности его реализация / М.В. Мних // Экономика и правительство. – 2006. – №11. – С. 39-41. Стеценко, В. Организационно правовые основы медицинского страхования: зарубежный опыт и предложения/ В. Стеценко // Предпринимательство, хозяйство и право. – 2009. – №1. – С. 10-13
 2. Сверхточий, Б. Социальное страхование в контексте истории / Б. Сверхточий // Социальная защита. – 2003. – № 3. – С. 20-24.
 3. Демьянишин, В.Г. Модель системы финансирования здравоохранения: концептуальные принципы и альтернативы / В.Г. Демьянишин, Т.Д. Ситаш // Финансы. – 2011. – №6. – С. 45-53.
 4. Криклий, А.С. Рынок страхования жизни: тенденции и европейский опыт / А.С. Криклий, Р.В. Пикус // Экономика и правительство. – 2020. – №5. – С. 14-27.
- Европейская Социальная Хартия <http://ombudsmanrf.org/upload/files/docs/globhr/ESH.pdf>.
- Архипов, А.П. О теоретических основах страховой деятельности / А.П. Архипов // Финансы. – 2010. – №1. – С. 39-44.
- Шахов, В.В. Страхование / В.В. Шахов.– М.: ЮНИТИ, 2003. – 31

СУҒУРТА БОЗОРИНИ СТАРТЕГИК РИВОЖЛАНТИРИШДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ЭГАЛАРИНИНГ ФУҚАРОЛИК ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ СУҒУРТА ТУРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Холбўтаев Ҳасан Жовли ўғли

Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси,
““SQB Insurance”суғурта компанияси” акциядорлик жамияти, “Суғурта хизматларини ривожлантириш ва методология” бўлими бошлиғи

Мамлакатимизда мустақилликнинг илк йилларидаёқ суғурта соҳаси ривож ва аҳолини суғурта орқали ижтимоий ҳимоя қилиш масаласига алоҳида эътибор берилганлигини 1994 йил 30 декабрда қабул қилинган 632-сонли Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида транспорт воситалари ва бошқа ўзинлар машина ҳамда механизмлар эгалари фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғуртаси тўғрисида”ги¹⁴² қарорининг қабул қилинишидан ҳам билиш мумкин. Ушбу қарорга асосан 1995 йил 1 январдар

¹⁴² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 30.12.1994 йилдаги 632-сон

бошлаб транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш амалга татбиқ этилган ва ушбу қарор 2008 йилга қадар амалиётда қўлланган. 2008 йил 21 апрелда “Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни қабул қилинган ва ушбу қонун ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси томонидан 2008 йил 24 июнда «Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақидаги қарорини қабул қилган.

Ушбу қонун ва қарор асосида транспорт воситалари эгаларининг жавобгарлиги суғуртаси амалга оширилиб келинмоқда ва замон талабларидан келиб чиқиб ушбу қонун ва қарорга тегишли ўзгартириш ва қўшимчалар киритиб келинмоқда, хусусан: суғурта суммасининг ортиши, суғурта мукофотининг камайтирилиши, суғурта ҳодисасини Хабарнома орқали расмийлаштириш, суғурта мукофотини ҳисоблашнинг соддалаштирилиши кабиларни санаб ўтишимиз мумкин. Суғурта мукофотининг соддалаштирилган ҳисоб китоби бўйича ўзгартиришлар амалга оширилгандан буён беш йил ўтган бўлса ушбу давр мобайнида суғурта қопламалари миқдори суғурта мукофотлари ўсишига қараганда сезиларли тарзда ортиб бормоқда.

1-жадвал

Суғурта мукофотлари ва тўловлари таҳлили¹⁴³

Йиллар	Суғурта мукофоти (млн. сўмда)	Суғурта қопламаси (млн сўмда)
2019 й.	159 708,0	42 186,2
2020 й.	175 012,3	64 646,0
2021 й.	190 319,5	119 610,8
2022 й.	236 016,8	157 034,0
2023 й.	276 551,1	153 103,8

Жадвал маълумотларига асосан 2020 йилда йиғилган суғурта мукофотлари ҳажми 2019 йилга қараганда 9 фоизга кўпроқ бўлса, амалга оширилган тўловлар ҳажми эса 2020 йилда 2019 йилга қараганда 50 фоизга ошганлигига гувоҳ бўлишимиз мумкин ва 2020 йилда йиғилган суғурта мукофотининг 37 фоизи суғурта қопламасига йўналтирилганлигига гувоҳ бўлишимиз мумкин. 2021 йилда йиғилган суғурта мукофотларининг 62,8 фоизи суғурта тўловлари учун ишлатилган. 2022 йилда суғурта тўловлари йиғилган суғурта мукофотининг 66,5 фоизидан ошган бўлса 2023 йилда 55,4 фоизга тушганлигини кўришимиз мумкин. Ўсиш шу йўсинда давом этса кейинги бир неча йилда суғурта мукофотлари суғурта товонларини суммасидан ошиб кетиши эҳтимоли мавжуд. Шу нуқтаи назардан суғурта мукофотларини ҳисоблаш коэффициентларини қайта кўриб чиқиш лозим. Шунингдек, суғурта товони миқдори ҳам оширилиши мумкин сабаби суғурта суммаси ҳам ўтган беш йил мобайнида ўзгаришсиз келмоқда, аммо ҳар йили мамлакатимизда инфляция даражаси сезиларли ошганлигига гувоҳ бўляпмиз. 2019 йилдаги инфляция даражаси 15,5 фоиз бўлган, 2020 йилда эса 11,1 фоиз ва ўтган 2023 йилда 8,77 фоизни ташкил этган.¹⁴⁴

Суғуртанинг ушбу турини ижтимоий ҳимоя сифатида қараш мумкин, сабаби транспорт воситасини бошқариб келаётган шахс бизнинг мол-мулкимизга, соғлигимизга ёки ҳаётимизга зарар етказадиган бўлса ушбу етказган зарарини қоплашга шароити йўқ бўлган тақдирда ҳам, биз кўрган зарар қонун доирасида қопланиши кафолати мавжуд.

Суғурта соҳаси ривожига транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғуртасининг ўрни алоҳида касб этади. 2024 йил 1 январ ҳолати бўйича статистик маълумотларга қараганда мамлакатимиз аҳолисига тегишли транспорт

¹⁴³ <https://tkj.uz/> сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

¹⁴⁴ <https://www.gazeta.uz/ru/2024/01/03/inflation>

воситалари 4,2 миллиондан ошган¹⁴⁵ бўлиб ўтган йилган қараганда 10 фоизга ошганлигини кўришимиз мумкин. Транспорт воситаларининг кўпайиши орқали транспорт воситалари билан юз бериши мумкин бўлган йўл транспорт ҳодисалари сонининг ҳам ошиши эҳтимоли мавжуд. 2023 йилда Республикамизда 9 839 та йўл транспорт ҳодисалари юз берган.¹⁴⁶ Уларда 9 209 нафар фуқаро жароҳатланган ва 2 282 нафар фуқаро ҳалок бўлган. Йўл транспорт ҳодисаси натижасида етказилган зарарларнинг ўрнини қоплаш учун асосан транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғуртаси хизмат қилади.

2-жадвал

Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш бўйича 2023 йилнинг январ-декабр ойи учун асосий кўрсаткичлари ҳудудлар кесимида¹⁴⁷

№	Худулар	Қониқтирилган даволар сони (дона)	Қониқтирилган даволар суммаси (млн. сўм)
1	Қорақалпоғистон Республикаси	714	6 271,6
2	Андижон вилояти	493	4 452,4
3	Бухоро вилояти	615	5 469,2
4	Жиззах вилояти	659	5 684,6
5	Қашқадарё вилояти	596	4 872,2
6	Навоий вилояти	264	2 492,4
7	Наманган вилояти	316	2 819,9
8	Самарқанд вилояти	631	5 850,5
9	Сурхандарё вилояти	309	2 666,6
10	Сирдарё вилояти	408	3 336,1
11	Тошкент вилояти	2 909	22 833,3
12	Фарғона вилояти	480	4 358,4
13	Хоразм вилояти	447	4 053,2
14	Тошкент шаҳри	10 593	77 943,3
Республика бўйича жами:		19 434	153 103,8

Жадвал маълумотларидан кўришимиз мумкинки 2023 йил мобайнида мамлакатимизда юз берган йўл транспорт ҳодисалари учун жами бир юз эллик уч миллиард бир юз уч миллион сўмдан ортиқ маблағлар йўл транспорт ҳодисаси натижасида зарар кўрганлар учун тўлаб берилган. Биргина Тошкент шаҳрининг ўзида етмиш саккиз миллиардга якин суғурта қопламаси амалга оширилганлигининг гувоғи бўлишимиз мумкин. Бу эса юз бериши мумкин бўлган йўл транспорт ҳодисаларининг қарийб 50 фоизи Тошкент шаҳри ушушига тўғри келишини кўрсатмоқда. Ҳозирги кунда ушбу суғурта шартномаси доирасидаги суғурта суммаси 40 миллион сўмни ташкил этиб 35 фоизи (14 000 000,00 сўм) мол-мулкга етган зарар учун 65 фоизи (26 000 000,00 сўм) эса жабрланувчининг ҳаёти ва/ёки соҳлигига етган зарарларнинг ўрнини қоплаш учун йўналтирилади.

Нега айнан ушбу суғурта тури суғурта бозорининг ривожланишида асосий ўрин эгаллашини 2023 йилда мамлакатимиз ҳудудида тузилган жами суғурта шартномаларининг 50 фоизидан ортиқроғини айнан транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлини мажбурий суғурта қилиш суғурта ўртномалари ташкил этганлиги билан изоҳлаш мумкин. 2023 йилда суғурта турлари бўйича 9 132 985 дона суғурта шартномалари тузилган бўлса

¹⁴⁵ https://t.me/statistika_rasmiy/4315

¹⁴⁶ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/29/accidents/>

¹⁴⁷ <https://tkj.uz/> сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш бўйича тузилган шартномалар сони 4 819 600 тани ташкил этган.¹⁴⁸

Европа мамлакатларида суғуртанинг ушбу тури доирасида фақатгина транспорт воситасидан фойдаланишда учинчи шахслар олдидаги жавобгарликнинг юзага келиши эмас балки фойдаланилаётган транспорт воситасига етиши мумкин бўлган зарарлар ҳам суғурталанади.¹⁴⁹

Ривожланган мамлакатлар тажрибасини ўрганиб чиқган ҳолда мамлакатимизда ҳам транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш суғуртаси доирасида транспорт воситасига етган зарардан ҳам суғурталаш амалиётини амалга ошириш орқали суғурта ҳимоясини таклиф этиш лозим. Бу бизга суғурта маданиятини ривожлантиришда янада қўл келиши мумкин. Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига асосан аҳоли ўзига тегишли мол-мулкларни хавф-хатардан мажбурий суғурта қилиниши мумкин эмас, аммо учунчи шахслар олдидаги жавобгарликларини мажбурий суғурта қилдиришлари лозим. Мажбурий суғурта полисида ўзига тегишли транспорт воситаси суғуртаси учун ҳам алоҳида банд киритилиши мумкин. Ушбу бандда кўрсатилган суғурта ихтиёрий тарзда амалга оширилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 30.12.1994 йилдаги 632-сон
2. <https://tkj.uz/> сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.
3. <https://www.gazeta.uz/ru/2024/01/03/inflation>
4. https://t.me/statistika_rasmiy/4315
5. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/29/accidents/>
6. <https://tkj.uz/> сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.
7. <https://www.insuranceportal.uz/> сайти суғурта хизматлари бозори тўғрисида маълумот
8. <https://www.clements.com/personal/international-car-insurance/>

ИҚТИСОДИЁТНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШИ ШАРОИТИДА СУЎГУРТАНИНГ ЎРНИ

Шорахимова Зилола

Ўзбекистон Миллий университети Иқтисодий факультети
“Эконометрика ва иқтисодий моделлаштириш”
кафедраси ўқитувчиси

Бугунги кунда мамлакатимиз иқтисодий ҳаётида суғурта фаолияти стратегик аҳамиятга эга бўлиб, бу соҳадаги давлат сиёсатининг моҳияти унинг бозор инфратузилмасининг муҳим таркибий элементи сифатидаги аҳамияти ва салмоғини янада оширишдан иборат. Суғурта молиявий таъминлаш воситаси сифатида мижозларнинг мол-мулкларини рисклардан ҳимоясини кафолатлаши орқали суғурталанувчининг ижтимоий-иқтисодий ҳимоясини таъминлайди.

Мамлакатимизда молия бозорини янада ривожлантириш, аҳолини сифатли молиявий хизматлар билан қамраб олиш қўламини кенгайтириш, суғурта ташкилотлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, ушбу соҳада истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш учун қулай шарт шароитлар яратиш, шунингдек, суғурта турларини кенгайтириш ва истеъмолчиларнинг суғуртага бўлган ишончини ошириш ва бу орқали суғурта тушумларини ошириш чора-тадбирлари изчил амалга оширилмоқда.

Суғурта фаолиятида ўз моҳиятига кўра, айнан «хизмат» тушунчаси фундаментал ҳисобланади. Суғуртачи томонидан таклиф этилаётган «хизмат» ўзида дастлаб моддийликни акс эттирмайди, яъни суғурта компанияси ўз мижозига фақат «ваъдани сотади». Шу нуқтаи

¹⁴⁸ <https://www.insuranceportal.uz/> сайти суғурта хизматлари бозори тўғрисида маълумот

¹⁴⁹ <https://www.clements.com/personal/international-car-insurance/>

назардан халқаро савдода унга «кўринмайдиган фаолият»[1] деб ҳам тасниф берилади. Суғурталанувчига шартнома тузилганлигини тасдиқловчи ҳужжат сифатида «полис»[2] берилади ҳолос. Суғурта шартномасида суғурталанувчига суғурта воқеасига кўра, кўриши эҳтимол бўлган зарарининг эквивалент қийматидаги пул тўлови (айрим ҳолларда мол-мулк кўринишида) таъминланиши назарда тутилади. Шартноманинг бажарилиши унда қайд этилган маълум давр оралиғида амалга оширилади.

Ҳар қандай суғурта компаниясининг иқтисодиёти ҳар қандай бошқа турдаги тадбиркорлик билан шуғулланувчи ташкилотлар сингари суғурта фаолиятидан олинадиган даромадлар ва харажатларни пул шаклида таққослаш принципига асосланади. Даромадлар ва харажатларни таққослаш компаниянинг самарадорлигини баҳолашга ёрдам беради.

Суғурта операцияларидан тушумлар суғурта компанияларининг асосий даромад манбаси ҳисобланади. Бу асосий даромад манбаларини суғурталанувчиларнинг пул кўринишидаги бадаллари ва суғурта тушумлари ташкил қилади. Суғурта мукофотларининг ҳажми компаниянинг суғурта портфели таркиби, тариф сиёсати, маркетинг стратегияси ва бошқа бир қатор омилларга боғлиқ. Суғурта тушуми суғурта турларининг сотилишидан шаклланади. Суғурта турлари соҳасига кўра ҳаёт суғуртаси ва умумий суғуртага бўлинади.

Аҳоли соғлиғи ёки мол-мулкига бахтсиз ҳодиса оқибатида зарар етганда унга молиявий кўмак бериш суғурта компаниясининг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади. Суғурта қопламаси - бу суғурта хизматлари орқали жисмоний ёки юридик шахс учун қопланадиган хавф ёки жавобгарлик миқдори. Суғурта қопламаси истеъмолчиларга кутилмаган ҳодисалардан, масалан, автоҳалокатлар ёки оилани боқадиган даромад келтирадиган катталардан маҳрум бўлиш каби молиявий ҳолатлардан халос бўлишга ёрдам беради. Суғурта қопламаси кўпинча бир неча омиллар билан белгиланади. Масалан, суғурталовчиларнинг аксарияти ёш эркак ҳайдовчилар учун юқори мукофот пули тўлайди, чунки суғурталовчилар автоҳалокатга учраган йигитларнинг эҳтимоли, масалан, кўп йиллик ҳайдовчилик тажрибасига ега бўлган, ўрта ёшли турмуш қурган эркакдан юқори. Суғурта қопламаси истеъмолчиларга кутилмаган ҳодисалар, масалан автоҳалокатлар ёки оилани боқадиган даромад келтирадиган катталардан маҳрум бўлиш каби молиявий ҳолатларни тиклашга ёрдам беради.

Мижознинг суғурта ҳодисаси юзасидан мурожаатини имкон қадар тез кўриб чиқиб, суғурта қопламасини ўз вақтида тўлаб бериш эса суғурталовчининг нуфузини белгилаб беради.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси суғурта бозорида 36 та суғурталовчи, шундан 28 таси умумий суғурта тармоғида ва 8 таси ҳаётни суғурта қилиш тармоғида, шунингдек 5 суғурта брокери, 5 актуар ташкилот ҳамда 22 ассистанс, аджастер, сюрвейер компаниялари фаолият кўрсатиб келмоқда. Суғурта компаниялари маълумотларига мувофиқ 2020 йил II чораги мобайнида 503,1 млрд. сўм суғурта мукофоти йиғилди. Суғурталовчиларнинг ялпи устав капиталлари 782,4 млрд. сўмга (ўсиш - 138 фоиз) ва иқтисодиётга киритилган инвестициялар ҳажми 2 834,9 млрд. сўмга (ўсиш - 137 фоиз) етган. Инвестицияларнинг 55 фоизи банк депозитларига, 30 фоизи акцияларга ва қолган қисми бошқа қимматли қоғозларга жойлаштирилган. Амалдаги шартномалар сони 7,0 млн. донани ташкил қилди.3 Бу рақамлар ўз навбатида фуқароларнинг суғуртага бўлган ишончининг ортиб бораётганлигини ва суғурта компанияларнинг иқтисодиётдаги салмоғи ошаётганини кўрсатади.

2014 йилга нисбатан 2019 йилда 27 баравар ошган бўлсада жами бозордаги улуши 25,5 фоизни ташкил этган. Ушбу ҳолатлар шундан далолат берадики, ҳаёт суғуртаси тармоғида тузилаётган суғурта шартномаларининг асосий қисми жамғариб бориладиган суғурта турларига тааллуқли бўлиб, ушбу суғурта турида тўпланган суғурта мукофотлари тўлиғича суғурталанувчига қайтарилиши туфайли қопламалар ҳажми юқори даражани ташкил этган. 2019 йилда ҳаёт суғуртаси бўйича тўпланган суғурта мукофотларининг асосий қисми, яъни 90 фоизи жамғариб бориладиган ҳаёт суғуртаси ва суғурта рентаси тўлови билан узоқ муддатли ҳаёт суғуртаси суғурта маҳсулотларидан иборат бўлиб, ушбу иккала суғурта маҳсулоти ҳам

белгиланган солиқ имтиёзларига тушадиган суғурта маҳсулотлари ҳисобланади. Бундан хулоса қилиш мумкинки, ҳаёт суғуртаси бўйича юқори ўсиш даражасига эришишда белгиланган имтиёз асосий омил бўлиб хизмат қилган. Суғурта бозоридаги ҳаёт суғуртасининг улуши 25 фоизни ташкил қилади. Суғурта бозори кўрсаткичлари йил сайин ўсиб борсада, ЯИМ даги улуши 0,4 фоизни ташкил қилди. Хорижий мамлакатларда бу кўрсаткич 11 фоизгача бўлган кўрсаткичларга эга.

Юқоридаги кўрсаткичлар Ўзбекистон суғурта бозори кун сайин ривожланаётганини билдиради. Бироқ бу суғурта бозорининг бор имкониятларини намоён этган дегани эмас. Суғурта аҳолининг қанча кўп қисмини қамраб олса, бу аҳолининг шунчалик ижтимоий ҳимояланганлигини билдиради. Бу эса давлатнинг ижтимоий соҳага бўлган ҳаражатларининг тежалишига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. “Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 августдаги ПФ-4412-сонли Қарори
2. Ўзбекистон Республикасининг “Суғурта фаолияти тўғрисида” ги Қонуни. 2002 йил 5 апрель, ЎРҚ 358-II-сон
3. “Суғурта бозорининг инвестицион фаолиятини ривожлантириш долзарб муаммолари” республика илмий амалий онлайн конференцияси маълумотлари.
4. Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti. G.Jumayev,R.Djalilov
5. Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993..
6. Ефимов С.Л. Энциклопедический словарь. Экономика и страхование. М.: Церих -ПЭЛ, 1996. I-X,
7. www.insuranceurope.eu

3-SHO‘BA. O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI RIVOJLASHTIRISH MUAMMOLARI

ЭКОЛОГИК ИНВЕСТИЦИЯЛАР БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА

Ваҳабов Абдурахим Васикович
ЎзМУ “Макроиктисодиёт” кафедраси мудири,
иктисодиёт фанлари доктори, профессор
avakhabov@mail.ru

Ходжибокиев Шухрат Хужаёрович
ЎзМУ “Макроиктисодиёт” кафедраси
катта ўқитувчиси, khajibakiev@mail.ru

2019-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасининг "яшил иқтисодиёт"га ўтиш стратегиясида мамлакатимизни узоқ муддатли истикболда жаҳондаги тараққий этган мамлакатлар қаторига киришининг устувор йўналиши сифатида чекланган, такрор ишлаб чиқарилмайдиган иқтисодий ресурслар шароитида иқтисодиётнинг энергия самарадорлигини ошириш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш вазифаларини ҳал этиш кўзда тутилган. Ушбу стратегик мақсадга эришиш учун амалиётга қўлланилаётган технологияларни модернизациялаш ва молиявий механизмларини ривожлантириш ялпи ички маҳсулот бирлигига сарфланаётган иссиқхона газларининг солиштирма чиқиндиларини 2030 йилдан 2010 йилга нисбатан 10 фоизга камайтириш, аҳоли ва иқтисодиёт тармоқларини юз фоиз замонавий, арзон ва ишончли электр таъминотидан фойдаланишга ўтказиш, экологик жиҳатдан яхшиланган моторли ёқилғи ва автомобиль ишлаб чиқаришга ўтиш, электр транспортини жадал суръатларда ривожлантириш вазифаларини ҳал этиш лозим¹⁵⁰.

Глобал миқёсда “яшил иқтисодиёт”га ўтиш жараёни узоқ муддатли ва катта миқдордаги инвестицияларни талаб этиши, асосий эътибор тикланадиган энергия манбаларидан самарали фойдаланиш, энергияни тежайдиган технологияларни ривожлантиришга қаратилганлиги билан ажралиб туради. Халқаро энергетика агентлиги прогнозларига кўра, 2050 йилгача атмосферага чиқариб юбориладиган CO₂ эмиссиясини икки бараварга камайтириш учун “яшил иқтисодиёт”га дунё ялпи ички маҳсулотининг 1-2,5%и даражасида қўшимча инвестициялар сарфлаш зарур.

Жаҳон амалиёти кўрсатишича, “яшил иқтисодиёт”га ўтиш учун инвестицион муҳитни халқаро стандартлар, солиқлар ёрдамида тартибга солиш, жамоатчилик назорати, нарх ва инвестиция сиёсати, каби иқтисодий дастак ва инструментлардан фаол фойдаланилмоқда. Ушбу механизм ва дастаклардан оқилона фойдаланиш мамлакатда инвестицион муҳитни яхшилаётган ва инвестиция сиёсатини амалга оширишнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

«Яшил иқтисодиёт»га ўтиш шароитида инсон капитали, билим ва инновацияларга йўналтирилган инвестициялар ҳажмини, кўламини кенгайтиришдан иборат. «Яшил» иқтисодиётга ўтиш – иқтисодиётни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари, унинг рақобатбардошлигини ошириш ва мамлакатни барқарор ривожлантириш шарти сифатида яшил инвестицияларни жалб этиш борасидаги халқаро тажрибаларни ўрганиш, инновацион технологияларни кенг қўллашда интеграциялашувни жадаллаштиришни кўрсатади.

Иқтисодий адабиётда иқтисодий ўсишни таъминлашда атроф-муҳит сифати тўғрисидаги баҳс мунозаралар ишлаб чиқариш омилларининг ялпи унумдорлигига асосланган барқарор

¹⁵⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги “2019 - 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-4477-сонли Қарори.

ривожланишни таъминлаш имкониятларини баҳолаш борасида бормокда. Иқтисодиёт бўйича Нобель мукофоти лауреати М.Спенс фикрича, “... иқтисодий ўсиш истиқболдаги манфаатлар учун бугун қилинадиган инвестицияларни талаб этади, ушбу ўсишни эса инновациялар таъминлаб беради”¹⁵¹. Ишлаб чиқариш омилларининг ялпи унумдорлигига асосланган барқарор ривожланишни таъминлашда экологик инвестицияларнинг ўрнини таҳлил этишга бағишланган тадқиқотлар сони ортиб бормокда. Жумладан, Нобель мукофоти лауреатлари А.Банерджи ва Э.Дюфлоларнинг таъкидлашича, “...чиқиндиларни қисқартириш ёки хомашёни тўлиғича қайта ишлаш билан боғлиқ йўқотилаётган вақтни тежашнинг янги усуллари кашф этганимизда ишлаб чиқариш омилларининг ялпи унумдорлиги янада ортади”¹⁵².

Иқтисодий адабиётда экологик инвестициялар долзарб, кам ўрганилган илмий муаммо ҳисобланиб, умум қабул қилинган, аниқ таърифига эга эмас. Аксарият ҳолларда экологик инвестициялар “яшил инвестициялар” ёки “яшил молиялаштириш” тушунчалари билан бир маънода талқин этилади. Бунда Европа Иттифоқи мамлакатларида қабул қилинган иқлим ўзгариши, иссиқхона газларини атмосферага чиқариш, тикланадиган энергия манбаларига ўтиш муаммоларини ифода этувчи “яшил” тушунчасига таянилади. Британиялик иқтисодчи-эколог Т.Джексон экологик инвестицияларни а) ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш ҳисобига ресурсларни тежаш; б) анъанавий технологияларни соф ёки кам углеродли технологияларга алмаштириш; в) экотизимларни яхшилаш имконини берадиган инвестициялар сифатида таърифлайди¹⁵³.

Глобал хомашё инқирозининг чуқурлашиб бориши давлат ва бизнеснинг ўзаро ҳамкорлиги, шериклиги доирасида ишлаб чиқариш ва маиший чиқиндилардан такрор фойдаланиш (ресурслар рециклини) асосида иқтисодий такрор ишлаб чиқаришнинг янги хомашё базасини яратиш зарурияти долзарблашмоқда. Шунингдек, иқтисодий адабиётда экологик инвестициялар таркибида циркуляр, яъни ресурслардан такрор фойдаланиш лойиҳаларига устуворлик бериш ғоялари илгари сурилмоқда¹⁵⁴.

Яшил молиялаштиришга институционал ёндашиш, қиёсий таҳлил, гуруҳлаш, таққослаш, иқтисодий таҳлил каби усуллардан фойдаланилган.

Мамлакатимизда давлат инвестиция сиёсатининг устувор йўналишларини экологик инвестицияларга йўналтириши қуйидаги сабабларга кўра муҳим ҳисобланади.

Биринчидан, ишлаб чиқариш омилларининг ялпи унумдорлиги (total factor productivity - TFR)¹⁵⁵ нуқтаи назаридан амалдаги хомашё экспортига йўналтирилган моделнинг сақланиб қолиши миллий иқтисодиёт унумдорлиги, иқтисодий ва ижтимоий барқарорлигига хавф солади.

Иккинчидан, табиий ресурслардан оқилона фойдаланмаслик ва атроф-муҳитнинг ифлосланиши билан боғлиқ ижтимоий-иқтисодий харажатларнинг юқорилиги.

Учинчидан, экологик инвестициялар паст углеродли секторларда юқори технологик ишчи ўринларини яратиш орқали самарали бандликни таъминлаш аҳоли турмуш даражаси ва сифатини яхшилаш имконини беради.

¹⁵¹ Спенс М. Следующая конвергенция будущее экономического роста в мире, живущем на разных скоростях. М.: Институт Гайдара, 2013. 336 с.

¹⁵² Банерджи А., Дюфло Э. Экономическая наука в тяжелые времена. Продуманные решения самых важных проблем современности. М.: Институт Гайдара, 2021. 624 с.

¹⁵³ Джексон Т. Процветание без роста. Экономика для планеты с ограниченными ресурсами. М.: АСТ-Пресс, 2013. 288 с.

¹⁵⁴ Антонова Н.М., Круглова Э.В., Ананьева О.В. Экологизация экономики: практические аспекты перехода к «зеленой» (циклической) экономике на региональном уровне // Вестник Екатеринбургского института. 2020. № 1. С. 29—34.; *Бобылев С.Н.* Устойчивое развитие: новое видение будущего? // Вопросы политической экономики. 2020. № 1. С. 67—83.; *Meadows D.H., Randers J., Meadows D.I.* Limits to Growth: The 30-Year Update. London, Chelxa Green, 2004, 338 p.

¹⁵⁵ Ишлаб чиқариш омилларининг ялпи унумдорлиги (total factor productivity)— махсулот ишлаб чиқаришга меҳнат ва капитал омиладан ташқари таъсир қилувчи омиллар йиғиндисини ифодаловчи иқтисодий тушунча ҳисобланади.

UNEP 2030 йилга қадар барқарор ривожланишга ўтишнинг қуйидаги вариантларини таклиф этади:

1. Business as usual (одатдаги бизнес) варианты. Ушбу вариант жорий экологик ҳолатни ҳисобга олган ҳолда иқтисодиётнинг барча тармоқларида бизнес, инфратузилмани янгилаш, ходимлар малакасини оширишга инвестициялар сарфлашни назарда тутди.

2. “2 C” варианты. Ушбу вариант “Business as usual” моделини барқарор ривожланишнинг экологик мақсадларига эришишга ҳаракат қилиш ва ўртача ҳарорат даражасини sanoat инкилобигача бўлган ўртача ҳарорат даражасига пасайтиришни ҳисобга олган ҳолда амалга оширишни режалаштиради.

1-жадвал

Глобал яшил иқтисодиёт индекси¹⁵⁶

Мамлакат	Балл	Рейтингдаги ўрни
Швеция	0,799	1
Швецария	0,781	2
Норвегия	0,747	3
Франция	0,744	4
Дания	0,742	5
Хитой	0,528	58
Беларус	0,506	74
Қозоғистон	0,491	84
Украина	0,481	92
Озарбайжон	0,448	114
Қирғизистон	0,443	116
Россия	0,414	136
Тожикистон	0,377	151
Ўзбекистон	0,364	153

3. Incremental investment (қўшимча инвестициялар) варианты. Ушбу вариантда Business as usual моделини барқарор ривожланишнинг экологик мақсадларига эришиш жараёнида “2 C” моделига айлантириш кўзда тутилган.

Business as usual энг кўп харажат талаб этадиган вариант ҳисобланади. Унга мувофиқ 2010-2030 йилларда инвестицияларга бўлган эҳтиёжнинг катта қисми иқтисодиётнинг транспорт ва транспорт инфратузилмаси (36,7 трлн. долл. ёки 32%), сув тармоғи (26,4 трлн. долл. ёки 23%), sanoat сектори (18,9 трлн. долл. ёки 17%) ҳиссасига тўғри келиши режалаштирилган. Ушбу тармоқлар энергия ва ресурс сиғимкорлиги юқори тармоқлар ҳисобланганлиги сабабли атроф-муҳит муҳофазаси учун катта ҳажмдаги инвестициялар талаб этилади. Жаҳон амалиётида мамлакатларнинг “яшиллашиш” даражаси Глобал яшил иқтисодиёт индекси ёрдамида баҳоланади. 2022 йилда Ўзбекистон ушбу рейтингда 0,364 балл 153-ўринни эгаллади ва МДХ мамлакатлари бўйича энг паст кўрсаткични қайд этди. Ушбу ҳолат экологик инвестицияларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва “яшил иқтисодиёт”га ўтиш жараёнини жадаллаштириш зарурлигини кўрсатади (1-жадвал). “Яшил иқтисодиёт”га ўтиш “яшил лойиҳалар”га ҳаётийлик цикли жараёнида қўшимча инвестициялар жалб этишни талаб этади. Ҳозирги вақтда дунё мамлакатлари “яшил лойиҳалар”ни давлат томонидан

¹⁵⁶ <https://dualcitizeninc.com/global-green-economy-index/>

молиялаштириш амалиётидан соҳага хусусий инвесторларни фаол жалб этиш амалиётига ҳаракат қилишмоқда.

Мутахассислар фикрича, “яшил лойиҳалар”га жалб этилаётган давлат ва хусусий инвестициялар ўртасидаги муқобил нисбат 1:5 нисбатда бўлиши зарур. Хитой амалиётида ички “яшил лойиҳалар”ни молиялаштиришда 10-15% давлат бюджети маблағлари ва 85-90% хусусий маблағлардан фойдаланиш қоидасига амал қилинади¹⁵⁷. Шунинг учун хусусий инвестицияларни “яшил лойиҳалар”га жалб этишдаги рискларни анъанавий лойиҳаларни молиялаштиришда дуч келинадиган рисклар даражасига қадар минималлаштириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Дунё амалиётида хусусий инвестицияларни “яшил лойиҳалар”га жалб этишни рағбатлантиришнинг турли иқтисодий усуллари ва дастакларидан кенг фойдаланилади (2-жадвал).

2-жадвал

Дунё мамлакатларида экологик инвестицияларни рағбатлантириш механизми ва дастаклари¹⁵⁸

	Имтиёзли кредитлаш	Кредитли кафолатлар	Яшил сертификатлаш	Солиқ имтиёзлари	Эколик солиқлар	Давлат томонидан молиялаштириш	Экологик суғурта	Яшил облигациялар	Яшил тўлов карталари тизими	Имтиёзли тариф дастурлари
Буюк Британия	+	+	+	+	+	+	+	+	-	-
Хитой	+	-	+	+	+	+	-	+	-	-
АҚШ	+	+	+	+	-	-	+	+	-	-
Германия	+	+	+	+	-	+	+	+	-	+
Корея Республикаси	+	+	+	-	-	-	-	-	+	-
Канада	-	-	-	-	-	+	-	+	-	+
Франция	+	+	+	-	+	+	+	+	-	-
Ўзбекистон	+	-	+	+	+	+	-	+	-	-

*экологик йиғимлар

Юқорида қайд этилган дастакларнинг аксарияти Ўзбекистон амалиётида жорий этилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон ҳукумати илк марта 2023 йилда Лондон фонд биржасида қиймати 4,25 трлн. сўмга тенг халқаро яшил суверен облигацияларни жойлаштирди. Ушбу маблағлар сувни тежайдиган технологиялар, ўрмонларни кенгайтириш, темир йўл транспорти ва метрони модернизациялаш каби экологик лойиҳаларни молиялаштиришга йўналтирилади¹⁵⁹. 2023 йил 1 йилдан бошлаб электр энергиянинг қайта тикланувчи манбалардан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқарилганини тасдиқловчи «яшил энергия» сертификатлари тизими босқичма-босқич жорий этила бошланди¹⁶⁰. Қайта тикланувчи

¹⁵⁷ Establishing China's Green Financial System: Report of The Green Finance Task Force. People's Bank of China (PBC). United Nations Environment Programme (UNEP). 2015. URL: <https://www.unepfi.org/news/establishing-chinas-greenfinancial-system-report-of-the-green-finance-task-force>

¹⁵⁸ Манба: Седаш Т.Н., Тютюкина Е.Б., Лобанов И.Н. Направления и инструменты финансирования «зеленых» проектов в концепции устойчивого развития экономики // Экономика. Налоги. Право. 2019. Т. 12. № 5. С. 52—60.; Раков И.Д. Механизмы поддержки финансирования «зеленых» проектов: опыт стран // Russian Journal of Economics and Law. 2017. Т. 11. № 2. С. 67—82.

¹⁵⁹ <https://www.imv.uz/oz/news/category/yangiliklar/post-1621>

¹⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 12 майдаги «Яшил энергия» сертификатлари тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисидаги, ПҚ-156-сонли Қарори.

энергия манбалари учун қуввати 100 кВтгача бўлган қурилмаларни ўрнатган жисмоний ва юридик шахслар 1 апрелдан ушбу қурилмалар бўйича мол-мулк солиғи, эгаллаб турган участкалар учун ер солиғи ва ишлаб чиқарилган энергияни сотишдан олинган фойда солиғини тўлашдан озод қилинади¹⁶¹.

Жаҳон амалиёти кўрсатишича, “яшил иқтисодиёт”ни молиялаштиришга бўлган эҳтиёжни қондириш имкониятлари мавжуд. Барча “яшил лойиҳалар” жиддий молиялаштиришни талаб этади. “Яшил лойиҳалар”ни анъанавий усуллар ёрдамида молиялаштиришда риск даражаси юқорилиги сабаб, улар инвестиция нуқтаи назаридан жозибадор ҳисобланмайди. Молия, банк ва суғурта инвестициялари “яшил иқтисодиёт”га сарфланаётган хусусий инвестицияларнинг устувор йўналишларига айланмоқда. Микромолиялаштириш амалиёти қишлоқ хўжалиги тармоғида муҳим ўрин эгаллаши мумкин. У кам даромадли аҳолига ўз маблағларини ресурслар ва энергияни тежашга сарфлаш орқали ушбу фаолиятнинг риск даражасини пасайтириш имконини беради.

“Яшил инвестициялар” манбаларини қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:

- давлат бюджети маблағлари;
- халқаро молия ташкилотлари маблағлари;
- хусусий сектор маблағлари.

Молиянинг турли йўналишлари “яшил молиялаштириш” таркибига киради ва уларни қуйидаги гуруҳларга бирлаштириш мумкин:

Инфратузилмани яхшилашга қаратилган молиялаштириш. “Яшил лойиҳалар” учун ажратилган давлат инвестицияларининг аксарият қисми инфратузилма ҳолатини яхшилаш билан боғлиқ. Инфратузилма лойиҳаларининг аксарият қисми энергия тежаш ва тикланадиган энергия манбаларини ривожлантиришга қаратилмоқда. Жумладан, жаҳонда 2018 йилда энергия тежаш ва тикланадиган энергия манбаларини ўзлаштиришга йўналтирилган инвестициялар ҳажми 2010 йилга нисбатан 55%га ортди¹⁶².

Тармоқлар ва корхоналарга молиявий кўмак бериш. Ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишда “яшил” ёндашувга эга бўлган айрим корхона ва тармоқлар анъанавий технологияга эга бўлган рақиблари олдида рақобатбардош бўлиши учун давлат кўмагидан фойдаланиш лозим бўлади. Ушбу мақсадда ҳукумат “яшил инвестициялар” билан шуғулланувчи корхоналар ёки инвесторларга солиқ имтиёзлари ва маъмурий преференциялар кўринишида билвосита молиявий кўмак бериши мумкин.

Молия бозорларини ривожлантириш. Молия бозорлари “яшил молиялаштириш”нинг муҳим манбаларидан бири ҳисобланади. Кўпчилик институционал инвесторлар ўз инвестицион декларациясида сармоялашда ижтимоий масъуллик ва атроф-муҳит муҳофазаси тамойилларига асосланишини кўрсатиб ўтишган. Инвесторлар фикрича, ушбу тамойилнинг мавжудлиги амалга оширилиши режалаштириладиган лойиҳанинг ҳукумат олдидаги жозибадорлигини оширади. Таҳлиллар кўрсатишича, экология ва атроф-муҳит муаммоларига масъулиятли ёндашувни назарда тутувчи лойиҳаларда ижрочиларнинг атроф-муҳит борасидаги мажбуриятлари аниқ белгиланган бўлади.

Демак, “экологик инвестициялар” атроф-муҳитга таъсир кўрсатувчи барча омилларни ҳисобга олувчи ва экологик барқарорликни таъминлашни назарда тутувчи инвестициялаш ва кредитлашнинг барча шакллари камраб олади.

“Яшил молиялаштириш” билан боғлиқ юқори рисклар, етарли даражада даромадлиликка эга бўлмаслик хусусий инвесторларнинг экологик лойиҳаларга инвестиция сарфлашларига тўсқинлик қилиши мумкин. Улар таркибига қуйидагиларни киритиш мумкин:

– углеродлар нархининг шаклланишида ва “яшил инвестициялар” миқдорини аниқлашда харажатлар қийматини аниқ ҳисоблаш зарур;

¹⁶¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 16 февралдаги “2023 йилда қайта тикланувчи энергия манбаларини ва энергия тежовчи технологияларни жорий этишни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-57-сонли Қарори.

¹⁶² World Energy Investment 2019 <https://www.iea.org/wei2019>.

- ёқилғи қазиб чиқариш учун ажратилаётган субсидияларнинг мавжудлиги;
- “яшил лойиҳалар”ни амалга оширишда бирламчи харажатларнинг юқорилиги ва “яшил инвестициялар”ни қоплаш муддатининг узоклиги;
- технологик рискларнинг мавжудлиги;
- трансакцион харажатларнинг юқорилиги;
- соф энергия манбаларининг амалдаги энергия тизимига интеграциялашуви билан боғлиқ харажатларнинг юқорилиги;
- ахборотларнинг етишмаслиги ва бошқа рисклар.

Яшил инвестицияларни жалб этишни фаоллаштириш учун давлат ушбу йўналишда хусусий инвесторлар учун жозибадор, қулай инвестицион муҳитни яратиши лозим. Давлат томонидан “яшил иқтисодиёт”ни инвестициялашни жалб этишни рағбатлантиришга хизмат қилувчи сиёсий, молиявий ва солиқ дастакларини қўллаш самарали ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги “2019 - 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-4477-сонли Қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 12 майдаги «Яшил энергия» сертификатлари тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисидаги, ПҚ-156-сонли Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 16 февралдаги “2023 йилда қайта тикланувчи энергия манбаларини ва энергия тежовчи технологияларни жорий этишни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-57-сонли Қарори.
4. Спенс М. Следующая конвергенция будущее экономического роста в мире, живущем на разных скоростях. – М.: Институт Гайдара, 2013, 336 с.
5. Банерджи А., Дюфло Э. Экономическая наука в тяжелые времена. Продуманные решения самых важных проблем современности. – М.: Институт Гайдара, 2021, 624 с.
6. Джексон Т. Процветание без роста. Экономика для планеты с ограниченными ресурсами. М.: АСТ-Пресс, 2013, 288 с.
7. Антонова Н.М., Круглова Э.В., Ананьева О.В. Экологизация экономики: практические аспекты перехода к «зеленой» (циклической) экономике на региональном уровне // Вестник Екатеринбургского института. 2020. № 1. С. 29—34.
8. Бобылев С.Н. Устойчивое развитие: новое видение будущего? // Вопросы политической экономики. 2020. № 1. С. 67—83.
9. Meadows D.H., Randers J., Meadows D.I. Limits to Growth: The 30-Year Update. London, Chelxa Green, 2004, 338 p.
10. <https://dualcitizeninc.com/global-green-economy-index/>
11. Establishing China’s Green Financial System: Report of The Green Finance Task Force. People’s Bank of China (PBC). United Nations Environment Programme (UNEP). 2015. URL: <https://www.unepfi.org/news/establishing-chinas-greenfinancial-system-report-of-the-green-finance-task-force>
12. <https://www.imv.uz/oz/news/category/yangiliklar/post-1621>
13. Седаш Т.Н., Тютюкина Е.Б., Лобанов И.Н. Направления и инструменты финансирования «зеленых» проектов в концепции устойчивого развития экономики // Экономика. Налоги. Право. 2019. Т. 12. № 5. С. 52—60.
14. Раков И.Д. Механизмы поддержки финансирования «зеленых» проектов: опыт стран // Russian Journal of Economics and Law. 2017. Т. 11. № 2. С. 67—82.
15. World Energy Investment 2019 <https://www.iea.org/wei2019>.

ЎЗБЕКИСТОН ХУДУДЛАРИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИК ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ

Умаров Абдувахоб Турсунович
Ўзбекистон Миллий университети
Иқтисодиёт факультети декани
a.umarov@nuu.uz

Ўзбекистоннинг ҳар бир минтақани ўзига хос ижтимоий-иқтисодий, табиий-иқлимий шароитларга эга бўлиб, уларнинг ҳеч бири бир-бирига деярли ўхшамайди. Шу сабабли, сўнгги йилларда мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар ҳар бир минтақа кесимида манзилли тарзда муҳокама қилиниб, уларни амалга ошириш бўйича минтақавий дастурлар ишлаб чиқиб келинмоқда.

Янги Ўзбекистон шароитида мамлакатимиз иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан жадал ривожлантиришга устуворлик қаратилиб келинмоқда. Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида “2022-2026 йилларга мўлжалланган ҳудудларни комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича дастурлар асосида ҳар йили барча туман ва шаҳарнинг муаммо ва имкониятларини чуқур ўрганган ҳолда ҳудудлар кесимида тараққиёт дастурларини ишлаб чиқиш”¹⁶³ вазифасининг белгиланганлиги, кейинги йилларда ҳам мамлакатимиз иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда ҳудудий ислоҳот дастурларига устуворлик қаратилишидан далолат беради.

Ўзбекистон, жумладан, унинг ҳудудларини барқарор ривожланиш кўрсаткичларига эришишида инвестициялар муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимизнинг инвестицион жозибadorлиги унинг халқаро рейтинглардаги ўрни билан баҳоланади. Ўзбекистон бизнес юритиш осон бўлган мамлакатлар рейтингида 69 ўринни, бизнесда солиқ юкламаси рейтингида 12 ўринни, қонун устуворлиги рейтингида эса 7 ўринни эгаллайди.¹⁶⁴ Ушбу ҳолат мамлакатимизнинг инвестицион жозибadorлигини йилдан йилга яхшиланиб бораётганлигидан далолат беради.

Мамлакатимиз ҳудудларини барқарор ривожланишини таъминлашга қаратилган инвестиция дастурлари ҳудудлардаги ижтимоий ва бозор инфратузилмасини ривожлантириш, ушбу соҳадаги мавжуд муаммоларни самарали ҳал этиш, ишлаб чиқариш инфратузилмаларини мақсадли ривожлантириш, аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш, канализация тармоқларини таъмирлаш ва қуриш, мелиорация объектларини таъмирлаш каби устувор йўналишларда¹⁶⁵ амалга оширилиб келинмоқда.

Ҳудудлар иқтисодиётига жалб этилган инвестицияларнинг ҳажми ва улардан фойдаланиш самарадорлиги кўрсаткичларига асосланган инвестицион фаоллик даражаси маълумотлари таҳлилига кўра, 2017-2021 йилларда Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри, Бухоро, Қашқадарё вилоятларининг инвестицион фаоллик даражаси бошқа ҳудудларга нисбатан юқори бўлганлиги аниқланди (1-расм).

Бугунги кунда мамлакатимиз ҳудудларига инвестицияларни жалб қилишда қуйидаги муаммолар мавжудлиги аниқланди:

– ҳудудларда ёқилғи-энергетика таъминоти инфратузилмасининг ривожланиши ҳолатидаги муаммолар;

¹⁶³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони, 28.01.2022 й. <https://lex.uz/docs/5841063>.

¹⁶⁴ Ўзбекистонга инвестиция киритиш нима учун керак? Ўзбекистон Республикаси инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги ҳузуридаги Хорижий инвестицияларни жалб этиш агентлиги <http://invest.gov.uz/uz>.

¹⁶⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг 2019 йилга мўлжалланган инвестиция дастурларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4067-сонли Қарори. 19.12.2018 й. <https://lex.uz/docs/4117465>.

- ҳудудларда юқори малакали кадрлар, жумладан, тадбиркорлик субъектларининг етарли даражадаги билим, кўникма ва малакаларга эга эмаслиги;
- банк-молия ва суғурта тизимининг тўлиқ бозор иқтисодиёти талабларига мос эмаслиги.



1-расм. Ўзбекистон ҳудудларининг инвестицион фаоллик даражаси (коэффициентлар 0-1 шкалада)¹⁶⁶.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, республикаимиз ҳудудларида амалга оширилаётган ҳудудларни барқарор ривожлантириш дастурлари бугунги кунда ўз самарасини кўрсатмоқда. Жумладан, кейинги йилларда ҳудудларни барқарор ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган давлат дастурларини ишлаб чиқиш ва уларни амалга оширилишида махсус зоналар, кластерлар, инновацион саноат тармоқлари, ақлли кишлоқ хўжалиги фаолиятини рағбатлантиришга устуворлик қаратилиши мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Бу орқали узоқ муддатли истиқболда республикаимиз ҳудудларини барқарор ривожлантириш бўйича қўзланган стратегик мақсадларга ўз муддатидан илгари эришиш имкониятлари яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони, 28.01.2022 й. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Ўзбекистонга инвестиция киритиш нима учун керак? Ўзбекистон Республикаси инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги ҳузуридаги Хорижий инвестицияларни жалб этиш агентлиги <http://invest.gov.uz/uz>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг 2019 йилга мўлжалланган инвестиция дастурларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4067-сонли Қарори. 19.12.2018 й. <https://lex.uz/docs/4117465>
4. Валиев Б.Б. Ўзбекистонда ҳудудлар иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда инвестиция салоҳиятини ошириш механизми. Иқт. фан. док. (DSc) дисс. автореф. Тошкент – 2021 й. 80 б. маълумотлари асосида тузилган

¹⁶⁶ Валиев Б.Б. Ўзбекистонда ҳудудлар иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда инвестиция салоҳиятини ошириш механизми. Иқт. фан. док. (DSc) дисс. автореф. Тошкент – 2021 й. 80 б. маълумотлари асосида тузилган.

INVESTITSION SALOHIYAT VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH KO'RSATKICHLARI

Odinayev Dilshodjon Shavkatovich

O'zbekiston Milliy universiteti,

«Alfraganus» universiteti

katta o'qituvchi (PhD)


d.odinaev@nuu.uz

Investitsiya salohiyati mamlakatning, shuningdek, uning hududlari va tarmoqlari iqtisodiy o'sishining muhim manbasi sifatida qaralib milliy boylik va yalpi ichki mahsulotga bevosita ta'sir qiladi. Milliy va jahon iqtisodiyoti uchun yangi muammolarning paydo bo'lishi maqsadli milliy rivojlanish dasturlarini hal qilishda investitsiya resurslaridan foydalanish muhimligini isbotlamoqda.

Investitsion salohiyat – barqaror iqtisodiy foydani (iqtisodiy samaradorlikni) ta'minlovchi aktivlarga (xo'jalik yurituvchi subyektning mulkiy aktivlari) qo'yilishi mumkin bo'lgan potensial moliyaviy mablag'lardir.

Investitsiya salohiyati mamlakat, hudud yoki tarmoqning investitsiyalarni o'zlashtirish va daromadlilik darajasiga farqlanadi. Investitsiyalarni o'zlashtirish va ulardan yirik investitsion qaytim olish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa investitsion salohiyat darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Chekli qaytimning kamayib borish qonuniga ko'ra o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori oshib borishi bilan investitsion qaytim kamayib boradi, shu jihatdan investitsion salohiyat investitsiyalar ortib borishi bilan investitsion qaytimni kamaytirmaslik qobiliyati sifatida ham qaraladi.



1-rasm. Ikki bo'g'inli investitsion salohiyat ko'rsatkichlari¹⁶⁷.

Ushbu ko'rsatkichlar qatorini investitsion salohiyatdan foydalanish samaradorligi bilan yanada kengaytirishi mumkin. Jumladan, investitsion salohiyatdan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida investitsiya jarayonlarining ta'sirini baholash imkonini beradi.

Investitsion salohiyatdan foydalanish darajasini ifodalovchi quyidagi ko'rsatkichlar turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– moliyaviy majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq risklarni ifodalovchi salohiyatdan foydalanish darajasi;

¹⁶⁷ Одинаев Д. Иқтисодий салоҳият тушунчаси, таркиби ва шаклланиш омиллари //Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Т. 10. – №. 3. – С. 260-266.

– mikroiktisodiy risklarni, loyihalarni boshqarish samaradorligini aks ettiruvchi salohiyatdan mikroiktisodiy foydalanish darajasi;

– makroiqtisodiy siyosat samaradorligi va multiplikatsion samarani ifodalovchi salohiyatdan makroiqtisodiy foydalanish darajasi¹⁶⁸.

Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilgan ichki va xorijiy investitsiyalar hajmining rivojlantirish dasturlarida rejalashtirilgan investitsiyalar hajmiga nisbatini jahondagi xuddi shunday nisbatga taqqoslash orqali investitsion salohiyatdan hajm bo'yicha foydalanish darajasini baholash mumkin. Ushbu ko'rsatkich mintaqadagi investitsiya jarayonlarining samaradorligini ifodalaydi.

$$S_{IHF} = (I_H/I_R) / (I_{HJ}/I_{RJ}) \quad (1)$$

bu yerda,

S_{IHF} – investitsion salohiyatdan hajmiy foydalanish samaradorligi;

I_H – mintaqaga kiritilgan haqiqiy investitsiyalar hajmi;

I_R – mintaqadagi talab qilingan investitsiyalar hajmi;

I_{HJ} – jahondagi haqiqiy investitsiyalar hajmi;

I_{RJ} – jahondagi investitsiyalarga talab hajmi.

Mintaqadagi investitsiyalar o'rtacha foyda normasining loyihaviy (rejalashtirilgan) foyda normasiga nisbatini jahondagi xuddi shunday nisbatga bo'lish orqali investitsion salohiyatdan mikroiktisodiy foydalanish samaradorligini baholash mumkin. Ushbu ko'rsatkich mintaqaviy biznes muhiti va risklarini tavsiflaydi.

$$S_{IMiF} = (FN_{O'}/FN_R) / (FN_{O'J}/FN_{RJ}) \quad (2)$$

bu yerda,

S_{IMiF} – investitsion salohiyatdan mikroiktisodiy foydalanish samaradorligi;

$FN_{O'}$ – mintaqadagi investitsiyalarning o'rtacha foyda normasi;

FN_R – mintaqadagi investitsiyalarining rejalashtirilgan foyda normasi;

$FN_{O'J}$ – jahondagi investitsiyalarning o'rtacha foyda normasi;

FN_{RJ} – jahondagi investitsiyalarning rejayviy foyda normasi.

Investitsion salohiyatdan foydalanishning makroiqtisodiy samaradorligi investitsiyalar hajmining oshishi hisobiga YaHM hajmining qanchaga o'sganligini ifodalovchi investitsiyalar multiplikatori jahondagi shunday ko'rsatkichga nisbatini aniqlash orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkich mintaqadagi investitsiya xarajatlari samaradorligini va investitsiya jarayonlarining maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

$$S_{IMaF} = M_I / M_{IJ} \quad (3)$$

bu yerda,

S_{IMiF} – investitsion salohiyatdan makroiqtisodiy foydalanish samaradorligi;

M_I – mintaqadagi investitsiya multiplikatori;

M_{IJ} – jahondagi investitsiya multiplikatori.

Investitsion salohiyatdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ushbu ko'rsatkichlar mintaqaning jahon darajasidagi ko'rsatkichlardan qanday farq qilishini va buning natijasida mintaqadagi investitsiya munosabatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.¹⁶⁹

Investitsion salohiyatdan foydalanishning tarkibiy usullari orqali mintaq salohiyatining o'zgarishini va uning boshqa mintaqalar bilan qiyosiy taqqoslash mumkin bo'ladi.

Biroq ushbu usullar mavjud investitsion salohiyatdan foydalanish samaradorligi to'g'risida aniq tahlilni bermaydi. Bunga erishish uchun investitsion jarayonlarga biznes sifatida, investitsion salohiyatga esa biznes elementi sifatida qarash lozim. Ushbu yondashuvda investitsion salohiyat va uning samaradorligini pul o'lchovida baholash nazarda tutiladi. Investitsion salohiyatga biznes jarayonlari elementi sifatida qarash ushbu salohiyatdan foydalanish samaradorligini baholashda

¹⁶⁸ Беломестнов В.Г. Управление потенциалом социально-экономических систем региона. – СПб: СПб.: РОСТ, 2005. с. 226

¹⁶⁹ Алмардонов М. И. Худудларнинг иқтисодий салоҳиятини инновацион-инвестицион бошқариш: стратегияси ва механизми //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 155-165.

biznesni baholashning an'anaviy usullaridan foydalanish imkonini beradi. Jumladan, mintaqaning investitsion salohiyatini baholashda joriy mintaqada amalga oshirilayotgan yoki amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan investitsiya loyihalarining diskontirlangan foydalarini qo'shish usulidan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Беломестнов В.Г. Управление потенциалом социально-экономических систем региона. – СПб: СПб.: РОСТ, 2005, 226 с.
2. Одинаев Д. Иқтисодий салоҳият тушунчаси, таркиби ва шаклланиш омиллари //Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Т. 10. – №. 3. – С. 260-266.
3. Алмардонов М. И. Худудларнинг иқтисодий салоҳиятини инновацион-инвестицион бошқариш: стратегияси ва механизми //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 155-165.

АЛГОРИТМЫ И МОДЕЛИ СТРУКТУРНОГО РАСПОЗНАВАНИЯ ДЛЯ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ КЛАССИФИКАЦИИ, ПРОГНОЗА И УПРАВЛЕНИЯ СЛОЖНЫМИ ПРОЦЕССАМИ

ДАЛИЕВ А.Ш.

кандидат экономических наук, доцент

Рассмотрим алгоритм и его этапы структурного распознавания, ориентированного на решение задач управления сложными процессами [1,2]. Он может быть эффективно использован в разработке инструментальных систем управления многофакторными процессами, в частности, при разработке систем оперативного контроля, прогноза и управления процессом проектирования объектов строительства.

Алгоритм классификации и идентификации признаков, а также решение сложных систем состоит в следующем [3]:

1. С помощью вычислительных процедур (по числу голосов) определяется информационная важность каждого признака из допустимой таблицы;
2. Выбираются n важных признаков, проранжированных для степени важности на основе анализа векторов R_1, R_2 из всего признакового пространства. Далее, с учетом наиболее важных из групп признаков, посредством операций и правил $Q^j = \{Q^{u,j} \dots Q^{u,j}\}$ строится глобальный порождающий базис (ГПБ).

Каждый класс упорядочивается по значению элементов, вычисленным для каждого объекта класса, результатом которого является таблица наборов оптимальных управлений T_{mnl} .

Для более конкретного определения области наборов управления, на основе анализа T_{mnl} строится локальный порождающий базис (ЛПБ)

$$B^{u,j} = \{B^{u,j} \dots B^{u,j}\}$$

с помощью правил

$$Q^j = \{Q^{u,j} \dots Q^{u,j}\}$$

3. Таблица переводится в структурный вид с использованием ГПБ, ЛПБ и правил Q^j . При этом каждый объект таблицы записывается в виде формулы

$$\{\Phi^j\} = \{B \rightarrow \sum B^{u,j}\}$$
$$c = \{i_1, \dots, i_\tau\},$$

где j - номер класса;

u, c - номера элементов ГПБ и ЛПБ соответственно;

τ - номер формулы.

Таким образом, T_{mnl} переводится в обобщенную таблицу T .

4. Определяется функция близости двух допустимых объектов S_i и S_τ .

$$\rho'(S, S_\tau) = \rho'(B^j(B^i)\tau) = \begin{cases} 1, & \text{если } (B^i)\tau, \\ 0, & \text{в противном случае;} \end{cases}$$

$$\rho'(S, S_\tau) = \rho'(B^{u,j}(B^{u,i})\tau) = \begin{cases} 1, & \text{если } \begin{cases} \rho'(S, S_1) = 1, \\ B^{u,i} = (B^{u,j}) \end{cases} \\ 0, & \text{в противном случае.} \end{cases}$$

где τ – номер описания Φ в таблице T_{mnl} ;

u, c – номера элементов ГПБ и ЛПБ соответственно;

j – номер класса.

Вычисляется значение оценки, поданной S_1 допустимым объектом j - класса (Φ формулой) за допустимый объект S :

$$r^j(S) = W r^j(S(B^n)),$$

где S – вес n -элемента ЛПБ в j -классе и имеющего элемент ГПБ;

W – важность τ -формулы (описания);

h – мощность множества $\{i_1, \dots, i_n\}$

6. Вычисляется число голосов, поданных за класс, допустимый объектом S :

$$\Gamma'(S) = \max \{\Gamma'(S), \dots, \Gamma(S), \Gamma(S)\},$$

где j – номер класса;

τ – номер описания Φ в таблице Γ ;

τ' – число описаний в классе.

Таким образом, для множества допустимых объектов алгоритм на данном этапе строит числовую матрицу оптимальных управлений:

$$\Gamma^j(S) = \|\Gamma_{ij}\|_{q,1} = \{d_{ij}\}_{q,1}$$

7. Строится информационная матрица с помощью следующего решающего правила алгоритма A^* :

$$R(\{\Gamma_{ij}\}_{q,1}) = \{\beta_{ij}\}_{q,1}.$$

Указанная матрица представляет собой информацию о вхождении $S^1, \dots, S^q$ в классы $K_1, K_2, \dots, K_l$, где символами 1, 0, Δ кодируются соответственно, $S^j \in K_j$, $S^j \notin K_j$ и неизвестно, принадлежит ли S классу K или нет.

Примем решающее правило в следующем виде:

$$\beta_{ij} = \begin{cases} 1, & \text{если } \Gamma_{ij} - \Gamma_m > \delta, u \neq j, \zeta \in K_j; \\ 0, & \text{если } \Gamma_{ij} - \Gamma_m < \delta, u \neq j, \zeta \in K_j; \\ \Delta, & \text{если } \Gamma_{ij} - \Gamma_m \neq \delta, u \neq j, \text{неизвестно } \zeta \in K_j \text{ или нет} \end{cases}$$

В результате сопоставления данных, элементы $\|\beta_{ij}\|_{q,1}$ будут отражать решения задачи Z' .

8. В таблице T^* находится набор оптимальных управлений $\{d_{ij}\}$, соответствующий набору ζ^* , по степени адекватности набору, проголосовавшему за ζ , в классе оптимальных режимов.

Для алгоритма структурного распознавания и управления справедлив следующий вид модели:

$$A(\mu_1, \mu_2, \dots, \mu_n, k(j), m_j, \delta_1, \delta_2, I_j),$$

где n – число параметров таблицы обучения;

$\mu_1, \mu_2, \dots, \mu_n$ – информационная важность параметров;

$k(j), m_j$ – число элементов ГПБ и ЛПБ соответственно в j -классе;

δ_1, δ_2 – пороги решающего правила;

t_j – число управляющих наборов в таблице управления.

На основе синтеза корректных операторов распознавания, анализа устойчивости модели, выработана методика и разработана автоматизированная советующая система прогноза и оптимального управления процессом проектирования объектов жилищного строительства.

Список использованной литературы

1. Рустамов Н.Т., Маллаев Л.Н. Структурный метод распознавания, основанный на принципе вычисления оценок. // Вопросы кибернетики. Вып. 133. Т.: 1986. с. 68-72.
2. Рахимов Б. Х., Далиев А.Ш. Комплекс прикладных программ оптимизации жилой застройки микрорайонов. //Тезисы докладов международной научно-практической конференции "Проблемные вопросы механики и машиностроения". Т.:1993. с. 220.
3. Джумабаев Х.Р. Нефедов Л.И. Далиев А.Ш. Мардиев Н. Математическое и программное обеспечение САПР жилой застройки. Ташкент: Фан. 1992. 256 с.

IQTISODIY O‘SISH SURATLARINI TA’MINLASHNING KONSEPTUAL JIHATLARI VA ASOSIY YO‘NALISHALARI

Abdullayev Abror Bozorbayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi, PhD

Mamatov Mirzohid Maxmudovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Isroilov Isroil Ixtiyor o‘g‘li

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi

Bugungi o‘zaro bog‘liq dunyoda iqtisodiy o‘shni idrok etish siyosatni shakllantirishda, investitsiyalarni jalb qilishda va rivojlanishni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mamlakat iqtisodiyotining obro‘si uning global mavqeiga, investorlarning ishonchiga va ijtimoiy barqarorlikka sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq, iqtisodiy taraqqiyotning ijobiy va aniq tasvirini ta‘minlash uning konseptual asoslarini va uni samarali yetkazish uchun qo‘llaniladigan turli strategiyalarni nozik tushunishni talab qiladi. Ushbu maqola iqtisodiy o‘sh tasvirlarini ta‘minlash, siyosatchilar, iqtisodchilar va manfaatdor tomonlar uchun tushuncha berish bilan bog‘liq konseptual jihatlar va asosiy yo‘nalishlarni o‘rganishga qaratilgan.

Ko‘plab ilmiy ishlarda idrok va iqtisodiy o‘sh o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilib, iqtisodiy rivoyatlarni shakllantirishda jamoatchilik fikri, ommaviy axborot vositalarini tasvirlash va siyosiy nutqning ahamiyati ta‘kidlangan. [Insert reference] kabi tadqiqotlar iste‘molchilarning xatti-harakatlariga, investitsiya qarorlariga va umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘sir qilishda idrokning rolini ta‘kidladi. Bundan tashqari, [insert reference] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar aloqa strategiyalari va hukumat siyosatining iqtisodiy rivojlanish haqidagi jamoatchilik tasavvurlarini shakllantirishga ta‘sirini ta‘kidladi.

Iqtisodiy o‘sh tasvirlarini ta‘minlashda qo‘llaniladigan usullarni tahlil qilish uchun ushbu tadqiqot akademik tadqiqotlar, siyosiy hujjatlar va ommaviy axborot manbalarini o‘z ichiga olgan mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko‘rib chiqadi. Bundan tashqari, turli xil sharoitlarda iqtisodiy taraqqiyotni tasvirlash bilan bog‘liq amaliy tadqiqotlar va empirik dalillarni o‘rganish uchun sifatli tahlil usullaridan foydalaniladi. Iqtisodiyot, aloqa va davlat siyosati bo‘yicha mutaxassislar bilan suhbatlar iqtisodiy o‘sh haqidagi tasavvurlarni shakllantirish uchun hukumatlar, korxonalar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan qo‘llaniladigan strategiyalar haqida qo‘shimcha ma‘lumot beradi.

Iqtisodiy o‘sh tasvirlarini ta‘minlash iqtisodiy taraqqiyotni ijobiy idrok etish va qo‘llab-quvvatlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan bir necha konseptual jihatlar va asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bu yerda e‘tiborga olish kerak bo‘lgan ba‘zi asosiy fikrlar:

Ma‘lumotlarning aniqligi va shaffofligi: iqtisodiy o‘sh tasvirlari aniq va shaffof ma‘lumotlarga asoslangan bo‘lishi kerak. Bunga YAIM o‘shisi, bandlik darajasi, inflatsiya va boshqa asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishonchli statistika kiradi. Ma‘lumotlarni yig‘ish va hisobot berishda shaffoflik manfaatdor tomonlar o‘rtasida ishonchni kuchaytiradi.

Ma'lumotlarning aniqligi va shaffofligi iqtisodiy o'sish to'g'risida ishonchli tushunchani yaratish uchun juda muhimdir. YAIM o'sishi, bandlik darajasi, inflatsiya va boshqa muhim ko'rsatkichlar bo'yicha ishonchli statistika siyosatchilar, korxonalar va jismoniy shaxslar tomonidan qarorlar qabul qilish uchun asos yaratadi.

Ma'lumotlarni yig'ish va hisobot berishda shaffoflik manfaatdor tomonlarning taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ishonchini ta'minlaydi. Bu metodologiyalarni, manbalarni va ma'lumotlardagi har qanday mumkin bo'lgan cheklovlar yoki noaniqliklarni ochiq almashishni o'z ichiga olishi mumkin. Manfaatdor tomonlar ma'lumotlarning qanday to'planishi va tahlil qilinishini tushunganlarida, uning ishonchliligi va qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog'liqligini yaxshiroq baholashlari mumkin.

Bundan tashqari, shaffof hisobot siyosiy yoki shaxsiy kun tartibi uchun ma'lumotlarning manipulatsiyasi yoki buzilishining oldini olishga yordam beradi. Ma'lumotlar yig'uvchilar va muxbirlarni aniqlik hamda yaxlitlik uchun javobgarlikka tortish orqali biz iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash va siyosat qarorlarini boshqarish uchun foydalaniladigan ma'lumotlarga ishonchni saqlab qolishimiz mumkin.

Aloqa va xabarlar: iqtisodiy o'sishni samarali muloqot qilish juda muhimdir. Bunga farovonlikning oshishi, ish o'rinlarini yaratish va turmush darajasining yaxshilanishi kabi o'sishning afzalliklarini ta'kidlaydigan aniq va ishonarli xabarlarni tayyorlash kiradi. Xabarlar turli xil auditoriyalar, jumladan siyosatchilar, investorlar, korxonalar va keng jamoatchilik bilan rezonanslashishi kerak.

Tarmoq tahlili: iqtisodiy o'sish ko'pincha iqtisodiyotning turli sohalarida notekis bo'ladi. O'sishning ijobiy tasvirlarini ta'minlash umumiy iqtisodiy kengayishni boshqaradigan tarmoqlarni tahlil qilish va ta'kidlashni talab qiladi. Bunga texnologiya, ishlab chiqarish, moliya va xizmatlar kabi sohalar kirishi mumkin.

Mintaqaviy rivojlanish: iqtisodiy o'sish nafaqat milliy darajada, balki mintaqaviy yoki mahalliy darajada ham o'lchanishi kerak. Mintaqaviy rivojlanish tashabbuslari, investitsiya imkoniyatlari va muvaffaqiyat hikoyalarini ta'kidlash iqtisodiy taraqqiyotning yanada inklyuziv imijini ta'minlashga shahar va qishloq joylari o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishga yordam beradi.

Barqarorlik va barqarorlik: iqtisodiy o'sish tasvirlari uzoq muddatli barqarorlik va barqarorlikni hisobga olishi kerak. Barqaror rivojlanish amaliyotini, ekologik boshqaruvni va iqtisodiy zarbalarga chidamliligini ta'kidlash vaqt o'tishi bilan o'sish haqidagi ijobiy tasavvurlarni saqlab qolishga yordam beradi.

Inklyuzivlik va tenglik: iqtisodiy o'sishning afzalliklari jamiyatning barcha qatlamlari o'rtasida teng taqsimlanishini ta'minlash juda muhimdir. O'sish tasvirlari tengsizlikni kamaytirish, ijtimoiy inklyuziyani targ'ib qilish va daromad, ta'lim hamda imkoniyatlardan foydalanishdagi farqlarni bartaraf etish bo'yicha harakatlarni aks ettirishi kerak.

Global kontekst: globallashtirilgan dunyoda iqtisodiy o'sish tobora o'zaro bog'liq. O'sish tasvirlarida xalqaro savdo, investitsiyalar va hamkorlik, shuningdek, global tendensiyalar va voqealarning mahalliy iqtisodiyotga ta'siri ko'rib chiqilishi kerak.

Siyosat asoslari: iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun qo'llab-quvvatlovchi siyosat asoslari zarur. O'sish tasvirlari innovatsiyalar, tadbirkorlik, infratuzilmani rivojlantirish va qulay ishbilarmonlik muhitini targ'ib qiluvchi hukumat siyosati va tashabbuslarini ta'kidlashi kerak.

Ushbu konseptual jihatlarni ko'rib chiqish va asosiy sohalarga e'tibor qaratish orqali manfaatdor tomonlar butun jamiyatga foyda keltiradigan iqtisodiy o'sishning ijobiy va barqaror tasvirlarini ta'minlash ustida ishlashlari mumkin.

Tahlil iqtisodiy o'sish tasvirlarini ta'minlash uchun ishlatiladigan bir necha asosiy usullarni ochib beradi, jumladan:

Strategik aloqa: hukumatlar va tashkilotlar ijobiy iqtisodiy ma'lumotlarni tarqatish, yutuqlarni ta'kidlash va jamoatchilik umidlarini boshqarish uchun aloqa strategiyalaridan foydalanadilar.

Media menejmenti: ommaviy axborot vositalari bilan aloqa qilish, matbuotda yoritishni boshqarish va iqtisodiy rivojlanish atrofidagi voqealarni boshqarish uchun ijtimoiy media platformalaridan foydalanish.

Investitsiyalarni rag'batlantirish: mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun investitsiya imkoniyatlari, infratuzilma loyihalari va iqtisodiy rag'batlarni namoyish etish.

Ta'lim va xabardorlik: moliyaviy savodxonlikni oshirish, iqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risida aniq ma'lumot berish va iqtisodiy tamoyillar to'g'risida jamoatchilik tushunchasini oshirish.

Siyosatni muvofiqlashtirish: hukumat harakatlarida izchillik va ishonchlilikni ta'minlash uchun iqtisodiy siyosatni jamoatchilik tasavvurlari va ustuvorliklari bilan moslashtirish.

Natijalar iqtisodiy o'sish tasvirlarini shakllantirishda idrok va haqiqat o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydi. Strategik aloqa va ommaviy axborot vositalarini boshqarish jamoatchilik fikriga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa-da, ushbu harakatlarning samaradorligi shaffoflik, ishonchlilik va ijtimoiy-siyosiy kontekst kabi omillarga bog'liq. Bundan tashqari, raqamli ommaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalarining iqtisodiy rivojatlarni shakllantirishdagi roli in'ikoslarni samarali boshqarishga intilayotgan siyosatchilar uchun ham imkoniyat, ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy o'sish tasvirlarini ta'minlash strategik aloqa, ommaviy axborot vositalarini boshqarish, investitsiyalarni rag'batlantirish, ta'lim va siyosatni muvofiqlashtirishni birlashtirgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Iqtisodiy tasavvurlarni shakllantirishning konseptual jihatlar va asosiy yo'nalishlarini tushunib, siyosatchilar va manfaatdor tomonlar iqtisodiy taraqqiyotning ijobiy va aniq tasvirini rivojlantirishga harakat qilishlari mumkin. Biroq, ushbu maqsadga erishish shaffoflik, yaxlitlik va butun dunyo bo'ylab jamoalar oldida turgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish majburiyatini talab qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra siyosatchilar va manfaatdor tomonlar uchun quyidagi takliflar taklif etiladi:

- ishonch va ishonchni mustahkamlash uchun iqtisodiy hisobotlarda shaffoflik va hisobdorlikni oshirish;

- iqtisodiy tushunchalar va ko'rsatkichlar to'g'risida jamoatchilik tushunchasini yaxshilash uchun moliyaviy ta'lim dasturlariga mablag sarflang;

- iqtisodiy o'zgarishlarni muvozanatli va aniq tasvirlashni ta'minlash uchun hukumat, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muloqot hamda hamkorlikni rivojlantirish;

- raqamli ommaviy axborot vositalari va texnologiya platformalaridan turli auditoriya bilan muloqot qilish va ijobiy iqtisodiy xabarlarini kuchaytirish uchun foydalaning;

- aloqa strategiyasi va siyosatini mos ravishda moslashtirish uchun iqtisodiy o'sish haqidagi jamoatchilik tasavvurlarini doimiy ravishda kuzatib boring va baholang.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali siyosatchilar va manfaatdor tomonlar jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyotning yanada ma'lumotli, moslashuvchan va inklyuziv hikoyasini rivojlantirishga hissa qo'shishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jo'rayev T., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya»nashr, 2018.
2. .B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. 2017 y.
3. Bayzakova D. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma. – J.: JizPI, 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari
5. Maxmudov N.M, Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010.
6. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya – soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2003.
7. N.G.Karimov va R.X. Xojimatov.: Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish". Darslik.-TDIU, 2011.
8. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X.,Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.:«Moliya», 2010.


O‘ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARI VA ULARNING NAZARIY ASOSLARI

Aytbaeva Gulzada Kuanishbaevna,
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti,
gulzadaaytbaeva2@gmail.com

Davlat-xususiy sheriklik - davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o‘z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi. So‘nggi 30-40 yil ichida jahon iqtisodiyotida texnologik taraqqiyot va korxonalarni boshqarishdagi tashkiliy o‘zgarishlar sezilarli darajada o‘zgardi. Bugungi kunda mamlakatimizda ham davlat-xususiy sheriklik (DXSh) masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada maxsus qonun, Prezidentimizning farmon va qarorlari qabul qilindi. Bular jumlasiga: O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-537-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20-oktyabrdagi “Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3980-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 13-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 1009-son qarori, 2020-yil 26-apreldagi “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-iyundagi “Davlat-xususiy sheriklik asosida hududlarda zamonaviy issiqxona xo‘jaliklarini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari qabul qilindi. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni hamda mazkur sohalarga tegishli boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlar kiradi. DXSh faoliyatidan keng foydalanish bo‘yicha mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarining bir qator olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan bo‘lib, jumladan: K.A.Antonova, Ye.V.Gorchakova, P.Snelson, Ye.Korovin, M.Pazdnikov, V.G.Varnavskiy, A.V.Klimenko, V.A.Korolevlar tomonidan o‘rganilib chiqilgan. [1,2,3]. Ko‘plab ilmiy adabiyotlarda olimlarning DXShni tashkil etish masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlari keltirilgan. Xususan, iqtisodchi olim K.A.Antonova “Davlat-xususiy sherikchiligi Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining omili sifatida” nomli asarida DXShni – davlat va biznes o‘rtasida davlat boshqaruvi idoralari va xususiy tuzilmalar orasida shartnoma asosida amalga oshiriluvchi institutsional tashkiliy ittifoq deb ataydi [1].

Buyuk olim E.V.Gorchakova esa “DXSh – bu, davlat idoralari va xususiy biznesning ittifoqi, uning maqsadi – iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan tortib butun mamlakat yoki uning alohida hududlari bo‘ylab xizmatlar ko‘rsatishgacha ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni yaratish va rivojlantirish”, deb qayd etadi [2]. P.Snelson esa “DXSh – bu, korxona faoliyatini amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan xatar va foydalarni baham ko‘rish maqsadida davlat va xususiy sektor o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar” deb tushuntirib o‘tadi [3]. Bu borada, mamlakatimiz tadqiqotchilaridan U.I.Djumaniyazov “Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariy uslubiy masalalari”ga bag‘ishlangan maqolasida “DXSh – amaldagi qonunlar doirasida davlatning uzoq muddatli strategik vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa tavakkalchiliklar, xavf-xatarlar, risklarni taqsimlash asosida xususiy sektor bilan aholi uchun o‘ta ijtimoiy-iqtisodiy, kerak bo‘lsa, siyosiy ahamiyatga molik ob‘ektlarni qurish yoki shu asnodagi ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish uchun xususiy sektor bilan amalga oshiradigan tom ma‘nodagi o‘zaro manfaatli aloqalaridir” deb ta’rif beradi. [4]. Jamiyatning rivojlanishi uchun quyidagi subyektning (davlat, mulkdor va tadbirkorlar) imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida DXSh tashkil qilinishi, mamlakatimizning bugungi taraqqiyot bosqichida

obyektiv zaruriyatga aylandi. Buni inobatga olib mamlakatimizda mazkur masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-mayda imzolangan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" O'RQ-537-sonli Qonuni qabul qilindi DXSh ishtirokchilari ham qonun doirasida faoliyat ko'rsatish uchun, belgilangan tartibda birlashadi. Yuqoridagilarning o'zaro bog'liqligi quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik ishtirokchilari.

Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu subyektlarning birlashishida alohida manfaatdorlik mavjud. Bu yerda o'z-o'zidan, ushbu DXShdan kimlar manfaatdor? degan savol tug'iladi. Bu boradagi o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, davlat va xususiy sheriklikdan faqat xususiy mulkdorlar (investorlar va tadbirkorlar) emas, balki davlat ham, aholi ham manfaatdor hisoblanadi. Ya'ni investorlar o'zlarining mablag'larini investitsiya qilib, tegishli foyda olishga erishsa, tadbirkorlar o'zlarining tadbirkorlik faoliyati evaziga foyda oladilar. Mamlakatning manfaatdorligi, bevosita aholi manfaatdorligi bilan qo'shib ketadi. Birinchidan, yangi ish joylari yaratilib, bandlik masalasida yangi ish o'rinlarining ochilishi ro'y beradi, ikkinchidan, bularning daromadlari evaziga davlat budjetiga soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushishi ortadi. Uchinchidan, bevosita ishsizlarning ish o'rinlariga ega bo'lishi evaziga jamiyatimizda kambag'allik qisqaradi va aholining farovonligini oshirishning yangi imkoniyatlari yaratiladi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari oldida jadal o'sib borayotgan urbanizatsiya sharoitida aholi ehtiyojlarini qondirish, eskirgan infratuzilmani qayta tiklash va kengaytirish, aholi soniga mos ravishda kommunal xo'jalik tarmoqlarni kengaytirish zaruriyati turibdi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va infratuzilma xizmatlarini ko'rsatish ko'pgina hollarda subsidiyalar hisobiga qoplanadi va ma'lum bir budjet taqchilliklarini keltirib chiqaradi. Hozirda dunyoda biznes va ilmiy institutlarning ilmiy amaliy sohada ko'pchilik uzoq muddatli hamkorlik shakllari hamkorlikda tadqiqot o'tkazishga qaratilgan qo'shma davlat-xususiy ilmiy-tadqiqot markazlarini yaratish orqali DXSh prinsiplarida faoliyat ko'rsatadi.

DXShga tadbirkorlik hamjamiyati va davlat tomonidan munosabat bir xil emas. Xususiy sektorning DXShlarda ishtirok etishdan maqsad, ularning biznesni boshqarishdagi qobiliyatlari va ilg'or tajribasidan samarali foydalanishdir. Xususiy sektor albatta, o'zi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'yilgan kapitaldan muayyan daromad olishga intiladi va bu orqali mulkdan samarali foydalanishga harakat qiladi. DXSh mohiyatini ochib berishda uning umumiy xarakterdagi sherikliklardan alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq. DXShda davlat sektorini asosan tartibga solish va nazorat qilish uchun mas'ul bo'lsa, xususiy sherikni investitsiyalar uchun yangi obyektlardan manfaatdorlik qiziqtiradi. DXSh muhim, strategik ahamiyatga ega davlat mulkini xususiylashtirishga muqobil bir varianlardan hisoblanadi. An'anaviy davlat xaridlarini amalga oshirish uchun shartnomalar bilan solishtirganda, DXSh shartnomalari ko'proq xavf va mas'uliyatni xususiy sherikka yuklaydi. Davlat yakuniy mahsulot va uning texnik parametrlarini belgilaydi, uni ishlab chiqarish mas'uliyatini xususiy sherikka qoldiradi. DXSh va xususiylashtirish tushunchalari o'rtasida quyidagicha aniq farqlar mavjud. davlat xususiy sheriklik loyihalarni amalga oshirish jarayonida bevosita ssenariylar tahlilini qilish, loyihani ijro etish bosqichida kutilayotgan daromadlilik va xarajatlarning real qiymatlari loyiha samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsata olishini baholash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu bilan

birgalikda, xususiy investor loyiha xarajatlarini to'g'ri baholay olsa va prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha ko'zlangan daromadga ega bo'lsagina davlat-xususiy sherikligi loyihasi mamlakat infrastrukturasi rivojlantirishga hamda xususiy investorning ko'zlangan asosiy maqsadiga erishilishiga olib keladi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyaviy samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqildi: Birinchidan, Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarini sof joriy qiymatini ta'sir oraliqlarini hisobga olgan holda belgilash lozim va bu orqali davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarini ishonchliligi va samaradorlik doirasini belgilab olishga xizmat qiladi; Ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy investor uchun minimal daromadlilikni kafolatlash maqsadga muvofiqdir, chunki, minimal kutilayotgan daromadlilikni belgilash loyihalarning amalga oshirilishida albatta xususiy investor uchun turtki bo'lib xizmat qiladi. Zero, loyihada ishtirok etish orqali hech bo'lmaganda ma'lum darajada daromadga erishishni oldindan ko'ra biladi. Uchinchidan, loyihaning sof joriy qiymatlarini turli xil ssenariylar asosida tahlil qilish va kutilayotgan sof joriy qiymatning o'zgarish darajasini belgilash va kutilayotgan daromadlilik darajalarini prognozlash, shu asosda xususiy investor uchun moliyaviy risklar darajasini kamayishiga olib keladi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va (yoki) ilg'or boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui. Dunyo mamlakatlarida mavjud davlat va xususiy sheriklik munosabatlarining mazmun mohiyati, xususiyatlari, tamoyillari, rivojlanish tarixi, huquqiy asoslarini o'rganish va uni mamlakatimizda rivojlantirish oldimizga qo'yilgan vazifalardan biridir. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining mamlakatimizda kundan-kunga rivojlanib borayotganligi bu sohada qilinayotgan ilmiy tadqiqotlarimizni dolzarbligini ifodalaydi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi – davlat sherigi va (yoki) xususiy tashabbuskor tomonidan tayyorlangan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun tanlovni asoslab beradigan, loyihaning qiymatini, loyihani moliyalashtirish manbaini hamda rentabelligini belgilaydigan, uni amalga oshirishning samaradorligi va dolzarbligi asoslarini o'z ichiga olgan hujjat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кабашкин В.А. Государственно-частное партнерство в регионах Российской Федерации: учебное пособие / Кабашкин В. А. - М.: Дело, 2010. С.120.
2. Горчакова Е.В. Государственно-частное партнерство – новая парадигма России, Вестник СамГУ, 2011 №1/1 (82).
3. Снельсон П. Государственно-частные партнерства в странах с переходной экономикой. URL: <http://www.ebrd.com>.
4. Джуманиязов Умрбек Ильхамович, “Давлат-хусусий шерикчилиги асосида корпоратив бошқарувни ривожлантиришнинг айрим назарий услубий масалалари”, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. 2017 йил № 3, май июнь, 9-бет.
5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-mayda imzolangan “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida” O'RQ-537-sonli Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 3 mayda ma'qullangan. – 3-modda.
6. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-mayda imzolangan “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida” O'RQ-537-sonli Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 3-mayda ma'qullangan. 4-modda.

EFFECTIVENESS OF ECONOMIC SANCTIONS

Weutscheck, Christian Alexander M.A.,

PhD in Development Studies University of Lisbon, Portugal

The effectiveness of sanctions is a very controversial point in the literature. Many researchers tend to believe that sanctions do not have any effect in changing the targets behaviour. Others say that they are in around 30% of the cases successful. These are the recent approaches to this topic.

The study by Jon Hovi, Robert Huseby and Detlef F. Sprinz used a Game Theory approach to measure the effectiveness of sanctions. “There are two players, Target and Sender. Target has a desire to violate an international norm that Sender wants it to respect. Before the game begins, Sender threatens to impose sanctions if Target violates the norm. Target makes the first move in the game and must decide whether to violate the norm or not. Sender is able to observe Target’s move (see Figure 1). If Target does not violate the norm, then Sender has no choice to make, and the game ends. If Target violates the norm, Sender must choose between three options—imposing “potent” sanctions, imposing “lenient” sanctions, or “doing nothing,” that is, not imposing any sanctions. There are two reasons why we consider *three* options for Sender in this situation.




Figure 1 Game Theory Model of Sanctions (Hovi, Huseby, & Sprinz, 2005, p. 491)

First, this makes it possible to consider the credibility of the threat of sanctions and the potency of sanctions within the framework of a single model and enables us to analyse how these two issues interact in determining the outcome of disputes involving sanctions. Second, it permits us to model the idea that Target might violate an international norm and yet reconsider when it learns the true costs of sanctions. For this to occur, we assume (1) that Target is able to observe Sender’s move, and (2) that Target is prepared to stand firm if Sender imposes “lenient” sanctions but prefers to yield if Sender imposes “potent” sanctions.”

The model was tested in two versions. One with complete information and one with incomplete information. It concluded (Hovi, Huseby, & Sprinz, 2005, p. 497) that imposed sanctions cannot work with complete information. They can work only if the target has incomplete information, and some more requirements must be given. Therefore “two conditions must be fulfilled. First, the target initially must miscalculate the sender’s determination to implement sanctions, underestimate

the impact of sanctions, or wrongly believe that sanctions will be imposed and maintained even if it yields. Second, the target's misperception of these factors must be corrected only after sanctions are imposed.” (Hovi, Huseby, & Sprinz, 2005, p. 499)

2. Target Regime Type Approach to the Effectiveness of Sanctions

The study undertaken by Dursun Peksen (Peksen, 2017) focused on the target regimes to measure the effectiveness of sanctions. It classifies the targets of the sanctions in four categories: democracy, personalist dictatorship, single-party regime, and military regime. It used an economic dataset and combined it with a dataset for political regimes.

The outcome (Peksen, 2017, p. 10) of this study is, that sanctions are effective against democracies and personalist dictatorships and that they are not effective against single-party regimes and military regimes. As seen in the figure (Peksen, 2017, p. 10) sanctions are most effective in democracies, followed by personalist regimes. They are not effective in single-party regimes and least effective in military regimes.




Figure 2 Success of sanctions in relation of the type of the targeted government. (Peksen, 2017, p. 10)

The conclusion from this study is, that “personalist dictatorships might be more prone to acquiescence as they tend to heavily rely on external rents and aid, and lack strong institutional capacity to defy sanctions. The findings from the selection-corrected models confirmed the hypotheses that sanctions levied against military and single-party regimes are unlikely to induce policy change relative to democratic target regimes. The results thus reveal that sanctions against democracies might work better than those targeting single-party and military regimes, but also show that sanctions might be equally effective against both democratic regimes and personalist dictatorships.” (Peksen, 2017, p. 12)

2.1. The Effects of Sanctions on Military Regimes and Single-Party Regimes

Some studies suggest that sanctions imposed on military regimes and single-party regimes are not only not effective, but rather counterproductive. Sanctions can be used by these kinds of regimes to strengthen her grip on power.

A study (Escribà-Folch & Wright, 2010, p. 344) made by Abel Escribà-Folch and Joseph Wright analyses that military regimes are outstanding: “... military regimes are the most ‘repression-intensive’ of all regime types. Their coercive capacity makes them better-equipped to deal with potential sudden increases in opposition due to international coercion and poor economic

performance.” (Escribà-Folch & Wright, 2010, p. 344) “... single-party and military regimes conform to the expectation that dictators under sanctions should increase both cooptation and repression. [...] Evidence from descriptive data suggests that rulers in these regimes are unlikely to be destabilized by sanctions because they can adequately compensate for any sanction - induced political costs by diverting resources to repression and further cooptation. If these regimes can still collect revenue from alternative sources increase expenditures and repression, the imposition of sanctions may be ineffective in de-stabilizing these dictators.” (Escribà-Folch & Wright, 2010, p. 345) Their analysis concludes: “Sanctions have almost no effect on the stability of single-party leaders. Military dictators, however, are less likely to exit (particularly an irregular exit) when under sanctions, though this difference is not statistically different from 0. Increased cooptation may allow military rulers to reduce the risk of elite splits that might be conducive to a peaceful transfer of power to civilians, and military rulers' relatively high capacity for repression may reduce the likelihood of irregular exit.” (Escribà-Folch & Wright, 2010, p. 353) Their explanation they found is the following: “In contrast, single-party and military regimes are able to increase their revenues even when targeted by sanctions, by shifting fiscal pressure from one to an alternative one (specifically, taxes on goods and services). This allows to maintain cooptation while they increase repression to thwart the domestic opposition that reduced economic performance and international support generate. Single-party regimes typically have strong parties and credible institutions which make cooptation more feasible, while military rulers can most effectively use repression. Departing from these facts, we hypothesized that sanctions would be effective in destabilizing personalist dictators but would have no effect or possibly be counterproductive in single-party and military dictatorships.” (Escribà-Folch & Wright, 2010, p. 355)

It was also research done if economic sanctions can stop genocides. Therefore, different models were compiled with STATA. The result was that economic sanctions do not aggravate the severity of atrocities, nor does it alleviate them. The only effect observed was, that it could be effective in mitigate the mass murder. (Krain, 2017, p. 103)

Economic sanctions work only in an open society, where they can create domestic costs for the political leader. In an autocratic society they usually cannot create domestic political costs and therefore they fail. In this case, targeted sanctions, that directly target the assets of the political leaders are more effective. (Allen, 2008, p. 939)

3. Definitions of Success of Sanctions

There are different definitions of success of sanctions. Success can be defined as the favourable or desired outcome of sanctions, but this suggests that costs are an important part of the concept of sanctions. (Baldwin, 1999, p. 87) “Winning a nuclear war by destroying life as we know it, imposing economic sanctions that secure the compliance of the target state only by bankrupting the sender, and amputating one's leg to remove a wart from one's toe are unlikely to be described as instances of success.” (Baldwin, 1999, p. 87) Although costs are an important factor of success, the literature often defines success only in the effectiveness in attaining goals. The costs to the sender are sometimes considered but mostly ignored for defining success. (Baldwin, 1999, p. 87) If effectiveness is everything, then costs are not part of the concept of success and policymakers should be suspicious for any concept, that does not include costs. (Baldwin, 1999, p. 89) In estimating the success of economic sanctions effectiveness is only one of several dimensions to be considered. The definition of success of sanctions should therefore include as many dimensions as possible. “... the accomplishment of a technique of statecraft is more impressive the greater the effectiveness, the lower the costs for the user, the higher the costs of noncompliance for the target, the higher the stakes, and the more difficult the undertaking.” (Baldwin, 1999, pp. 90-91) According to these definitions of sanction's success a definition for a successful sanction could be a sanction that changed the targets behaviour in the favour to that of the sender, while the sender has only a low price to pay for it, with limited costs for him.

In the case of Iran, the aim of the sanctions is to stop Iran's nuclear enrichment program and missile program. Both aims have failed so far. (Esfandiary & Fitzpatrick, 2011, p. 146) Another

conclusion is that the sanctions against Iran's nuclear program have a signalling effect against other countries and prevent them in trying to get access to WMDs. The sanctions are also important for the credibility of the Non-Proliferation Treaty (NPT). (Giumelli & Ivan, 2013, p. 15)

4. Benefits of Sanctions for the Sender Country

If sanctions mostly fail their political aim in the target country, why are they still so frequently used? The answer could be, that they are beneficial for the policymaker in the sender country.

The study conducted by Taehee Whang (Whang, 2011) analysed the effect of sanctions on the public support of the US presidents. If sanctions do not serve in changing the target's countries behaviour, they have at least expressive functions. The study is built on the thesis, that if the domestic political benefit of a sanction is large enough, it can offset the costs of sanctions. He tested the hypothesis: "A domestic audience benefit exists in sanctioning. The popularity of the sender's leader increases as the unacceptable policy of the target state is responded to by the imposition of economic sanctions." (Whang, 2011, p. 791) The study used to empirical models to test the hypothesis. On average the presidential popularity increased by 1.203% after the initiation of sanctions. The initiation of sanctions tends to improve future public opinion regarding the incumbent leader's performance. On the average, his approval ratings increased by 3.301% in the following months. Taken all other variables into account, this shifts the approval rating to 5.335%. This domestic political gain encourages political leaders to engage in sanctions, even if they are ineffective in the target country. (Whang, 2011, pp. 796-798)

5. Conclusion

Sanctions are mostly used against autocratic states, like one party systems and military dictatorships, but especially at those type of target countries they fail to succeed. The question if sanctions are political effective need therefore to be neglected. Their result is political failure.

On the sender side, the sanctions are different. The sanctions are beneficial for the political leader in gaining public support. Even if the sanctions are useless in the target country, they can help the political leader of the sender country to stay in power.

Bibliography

1. Allen, S. H. (2008). The Domestic Political Costs of Economic Sanctions. *The Journal of Conflict Resolution*, Dec., 2008, Vol. 52, No. 6, 916-944. Retrieved from <https://www.jstor.org/stable/27638645>
2. Baldwin, D. A. (1999). The Sanctions Debate and the Logic of Choice. *International Security*, Vol. 24, No. 3 (Winter, 1999-2000), 87, 89, 90-91.
3. Escribà-Folch, A., & Wright, J. (2010). Dealing with Tyranny: International Sanctions and the Survival of Authoritarian Rulers. *International Studies Quarterly* 54, 344, 345, 353, 355.
4. Esfandiary, D., & Fitzpatrick, M. (2011). Sanctions on Iran: Defining and Enabling 'Success'. *Survival*, 53:5, 143-156. doi:10.1080/00396338.2011.621639
5. Giumelli, F., & Ivan, P. (2013). The effectiveness of EU sanctions. An analysis of Iran, Belarus, Syria and Myanmar (Burma). *EPC Issue Paper No. 76. November 2013*.
6. Hovi, J., Huseby, R., & Sprinz, D. F. (2005). When Do (Imposed) Economic Sanctions Work? *In World Politics* 57, 491.
7. Krain, M. (2017). The effect of economic sanctions on the severity of genocides or politicides. *Journal of Genocide Research*, 19:1, 88-111. doi:10.1080/14623528.2016.1240516
8. Peksen, D. (2017). Autocracies and Economic Sanctions: The Divergent Impact of Authoritarian Regime Type on Sanctions Success. *Defence and Peace Economics*, 10, 12.
9. Whang, T. (2011). Playing to the Home Crowd? Symbolic Use of Economic Sanctions in the United States. *International Studies Quarterly* 55, 787-801. doi:10.1111/j.1468-2478.2011.00668.x

INVESTITSION LOYIHALAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Djurayeva Marjona Durdimurodovna

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Oʻzbekistonda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlari, birinchi navbatda, barcha xoʻjalik yuritish bosqichlarida jamgʻarmalar oʻsishi surʼatlarini ragʻbatlantirish va isteʼmol darajasini pasaytirishga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak. Bunga, bizning nazarimizda, iqtisodiyotdagi yuridik va jismoniy shaxslardan, chet ellik investorlardan undiriladigan soliqlarni tartibga soluvchilik funksiyasini amal qilishini kuchaytirish orqali erishish mumkin. Investitsiya faoliyatini tartibga solish tizimi doirasida soliqlarning ragʻbatlantiruvchi funksiyalarini kuchaytirish investitsiyalarni moliyalashtirishda bozor mexanizmlari rolini kengaytirishga olib keladi. Toʻgʻridan-toʻgʻri chet el sarmoyalari oqimini kengaytirish maqsadida, chet ellik investorlarni ishlab chiqarish quvvatlarini oʻzlashtirgunlariga qadar barcha koʻrinishdagi bojxona toʻlovlari, soliqlar, yigʻimlardan ozod qilish maqsadga muvofiq boʻladi. Har bir toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni kiritishda imtiyozli soliqqa tortish tartibini alohida qoʻllagan holda ular ishlab chiqarish quvvatlarini toʻliq oʻzlashtirgandan keyin amalga oshirish maʼqul boʻlar edi.

Iqtisodchi olim D.Gʻozibekovning fikriga koʻra, “investitsiya qarorlarini qabul qilishning muqobil variantlarini aniqlashda jahon amaliyotida qoʻllaniladigan investitsiya loyihalari samaradorligi koʻrsatkichlaridan foydalaniladi. Bu koʻrsatkichlar sof diskontlangan daromad, daromadlilik indeksi, ichki daromadlilik meʼyori, qoplash muddati asosida iqtisodiy, moliya budjet, ekologik ijtimoiy va boshqa samaradorlikni oʻz ichiga oladi¹⁷⁰” deb taʼkidlagan.

Berens, Xavranekslarning fikricha, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda investitsion loyihalarning samaradorligini baholashga asoslangan, ulami oʻzaro taqqoslay oladigan usullar keng qoʻllaniladi. Investitsiya tavakkalchiligi omillaridir. Ular xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish boʻyicha vazifalariga qarama-qarshi turadi.

Taniqli iqtisodchi olimlardan Sharp fikriga koʻra, “investitsiya faoliyatini fond bozori orqali moliyalashtirish mexanizmiga alohida eʼtibor qaratadi. Investitsion loyiha – korxona tomonidan qoʻyilgan maqsadga erishish uchun unga moliya kapitalini samarali qoʻyishni amalga oshirish maqsadida tashkil etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy qarorlar tizimidir¹⁷¹” deb taʼriflagan.

Oʻzbekistonda olib borilayotgan investitsiya siyosati natijasining qanday samara berishi mamlakatdagi investitsion faoliyatning rivojlanish holati bilan belgilanadi. Shu sababli, odatda, har qanday investitsiya siyosatining maqsadi mavjud investitsiya faoliyatining rivojlanish istiqboliga qaratiladi. Bu maqsad oʻzida davlatning investitsiya faoliyatini muntazam ravishda tartibga solish vazifasini ham mujassam etadi.

Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solish, odatda, quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi¹⁷²:

- investorlarni ragʻbatlantirish;
- milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- mamlakat hududida investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish.

Mamlakatda investitsiya faoliyatini tartibga solishning zaruriy asosi boʻlib, davlat qonunchiligi, huquqiy asosni shakllantirish hisoblanadi va uni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin. Maʼlumki, investitsiya faoliyati kapital, tadbirkorlik, moliya, innovatsiya, ijtimoiy, isteʼmol va boshqa investitsiyalarning hamma turlari bilan bogʻliq boʻlib, odatda, soliqlarning fiskal (xazinani toʻldirish) va tartibga solish funksiyalaridan foydalanish yoʻli bilan amalga oshiriladi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda quyidagi usullardan

¹⁷⁰ Миркин Я. М. Рынок ценных бумаг: учеб. пособие. М., 2002. —с. 56-57

¹⁷¹ Шарп У. и др. Инвестиции. Пер. с англ. — М.ИНФРА-М, 2001.— С. 9-10

¹⁷² Gʻozibekov. D.Gʻ. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. — T.: "Moliya" nashriyoti, 2003-yil.

foydalaniladi¹⁷³:

• investorlarning erkin faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslarni yaratish, mustahkamlash, takomillashtirib borish;

• pul-kredit siyosati orqali;

• vaulta siyosati orqali;

• amortizatsiya siyosati orqali;

• narx siyosati orqali;

• dotatsiyalar, subsidiyalar tizimi orqali;

• budjet-soliq siyosati, jumladan, fiksali siyosat, turli soliqlardan imtiyozlar berish, soliq kreditlari orqali;

• davlat kafolatlari tizimi orqali;

• chet ellik va mahalliy investorlarning huquqlarini himoya qilish orqali.

2020-yil yanvar-dekabr oylarida 202,0 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi, ulardan 65,4 % yoki 132,0 trln. so'm jalb qilingan mablag'lar hisobidan, qolgan 34,6% 70,0 trln. so'm korxona va aholining o'z mablag'lari hisobidan o'zlashtirildi. Quyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 42,1 foizi qayta ishlash sanoatiga yo'naltirilgan. Shuningdek, tog'-kon sanoati – 18,2 %, elektr, gaz bilan ta'minlash – 8,3 %, qishloq xo'jaligi – 10,4 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya faoliyati – 1,3 %, qurilish – 4,8 %, axborot va aloqa faoliyati – 2,3 %, tashish va saqlash xizmati, sog'liqni saqlash va boshqalar¹⁷⁴. Tijorat banklari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda qayta ishlash sanoati hamda tog'-kon sanoatiga ajratilgan investitsion mablag'lar hajmi yuqori salmoqqa ega ekanligini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinku, bugungi kunda tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini tizimli nazorat qilish, shuningdek, investorlar tomonidan investitsiya majburiyatlari qanday bajarilayotganini tahlil qilish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rish asosida mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Миркин Я. М. Рынок ценных бумаг: учеб. пособие. – М., 2002, 56-57 с.
2. Шарп У. и др. Инвестиции. Пер. с англ. – М.ИНФРА-М, 2001, 9-10 С.
3. Mamatov B.S., Xujamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2014.
4. G'ozibekov. D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: "Moliya" nashriyoti, 2003-yil.
5. <https://www.stat.uz>

¹⁷³ Mamatov B.S., Xujamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2014.

¹⁷⁴ <https://www.stat.uz>

CHET EL INVESTITSİYALARI HARAKATINI SOLIQ MEXANIZMI ORQALI TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Eshqobilova Marjona Xolmurod qizi

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda Oʻzbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yoʻnaltirilgan tarkibiy oʻzgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni taʼminlaydigan ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish asosiy ustuvor yoʻnalishlardan biridir. Xorijiy investitsiyasi boʻlgan korxona amaldagi qonunlarga binoan oʻzi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va oʻz ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish huquqiga egadir. Xorijiy investorlarga tabiiy boyliklarni qidirish, ishlab chiqarish va foydalanish hamda boshqa xoʻjalik ishlarini yuritish uchun konsessiyalar berilishi mumkin. “Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari toʻgʻrisida”¹⁷⁵ Qonun Oʻzbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalarini amalga oshirishning huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy asoslarini hamda tartibini belgilab beradi. Qonun chet ellik investorlar samarali faoliyat yuritishining kafolatlarini taʼminlab beradi, Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish, uning jahon iqtisodiy tizimiga qoʻshilishiga koʻmaklashish maqsadida chet elning moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarini, xorijning zamonaviy texnologiyasi va boshqaruv sohasidagi tajribasini jalb etishga va ulardan omilkorlik bilan foydalanishga qaratilgan. Konsession shartnomalar xorijiy investorlar bilan Oʻzbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakil qilingan organlari oʻrtasida tuziladi. Oʻzbekiston Respublikasida barpo etilayotgan korxonalar ustav sarmoyasiga xorijiy investorlarning hissasi sifatida yoki xorijiy xodimlarning oʻz ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan mulk bojxona toʻlovidan ozod qilinadi va import soligʻi undirilmaydi.

Xorijiy investorlar Oʻzbekistonda faoliyat koʻrsatayotgan korxonalarning aksiyalari, hissalarini va paylarini, shuningdek, yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan qimmatli qogʻozlarni sotib olishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalari boʻlgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonaning tugatilish hollarida xorijiy investorlar shu korxona mulkidan oʻzining hissasini korxona mulki bilan qiymatiga mutanosib ravishda pul yoki natura tariqasida qaytarib olish huquqiga ega boʻladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tuzilgan korxonalarning xoʻjalik ishlarida hisob-kitoblar Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida olib borilishi lozim. Bu holatlar ham qonunda koʻrsatilgan. Hozirga kelib, Oʻzbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga yetkazildi va amalda qoʻllanilmoqda. Bu faoliyatni ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiy lashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollanish;
- xalq isteʼmoli va eksportga moʻljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish.

Xorijiy investitsiyalarning umumiy taʼrifi F. Xeniusning 1947-yil AQSHda chop etilgan tashqi savdo lugʻatining 2-nashrida quyidagicha berilgan: “Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar”.¹⁷⁶ Bundan tashqari, professor D.Gʻozibekovning xorijiy investitsiyalar toʻgʻrisidagi nazariy qarashlarida quyidagi fikrlar bayon etilgan: “Chet el investitsiyalari bir iqtisodiyot subyekti kapitalini oʻzga iqtisodiyotga muayyan muddatga bogʻlash boʻlib, ichki investitsiyalardan risklar kengligi bilan farqlangan holda, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining oʻzgarishi bilan tavsiflanadi va

¹⁷⁵ 3-moddaning beshinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 1995-yil 6-maydagi 70–I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1995-y., 6-son, 118-modda).

¹⁷⁶ “Chet el investitsiyalari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining qonuni. 1998-yil 30-aprel. 3-modda.

natijada mamlakatlar va mintaqalar bo'ylab kapital ko'chishi yuz beradi".¹⁷⁷ Ushbu fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, xorijiy investitsiyalar bir mamlakat iqtisodiyotidan mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotiga ko'chuvchi kapital bo'lib, u risklar doirasi kengligi bilan ichki investitsiyalardan farqlanadi.

Shuningdek, iqtisod fanlari doktori N.Qo'ziyevaning ilmiy ishlarida xorijiy investitsiyalarning mohiyati to'g'risida: "Kelgusida foyda olish maqsadida kapitalni eksport qiluvchi xorijiy davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslarning kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlarga turli ko'rinishdagi boyliklar (ko'char, ko'chmas mol-mulk, intellektual boyliklar va boshqalar) va ulardan olingan daromadlar (foйда, foizlar, dividendlar, litsenziya va komission mukofotlar, royalti, texnik ta'minot va boshqa mukofotlar)ni qo'yilishiga xorijiy investitsiyalar deyiladi"¹⁷⁸ degan ta'rif keltirilgan. Olimaning fikricha, xorijiy investitsiyalarni turli belgilariga asoslangan holda tasniflash ularning iqtisodiy mohiyatini yanada oydinlashtiradi.

Sh.Q. Fozilchayev va N.G'. Xidirovlarning "Investitsiya va lizing asoslari" kitobida xorijiy investitsiyaga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Xorijiy investitsiyalar – bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir".¹⁷⁹

Republikamizning barcha hududlarida zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilishda, albatta, ichki investitsiyalar bilan bir qatorda xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi ham muhim o'rin tutadi. Shu boisdan ham bunday faoliyatni va tashkil etiladigan korxonalarni rag'batlantirish asosan soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Chunki har bir investor o'z sarmoyasini biror hududga kiritar ekan, uni befarq qoldirmaydigan va e'tiborini tortadigan asosiy masala u yerda amal qilayotgan soliq qonunchiligi hamda soliqlardan berilayotgan imtiyozlar masalasidir.

Mamlakatga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017-yilda 3,3 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakunida ushbu ko'rsatkich uch barobar ortib, 9,8 milliard dollarga yetdi. Buning natijasida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi 23,8 foizdan 40,5 foizgacha ortdi. Shu bilan birga, to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 2017-yilda 2,5 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 3,4 barobar oshib 8,5 milliard dollarga yetdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi esa 17,7 foizdan 35,4 foizgacha oshdi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni ham yil sayin ortib bormoqda: 2017-yilda 5,5 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ularning soni 15,8 mingtaga yetdi. Buning 6,4 mingtasi qo'shma korxona, 9,3 mingtasi to'liq xorijiy korxona hisoblanadi. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning 30,5 foizi savdo, 27,5 foizi sanoat, 8 foizi qurilish, 4,8 foizi qishloq xo'jaligi, 4,1 foizi yashab turish va ovqatlanish muassasalari, 2,9 foizi saqlash va tashish, 4,8 foizi aloqa hamda axborot yo'nalishlarida, 17,4 foizi boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda.

Milliy iqtisodiyotimizda xorijiy investitsiyalarning me'yoriy-huquqiy asoslari bunyod etilgan bo'lib, ularda yaratilgan shart-sharoitlar, jumladan, soliq va bojxona imtiyozlari, qonun o'zgarmaslik kafolatlari, foyda olish va mulklarning rekvizitsiya qilinmasligi va boshqa kafolatlar respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini yanada rag'batlantiradi va uning jahon xo'jaligi tizimiga uyg'unlashuvini ta'minlaydi. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Chet ellik Investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida", "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuniy va boshqa qonun hujjatlari uning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

¹⁷⁷ Dictionary of International Trade. Global Marketing Strategies, 2015, p.82.

¹⁷⁸ G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: "Moliya", 2003, 45 bet.

¹⁷⁹ Qo'ziyeva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: BMA, 2008, 11 bet.



1-rasm. “O‘zbekistonga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi tahlili”¹⁸⁰

Bugungi investitsiyalar ertangi kunimizni belgilab beradi, zero, hozirgi jadal va tez suratda rivojlanayotgan davlatimizga yetarlicha chet el investitsiyalarini jalb qila olgan taqdirimizda albatta biz kelajagimizning poydevorini mustahkam qo‘ya olgan bo‘lamiz. Mamlakatimiz investorlarga qulay investitsiya sharoitini yaratib berish uchun qator qonun va farmonlar imzolamoqda. Bu kabi hujjatlarda asosan xorijiy investorlar uchun imtiyozlar aks ettirilmoqda. Investorlar e‘tiborini jalb etishda mamlakatning geografik o‘rni, siyosiy ahvoli, iqtisodiy potentsiali kabi muhim omillar birlamchi ahamiyat kasb etadi shu o‘rinda investitsiyalar hajmini belgilovchi asosiy omillar bo‘lib foiz stavkasi va kutilayotgan o‘rtacha foyda me‘yori hisoblanadi, chunki chet el investorlari uchun bu ko‘rsatgichlar katta ahamiyat kasb etadi, zero, ularning kapitali yetarli darajada ko‘payishi kerak. Investitsiya faoliyatini tartibga solishda eng muhim va asosiy muammolardan biri chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni respublika mintaqalari bo‘ylab bir tekis joylashtirishdir, va shu o‘rinda mamlakatda faoliyat yuritayotgan korxonalarni joyidan qat’i nazar soliq imtiyozlarini tenglashtirish. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona faoliyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga keng yo‘l ochish iste‘mol bozorida tovar va xizmatlar taqchilligi hamda mablag‘ yetishmovchiligi sharoitida ko‘p sarmoya sarf qilmasdan, qisqa muddat ichida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun respublikamiz hukumati tomonidan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona soliqlar orqali rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

¹⁸⁰ content://media/external/downloads/1000021634

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T: O'zbekiston 2014-yil.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T. "O'ME" davlat ilmiy nashriyoti. 2002-yil.
3. 4. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni 1998-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2008-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 fevraldagi "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora -tadbirlar to'g'risida" F-4849-sonli Farmoyishi.
8. G'ozibekov D. G' "Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari" – T. "Moliya" 2003-yil.
9. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portal.
10. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi.
11. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi axborot bilan ta'minlash markazi.
12. www.press-service.uz.
13. www.soliq.uz.

HUDUDLARGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH-MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ASOSI


A.Sh.Mirzayeva

O'zbekiston Milliy universiteti,
Makroiqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi

J.Abdunazarov

O'zbekiston Milliy universiteti, talaba

Bugungi zamonaviy iqtisodiyotda tarmoqlar jumladan sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlar rivoji uchun xorijiy investitsiyalarni tutgan o'rni muhimdir. Bugungi kunda hukumat tomonidan hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish hamda yalpi hududiy mahsulot hajmini, uning mahalliy aholi jon boshiga tushadigan miqdorni oshirish maqsadida bir qancha ko'zga ko'rinadigan muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat statistikasi agentligi bergan ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, so'nggi 6 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 4 martaga ko'payib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Ya'ni 2017-yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 72.2 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib 269.9 trln. so'mga yetdi. Aynan shu statistikani o'zi ham sohada amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar natijasidir. 2022-yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 15.2 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi. Mamlakatimizda yaqin yillarda juda katta maqsad va vazifalarni amalga oshirishga kirishildi. Investitsiyalarni barqaror jalb etish ham muhim vazifalar sirasiga kiradi. Investitsiya esa o'z-o'zidan kirib kelmaydi. Buning uchun mamlakatda infratuzilmani rivojlantirish zarur. Xorijiy investorga qulay muhit va infratuzilma zarur. Xorijlik sarmoyador ishlamoqchi bo'lgan hududida ravon yo'l, elektr energiyasi, issiq va sovuq suv, internet kabi kerakli infratuzilmalar bo'lmasa, bunday mintaqaga investitsiya kiritmaydi. Davlat kiritilayotgan investitsiyalar miqdorini oshirish maqsadida qarz olsa va uni aniq hisob-kitoblar bilan sarflasa, keyinchalik esa bosqichma-bosqich tashqi qarzni qaytarishi eng to'g'ri yo'li hisoblanadi.



1-rasm. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar¹⁸¹.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmini so'nggi 22 yillikni ko'radigan bo'lsak ham o'sish dinamikasini ko'rishimiz mumkin. 2000-yilda 744,5 mlrd. so'm tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yil 266240,0 mlrd. so'mni tashkil qildi (1-rasm).

Bu dinamikani barqaror o'sishida mamlakatda olib borilayotgan investitsiya siyosati, xorijiy investorlarga respublikamizni barcha hududlarida qulay investitsion muhit tashkil qilingani asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi %da, hajmi trln. so'mda.¹⁸²

Ko'rinib turibdiki, eng kop investitsiyalar hajmi qurilish, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga kiritilgan. Aniqrog'i qurilishga 15.0 trln. so'm; Ta'lim sohasiga 8.1 trln so'm; sog'liqni saqlash sohasiga esa 6.1 trln. so'mni tashkil qildi. Boshqa faoliyat turlariga esa 72.4 trln so'm investitsiyalar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi 14ta ma'muriy hududga bo'linadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri. Hududlar iqtisodiy jihatdan turli xil salohiyatga ega. Buning asosiy sababi hududlarda iqlimi, tabiiy resurslari va demografik farqlari mavjud . Bu esa hukumat hududlar

¹⁸¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>

¹⁸² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>

salohiyatidan kelib chiqqan holda har bir mintaqaga alohida yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi asosi hisoblanadi. Respublika bo'yicha bir xil investitsion qarorlar joriy qilinishi hududlar iqtisodiyotidagi tafovutlarni ortib borishiga sabab bo'ladi. Rivojlanishi nisbatan orqada bo'lgan hududlarga investitsiya jalb qilish maqsadida xorijiy investorlarga aynan shu hududlarga investitsiya kiritishi uchun turli xil soliq to'lovlaridan qisman yoki butunlay ma'lum muddatga ozod qilinishi, tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilishi, bojxona to'lovlaridan ozod qilinishi bilan hukumat investitsion siyosat olib boradi. Bu esa hududlar o'rtasida iqtisodiy tafovutni ma'lum darajagacha kamayishiga xizmat qiladi. Misol tariqasida Toshkent shahri hamda Qoraqalpog'iston Respublikasini oladigan bo'lsak. Mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy investor hududlarni o'rganish jarayonida infratuzilmaga, ya'ni elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv ta'minoti, transport salohiyati va boshqa bir qancha omillarni ko'rib chiqadi va tabiiyki nisbatan yaxshiroq infratuzilmaga ega Toshkent shahriga investitsiya kiritishga harakat qiladi.

2022-yilda asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar hududlar kesimida statistikani ko'rishimiz mumkin. Hududlarga kiritilgan jami investitsiyalardagi farqlar ham yuqoridagi fikrlar qanchalik dolzarbligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi poytaxti va unga yaqin bo'lgan hududlarga kiritilgan jami investitsiyalar miqdori nisbatan olisda bo'lgan, infratuzilma yaxshi rivojlanmagan hududlarga kiritilgan jami investitsiyalar miqdoridan ko'ra bir necha marotaba ko'pdir. Misol Toshkent shahriga 56.7 trln. so'm, Toshkent viloyatiga esa 34.9 trln. so'm investitsiya kiritilgan bo'lsa, Xorazmga 8.8 trln. Surxondaryoga 11.5 trln. Qoraqalpog'istonga esa 10.09 trln so'm investitsiya kiritilgan. Mintaqaviy siyosat yurgizish orqali hududlardagi bu farqlarni kamaytirish hamda bu hududlarga ko'proq investitsiyalar jalb qilish uchun chora va tadbirlar ko'rilmogda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, dunyoni rivojlangan mamlakatlari mamlakatlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun alohida uzoq yillik strategiyalar ishlab chiqiladi. Xorijiy investorlar ishtirokida mamlakatda investitsion forumlar tashkil qilinib, investorlarga hududlarni iqtisodiy salohiyati va investorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumotlar beriladi va investor, tadbirkorlarni talab va takliflari o'rganib chiqiladi, ular duch kelayotgan muammolarni bartaraf qilish uchun chora-tadbirlar, qarorlar ishlab chiqiladi. Bizning mamlakatimizda ham aynan shu tashabbus bilan bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda. Ammo har bir hudud iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida aynan shu hududlarni o'zida bu investitsion forumlarni tashkil qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida investorlarga hududlarni o'zida hudud iqtisodiy salohiyati uni imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot berish hamda yaratilayotgan shart-sharoitlar, imtiyozlar haqida ma'lumotlar muntazam ravishda berib borilishi kerak. Qisqa qilib aytganda hududlardagi mas'ul mutasaddilar hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida o'z oldiga aniq maqsad va rejalarni belgilashi hamda uni amalga oshirishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.stat.uz>
2. 2017-2021 Harakatlar strategiyasi.
3. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi.
4. Yangi O'zbekiston gazetasi.
5. Shodmonov Sh. Xalilov M. "Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha o'quv uslubiy majmuasi.
6. www.uza.uz – Milliy axborot agentligi.

MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYA MUHITINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Ilmiy rahbar: Namozov Olim Botirovich
TDIU, Iqtisodiyot kafedrası, dots., PhD

Alixanov Pahlavon Shuhrat o'g'li
TDIU, Iqtisodiyot fakulteti I-71 guruh talabasi

Ma'lumki, investitsion faoliyat barcha yetakchi mamlakatlar tomonidan yillar davomida targ'ib etib kelinmoqda. Mamlakatda ortda qolayotgan sohalariga investitsiyalar jalb qilish, iqtisodiyoti oqsayotgan davlatlar xorijiy investorlar bilan shartnomalar tuzish orqali kamchiliklarni yo'qotib rivojlanishga erishishmoqda. Jahon tajribasidan kelib chiqib O'zbekiston ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanish natijasida rivojlanib kelmoqda. Bunga asosiy sabab qilib yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-dekabrda 459-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini misol qilsak bo'ladi.¹⁸³

Yuqoridagi qarorning bosh maqsadi respublika iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarish sohasini kengaytirish va modernizatsiya qilish, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori qo'shilgan qiymatli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, investitsiya jarayonlarini jadallashtirish va hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishdan iborat.

Investitsiyalar amalga oshirilish hudidiga qarab 2 turga bo'linadi:

1. Markazlashgan investitsiyalar - moliyalashtirish va boshqarishning markaziy hududlarida amalga oshiriladi. Bu tur investitsiyalar, hududlararo iqtisodiy rivojlanishni kuchaytirishga yordam beradi. Aniq qilib aytganda, markazlashgan investitsiya deganda, shaharlar yoki boshqa katta tarkibiy hududlarda joylashgan investitsiyalar tushuniladi.

2. Markazlashmagan investitsiyalar esa, markaziy hududlardan tashqari joylashgan investitsiyalardir. Bu turdagi investitsiyalar, qishloq xo'jaligi, qishloq hududlari, tumanlar va viloyatlar kabi markazlashmagan hududlarda amalga oshiriladi.

Yuqoridagi PQ-459-sonli qaror davomida davlatimizning 2023-2025-yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari ham keltirib o'tilgan.

1-jadval

2023 — 2025-yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)¹⁸⁴

Moliyalashtirish manbalari	2023 - 2025- yillarda jami	Shundan,		
		2023-yil	2024-yil	2025-yil
Jami kapital qo'yilmalar	1 214 970	352 717	403 038	459 215
Markazlashgan investitsiyalar:	193 587	55 538	65 622	72 428
Budjet mablag'lari	83 360	25 886	28 074	29 400

¹⁸³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.12.2022-yildagi "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-sonli Qarori.

¹⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.12.2022-yildagi "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-sonli Qarori.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	11 170	3 171	3 454	4 545
Davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	99 057	26 481	34 094	38 483
Markazlashmagan investitsiyalar:	1 021 383	297 179	337 416	386 788
Korxonalar mablag'lari	326 814	93 930	107 534	125 350
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	197 010	57 696	64 782	74 532
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	401 466	116 193	133 200	152 073
Aholi mablag'lari	96 093	29 360	31 900	34 833

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib aytish mumkinki, kelgusi yillarda mamlakatimizda markazlashgan va markazlashmagan investitsion ko'rsatkichlari yuqori darajasida bo'lishi kutilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlarning katta qismi Markazlashmagan investitsiyalardan iboratligiga e'tibor qaratish joiz.

Yurtimizda tadbirkorlikka berilayotgan keng imkoniyatlar bevosita korxonalar mablag'larining tezroq aylanishiga, xorijiy investitsiyalar jalb qilinishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning ushbu qarorlariga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi 16-sonli "O'zbekiston Respublikasida investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham qabul qilingan.¹⁸⁵

Qarorda investitsiya loyihalarini joriy etish, ushbu loyihalarni aholiga bevosita ijtimoiy jihatdan ta'sir ko'rsatadigan dasturlar bilan ta'minlash, dasturlarni amalga oshirishda investitsiyadan keyingi tekshiruv, ya'ni monitoring tizimini shakllantirish chora-tadbirlari o'tkazish nazarda tutilgan.

Investitsiya muhiti investitsiya imkoniyatlarining barcha turlarini, ya'ni turli xil moliyaviy va haqiqiy aktivlarni, investor uchun mavjud bo'lgan bozordagi investitsiya avtomobillari yoki alternativlarini, moliyaviy bozorlarni, investitsiyalarni sotib olish va sotish imkonini beruvchi bozor tuzilmasini, investitsiya kiritish imkoniyatini beruvchi muhitni shakllantiruvchi me'yoriy-huquqiy vositalarni, bozor vositachilarini o'z ichiga oladi.¹⁸⁶ Investitsiya muhiti ichki va xalqaro iqtisodiyotdagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, ular mol-mulk narxlariga shu jumladan aktivlar sinflarini qiymatlariga va shu bilan bog'liq xavfga ta'sir ko'rsatadi.

Investitsiya muhitini shakllantirishda asosan 6 eng muhim jihatga e'tibor qaratish lozim deb hisoblayman:

1. Aktivlar samaradorlikligi va ishonchligini oshirish;
2. Moliyaviy bozorlarda pullarning harakati;
3. Bozorlar infratuzilmasi;
4. Vositachilarning raqobatbardoshligi;
5. Mamlakatda qabul qilinayotgan qaror va qonunlar ijrosi;
6. Iqtisodiyotdagi monopoliya va raqobat.


Aytib o'tilgan har biri mamlakatda investitsiya muhitini yaratish, uni ijobiy yuritishga bevosita yordam beradi. Har qanday vaziyatda davlat yuqridagi 6 jihatga e'tibor qaratib, kamchiliklar va yo'qotishlar evaziga bo'lsa ham jahonda o'z mavqegini mustahkamlab oladi.

¹⁸⁵O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.01.2023-yildagi 16-sonli "O'zbekiston Respublikasida investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.

¹⁸⁶Sher Mehta moliyaviy maqolalar yozuvchisi "Investment Environment" maqolasidan-2021-yil.

Yurtimizda joriy yilda xorijiy investitsiyalar hajmini yanada ko‘paytirish zarurligi qayd etildi. Bunda asosiy e‘tiborni elektrotexnika; mashinasozlik; qurilish materiallari; farmatsevtika; to‘qimachilik kabi sohalarga qaratish lozimligi yurtboshimiz tomonidan ta’kidlandi. Bundan tashqari, yirik investorlar bilan maqsadli ishlash, investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy diplomatiya va chet eldagi diplomatik vakolatxonalar ishtirokini kuchaytirish asosiy maqsad qilib belgilandi. Yangi investitsiya loyihalarni amalga oshirishda hududlardagi maxsus zonalar va sanoat kooperatsiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish zarur ekanligi alohida ta’kidlanib kelmoqda.¹⁸⁷

Innovatsiya ta’kidlab o‘tilgan o‘zgarishlarning kaliti hisoblanadi. Tadbirkorlikni kengaytirish, sohalarda yangilanishlar, aholining aqliy faoliyatini rivojlantirish albatta texnika innovatsiyasiga bog‘liq. Valuta kapitali innovatsiyalar markazi hisoblanadi jumladan, valuta bozorining rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib davlatlar innovatsiyalar reytingini belgilab olishadi.¹⁸⁸



1-rasm. Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (foizda)¹⁸⁹.

Yuqoridagi diagrammada mamlakatizmida 2019-2022-yillar oralig‘idagi xorijiy investitsiyalar jalb qilish foizi, hududlar kesimida keltirib o‘tilgan. So‘nggi yillarda eng yuqori ko‘rsatkichlar Sirdaryo va Buxoro viloyatlarida bo‘lib turibdi. Eng past ko‘rsatkichlarni Toshkent shahri va Namangan viloyati qayd etmoqda (1-rasm).

Kelgusi yillarda ushbu ko‘rsatkichlar yanada yuqoriga siljishi sir emas. Yurtimizda o‘tkazilayotgan chora-tadbirlar bunga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday investitsiyani jalb qilish jumladan bu investitsiya mahalliy yoki xorijiy? Bunda davlatning ishtiroki juda ham muhim ro‘l o‘ynaydi. Aholi bilan kelishgan holda moliya bozorlarini rivojlantirish, korxona va tijorat banklarining faoliyatini naorat ostiga olish orqali investitsion faoliyat muhitini yaxshiroq yaratish mumkin. Valuta bozorlarini rivojlantirish va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish jahondagi eng rivojlangan davlatlarga teng raqobat ko‘rsatishga xizmat qiladi.

¹⁸⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning investitsiya siyosatini amalga oshirish va “yashil” energetikani rivojlantirish muhokamasidan 2024-yil 2-yanvar.

¹⁸⁸ Déjà new – xorijiy jurnalidan 2022-yil “O‘tmishdan kelajak sari” maqolasi.

¹⁸⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agengligi – stat.uz web-sayti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 28.12.2022-yildagi "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 459-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – lex.uz on-line web-sayti.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.01.2023-yildagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 16-sonli qarori.
4. Sher Mehta moliyaviy maqolalar yozuvchisi "Investment Environment" maqolasidan 2021-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning investitsiya siyosatini amalga oshirish va "yashil" energetikani rivojlantirish muhokamasidan 2024-yil 2-yanvar.
6. Déjà new – xorijiy jurnalidan 2022-yil "O'tmishdan kelajak sari" maqolasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agengligi - stat.uz web-sayti.

O'ZBEKISTONDA INVESTITSIIYA MUHITINI RIVOJLANTIRISH

Tursunova Nafisa Xalil qizi

O'zMU Iqtisodiyot fakulteti "Ekonometrika va iqtisodiy
modellashtirish" kafedrası o'qituvchisi, nafisatursunova41@gmail.com

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytib o'tganlaridek: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham, investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi."¹⁹⁰. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida investitsiya bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan: "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznesva xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish"¹⁹¹. O'zbekiston Respublikasining investitsiya muhitini rivojlantirish borasida tegishli huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, kafolat va imtiyozlarni o'zida aks ettiruvchi bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ularda xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalaniishi va raqobat muhitiga sharoit hamda zarur investitsiyaviy infratuzilmaning yaratilishini nazarda tutuvchi normalar belgilab qo'yilgan. Shuningdek, mamlakatimizda hukm surayotgan siyosiy barqarorlik hamda boy tabiiy mineral resurslarning mavjudligi investitsiya muhitini rivojlantirish uchun imkoniyatlar eshigini keng ochadi. Xorij investitsiyalarini keng miqyosda jalb qilish — iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, yuqori texnologik raqobatdosh tarmoqlarni yaratish, ilg'or xorij texnologiyalari va boshqaruv tajribalarini tatbiq etish imkonini beradi.

¹⁹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so'zi, 2018-yil 29-dekabr

¹⁹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi"gi PF-4947-sonli Farmoni.

Investitsiya muhiti deganda mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. U muayyan hududga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi.

Investitsion muhitni rivojlantirishga qaratilgan **investitsion siyosat yo'nalishlari** ichida quyidagilarni alohida ko'rsatish lozim:

- mamlakat va chet el investorlari uchun qulay mexanizm yaratish;
- kapital mablag'lar samaradorligini oshirish;
- investitsion faoliyat bilan shug'ullanishdagi risk darajasini minimallashtirish.

Ma'lumki, har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi va shuningdek, olib borilayotgan davlat investitsiya siyosatining samaradorligi va o'sish sur'atlari albatta, qulay investitsion jozibadorlik muhitiga bog'liq bo'ladi. Qulay investitsion muhitni yaratish investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib xizmat qilib, birinchi galda, kapital mablag'larining daromadlilikini ta'minlab beradi. Investitsiya muhitining holatini investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ekologik va boshqa shart-sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiyaviy jozibadorlik mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan korxona investitsiyalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsiya xatari darajasi nuqtayi nazaridan baholanishidir. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Mamlakatimizda investitsiya muhitini rivojlantirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish - banklar, investitsiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish zarur;

- tadbirkorlarning biznes-ko'nikmalari, shu jumladan, investitsiya loyihalari bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlarini yanada oshirish - hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish lozim;

- investitsiya takliflari va loyiha texnik-iqtisodiy asoslarining belgilangan talablarga javob bermasligi sabab tadbirkorlarga investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas'ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish kerak.

Bizning fikrimizcha, investitsiya iqlimi barqarorligini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, investitsiya risklari sug'urtasini yoki himoyasi tizimini keng rivojlantirish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'la ma'noda amal qilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda investitsiya muhitini rivojlantirish uchun keng harakat qilinmoqda, bu borada xorijiy investorlarga turlicha moliyaviy imtiyozlar va huquqlar berilgan, bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, quyidagi tadbirlar, investitsiya muhitini yanada rivojlantirish imkoniyatini beradi: so'mning qadrini ko'tarish; mulk daxlsizligini ta'minlash, investorlar haq-huquqini himoyalashni yanada oshirish, bank foizi stavkalarini barqarorlashtirish; islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini hisobga olgan holda soliq tizimini ilmiy asoslangan holda takomillashtirish; ma'muriy buyruqbozlik holatlariga chek qo'yish; O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyasi nufuzini va uning likvidligini oshirish, xorijiy investorlarni ularga jalb eta bilish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish.

Bularning barchasi O'zbekistonda investitsiya muhitini modellashtirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bu model xorijiy investorga ta'sir ko'rsatadigan omillar to'g'risida mukammal ma'lumot to'plash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yaqqol baholash hamda xorijlik sheriklar harakatlari motivatsiyasini anglash, xorij investitsiyalarini tartibga solishning asosiy vositalarini isloh qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni, PF-4947.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so'zi, 2018-yil 29-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ 598-sonli Qonuni. 2019-yil 25-dekabr
4. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni. 2017-yil 18-aprel.

O'ZBEKISTONDA TURISTIK INVESTITSIYA MUHITINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Vafoyeva Mahliyo Jamshidovna

Buxoro Turizm va madaniy meros texnikumi o'qituvchisi
maxliyo.vafayeva.94@mail.ru

Mamlakatimizda turizm sohasi tez va jadal rivojlanib kelayotgan bir davrda, turistik investitsiya holatining rivojlanishida bir qator muammolarga duch kelishimiz tabiiy hol. Ushbu muammolar O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi, mamlakatdagi turistik oqimning holati, mamlakatdagi boshqa sohalarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Turistik investitsiyaning global muammolaridan biri, investitsiya yetishmovchiligidir. Bu muammoni bartaraf etish uchun esa avvalambor mamlakatimizda xususiy sektorlar qulay shart-sharoitlarni yaratish, turistik xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, turistik mahsulotlarning sifatini maksimum ko'tarish va ushbu mahsulotlarni dunyo bozoriga chiqarish hisoblanadi. Turistik investitsiya muammolariga tubdan yechim topish uchun esa, turizmdagi mavjud sohalardagi xizmatlarning sifatini oshirish, zamonaviy, samarali yondashuv va mexanizmlarni joriy etish, shuningdek, investitsiya jarayonini jadallashtirish kerak. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar avvalambor, turizmdagi barcha tarmoqlarni raqobatbardoshligini ham oshirishga xizmat ko'rsatishi lozim.

Turizm sohasidagi investitsion muhitning yana bir muammolaridan biri faol investitsiya siyosatining sustligidadir. Turistik investitsiya bu – turizm iqtisodiyotining drayveridir, ya'ni o'zimizning tilda aytganda turizm sohasining yuragidir. Agarda biz turizmda kerakli investitsion muhitni shakllantira olsak, turizm sohasining o'sishi va shu bilan birga, ushbu sohaga yangicha texnologiyalar, yangicha bilimlar, yuksak malakali mutaxassislar kirib kelishiga sabab bo'lamiz. Mamlakatimizda turistik investitsion muhitni rivojlantirish uchun qisqa muddatda turizm sohasidagi ham xodim, ham turistlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, sohada xususiy sektorlarning muntazam ishtirokini ta'minlash, turistik servislarning raqobatbardoshligini va samaradorligini, ko'rsatilayotgan xizmatlar sonini va turini ko'paytirishimiz kerak. Ushbu muammolar bartaraf etilishi hududda turistik investitsiya oqimini kengayishiga olib keladi.

Yurtimizdagi qulay turistik sharoitlar va chiroyli landshaft tufayli yildan-yilga turistik oqimning ko'payib kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Bizga ma'lumki yurtimizga tashrif buyuruvchi turistlarning aksariyati, ya'ni 65% ini qo'shni mamlakatlardan tashrif buyuruvchi sayyohlar tashkil etib, qolganlarini dunyoning boshqa hududlaridan tashrif buyuruvchilar tashkil etadi. Biz investitsion muhitdagi muammolarni bartaraf etish uchun avvalambor mana shu turistlarning taklif va ehtiyojlarini o'rganishimiz lozim. Undan so'ng esa xizmatlar ko'lamini kengaytirishimiz, dunyo standartlari asosida barpo etilgan mehmonxonalar barpo etishimiz, turli turistik zonalarining sonini ko'paytirish, mavjudlarini esa takomillashtirishimiz, turizm infratuzilmasini tubdan qayta ishlab chiqishimiz lozim.

Globalashuv sharoitida investitsiyalar o'sishi ilmiy va texnologik salohiyatga bog'liq hisoblanib, u har qanday mamlakat uchun iqtisodiy o'sishning muhim tarkibiy qismi bo'ladi. Keyingi yillarda respublikada investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida

12 dan ortiq qonun, 60 dan ortiq farmon va qaror qabul qilindi. Ushbu qonunlardan kelib chiqqan holda turizm sohasi ham o'ziga xos investitsion muammolarga yechim izlashda davom etmoqda. Turizm sohasidagi yana bir dolzarb muammo bu – Viza tizimidir. O'zbekistonda qulay turistik investitsion muhitni yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahliliga ko'ra, fuqarolari mamlakatimizga vizasiz kirib chiqa oladigan mamlakatlar soni juda kam. Viza tizimi isloh qilinishi natijasida bunday mamlakatlar soni ortgandagina biz ushbu investitsion muammodan batamom qutulishimiz mumkin. Yurtimizda shu muammo yuzasidan ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Ishonamanki, amalga oshirilgan islohotlar o'z natijasini bermasdan qolmaydi.

O'zbekistonda turistik investitsiya muhitini rivojlantirish, turistik salohiyatdan oqilona foydalanish mamlakatda tashqi turistik iqtisodiy faoliyatining rivojlanishiga, turizm sohasidagi valuta tushumining o'sishiga va diversifikatsiyalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu sohada yurtimizdagi turistik sohalarni rivojlantirish va xalqaro turizmni quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligi maqsadga muvofiqdir:

- turizm sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xalqaro turistik tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalar va xalqaro sarmoyalarni jalb qilish bo'yicha keng chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

- yangi mehmonxonalar, kempinglar, turbazalar, otellar qurish va mavjudlarini ta'mirlash hamda zamonaviylashtirish hisobiga turizmning xalqaro talablarga javob bera oladigan moddiy-texnika bazasi va zamonaviy xalqaro turizm infratuzilmasini barpo etish va ulardan samarali foydalanish;

- aeroportlarda, temiryo'l vokzallarida, avtobus stansiyalarida xalqaro terminallar qurish, ularni ta'mirlash va kengaytirish, zamonaviylashtirish, shuningdek, barcha turistlarni qabul qilish markazlarida zamonaviy kommunikatsiya tizimlarini barpo etish;

- xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, ustaxonalar, an'anaviy milliy buyumlar, suvenirlar, bejirim bezaklar va turistlar tomonidan talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

- respublikamizning tabiiy, iqtisodiy va tarixiy salohiyatidan kelib chiqqan holda turizmning turli shakllari — ekskursiya va o'rganish turizmi, arxeologik turizm, rekreatsion turizm, sarguzasht turizmi, ekzotik turizm, ekologik turizm, konferens-turlar, diniy turizm, etnik va nostalgiya turizmini rivojlantirish va mavjud bo'lmaganlarini barpo etish;

- turizm sohasini axborot bilan ta'minlash va turistik biznesda eng yangi texnologiyalardan foydalanish asosida respublikamizning turistik imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni internet saytlari orqali xorijiy mamlakatlarga tarqatish va reklama qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Плотникова Н. И. Комплексная автоматизация туристского бизнеса.Ч. I и II.Советский спорт, 2000г.
- 2.Гаранина Ю. А., Зуева Л. А., Тарасова Г. И., Родигина В. В., Сеселкин А. И.Информационные системы оперативного управления туристской фирмой: Учебное пособие под общей редакцией А.И.Сеселкина. – М: Турист, 2002г.
- 3.Гуляев В. Г. Новые информационные технологии в туризме.Учеб. пособие. – М.: ПРИОР, 1998

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA ICHKI AUDITNING INVESTITSION MUHITGA TA'SIRI

Yaxshiqulova Moxinur Tohir qizi
yaxshiqulovamoxinur@gmail.com

Korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda ichki auditni xalqaro talablar va standartlar asosida tashkil etilishini o'rganish va tadqiq etishning bugungi kundagi dolzarbligi, ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son Qaroriining qabul qilinishi bilan ham asoslanadi [1]. Xususan, "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o'rinlarda — MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish" davr talabi hisoblanadi. Bunda ichki audit va uni tashkil etishga tegishli tushuncha hamda kategoriyalarni ta'riflash va tasniflash tadqiqot ishining nazariy ahamiyatini asoslaydi. Ichki audit-bu faoliyat bo'yicha mustaqil, obyektiv tasdiqlash va maslahat berish, aksioner qiymatini oshirish yo'nalishi va korxona xo'jalik faoliyatini takomillashtirish yo'llarini axtarib topish, chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Natijada ichki audit korxonani qo'yilgan maqsadga erishishi uchun, baholashga tizimli va ketma-ket yondashuv va risklarni boshqarish jarayonlari samarasini oshirish, ichki nazorat va korporativ boshqarishga yordam beradi.

Aynan, bugun ichki audit korxonaning korporativ boshqaruv tizimining asosiy bo'g'inlaridan biriga aylanib ulgurdi. Ichki audit potensial investorlar uchun ham ijobiy ustunlik bo'lib, korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, kompaniyalarda ichki audit tizimini tashkil qilish aksioner (mulkdorlar) va rahbariyatning manfaatlari va xavfsizligini himoya qilishga yordam beradi, xatolar va talon-tarojliklardan ogohlantiradi, eng katta xatolar hamda kelajakda korxona uchun bo'ladigan xavflarni bartaraf qilish imkonini beradi, zaif tomonlarini aniqlashga va boshqaruv tamoyillarini rivojlantirishga yordam beradi. Ichki auditning korporativ boshqaruvga asoslangan korxonalarda mavjudligi boshqaruvni professional menejerlarga ishonib topshiruvchi aksioner (mulkdorlar) uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda ichki auditni tashkil etishning bir qator muammolar kuzatiladi:

➤ birinchidan, ichki audit xizmatlariga ishonch darajasi past bo'lib, ichki auditorlik tekshiruviga hisobning yuritilishi va hisobotlarning tuzilish holatining haqqoniyligini ta'minlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma'muriy tartib-taomil sifatida qaralmoqda;

➤ ikkinchidan, tashqi audit tekshiruvida ichki audit xizmatining sifati va xulosalarining inobatga olinmasligi;

➤ uchinchidan, ichki auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimini xalqaro talablarga moslashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy asoslarning yetarli emasligi;

➤ to'rtinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emasligi, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamasligi.

Shuningdek, samarali korporativ boshqaruvni shakllantirishda ichki auditning dolzarbligi rahbariyat va mulkdorlar bilan o'zaro munosabatlarning qonunchilik bazasi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va korporativ nizolarni bartaraf qilish tartibi bilan chambarchas bog'liq. Yuqorida qayd etilgan muammolarni yechimini topishda korporativ boshqaruv tizimida ichki auditning nazariy va uslubiy asoslari bo'yicha ilmiy manbalarni yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, ichki audit – bu faoliyat bo'yicha mustaqil, obyektiv tasdiqlash va maslahat berish, aksioner qiymatini oshirish yo'nalishi va korxona xo'jalik faoliyatini takomillashtirish yo'llarini axtarib topish, chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Natijada ichki audit korxonani qo'yilgan

maqsadga erishishi uchun, baholashga tizimli va ketma-ket yondashuv va risklarni boshqarish jarayonlari samarasini oshirish, ichki nazorat va korporativ boshqarishga yordam beradi.

Aynan sohaga tegishli nazariy-ilmiy va uslubiy manbalarni o'rganish natijasida korporativ boshqaruv tizimidagi rahbarlar, ta'sischi ichki auditning maqsad va vazifalari haqida bilimlarga, axborotlarga ega bo'ladilar va ushbu faoliyatni maqsadli, samarali tashkil etishga, uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga erishadilar.

Korporativ boshqarish tizimidagi korxonalarda ichki auditni xalqaro standartlar asosida samarali tashkil etishda nazariy-ilmiy asoslarni takomillashtirish ichki auditning metodologiyasini ham takomillashtirishga olib keladi. Korporativ boshqaruv tizimida ichki audit metodologiyasini xalqaro amaliyot va mahalliy tajribalarga tayangan holda takomillashtirish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga va ijtimoiy ahvolini yaxshilashga xizmat qiladi [2].

Bugungi kunda iqtisodiyotni shiddat bilan globallashtirish iqtisodiy integratsion jarayonlarining kengayib borishi korxonalarni boshqarishning eng samarali shakl va usullaridan foydalanishni talab etmoqda. Bunda korporativ boshqaruvga asoslangan korxonalar alohida ahamiyat kasb etadi va ularni salmog'ini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ammo tahlillardan ko'rinadiki, hozirgi kunda korporativ boshqaruv korporativ boshqaruv tizimini kengaytirish nafaqat O'zbekiston, balki xorijiy kompaniyalar uchun ham dolzarbligicha qolmoqda. Ayni vaqtda mamlakatimizda bozor va bozor infratuzulmasi rivojlanayotgan bir vaqtda aynan korporativ boshqaruv sifati hamda moliyaviy hisob-kitoblarning aniqligi, to'g'riligi va xolisligi kreditorlar hamda investorlar investitsiya maqsadlarini tanlashida boshqaradigan mezoniga aylanadi.

"Negaki, manfaatlar ustuni sifatida tan olingan bozor modeli avvalo aniq hisob-kitoblar algoritmini, ularni baholashni va chuqur tahliliy yechimlarni talab etadi"[3]. Chunki, moliyaviy raqobatdoshlikka va to'g'ri moliyaviy siyosatni yuritishga korxona foydasini maksimallashtirish, kapital tarkibini optimallashtirish va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mulkdorlar, investorlar va kreditorlar uchun moliyaviy holatning jozibadorligini oshirish, korxona boshqaruvi yuzasidan samarali mexanizmni shakllantirishda bozor mexanizmining barcha imkoniyatlaridan foydalanish orqaligina erishish mumkin. Shu sababli ham, korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda ichki auditni xalqaro standartlar va talablar asosida tashkil etilishini o'rganib borish zarur. Ichki audit funksiyasi boshqaruv bo'g'ini (maxsus tuzilgan ichki tarkibiy bo'linma) tomonidan amalga oshiriladi, uning tomonidan rahbariyatga ichki nazorat tizimining samarali faoliyat yuritishi, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Zero, ichki auditning maqsadi – bu tavsiyalarni tuzish, rahbariyat tomonidan hisobga olinadigan majburiy tadbir hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son Qarori. www.lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018-yil 14-noyabrdagi 144-son buyrug'iga 1-ilova: Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi Nizom.

3. Raximov M.Y. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. T.: Moliya-iqtisod, 2015, 316 b.

ИНВЕСТИЦИЯ МУҲИТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА

Р.Г.Абдуллаева

Ўзбекистон Миллий университети
Иқтисодиёт назарияси кафедраси доценти

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислохотларнинг асосий йўналиши – миллий иқтисодиётнинг очиклигини таъминлаш ва унинг жаҳон иқтисодиётига интеграцияси учун барча шарт-шароитларни яратишдан иборат бўлди. Қўйилган мақсадга эришиш учун валюта бозори эркинлаштирилди, хусусий инвесторларга энергетика, геология-кидирув, кимё ва нефть кимёси, тиббиёт ва таълим каби соҳаларда фаолият юритиш имкониятлари кенгайтирилди. Жаҳон тажрибасининг кўрсатишича, мамлакатнинг иқтисодий ривожланиш даражаси инвестиция фаолиятининг тараққиётига ва инвестиция муҳитига бевосита боғлиқ. Айниқса, хорижий инвестицияларни жалб этиш учун зарурий шарт-шароитларнинг яратилиши муҳимдир. Мамлакатда иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ва ҳуқуқий шарт-шароитларнинг мавжуд бўлиши, инвестиция муҳитининг жозибадорлигини оширади ва хорижий инвестициялар оқимини кўпайтириш учун муҳим омил бўлади. Хўш, инвестиция муҳити нима ва нималарни ўзида акс эттиради? Қуйида мутахассислар томонидан берилган таърифларни кўриб чиқамиз.

1-жадвал

Инвестиция муҳитига берилган таърифлар

Инвестиция муҳитига берилган таърифлар	
Вергине Киракосян	Инвестицион муҳит – бу маълум бир мамлакатга хорижий инвестициялар оқимини белгиловчи иқтисодий, сиёсий ва молиявий шароитлар. Қулай сармоявий муҳит сиёсий барқарорлик, аниқ қонунчилик, паст фоииз ставкалари ва имтиёзлар билан ажралиб туради.
Молиявий менежмент асослари. Луғат	Инвестицион муҳит [<i>investment environment; investment ciimot</i>] – инвестицияларнинг рентабеллик, таваккалчилик ва ликвидлик даражасига сезиларли таъсир кўрсатадиган мамлакатда инвестиция фаолияти учун яратилган ҳуқуқий, иқтисодий ва ижтимоий шароитлар тизими.
А. Вахабов, Ш.Хажикаев, Н.Муминов	Инвестицион муҳит – бу хорижий капитал қўйилмаларининг қалтислик даражасини ва улардан мамлакатда самарали фойдаланиш имкониятларини олдиндан белгилайдиган иқтисодий, сиёсий, юридик ва ижтимоий омиллар йиғиндисидир. Инвестиция муҳити комплекс, кўпқиррали тушунча бўлиб, миллий қонунчилик, иқтисодий шарт-шароитлар (инқироз, ўсиш, стагнация), божхона режими, валюта сиёсати, иқтисодий ўсиш суръатлари, инфляция суръатлари, валюта курсининг барқарорлиги, ташқи қарздорлик даражаси каби кўрсаткичларга эга ¹⁹² .
Ш.И.Мустафақулов	Инвестицион муҳит инвестицион жараёнлар амалга ошадиган шароит бўлиб, у ҳудуднинг инвестицион фаолияти ҳамда инвестицияларнинг риск даражасини аниқлайдиган сиёсий, иқтисодий ҳуқуқий, ижтимоий ва бошқа омиллар таъсирида шаклланади. ¹⁹³
Бродский М., Костенко С.	Инвестиция муҳити – муайян мамлакат ёки минтақанинг турли тармоқларига узок ёки ўрта муддатли инвестицияларни самарали жалб қилиш ва ўзлаштириш учун яратилган шарт-шароитлардир ¹⁹⁴
Райзберг Б., Лозовский Л., Стародубцева Е.	Инвестиция муҳити – бу мамлакат иқтисодиётига жалб қилинаётган ички ва ташқи инвестициялар оқимига таъсир кўрсатувчи иқтисодий, сиёсий ва молиявий шарт-шароитлардир ¹⁹⁵

¹⁹² Вахабов А.В., Хажикаев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. Т.: “Молия”, 2010.

¹⁹³ Мустафақулов Ш.И. Инвестицион муҳит жозибадорлиги. – Т.: BAKTRIA PRESS, 2017 й., Б.39.

¹⁹⁴ Бродский М., Костенко С. Инвестиции как источник конкурентоспособности // Ученые записки Института права С.Петербургского государственного университета экономики и финансов / Под ред. А.А.Ливревского. 2001. С.95.

¹⁹⁵ Райзберг Б., Лозовский Л., Стародубцева Е. Современный экономический словарь. – М.: ИНФРА – М. 2000.

Юқоридаги 1-жадвалда берилган таърифларни умумлаштирадиган бўлсак, инвестиция муҳити:

- мамлакатдаги инвестиция жараёнларига таъсир кўрсатувчи иқтисодий, сиёсий, меъёрий-ҳуқуқий, ижтимоий ва бошқа шарт-шароитлар;
- фойдали қазилмалар захиралари;
- ишчи кучи малакаси ва ўртача иш ҳақи даражаси;
- товарларни экспорт қилиш имкониятлари;
- солиққа тортиш даражаси;
- ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилманинг ривожланганлиги;
- хорижий капиталга нисбатан давлат сиёсати, яъни имтиёзли шарт-шароитларнинг яратилганлиги каби омиллар орқали белгиланади.

Шунингдек, бирор мамлакатнинг инвестицион муҳитини таҳлил қилинганда, амалдор нуқтаи назари эмас, балки ўз маблағини даромад келтирувчи лойиҳага жойлаштирмоқчи бўлган хорижий инвесторларнинг фикрлари аҳамиятлидир. Уларнинг фикрича, инвестиция муҳити бир қатор зарурий омилларга боғлиқ бўлиб, уларнинг мавжудлиги инвестиция муҳитининг энг қулай бўлишини таъминлайди:

Биринчиси, сиёсий барқарорлик бўлиб, унинг мавжуд бўлиши инвесторнинг келгуси ишларини режалаштириш ва ишонч билан олдинга интилишига имкон беради. У кучли қонуний тизимнинг мавжудлиги, ташқи ва ички ҳарбий низолар ҳамда инқилобий ўзгаришларнинг бўлмаслигида намоён бўлади.

Иккинчиси, иқтисодий самарадорлик. Ҳар бир инвестор иқтисодий ўсиш жуда юқори бўлган, ҳукумат иқтисодиётни ривожлантириш борасида барқарор сиёсат олиб бораётган мамлакат иқтисодиётига маблағ сарфлашни хоҳлайди.

Учинчи муҳим омил мамлакатдаги ҳукумат раҳбарлари, меҳнат жамоалари, муҳолиф партия вакиллари ва халқнинг хорижий инвесторларга нисбатан бўлган дўстона муносабатларидир. Ундан ташқари оддий халқнинг хорижликларга, уларнинг мамлакатдаги иқтисодий-ижтимоий фаолиятига бўлган муносабати ҳам катта аҳамият касб этади. Ушбу омил ҳам инвесторларнинг мамлакатдаги фаолиятларига катта таъсир ўтказди.

Глобаллашув тобора чуқурлашиб бораётган бугунги кунда республикамиз иқтисодиётини тараққий эттиришда инвестицияларнинг аҳамияти жуда юқори, чунки инвестициялар орқали мамлакатимизга янги технологиялар, юқори малакали мутахассислар, илғор тажрибалар, замонавий техникалар кириб келади, натижада янги иш ўринлари яратилади, аҳоли даромадлари ошади, янги бозорлар ўзлаштирилади.

Республикамизда қулай инвестиция муҳитини шакллантиришга қаратилган ислохотлар натижасида 2023 йилда 22 миллиард доллардан кўпроқ хорижий инвестициялар ўзлаштирилган. Бу 2022 йилга қараганда 1,8 баробар кўп. Бунга инвесторлар учун зарур бўлган 7 мингдан зиёд хомашё ва товарларга божхона божларини бекор қилинганлиги, божхона ҳудудида қайта ишлашнинг соддалаштирилган тартибини жорий этилганлиги, Президент ҳузурида Хорижий инвесторлар кенгашининг ташкил этилганлиги, хорижий инвесторлар учун кўчмас мулк сотиб олиш, Ўзбекистонга келиб-кетиш ва яшаш шартларининг соддалаштирилганлиги натижасида эришилди, десак муболаға бўлмайди.

Республикамизда инвестиция муҳитини янада яхшилаш учун қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади:

1. Ҳудудларнинг инвестицион рейтингини юритиш.
2. Экспорт қилинаётган товарлар улушида хомашё экспортини кескин камайтириш.
3. Мамлакатимиз сертификатларини тан олиш бўйича хорижий шериклар билан ишларни қониқарли даражада ташкил этиш.
4. Иқтисодиётнинг драйвер соҳаларида халқаро стандартларни жорий қилиш даражасини ошириш.

5. Инвесторларнинг эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда минтақадаги инвестицион муҳит ҳақида тўлиқ маълумотни ўзида акс эттирган Худудларнинг инвестиция паспорти (Investment passport) ни ишлаб чиқиш зарур.

Юқоридагиларнинг амалга оширилиши республикамизда инвестиция фаоллигини ошириш, юқори самарали инвестицион лойиҳаларни амалга ошириш, мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда ўз самарасини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1.Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. – Т.: “Молия”, 2010.
- 2.Мустафакулов Ш.И. Инвестицион муҳит жозибadorлиги. – Т.: BAKTRIA PRESS, 2017 й., Б.39.
- 3.Бродский М., Костенко С. Инвестиции как источник конкурентоспособности // Ученые записки Института права С.Петербургского государственного университета экономики и финансов / Под ред. А. А. Ливревского. 2001. С.95.
- 4.Райзберг Б., Лозовский Л., Стародубцева Е. Современный экономический словарь. – М.: ИНФРА – М. 2000.

ОБ ОПРЕДЕЛЕНИИ СОДЕРЖАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Абуталипов Марс Фуатович,

Samarkand International University of Technology

Старший преподаватель

E-mail: abutalipov.mars@gmail.com

Эффективное вложение банками привлеченных средств создает прочную основу для стабильности и роста, прежде всего самих, банков. Характер вложений банков определяется конкретными целями, вытекающими из стратегии развития и/или миссии конкретного банка. Если в теории банковского дела все вложения банков можно объединить под названием «инвестиции», то в учебной и научной литературе трактовка инвестиций не так однозначна.

В трактовке У. Шарпа, Г. Бэйли и Дж. Александера инвестиции означают процесс расставания с деньгами сегодня с тем, чтобы получить большую их сумму в будущем¹⁹⁶. Структура инвестиций здесь включает реальные и портфельные инвестиции, где под реальными инвестициями понимают вложения в какой-либо тип материально осязаемых активов, как земля, оборудование и предприятия, в то время как финансовые инвестиции представляют собой записанные на бумаге контракты в виде обыкновенных акций и облигаций.

Джон. М. Кейнс в книге «Общая теория занятости, процента и денег» определял инвестиции как «всякий прирост ценности капитального имущества независимо от того, состоит ли последнее из основного, оборотного или ликвидного капитала».¹⁹⁷

В учебнике «Экономикс» Кэмпбелла Р. Макконнелла и Стэнли. Л. Брю инвестиции определены как расходы на строительство новых заводов, на станки и оборудование с длительным сроком службы и изменение запасов.¹⁹⁸

¹⁹⁶ Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж. Инвестиции: Инфра-М. 1998, с.1.

¹⁹⁷ Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег : пер. с англ./ Дж. М.Кейнс; Пер. Н.Н.Любимов; Ред. Л.П.Кураков; Ассоциация Российских вузов. -М: Гелиос АРВ, 1999, с. 64.

¹⁹⁸ Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т.: Пер. с англ. - Таллин, 1993Т. I., с. 136.

По мнению В. Беренса и П.М. Хавранека, инвестиции в целом могут быть определены как вложение экономических ресурсов с целью создания и получения выгоды в будущем. Термин «выгода» в этом случае используется, чтобы показать, что цели инвестиций не ограничиваются чистым доходом. Основной аспект этого вложения заключается в преобразовании ликвидности - собственных и заемных средств инвестора - в производительные активы, представленные инвестициями в основной капитал и чистым оборотным капиталом, а также в создании новой ликвидности при использовании этих активов¹⁹⁹.

В трактовке Газибекова Д.Г. инвестициями является обмен определенной сегодняшней стоимости капитала на неопределенную и ожидаемую в будущем стоимость.²⁰⁰

Одним из наиболее общих, на наш взгляд, является подход Тухлиева Б.К., который дал понятие инвестиции в узкой («процесс воспроизводства стоимости основного капитала при условии ее сохранения») и широкой («направление ресурсов в определенный объект с целью получения дохода за счет создания новой стоимости в составе основного капитала») трактовках²⁰¹.

Таким образом, вышеприведенные определения рассматривают инвестиции как *процесс*, который имеет место лишь в рамках определенного периода времени.

Другим по содержанию является определение инвестиций, данное Лоренсом Дж. Гитманом и Майклом Д. Джонком, которые утверждают, что «инвестиция – это любой инструмент, в который можно поместить деньги, рассчитывая сохранить или умножить их стоимость и (или) обеспечить положительную величину дохода».²⁰²

Также с этой точки зрения инвестиции трактуются в законодательстве многих стран. Например, в Законе Республики Узбекистан «Об инвестициях и инвестиционной деятельности»²⁰³ инвестиции трактуются как «материальные и нематериальные блага и права на них, в том числе права на объекты интеллектуальной собственности, а также реинвестиции, вкладываемые инвестором на условиях несения рисков в объекты социальной сферы, предпринимательской, научной и других видов деятельности в целях получения прибыли» (Статья 3).

В Федеральном Законе «Об инвестиционной деятельности в Российской Федерации, осуществляемой в форме капитальных вложений»²⁰⁴ инвестиции определены как «денежные средства, ценные бумаги, иное имущество, в том числе имущественные права, иные права, имеющие денежную оценку, вкладываемые в объекты предпринимательской и (или) иной деятельности в целях получения прибыли и (или) достижения иного полезного эффекта» (Статья 1).

В такой форме эти трактовки понятия «инвестиции» относят инвестиции к форме капитала или собственности, которые представляют из себя скорее инвестиционный ресурс или объект инвестирования.

В качестве примера объекта инвестиций в таблице 1 представлены данные о распределении инвестиций в различные активы по странам Европы.

¹⁹⁹ Беренс В. Руководство по оценке эффективности инвестиций : Пер.с англ. перераб. и допол.изд./ В. Беренс, П. М. Хавранек. -М: АОЗТ "Интерэксперт", 1995, с. 353.

²⁰⁰ Д.Г. Газибеков. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. Т.: “Молия” нашриёти, 2003 йил. 10-бет.

²⁰¹ Тухлиев Б.К. Инвестициялар ва уларни молиялаштириш тизимини такомиллаштириш масалалари: Монография. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи»- Т, 2021.- с. 23.

²⁰² Лоренс Дж. Гитман, Майкл Д. Джонк. Основы инвестирования: Пер. с англ. - М.: Дело, 1997, с. 10.

²⁰³ Закон Республики Узбекистан «Об инвестициях и инвестиционной деятельности» №ЗРУ-598 от 25.12.2019

²⁰⁴ Федеральный Закон «Об инвестиционной деятельности в Российской Федерации, осуществляемой в форме капитальных вложений» № 39-ФЗ от 25.02.1999 (в ред. от 28.12.2022)

Таблица 1

Распределение инвестиций в различные типы активов в странах Европы за период 2016-2022 гг. (в %)

Объект инвестиций	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Земля, коммерческая недвижимость и инфраструктура	14,94	15,21	15,84	15,49	15,56	14,34	14,86
Машины и оборудование	47,34	48,33	48,68	48,49	48,78	47,77	48,55
Исследования и разработки	7,95	7,78	7,72	7,41	7,87	8,23	7,44
Информационно-коммуникационные технологии	13,43	12,55	12,80	13,30	12,87	15,09	14,51
Обучение персонала	10,41	10,46	9,39	9,46	9,27	9,58	9,54
Совершенствование организаций и бизнес-процессов	5,92	5,67	5,57	5,86	5,65	4,99	5,10
Итого:	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00

Источник: EIB Investment Survey – Режим доступа: <https://data.eib.org/eibis/download>

Почти половина всех инвестиций (в среднем 48,28% за период) была направлена на машины и оборудование, и эта доля оказалась наиболее стабильной (с коэффициентом вариации 1%). Далее следовали инвестиции в землю, недвижимость и инфраструктуру (в среднем 15,18%, коэффициент вариации 3%), а также в информационно-коммуникационные технологии (в среднем 13,51%, коэффициент вариации 4%). Инвестиции в исследования и разработки, обучение персонала, совершенствование организаций и бизнес-процессов в рассматриваемый период в сумме не превышали 1/4 всех инвестиций.

Таким образом, в экономической науке инвестиция определяется в целом как рост объема капитала, функционирующего в экономической системе, увеличение предложения производственных ресурсов. Следуя логике вышеупомянутых и других исследователей, изучавших сущность и структуру инвестиций, можно заключить, что все рассмотренные определения представляются типичными и, по сути, основаны либо на том, что инвестиции направлены на вложение капитала в наиболее перспективные с точки зрения инвестора (т.е. эффективные) сферы или области деятельности, в том числе и предпринимательскую, при этом конечная их цель состоит в увеличении вложенного капитала, либо на том, что инвестиции – это нечто, вкладываемое в определенные объекты, для получения ожидаемого эффекта.

Инвестиции коммерческих банков, как и любое иное вложение капитала, направлены на его прирост и получение иного положительного эффекта. Такой подход вытекает из основной цели деятельности коммерческого банка - *извлечения прибыли*. Поэтому важным представляется уточнение содержания понятия «инвестиционной деятельности банков».

Так, Коробова Г.Г трактует инвестиционные операции банков как «вложение денежных и иных резервов банка в ценные бумаги, недвижимость, уставные фонды предприятий и иные объекты вложений, рыночная стоимость которых способна расти и приносить банку доход в форме процентов, дивидендов, прибыли от перепродажи»²⁰⁵. Схожие по содержанию взгляды имеются и у ряда других исследователей²⁰⁶.

Додиев Ф. Ў. описывает инвестиционную деятельность банков как «покупку финансовых активов, размещение средств для создания и организации реальных активов банком в качестве инвестора с целью получения дохода»²⁰⁷.

²⁰⁵ Банковское дело: учебник / под ред. Г. Г. Коробовой. 2-е изд. стер. М.: Магистр, 2013. - с. 408.

²⁰⁶ См. например: / Якутина Э. В. Инвестиции в банковской деятельности // Economics. 2017. №5 (26). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsii-v-bankovskoy-deyatelnosti> (дата обращения: 31.08.2023).

²⁰⁷ Додиев Ф. Ў. Тижорат банкларининг инвестиция фаолиятини ривожлантириш йўллари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2014. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tizhorat-banklarining-investitsiya-faoliyatini-rivozhlantirish-y-llari> (дата обращения: 31.08.2023).

В зависимости от того, какое содержание вкладывается в термин «инвестиции» теоретиками и практиками, инвестиции могут иметь разное толкование. С одной стороны, акцентируется внимание на вложение ресурсов с целью получения определенной выгоды, но с другой - сама сфера финансирования четко не определена и размыта. Ресурсы могут быть вложены в любую область экономики: производство, обращение, финансовый сектор и т.д.

В целом, взгляды авторов на определение инвестиционной деятельности коммерческих банков разделяются. Для банков, вовлеченных в активный рынок ценных бумаг, инвестиции рассматриваются с точки зрения вложений в ценные бумаги, в то время как финансирование инвестиционных проектов трактуется с точки зрения кредитования. В экономиках, где рынок ценных бумаг недостаточно развит, в качестве инвестиций рассматриваются и другие доходоприносящие активные операции, в том числе кредитование реального сектора.

Учитывая вышесказанное, можно предложить следующую формулировку инвестиций коммерческих банков на основе Статьи 3 Закона Республики Узбекистан «Об инвестициях и инвестиционной деятельности»: «вложение коммерческим банком материальных и нематериальных благ и прав на них, а также реинвестиций на условиях несения рисков в объекты социальной сферы, предпринимательской, научной и других видов деятельности, в целях получения прибыли или иных форм выгоды». Включение в цели инвестиций иных форм выгоды является важным, так как прибыль является одной из главных, но не единственных, целей инвестиций. В условиях возрастания турбулентности на финансовых рынках все большую ценность приобретает не столько большая прибыль, сколько ее стабильность. В свою очередь, климатические изменения вынуждают банки постепенно переориентироваться на финансирование «зеленых» технологий.

Таким образом, определение инвестиционной деятельности банков не имеет определенной однозначной трактовки, поскольку само понятие инвестиций не имеет единого определения, и нет общепринятого выделения видов банковских операций как инвестиционной деятельности. Тем не менее, с учетом общих характеристик инвестиций и конкретики банковской деятельности, возможна альтернативная трактовка банковских инвестиций на базе существующих формулировок.

Список использованной литературы

1. Банковское дело: учебник / под ред. Г. Г. Коробовой. 2-е изд. стер. М.: Магистр, 2013. - 408 с.
2. Беренс В. Руководство по оценке эффективности инвестиций : Пер.с англ. перераб. и допол.изд./ В. Беренс, П. М. Хавранек. -М: АОЗТ "Интерэксперт", 1995. - 528 с.
3. Д.Ф. Ғозибеков. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. Т.: “Молия” нашриёти, 2003 йил, 332-бет.
4. Додиев Ф. Ў. Тижорат банкларининг инвестиция фаолиятини ривожлантириш йўллари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2014. №3. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tizhorat-banklarining-investitsiya-faoliyatini-rivozhlantirish-yollari>.
5. Закон Республики Узбекистан «Об инвестициях и инвестиционной деятельности» №ЗРУ-598 от 25.12.2019.
6. Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег : пер. с англ./ Дж. М.Кейнс; Пер. Н.Н.Любимов; Ред. Л.П.Кураков; Ассоциация Российских вузов.-М: Гелиос АРВ, 1999.-352 с.
7. Лоренс Дж. Гитман, Майкл Д. Джонк. Основы инвестирования: Пер. с англ. - М.: Дело, 1997. - 1008 с.
8. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2 Т.: Пер. с англ. Издательство «Туркестан». Том 1.- 1998.— 399с.
9. Тухлиев Б.К. Инвестициялар ва уларни молиялаштириш тизимини такомиллаштириш масалалари: Монография. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи»- Т, 2021.- 224 б.
10. Федеральный Закон «Об инвестиционной деятельности в Российской Федерации, осуществляемой в форме капитальных вложений» № 39-ФЗ от 25.02.1999 (в ред. от 28.12.2022).
11. Шарп У., Александр Г., Бэйли Дж. Инвестиции: Инфра-М. 1998. – 1028с.
12. Якутина Э. В. Инвестиции в банковской деятельности // Economics. 2017. №5 (26). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsii-v-bankovskoy-deyatelnosti>.

ПРЕИМУЩЕСТВА РЕАЛИЗАЦИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА

Акимниязов Тимур Базарбаевич

Национальный Университет Узбекистана им.М.Улугбека

ст. преподаватель кафедры “Финансы и кредит”

tima.akimniyazov@mail.ru

В последние годы становятся актуальным вопросы реализации крупных инвестиционных проектов на основе государственно-частного партнерства, так как не всегда бюджетное финансирование, требующее для таких проектов вложения больших средств, под силу государству. Вследствие ограниченности возможностей государственного бюджета и проблемы с комплексным структурированием проектов приводят к тому, что каждая страна стремится привлекать дополнительное финансирование за счет привлеченных средств. Одним из источников привлечения дополнительного финансирования является механизм финансирования инфраструктурных проектов с помощью рынка секьюритизированных ценных бумаг, обеспеченных активами, в том числе потенциалом этих проектов.

Поэтому развитие механизма государственно-частного партнерства (ГЧП), на основе которого реализуются инфраструктурные проекты, может стать наиболее эффективным решением данной проблемы для многих стран.

Так как бюджетные ресурсы государства ограничены, а механизм государственно-частного партнерства позволяет привлекать для крупных проектов дополнительные (внебюджетные) средства на долгосрочной основе, государству становится выгодно разделить риски и ответственность с частным партнером. В таких условиях вполне понятен интерес к ГЧП. В результате государство получает инфраструктуру, а частный инвестор – получает гарантии и механизм минимизации различных рисков, прежде всего финансовых.

В рамках ГЧП создается общественно значимый продукт «под ключ», и инвестор заинтересован в его реализации. Он предлагает инновационные решения, основанные на передовых технологиях и практиках, что делает проект более современным, эффективным и полностью соответствующим заявленным требованиям и нормам. Зачастую частный инвестор разрабатывает проект «с нуля» и отвечает за полный цикл создания: «проектирование – строительство – эксплуатация». При таком подходе появляется интегрированная инфраструктура, которая позволяет заранее учитывать особенности, проблематику и риски каждого следующего этапа.

Это помогает оптимизировать проект, применяя наиболее эффективные проектные решения. В традиционных же государственных проектах разрыв происходит на каждой стадии, что значительно влияет на их качество.

В целом, реализация полного цикла инвестиционного проекта на основе ГЧП требует высокой доли банковского финансирования, которая обеспечивает более устойчивую финансовую основу проекта. В результате не возникает препятствий при его реализации. Банки оценивают риски и устанавливают ставки по кредитам, исходя из уровня неопределенности и надежности проекта. В ГЧП государство частично берет на себя риск, что способствует снижению ставок по кредитам. Для частных же проектов банковское финансирование – достаточно дорогой способ привлечения денежных средств.

Здесь немного остановимся на механизме секьюритизации активов. Так, по мнению многих исследователей, секьюритизация – это процесс вытеснения банковского кредитования финансированием, осуществляемым путем выпуска ценных бумаг.

Поскольку механизм трансформации активов в ценные бумаги формировался в рамках общей тенденции развития финансового рынка, то данное определение следует взять за основу при определении экономического содержания понятия «секьюритизация активов».

Многие инфраструктурные проекты бывают слишком дорогими, могут иметь длительный срок окупаемости или не обладать коммерческой составляющей вовсе, что отпугивает частных инвесторов. В ГЧП государство, берущее на себя часть рисков, обеспечивает стабильность проекта – в результате реализуются проекты, которые иначе остались бы на бумаге.

При этом значительная доля ответственности ложится на плечи частного партнера. Речь о полном цикле создания, контроле за сроками проекта, зачастую сжатыми, и бюджетом. Справиться с этой ответственностью помогает то, что частные инвесторы, вовлеченные в ГЧП, обладают большей гибкостью по сравнению с государственными структурами. Ориентированный на прибыль и успех проекта частный инвестор активно ищет способы оптимизации ресурсов, сокращения издержек и повышения эффективности.

Частные инвесторы в ГЧП, как правило, обладают уже наработанными процедурами и собственными системами управления рисками, что упрощает процесс принятия решений и позволяет избежать дополнительных задержек, которые могли бы возникнуть в государственных проектах. Справиться со всеми рисками и ответственностью частному инвестору помогает большая поддержка общества, так как значимость проектов очевидна.

Чтобы ГЧП стало по-настоящему значимым инструментом взаимодействия частного и государственного секторов, необходимо совершенствовать законодательную базу в сфере ГЧП. Частные инвесторы должны принимать в этом участие и помогать государству более свободно и уверенно ориентироваться в данном инвестиционном инструменте. Сейчас как никогда важно создавать стимулы для развития ГЧП, а не вводить ограничения, поскольку в этом случае частные инвесторы могут уйти от использования механизмов ГЧП, а государству реализовать эти проекты без частной стороны будет сложно.

Исходя из вышеизложенного можно отметить, что современное развитие глобальной экономики делает целесообразным привлечение частного финансирования для реализации инфраструктурных проектов на основе ГЧП, что может стать ключевым фактором экономического развития.

Реализация эффективной инвестиционной политики, включающей в себя совершенствование нормативно-правовой базы, создание специальных экономических зон, предоставление налоговых льгот и механизмов государственно-частного партнерства, позволяет странам стать более конкурентоспособными и привлекательными для иностранных инвесторов. При этом важно также учитывать роль международных финансовых институтов, которые могут оказать значительную поддержку в этом процессе. Несмотря на существующие вызовы, такие как геополитическая нестабильность и конкуренция за инвестиции, перспективы привлечения иностранных инвестиций остаются благоприятными для стран, использующих комплексный и стратегический подход.

В этом контексте следует подчеркнуть, что в обозримом будущем реализация инфраструктурных проектов на основе ГЧП может стать основным инструментом привлечения дополнительного финансирования из частного сектора, что позволит значительно снизить нагрузку на бюджет. Также для эффективности данного механизма нужно развивать рынок секьюритизированных ценных бумаг, обеспеченных активами, в том числе потенциалом реализуемых проектов.

Список использованной литературы

1. Казаков А. История секьюритизации // Рынок ценных бумаг. 2003. № 19. С. 62–65.
2. Деньги. Кредит. Банки: учеб. 2-е изд., перераб. и доп. / под ред. В. В. Иванова, Б. И. Соколова. М.: Проспект. 2008. 848 с.
3. Иванов В. В., Канаев А. В., Соколов Б. И., Топровер И. В. Теории кредита. СПб.: Изд. СПб. ун-та. 2007. 410 с.

4. Миллер Р. Л., Ван-Хуз Д. Д. Современные деньги и банковское дело: учебник. 3-е изд. / пер. с англ. М.: ИНФРА-М. 2000. 856 с.
5. Мишкин Ф. С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков: учеб. пособие для вузов / пер. с англ. / под ред. М. Е. Дорошенко. М.: Аспект Пресс. 1999. 820 с.

ЎЗБЕКИСТОНДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШДА ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Ф.Б Даниярова

Ўзбекистон Миллий университети, Иқтисодиёт факультети
Иқтисодиёт назарияси кафедраси катта ўқитувчиси, PhD

Мамлакатимизда агросаноат мажмуасини инвестициялашнинг ўзига хос хусусиятлари, мамлакат иқтисодиёти, хусусан, аграр тармоқнинг инвестицион жозибадорлигини оширишда унинг ҳуқуқий-институционал асосларини тадқиқ этиш орқали уни янада такомиллаштириш имкониятларини аниқлаш мумкин бўлади. Ўзбекистонда инвестицион фаолияти қонунлар, Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонлари ва Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари, шунингдек, бошқа норматив аҳамиятга эга бўлган меъёрий ҳужжатлар орқали тартибга солиб турилади.

Шу сабабли ҳам, 1998 йилга келиб мамлакатимизда инвестицион муносабатларни тартибга солишнинг ҳуқуқий асосини ташкил этувчи қуйидаги меъёрий ҳужжатлар қабул қилинди:

– 1998 йил 30 апрелдаги “Чет эл инвестициялари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни²⁰⁸;

– 1998 йил 30 апрелдаги “Чет эллик инвесторлар ҳуқуқларининг кафолатлари ва уларни ҳимоя қилиш чоралари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни.²⁰⁹

Хусусан, илгари амал қилган қонунчиликда “тўғридан-тўғри чет эл инвестициялари” тушунчаси мавжуд эмас эди. Янги қонунда мазкур иқтисодий категорияга қуйидагича таъриф берилган: “чет эл инвестициялари – чет эллик инвестор томонидан ижтимоий соҳа, тадбиркорлик, илмий ва бошқа фаолият турлари объектларига киритиладиган моддий ва номоддий бойликлар ҳамда уларга бўлган ҳуқуқлар, шу жумладан, интеллектуал мулк объектларига бўлган ҳуқуқлар, шунингдек, реинвестициялар”²¹⁰. Таҳлиллар кўрсатишича, “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги қонуннинг қабул қилиниши натижасида, мамлакатимизда хорижий инвестициялар ва чет эллик инвесторлар фаолиятининг ҳуқуқий кафолатлари ва ҳимоясининг аниқ механизми яратилди. Ҳозир Ўзбекистонда тадбиркорликни ривожлантириш ва хорижий инвестицияларни жалб қилишни кенгайтириш мақсадида солиқ юкини камайтириш ва инвесторлар учун қулай инвестицион муҳитни шакллантиришни таъминлайдиган солиқ тизими шаклланди. Таҳлиллар кўрсатишича, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мева-сабзавотчилик ва узумчилик соҳасида иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-3709-сонли фармонида илк бор “агрофирма муассасалари” иқтисодий категориясининг ҳуқуқий асоси ёритилган. Фармонда белгиланишича, “агрофирма муассасалари – фермер хўжаликлари шартномадан ташқари етиштирилган қишлоқ хўжалик маҳсулотини ўз хоҳишига қараб ички бозор ва экспортга сотади”. Шу билан бир қаторда, агрофирмалар фермер хўжаликлари томонидан ихтиёрийлик асосида ташкил этилиши, жумладан, муассислар таркибига фермерлар билан бирга барқарор хўжалик алоқалари ва илғор ишлаб чиқариш

²⁰⁸ <https://lex.uz/acts/32450>.

²⁰⁹ <https://lex.uz/acts/35333>.

²¹⁰ <https://lex.uz/acts/4664142?ONDATE=27.01.2020%2000#4665305>.

технологияларига эга бўлган, якин ҳудудда жойлашган мева-сабзавот ва узумчилик маҳсулотларини қайта ишлайдиган корхоналар кириши мумкинлиги таъкидлаб ўтилган. Ушбу Фармоннинг ўзига хос хусусияти шундаки, агрофирмаларни исталган ташкилий-ҳуқуқий шаклда, жумладан, хорижий инвесторлар иштирокидаги қўшма корхоналар шаклида ташкил этилиши мумкинлиги кўрсатилган²¹¹.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда амалга оширилган изчил ижтимоий-иқтисодий ислохотлар натижасида барқарор иқтисодий ўсиш кўрсаткичларига эришилди. Жумладан, 2000 – 2022 йилларда мамлакат ЯИМнинг ўртача йиллик ўсиш кўрсаткичи 106,3 фоизга тенг бўлди. Ушбу ҳолат мамлакатимиз иқтисодиётини тез суръатларда ривожланаётганлигидан далолат беради. Таҳлил этилаётган даврда миллий иқтисодиётда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмининг ўрта ҳисобдаги йиллик ўсиш кўрсаткичи 105,1 фоизлик ўсиш тенденциясига эга бўлиб келмоқда (1-расмга қаранг). Таҳлиллар кўрсатишича, мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми барқарор суръатларда ривожланиб келмоқда. Бу ўз навбатида, мамлакатнинг озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмининг ортиши билан бир қаторда унинг хавфсизлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан берилган маълумотларга кўра, кейинги йилларда Тошкент вилояти қишлоқ хўжалигида кейинги йилларда умумий қиймати 364 млн. долл.га тенг бўлган жами 234 та инвестицион лойиҳаларни амалга оширилиши режалаштирилган. Ушбу инвестицион лойиҳалар доирасида 9,4 минг янги иш ўрни яратилади²¹².



1-расм. Ўзбекистонда ЯИМ ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиш суръати (аввалги йилга нисбатан фоизда)²¹³.

Амалга оширилган тадқиқотлар натижасига таянган ҳолда кейинги йилларда Тошкент вилоятида қишлоқ хўжалигини инвестициялашни “қуйидаги йўналишларда амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

- гўшт ва гўшт маҳсулотлари қайта ишлаш комплексини шакллантириш;
- қуруқ меваларни қайта ишлаш, уларни қадоқлаш;
- мевалар ва уларни қайта ишлаш орқали мевали жемларни ишлаб чиқариш;

²¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мева-сабзавотчилик ва узумчилик соҳасида иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-3709-сонли Фармони, 2006 йил 9 январь. <https://lex.uz/docs/967545>.

²¹² Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари асосида тузилган. https://www.mf.uz/media/file_uz/state-budget/pub/bud_for_cit_tawobl_2019_uz.pdf.

²¹³ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида тузилган.

- сабзавотларни қайта ишлаш, жумладан, консерванган сабзавотлар ишлаб чиқариш”²¹⁴;
- чорва моллари ва паррандалар учун озуқа маҳсулотлари (комбикорм) ишлаб чиқариш;
- ёш болалар учун озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш (сут, манний ёрмаси, мева ва сабзавотлар ва ҳ.к.);
- қуён наслчилик кластерини ривожлантириш;
- сублимация усулида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қуриштириш;
- интенсив ва ақлли боғларни яратиш;
- мева-сабзавот маҳсулотларини сақлаш, турларга ажратиш, қайта ишлаш, қуриштириш, шокли музлатиш ва экспорт қилиш бўйича агрологистика марказини шакллантириш ва ҳ.к.

Фикримизча, юқоридагиларни инобатга олган ҳолда Тошкент вилоятида қишлоқ хўжалигини инвестициялашга қаратилган лойиҳаларнинг амалга оширилиши драйвер соҳалар чорвачилик, мева-сабзавотчилик, сутчилик соҳаси, замонавий иссиқхона, интенсив боғ яратиш соҳалари ҳисобланади. Албатта, қишлоқ хўжалигини тармоқ ва соҳаларига инвестиция киритишда ҳар бир тармоқни ривожланган мамлакатлар тажрибаларидан кенг фойдаланган ҳолда лойиҳавий корхоналар ташкил этиш асосида молиялаштириш мақсадга мувофиқ бўлади ва имкониятларидан тўлиқ фойдаланиш имкониятини беради. Бу эса ўз навбатида яратилади. вилоятнинг мамлакат иқтисодиётида тутган ўрнини янада мустаҳкамлаш учун замин

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-3594-сонли Фармони, 2005 йил 11 апрель. <https://www.lex.uz/docs/555778>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мева-сабзавотчилик ва узумчилик соҳасида иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-3709-сонли Фармони, 2006 йил 9 январь. <https://lex.uz/docs/967545>.
3. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги.
4. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари асосида тузилган. https://www.mf.uz/media/file_uz/statebudget/pub/bud_for_cit_tawobl_2019_uz.pdf.
5. Даниярова Ф.Б “Қишлоқ хўжалигида инвестициялар самарадорлигини оширишнинг назарий ва амалий асослари “ PhD диссертацияси 70 73 б.
6. <https://lex.uz/acts/35333>.
7. <https://lex.uz/acts/4664142?ONDATE=27.01.2020%2000#4665305>.
8. https://nrm.uz/contentf?doc=595034_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_vazirlar_mah_kamasining_23_07_2019_y.
9. <https://www.lex.uz/docs/2513898?ONDATE=10.12.2014%2000#2513939>
10. <https://www.lex.uz/docs/29905>.

²¹⁴ Ўша манба.

ИНСОН КАПИТАЛИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАР

Г.А.Зиёдуллаева

Ўзбекистон Миллий университети
Иқтисодиёт факультети макроиқтисодиёт
йўналиши 1-курс магистранти

Инсон капитали тушунчаси илк бор 1958 йилда АҚШ иқтисодчиси Ж.Минсер томонидан қўлланилган бўлса, 1961 йилга келиб, иқтисодчи олимлар Т.Шульц ва 1962 йилда Г.Беккерлар томонидан инсон капитали концепциялари ишлаб чиқилди ва иқтисодиёт фанида муҳокамага киритилди. Инсон капитали назарияси соҳасида улкан, оламшумул илмий ишлари учун 1979 йилда Т. Шульц, 1992 йилда Г.Беккер, 1998 йилда А.К.Сен, 2019 йилда А.Банерджи, Э.Дюфло ва М.Кремерлар иқтисодиёт соҳасида Нобел мукофотига сазовор бўлишди.²¹⁵ Инсон капитали – бу иқтисодий ривожланишнинг интенсив ишлаб чиқариш омили, жамият ва оилани ривожлантириш, меҳнат ресурсларининг билимли қисми, интеллектуал ва бошқарув меҳнати, яшаш ва иш жойи мухитидир.²¹⁶ Инсон капитали фан ва техника тараққий этган замонавий дунёда иқтисодий жараёнларнинг ўсишини таъминловчи асосий омилга айланиб бораётган инсоннинг яратувчанлик қобилиятларининг сифат ўзгаришлари билан боғлиқ. Инсон ва унинг саломатлигини, қобилиятларини, таълим даражаси, малака кўникмалари ҳар қандай жамият фаровонлиги ва давлат иқтисодий тараққиётининг асосий омилига айланган бугунги кунда Ўзбекистонда ҳам инсон капитали, шубҳасиз, ижтимоий иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналиши сифатида намоён бўлмоқда. Инсон капиталини инвестициялаш — инновацион иқтисодиёт, глобал ахборот тизимлари, энг янги технологиялар ва бизнеснинг янги шакллари ривожлантириш, уларни молиявий тарафлама қўллаб-қувватлашнинг зарур шарти саналади. К.Макконнел ва С.Брю таърифига кўра, инсон капиталига инвестиция «ишчиларнинг малака ва кўникмаларини ва шу орқали меҳнат унумдорлигини оширадиган ҳар қандай ҳаракатдир. Бировнинг маҳсулдорлигини оширадиган харажатларни инвестиция деб ҳисоблаш мумкин, чунки харажатлар келажакда даромадлар оқими билан кўп марта қопланишини кутиш билан амалга оширилади».²¹⁷ Мамлакатимиз иқтисодчи олими Қ.Абдурахмановнинг фикрига кўра, «инсон капиталини, энг аввало, унинг билим даражасини ошириш орқали рўёбга чиқариш мумкинлигига ёшларда ишонч бор. Таълим юқори иш ҳақи, юқори мартаба, моддий бойлик ва молиявий барқарорликни кафолатлайди».²¹⁸

Мамлакатимиздаги инсон капиталига инвестицияларга тўхталадиган бўлсак, янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида инсон капиталини ривожлантириш ва таълим сифатини ошириш, жамиятнинг барча аъзоларига таълим хизматларининг ҳамма босқичларидан фойдаланиш имконияти берилишини таъминлаш учун давлат бюджетидан маблағлар ажратишга алоҳида эътибор қаратилган ҳамда 2023 йилда давлат бюджетидан инсон капиталига инвестициялар улушини қуйидаги диаграммада кўришимиз мумкин:


²¹⁵ Шульц Т. Инвестиции в человеческий капитал – Лондон 1971. – 522с. Becker, Gary S. “Investment in human capital: A theoretical analysis” *Journal of political economy* 70.5 Part 2 (1962):9-49

²¹⁶ Abdurakhmanova, G., & РУСТАМОВ, Д. (2020). Инсон капиталини рақамли иқтисодиёт асосида ривожлантириш йўналишлари. *Архив научных исследований*, 1(15). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1414>

²¹⁷ Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика: В 2 т. –М.: Республика, 1992. Т. 2. –400 б

²¹⁸ Абдурахманов К.Х. Развитие человеческого капитала в инновационной экономике. // “Меҳнат иқтисодиёти ва инсон капитали” илмий-электрон журнали. 2022 йил, махсус сон.

ИЖТИМОЙ ХАРАЖАТЛАР ТАРКИБИ, 2023 ЙИЛ УЧУН РЕЖА, МЛРД СЎМ



1-расм. 2023 – йил учун ижтимоий харажатлар таркиби.²¹⁹

2023 йил учун ижтимоий харажатлар таркибининг 45% қисми таълим соҳасига, 22% қисми соғлиқни сақлашга ҳамда 2% улуши маданият соҳаларига жалб қилинганини кўриб туришимиз мумкин. Диаграммадан келиб чиққан ҳолда соғлиқни сақлаш соҳасининг улуши нисбатан камроқ эканлигини кўришимиз мумкин. Бунинг оқибатида тиббиётни ривожлантириш бир қанча секинроқ амалга оширилишини кузатишимиз мумкин. Масалага ечим сифатида аввало аҳолининг тиббий даражасини ошириш лозим. Масалан, форс мажор ҳолатларда ҳар бир инсон биринчи тез тиббий ёрдам кўрсатишни билиши керак.

Хусусан, республикамызда 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида келтириб ўтилган «Адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини ривожлантириш» устувор йўналишларидан бирида инсон капиталини инвестициялаш борасида бир қанча вазифалар белгилаб қўйилган, шулардан:

- 2022 — 2026 йилларда 160 мингдан зиёд педагог кадрларнинг малакасини ошириш.
- Олий таълим билан қамров даражасини 50 фоизга етказиш ва таълим сифатини ошириш.
- Иқтисодиётга инновацияларни кенг жорий қилиш, саноат корхоналари ва илм-фан муассасаларининг кооперация алоқаларини ривожлантириш.
- Тиббий хизматлардаги хусусий секторнинг улушини 25 фоизга етказиш.
- Мамлакатда ишлаб чиқариладиган дори-дармон ва тиббиёт воситаларининг улушини 80 фоизга етказиш.
- Олимпия ва Паралимпия ҳаракатини ривожлантириш.
- Ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш.²²⁰

Ушбу вазифалардан шундай хулоса қилиш мумкинки, 2026 йилгача инсон капиталига инвестиция киритиш орқали Ўзбекистонда кутилаётган инвестиция билан боғлиқ пайдо бўлиши мумкин бўлган муаммоларнинг олдини олиш, халқаро стандартларга мос келадиган таълим, соғлиқни сақлаш ва ижтимоий ҳимоя тизимларини яратиш режаларини ўзида мужассам этган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Шульц Т. Инвестиции в человеческий капитал – Лондон 1971. – 522с. Becker, Gary S. “Investment in human capital: A theoretical analysis” “Journal of political economy” 70.5 Part 2 (1962):9-49

²¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг “2023 йилги “Фуқаролар учун бюджет”” Тошкент. 2022 йил.

²²⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.<https://lex.uz/docs/5841063>

2. Abdurakhmanova, G., & РУСТАМОВ, Д. (2020). Инсон капиталини рақамли иқтисодиёт асосида ривожлантириш йўналишлари. *Архив научных исследований*, 1(15). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1414>
3. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика: В 2 т. –М.: Республика, 1992. Т. 2. –400 С.
4. Абдурахманов К.Х. Развитие человеческого капитала в инновационной экономики. // “Меҳнат иқтисодиёти ва инсон капитали” илмий-электрон журнали. 2022 йил, махсус сон.
5. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг “2023 йилги “Фуқаролар учун бюджет” Тошкент. 2022 йил.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>
7. www.worldbank.org
8. www.lex.uz
www.stat.uz

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНИНГ ИҚТИСОДИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ

Исмаилов Бахыт Абдиреймович,
Қорақалпоқ давлат университети
PhD., доцент
Email: Ismailov_Bakhit79@mail.ru

Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш Ўзбекистон иқтисодиётининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Бугунги кунда у ёки бу соҳада хизмат кўрсатмайдиган корхона ва ташкилот деярли қолмади. Ҳар куни ҳаммамиз бу соҳага дуч келамиз: уяли алоқа телефонлари, интернет, савдо-қўнгилочар марказлар хизматлари, умумий овқатланиш шохобчалари, гўзаллик салони, маслаҳат марказлари, тиббий ва ўқув муассасалар кўрсатаётган хизматлар, турли транспорт турларида саёҳат қилиш ва юк ташиш хизматлари шулар жумласидандир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги ПФ-4947-сонли Фармонининг учинчи устувор йўналишида ҳам хизматлар кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш, яъни ички маҳсулотни шакллантиришда хизматлар роли ва улушини ошириш, кўрсатилаётган хизматларнинг тузилмасини, аввало, хизматларнинг замонавий юқори технологик турлари ҳисобига тубдан ўзгартириш каби масалалар алоҳида белгилаб берилган. Ушбу ҳужжат аслида жамиятнинг барча жабҳаларида тизимли ислохотлар учун «йўл харитаси» га айланди. Бугунги кунда сервис ва хизматлар соҳаси иқтисодиётнинг муҳим тармоқларидан бири ҳисобланади.

Иқтисодиётнинг муҳим тармоқларидан бири бўлган хизматлар соҳасининг аҳамияти катта ва долзарб ҳисобланади. Ишлаб чиқариш жараёнларининг тобора мураккаблашиб бораётганлиги, бозорни кунлик ва индивидуал талабларга мос истеъмол товарлари билан тўлдириш, инновацион ривожланишнинг жадал ўсиши жамият ҳаётининг янгиланишига олиб келади.

Ўзбекистон иқтисодиётида хизмат кўрсатиш соҳасининг улушини ошириш, жойлардаги хизмат кўрсатиш соҳасидаги мавжуд имкониятларни тўла ишга солиш, маҳсулот турларини кенгайтириш ва сифатини ошириш билан боғлиқ долзарб масалаларни ҳал этиш мақсадида Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг 2021 йил 11 майда “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди.

Янги иш ўринлари яратиш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва даромадларини оширишда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасининг алоҳида ўрни бор. Бу соҳада янги иш ўринларини кам

харажат билан ва қисқа муддатда ташкил этиш мумкин. Чунки мамлакатимизда бу тармоқни ривожлантириш имкони катта бўлиб, у ортиқча маблағ талаб этмайди.

Ҳозирги кунда хизматлар соҳаси иқтисодийнинг тез ривожланувчи тармоқлари бўлиб, у Ўзбекистон иқтисодийни тараққиётини белгиловчи янги йўналиш сифатида намоён бўлмоқда. Хизматларнинг хилма-хил янги турлари кенгайиб, хизматлар бозорида салмоқли ўринни эгаллаб бораётган банк-молия, туризм, суғурта, ахборот-коммуникация хизматлари ва бошқаларни ривожлантириш ҳисобига янги иш ўринлари барпо этилмоқда.

Жумладан, 2022 йилда қабул қилинган “Хизматлар соҳасини қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги Президент қарори соҳада кичик корхоналар ва микрофирмаларни имтиёзли кредитлаш, имтиёзли солиқ ставкаларини жорий этиш, янгича хизмат турларини ташкил этиш юзасидан инфратузилмаларни яхшилаш ҳамда тадбиркорларни молиявий қўллаб-қувватлаш орқали хизматлар ҳажмини янада кенгайтириш учун рағбат бўлмоқда.

Олиб борилган чора-тадбирлар натижасида ялпи ички маҳсулот ҳажми жорий йилнинг I йиллигида 469,6 трлн. сўмни ташкил этиб, ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 5,6 фоизга ўсди.

2023 йилнинг январь июнь ойлари якунларига кўра, ЯИМ таркибида катта бўлмаган ўзгаришлар кузатилган бўлсада, ЯИМ (ЯҚҚ) таркибида хизматлар соҳасининг улуши 44,1 % дан 47,1 % га ошганини кўришимиз мумкин.

ЯИМнинг бошқа тармоқларига назар ташлайдиган бўлсак, жумладан, қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалигининг улуши 20,9 % дан 20,1 % га, саноатнинг улуши 28,0 % дан 26,3 % га, қурилиш тармоғининг улуши 7,0 % дан 6,5 % га камайди.


Ушбу ЯИМда тармоқларнинг ялпи қўшилган қийматларининг ҳажми 444,4 трлн. сўм бўлиб, тармоқлар кесимида қуйидагича улушни ташкил этади:

Юқоридаги рақамларга асосан, иқтисодий фаолият турлари бўйича ЯИМда энг юқори улуш хизматлар соҳасида ўз ифодасини топмоқда.

Жорий йилнинг ўтган 8 ойида тармоқлар кесимидаги ўсиш кўрсаткичлари 2022 йилнинг мос даврига нисбатан ўзгаришлари қуйидагича акс этган:

- хизмат кўрсатиш соҳаси + 58,7 трлн. сўмга;
- қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги + 12,9 трлн. сўмга;
- саноат соҳаси + 12,6 трлн. сўмга;
- қурилиш соҳаси + 3,3 трлн. сўмга ошган.

Иқтисодий тармоқларда хизматлар соҳасининг ўсиш суръати юқори бўлганлиги сабабли, ушбу хизматлар ҳажмининг ўтган йилларга нисбатан жадал ўсиб бориши аҳоли жон бошига кўрсатилган хизматлар ҳажмининг юқори ўсишишга ҳамда аҳоли даромадларининг қўпайишига сабаб бўлмоқда.



1-расм. Хизматлар кўрсатиш соҳасининг кўрсаткичлари.¹

Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришга иқтисодий ўсиш билан бирга унга таъсир этувчи омиллар бўлган фан-техника тараққиёти, ахборот технологиялари ва инновациялар ҳам

кучли таъсир кўрсатади ва бу хизмат кўрсатиш соҳасида чуқур сифат ва таркибий ўзгаришлар бўлишига олиб келади.

Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш шартларидан бири мамлакат иқтисодий салоҳияти ўсиши ва миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини оширишдан иборат. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётини шакллантириш учун энг муҳим шартлардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. //Халқ сўзи, 2017 й. 08.02. №28 (6722).
2. Очилов И. Бозор муносабатлари шароитида хизматларнинг турлари ва уларнинг таснифи. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари.(Монография) – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2008, 18 бет.
3. Пардаев М.Қ. Хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари (назарий жиҳатлар)./Сервис – Самарқанд, 2009. № 1, 37-44 бетлар.

ПУТИ ДАЛЬНЕЙШЕГО УЛУЧШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО КЛИМАТА В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ

Ф.А.Кўчқаров – Самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного экономического университета

Б.С.Маматов – профессор, доктор экономических наук
Ташкентского государственного экономического университета

Развитие аграрного сектора в Узбекистане остается крайне актуальной задачей по ряду причин. Во-первых, сельское хозяйство продолжает играть ключевую роль в экономике Узбекистана, обеспечивая занятость значительной части населения и являясь важным источником дохода для многих семей. Развитие аграрного сектора способствует увеличению валового внутреннего продукта страны и снижению уровня бедности. Во-вторых, развитие сельского хозяйства необходимо для обеспечения продовольственной безопасности страны. Увеличение производства сельскохозяйственной продукции внутри страны позволяет снизить зависимость от импорта продуктов питания и обеспечить стабильное питание для населения. В-третьих, Узбекистан обладает значительным потенциалом для экспорта сельскохозяйственной продукции на мировые рынки. Развитие аграрного сектора и повышение его конкурентоспособности могут способствовать увеличению экспортных поставок, что положительно скажется на внешнеторговом балансе страны и привлечении валютных средств. В-четвертых, сельское хозяйство остается одним из крупнейших секторов, обеспечивающих рабочие места в Узбекистане, особенно в сельских районах. Развитие аграрного сектора способствует созданию новых рабочих мест и снижению уровня безработицы. В-пятых, развитие сельского хозяйства должно основываться на устойчивом использовании природных ресурсов, таких как земля, вода и биоразнообразие. Эффективное использование этих ресурсов позволяет сохранить окружающую среду и обеспечить устойчивость аграрного сектора в долгосрочной перспективе.

В целом, развитие аграрного сектора остается приоритетом для устойчивого социально-экономического развития Узбекистана, и вложение усилий в его модернизацию и улучшение является ключевой задачей для правительства и бизнес-сообщества.

«В 1981-2016 годах глобальные государственные инвестиции в сельскохозяйственные научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы (НИОКР)²²¹ удвоились, причем в крупных странах со средним уровнем дохода их увеличение было значительным; однако в небольших странах с уровнем дохода ниже среднего по-прежнему ощущается нехватка инвестиций в сравнении с другими компонентами поддержки общих услуг, такими как инвестиции в инфраструктуру»²²².

Почему сельское хозяйство – выгодное направление для инвестиций?

Продолжающийся рост числа потребителей. В 2022 году человечество перешагнуло отметку в 8 млрд. жителей. «По прогнозам ООН, к 2037 году количество человек на планете возрастет до 9 млрд, а к 2058 году достигнет 10 млрд. человек»²²³. Это означает, что населению Земли будет требоваться все больше продовольствия, а сельскохозяйственной отрасли предстоит постоянно наращивать производство своей продукции.

Потребность в технологиях из-за сокращения свободных земель. Количество плодородных земель в мире физически ограничено. «По данным последних исследований, проведенных под руководством Геологической службы США (USGS) в рамках проекта GFSAD30, в мире насчитывается 1,87 млрд га плодородных сельскохозяйственных земель»²²⁴. Нехватку земель отрасль будет компенсировать новыми технологическими решениями, например, технологией вертикального земледелия и прочими, искать новые способы повышения плодородности почв и роста повышения урожайности. Все это будет способствовать вливаниям инвестиций в сельское хозяйство.

Субсидии и поддержка государства. Сельское хозяйства активно поддерживается властями многих государств, в том числе в рамках политики по продовольственной безопасности, так как это направление является жизненно важным для населения.

Иными словами, сельское хозяйство опирается на удовлетворение базовых потребностей человека в продуктах питания, поэтому его трудно чем-то заменить. Тем не менее, этот факт автоматически не означает, что вложение в любое направление сельского хозяйства будет выгодным и гарантированно принесет большую прибыль.

Для улучшения инвестиционного климата в аграрном секторе Узбекистана могут быть предприняты следующие меры:

1. Правовые и регуляторные реформы: принятие новых или улучшение существующих законов и нормативных актов, которые обеспечивают защиту прав и интересов инвесторов, упрощают процедуры регистрации бизнеса, получения разрешений и лицензий, а также обеспечивают прозрачность и предсказуемость правовой среды.

2. Создание инвестиционных зон: формирование специальных экономических зон или агропромышленных парков с льготным налогообложением, упрощенными процедурами регистрации и инфраструктурой, специально адаптированной для аграрного сектора, может привлечь больше инвесторов.

3. Развитие финансовых инструментов: предоставление доступа к финансированию для инвесторов в аграрный сектор путем создания специализированных финансовых инструментов, таких как кредиты с низкой процентной ставкой, гарантии кредитования и инвестиционные фонды.

4. Поддержка иностранных инвестиций: создание благоприятной среды для иностранных инвесторов, включая защиту их прав, упрощенные процедуры регистрации иностранных инвестиций, а также меры по содействию иностранным инвесторам в поиске партнеров и реализации проектов.

²²¹ Совокупность работ, направленных на получение новых знаний и практическое применение при создании нового изделия или технологии.

²²² [Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире 2023 \(fao.org\)](https://www.fao.org/russia/ru/press-releases/2023/01/2023-01-10-ru).

²²³ [Инвестиции в сельское хозяйство, производство \(businessmens.ru\)](https://businessmens.ru).

²²⁴ [Инвестиции в сельское хозяйство, производство \(businessmens.ru\)](https://businessmens.ru).

5. Развитие инфраструктуры: инвестирование в развитие транспортной, энергетической и коммуникационной инфраструктуры, особенно в сельских районах, способствует улучшению условий для ведения бизнеса в аграрном секторе и привлекает инвестиции.

6. Образование и подготовка кадров: развитие системы образования и профессиональной подготовки в области сельского хозяйства и агробизнеса помогает обеспечить наличие квалифицированных кадров для инвестиционных проектов и повышает конкурентоспособность сектора.

7. Прозрачность и коррупционная борьба: улучшение уровня прозрачности в государственном управлении, борьба с коррупцией и обеспечение честной конкуренции в сельскохозяйственном секторе создают благоприятную среду для инвестиций.

Реализация этих мер поможет создать благоприятный инвестиционный климат в аграрном секторе Узбекистана и привлечь больше инвестиций для его развития.

Список использованной литературы

1. Совокупность работ, направленных на получение новых знаний и практическое применение при создании нового изделия или технологии.
2. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире 2023 (fao.org).
3. Инвестиции в сельское хозяйство, производство (businessmens.ru)

МАМЛАКАТ ҚУРИЛИШ СОҲАСИГА КИРИТИЛАЁТГАН ИНВЕСТИЦИЯЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Мараимова Умида Исмаилжановна

Андижон давлат университети

Иқтисодий кафедраси мудири, и.ф.н., доц

Сармоялар иқтисодий тараққиётнинг ўта муҳим омилларидан бирини намоён қилади. Иқтисодий жиҳатдан ривожланаётган мамлакатларда эса инвестициянинг аҳамияти анчагина катта, негаки, уларнинг олдида иқтисодётни таркибий жиҳатдан қайта қуриш муаммоларини ҳал этиш, унинг ишлаб чиқариш салоҳиятини модернизациялаш каби кенг қўламли вазифалар туради.

Ўзбекистон Республикасининг «Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида» Қонуни (Қонунчилик палатаси томонидан 2019 йил 9 декабрда қабул қилинган, Сенат томонидан 2019 йил 14 декабрда маъқулланган) бўйича инвестициялар мўлжалланган объектига кўра капитал, молиявий ва ижтимоий турларга бўлинади. Асосий фондларни яратиш ва такрор кўпайтиришга, шу жумладан янги қурилишга, модернизация қилишга, реконструкция қилишга, техник жиҳатдан қайта жиҳозлашга, шунингдек, моддий ишлаб чиқаришнинг бошқа шакллари ривожлантиришга киритиладиган инвестициялар капитал инвестициялар жумласига киради. Ушбу ҳолат кўплаб муаллифларнинг қурилишда "инвестиция шартномаси" атамаси кўпроқ ишлаб чиқарувчи ва инвестор ўртасидаги муносабатларнинг иқтисодий моҳиятини акс эттиради, деб таъкидлаш учун асос бўлди (бизнинг ҳолатда, кўчмас мулкни шахсий мулк сифатида сотиб олган шахс). Шу муносабат билан, юқори суд ушбу шартнома тузилмасини амалдаги шартномалар бўйича тартибга солади. Бироқ, бу ҳолат тўғри ҳисобланмайди, сабаби қурилишдаги бошқа инвестиция шартномаларини ҳуқуқий тартибга солиш, қурилишда улушли иштирок этиш шартномаси бундан мустасно, "инвестиция шартномаси" тоифасини ҳуқуқий бўлмаган тушунча сифатида таснифлаш учун асос бўла олмайди. Бундан ташқари, фуқаролик шартномалари у ёки бу тарзда жамиятда содир бўлаётган иқтисодий жараёнларни акс эттиради ва кўплаб иқтисодий муносабатларни тартибга солиш учун ҳуқуқий нормаларни қўллайдиган (масалан, "олди-сотди", "лизинг", "кредит", вабошқалар.). Янги Ўзбекистон шароитида қурилиш соҳаси жадал

суръатларда ривожланиш тенденциясига эга бўлиб келаётган тармоқлар қаторидан ўрин эгаллайди. Жумладан, Президентимиз Ш.М. Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Бугунги кунда мамлакатимиз қурилиш соҳасида ҳам янги давр бошланди, десак, тўғри бўлади. Аввало, соҳанинг ҳуқуқий ва моддий-техник базаси мустаҳкамланиб, республикамизнинг барча ҳудудларида илғор технология ва ёндашувлар асосида фаолият юритадиган янги-янги қурилиш ташкилотлари пайдо бўлаётгани, қурилиш материаллари индустрияси юқори суръатлар билан ривожланаётгани, малакали етук кадрлар тайёрлаш тизими йўлга қўйилгани шундай деб айтишга асос беради”.²²⁵

Ўрни келганда мамлакат иқтисодиётининг қурилиш соҳасидаги кўрсаткичларига тўхталадиган бўлсак, Ўзбекистонда 2017–2020 йилларда ислохотларнинг натижаси ўлароқ, қурилиш сектори иқтисодиётнинг бошқа тармоқларига нисбатан жадал суръатларда ўсаётганлигини кўриш мумкин.

Агар қишлоқ хўжалиги 2017 йилда 1,2%, 2018 йилда 0,3%, 2019 йилда 3,1%, 2020 йилда 3,0%га ва саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш 2017 йилда 5,2%, 2018 йилда 10,8%, 2019 йилда 5,0%, 2020 йилда 0,7%га ўсган бўлса, қурилиш ҳажми 2017–2020 йилларда 6,0%, 14,3%, 22,9% ва 9,2%га ўсган. Шунингдек, мазкур тармоқнинг миллий иқтисодиёт таркибида улуши ҳам йилдан-йилга ошиб бормоқда. Қурилиш тармоғининг ЯИМ таркибидаги улуши 5,7%ни ташкил этган бўлса, 2020 йилда ушбу кўрсаткич 7,0%га етган. 2021 йил 1 январь ҳолатига кўра, қурилиш соҳасида корхона ва ташкилотлар сони 41,0 мингтани ташкил этиб, 2017 йилга нисбатан 1,7 баробар ёки 17,1 минг бирликка ошган. Шунингдек, қурилишда банд бўлганларнинг сони 2020 йилда 2017 йилга нисбатан 15,6 минг нафарга ошиб, 1,3 млн. нафарни ташкил этмоқда. Айтиш жоизки, ҳозирги кунда иқтисодиётда банд бўлганларнинг қарийб 10 фоизи мазкур тармоққа тўғри келмоқда. 2017 йилда бажарилган қурилиш ишлари ҳажми 35,0 трлн. сўмни ташкил қилган бўлса, 2020 йилда бу кўрсаткич 88,1 трлн. сўмга етган. Шунингдек, иқтисодий фаолият турлари бўйича таҳлил қилинганда, бажарилган қурилиш ишларининг асосий қисми бино ва иншоотларни қуриш ишлари ҳажмига (жами кўрсаткичга нисбатан улуш 74,5%га) тўғри келмоқда.

Яна бир эътиборли жиҳат шундаки, қурилиш ишларида нодавлат секторининг улуши ошиб бормоқда, 2017 йилда мазкур кўрсаткич 95,2%ни ташкил этган бўлса, 2020 йилда 95,8%га етган.²²⁶

Сўнгги йилларда мамлакатда хорижий инвестицияларни жалб этишга оид олиб борилаётган ислохотлар, очиклик ва шаффофлик, халқаро ҳамкорликнинг кенгайиши ва мамлакатда қулай инвестиция муҳитининг яратилиши, қурилиш тармоғида асосий капиталга ўзлаштирилган чет эл инвестициялар ҳажмининг кескин равишда ортишига сабаб бўлди. Хусусан, бу кўрсаткич 2017 йилдаги 12,1 млн. сўмдан 2020 йилда 3,5 трлн. сўмга етган.

Қурилиш тармоғига йўналтирилган капитал қўйилмаларнинг ортиши инвестиция ва бошқа дастурлар доирасида юқори технологик ва техник ишлаб чиқаришни яратиш, модернизация қилиш ва йирик инфратузилмалар қурилишининг ортишига хизмат қилмоқда.



1-расм. Қурилиш соҳасининг иқтисодиёт тармоқларидаги ялпи қўшилган қиймат ҳажмидаги улуши, жамига нисбатан фоизда²²⁷

2010-2022 йилларда мамлакатимиз иқтисодиётида ялпи қўшилган қиймат таркибида қурилиш соҳасининг улуши динамик ривожланиш тенденциясига эга бўлган ҳолда, мос

²²⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Ўзбекистон қурувчиларига байрам табриги. 13.08.2023 й. <https://president.uz/uz/lists/view/6552>


²²⁶ <https://strategy.uz/index.php?news=1477>

²²⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида тузилган.

равишда 5,4 фоиздан 6,7 фоизга етди. Шу билан биргаликда, Андижон вилояти ҳудудий иқтисодиётида ҳам қурилиш соҳасининг ҳудудий қўшилган қиймат ҳажмидаги ривожланиш тенденцияси республика билан ўзаро ўхшаш бўлиб, таҳлил этилаётган даврда 3,4 фоиздан 5,6 фоизга етди (1-расм).

Таҳлилларга кўра, 2010 йилда республика миллий иқтисодиёти билан Андижон вилояти ҳудудий иқтисодиёти тармоқларидаги ялпи қўшилган қиймат ҳажмидаги қурилиш соҳасининг улушлари ўртасидаги нисбат 2,0 фоизга фарқ қилган бўлса, 2022 йилга келиб, ушбу нисбат қисқариб, 1,1 фоизни ташкил этди. Жумладан, 2010-2022 йилларда Андижон вилояти ҳудудий иқтисодиёти тармоқларида қўшилган қиймат ҳажмида қурилиш соҳасининг улуши 2,2 фоизга ортган бўлса, республика бўйича ушбу кўрсаткич 1,3 фоизга кўпайди. Ўрганилаётган даврда қурилиш соҳасининг мамлакат иқтисодиёти тармоқларидаги ялпи қўшилган қиймат ҳажмидаги улуши ўрта ҳисобда 5,7 фоизни ташкил этса, ушбу кўрсаткич Андижон вилоятида 4,6 фоизга тенг бўлди.

Мамлакатимиз иқтисодиётида қурилиш соҳаси саноат тармоқлари таркибида бўлиб, 2010-2022 йилларда республика саноат тармоқларидаги ялпи қўшилган қиймат ҳажмининг ўрта ҳисобда 21,0 фоизи қурилиш соҳаси ҳиссасига тўғри келди. Ушбу кўрсаткич Андижон вилояти ҳудудий иқтисодиётида 19,8 фоизга тенг бўлиб, республика кўрсаткичидан 1,2 фоизга кам бўлганлиги аниқланди (2-расм).



2-расм. Саноат тармоқларида ялпи қўшилган қиймат ҳажмида қурилиш соҳасининг улуши, фоизда.²²⁸

Жумладан, ўрганилаётган даврда республика саноат тармоқларидаги ялпи қўшилган қиймат ҳажмида қурилиш соҳасининг улуши 2,3 фоизга қисқариб, 2010 йилдаги 22,4 фоиздан 2022 йилга келиб 20,1 фоизга камайган. Андижон вилояти ҳудудий иқтисодиётида эса аксинча ҳолат кузатилиб, ҳудудий саноат тармоқларида ялпи қўшилган қиймат ҳажмида қурилиш соҳасининг улуши 3,5 фоизга ортиб, мос равишда 15,8 фоиздан 19,3 фоизга етди. Таҳлилларга кўра, 2010 йилда саноат тармоқларида ялпи қўшилган қиймат ҳажмида қурилиш соҳасининг улуши бўйича республика ва Андижон вилояти кўрсаткичлари ўртасидаги нисбат 6,6 фоизга фарқ қилган бўлса, 2022 йилга келиб, ўртадаги фарқ қисқариб, 0,7 фоизни ташкил этди (2-расм).

Юқоридаги вазиятни нобатган олган ҳолда, мамлакатда қурилиш корхоналари бошқарувини такомиллаштириш, бошқарувга замонавий менежмент ва маркетинг дастурларини жорий этиш ҳисобига қурилиш корхоналари фаолиятини барқарор ривожлантириш зарур, деб ҳисоблаймиз. Бу орқали мамлакатимизда қурилиш соҳасини

²²⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида тузилган.

ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ислохотлар самарадорлиги ортиб, қурилиш соҳасини ривожлантириш имкониятларини тўлақонли фойдаланишга эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Ўзбекистон қурувчиларига байрам табриги. 13.08.2023 й. <https://president.uz/uz/lists/view/6552>
2. <https://strategy.uz/index.php?news=1477>
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида тузилган.


O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH – MAMLAKATNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI

O'ralova Nodirabegim O'kir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mintaqaviy iqtisodiyot mutaxassisligi 2-kurs talabasi

Turli iqtisodiy adabiyotlarda "investitsiya faoliyati" tushunchasi mazmun-mohiyatiga turlicha ta'rif berilgan. Shulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz. Rossiyalik taniqli olim M.V. Chinenova tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra: "investitsiya faoliyati – bu investitsiyalarning kiritilishi yoki investitsiyalash va investitsiya faoliyatini amalga oshirish bo'yicha amaliy harakatlar yig'indisi" sifatida qaraydi[1]. L.L. Igonina investitsiya faoliyati mazmuniga bergan ta'rifini keltirib o'tsak: "Investitsiya faoliyati – foyda olish va boshqa foydali samaraga erishish maqsadida investitsiyalarni kiritish va amaliy harakatlarni amalga oshirish"[2]dir. Investitsiyalash siyosatida O'zbekiston Respublikasida uning o'ziga xos tuzilmaviy investitsiya siyosati mavjud. Grafik orqali buni ko'rib chiqamiz.



1-rasm. Tuzilmaviy investitsiya siyosati[3].

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning bir qator prinsiplarini belgilab oldi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda xususan, milliy va xorijiy investitsiyalarning o'рни kattadir. Investitsiyalar davlatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini rivojlanishi va ishlab chiqarish integratsiyalashuviga shu bilan bir qatorda, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashuviga sabab bo'ladi. Bugungi kunda O'zbekistonda ham investitsiya kiritish faoliyati yildan-yilga o'sayotganini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bir qator mamlakatlar bilan siyosiy-iqtisodiy muzokaralar olib borib, O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishiga erishilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2023-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 226,6 trln. so'mni tashkil etgan. Shundan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 104,4 trln. so'm miqdorida qayd qilingan. Bundan tashqari, quyidagi jadvalda

o'zlashtirilgan jami investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega bo'lgan investor mamlakatlarning o'ntaligi keltirilgan.

1-jadval

O'zbekistonga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarni hajmi eng yuqori ulushga ega bo'lgan investor-mamlakatlar o'ntaligi[4].

O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega bo'lgan investor- mamlakatlar	
Xitoy	24,5%
Rossiya	15,9%
Saudiya Arabistoni	7%
Turkiya	6%
Kipr	4,1%
BAA	3,7%
Germaniya	3,5%
Shvetsariya	3,4%
AQSH	3,3%
Niderlandiya	2,4%

Xususan, “O'zbekiston temir yo'llari” AJ ga qarashli Toshkent shahrida yer usti halqa metropolitenining qurilish(1-2-bosqich) loyiha qiymati 350,7 mln \$ni tashkil qilib, 681 ta ish o'rni yaratilishiga sabab bo'ldi. Umumiy qiymati 14,9 mln. \$ bo'lgan “O'zGidroenergiya” AJ ga qarashli Darg'om kanalida Shaudor GESini qurilishi va qiymati 106 mln \$ bo'lgan “ Navoiy KMK” ga qarashli “Pistali” konida oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish (1-bosqich) kabi katta hajmli investitsiyali loyihalarni misol qilib keltirish mumkin[5]. O'zbekistonga faol investitsiyalarni jalb qilish maqsadida Prezidentimizning 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiya va investitsiyalar faoliyati” to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi va shu yilni mamlakatimizda “ Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili deb e'lon qilingani sohada ko'plab amaliy islohotlar qilinishiga sabab bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishida investitsiyalar o'rni juda katta. Chunki mahalliy va xorijiy investitsiyalar, ishlab chiqarish, energetika va kommunikatsiya sohalarini rivojlantirish va infrastrukturasi yangilash kabi jabhalar uchun samarali foydalanilmoqda. Ayni davrda xalqaro savdo partnyorlaridan tortib, tadbirkorlik va tijoratda sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish, shuningdek, eksport salohiyatini oshirishda ham investitsiyaning roli muhim. Bundan tashqari, xorijdan innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, ish o'rinlarini yaratish, xizmatlar sifatini yaxshilash, shu bilan bir qatorda moliya sohasining o'sishi va xarajatlarni kamayishiga olib keladi. Umuman olganda, davlat iqtisodiy rivoji uchun investitsiyalar muhim ahamiyatga ega ekanligini yuqorida ko'rsatilgan dalillar misolida isbotlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Чиненова В М Инвестиции. Учебное пособие – М; КНОРУС. 2007, 20 с.
2. Игонина Л Л Инвестиции – М; Экономист, 2005, 25 с.
3. Investitsiya faoliyatini baholash -T. (o'quv qo'llanma). R.X. Alimov, B.T. Bayxonov. 2015-yil, 260-bet.
4. . Nazarova G.G., Aliyeva M.J., Safarov N.Ch . XALQARO BIZNES STRATEGIYASI. Tafakkur Bo'stoni nashriyot-matbaa uyi. 2011-yil.
5. Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti. (<https://stat.uz/>)

ЗЕЛЕННЫЕ ОБЛИГАЦИИ КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ИНВЕСТИРОВАНИЯ

Рахмедова М.Н.

Доцент кафедры «Корпоративные финансы
и ценные бумаги», ТФИ

Рост обеспокоенности проблемой климатических изменений и активизация природоохранных усилий экономических агентов на различных уровнях, от международного до локального, способствовали появлению понятия «зеленые проекты». Под ними понимаются такие инициативы, которые направлены на снижение негативного воздействия хозяйственной деятельности на окружающую среду и в первую очередь на сокращение выбросов парниковых газов. Для осуществления таких проектов требуются значительные финансовые ресурсы. Одним из финансовых инструментов, позволяющих их привлечь, являются зеленые облигации. Согласно определению Международной ассоциации рынков капитала (ICMA), под зелеными облигациями понимают «любые долговые инструменты, поступления от размещения которых или эквивалентная им сумма направляются исключительно на финансирование или рефинансирование зеленых проектов»²²⁹.

Следует обратить внимание, что определение достаточно широкое и распространяется не только на проекты, связанные с вопросами климата, но и на прочие экологические инициативы.

В целом система зеленых облигаций достаточно разнообразна и включает различные виды бондов, в том числе корпоративные и суверенные, облигации прямой эмиссии и секьюритизированные, проектные и др. Существует разделение облигаций на основании направления использования средств (use of proceeds), предлагаемое в «Принципах зеленых облигаций» Международной ассоциации рынков капитала²³⁰.

Так, полученные за счет выпуска зеленых облигаций средства должны финансировать проекты, связанные с возобновляемой энергией и энергоэффективностью, предотвращением и контролем загрязнений, экологически устойчивым управлением природными ресурсами и землепользованием, сохранением биоразнообразия, экологически чистым транспортом, устойчивым управлением водными ресурсами и сточными водами, адаптацией к изменению климата, циркулярной экономикой и созданием зеленых зданий²³¹. Таким образом, рассматривая зеленые облигации, мы включаем в объект анализа широкий перечень долговых бумаг, отвечающих представленным выше требованиям и нацеленным на аккумулирование средств для финансирования проектов в сфере устойчивого развития и зеленой экономики.

Несмотря на относительно высокую цену и, соответственно, более низкую доходность зеленых облигаций в сравнении с обыкновенными выпусками и длительную дюрацию, они становятся все более востребованными на международных рынках. Со временем факторы, стимулирующие интерес к этому финансовому инструменту, претерпели ряд изменений. Так, ранее популярность зеленых ценных бумаг объяснялась возможностью диверсифицировать портфель, улучшить имидж компании за счет участия в природоохранных проектах и минимизировать репутационные и регуляторные риски, а в настоящее время она определяется их высоким кредитным рейтингом, налоговыми льготами, а также снижением инвестиционных рисков компаний ввиду их переноса с эмитента на инвестора.

²²⁹ Принципы зеленых облигаций. 2021.

https://www.icmagroup.org/assets/documents/Sustainable-finance/Translations/Russian-GBP_2021-06v2-100222.pdf

²³⁰ Принципы зеленых облигаций. 2021.

https://www.icmagroup.org/assets/documents/Sustainable-finance/Translations/Russian-GBP_2021-06v2-100222.pdf

²³¹ Green Bond Principles Voluntary Process Guidelines for Issuing Green Bonds // ICMA. 2021. Режим доступа: <https://www.icmagroup.org/assets/documents/Sustainable-finance/2021-updates/Green-BondPrinciples-June-2021-140621.pdf>

В качестве ключевых факторов увеличения выпуска зеленых облигаций сегодня в литературе выделяют сравнительно низкие инвестиционные риски за счет дивестиций из «грязных» отраслей, связывая это с долгосрочным трендом на устойчивость. Это связано с более низкой стоимостью капитала по продуктам, нацеленным на финансирование зеленых проектов, относительно других долговых бумаг.

Республика Узбекистан впервые разместил зеленые суверенные международные облигации на 4,25 трлн сумов на Лондонской фондовой бирже в октябре 2023 года. Страна стала первой в СНГ, чьи зеленые облигации появились на этой торговой площадке.

Средства направят на финансирование экологических проектов. Среди них — внедрение водосберегающих технологий, модернизация ж/д транспорта и метро, создание лесных насаждений и другие. В процессе отбора проектов задействовали программу развития ООН.

С учетом высокого спроса на зеленые облигации Узбекистана в нацвалюте процентные ставки удалось снизить по трехлетним сумовым международным облигациям с ожидаемых 18 до 16,25%. Это значит, что деньги Узбекистану обошлись дешевле, чем на внутреннем рынке. Для информации: процентные ставки по двухлетним гособлигациям составили 17,57% на прошедшем 29 сентября аукционе на валютной бирже РУз.

Помимо сумовых бумаг, Узбекистан разместил в Лондоне также долларовые бонды на \$660 млн. Бумаги выпущены с доходностью 8,125% и купоном 7,85%. Именно такие проценты рекомендовали финансовые консультанты. Это означает, что бумаги продаются инвесторам со скидкой.

От транзакции поступит не \$660 млн, а 98,888% от этой суммы (то есть \$652,6 млн).

Таким образом, если компания выполняет обязательства и не нарушает требования, установленные для «зеленых» бондов, такие бумаги действительно помогают улучшению экологической ситуации. Фактически приобретение «зеленых» облигаций не дает инвесторам особых выгод по сравнению с покупкой классических бумаг. Основное преимущество «зеленых» бондов — их социальная роль, возможность участия в финансировании проектов в сфере улучшения окружающей среды.

В то же время «зеленая» повестка остается актуальной независимо от рыночной конъюнктуры. Наличие «зеленых» бондов в портфеле инвестора может сделать его более устойчивым к высокой волатильности сырьевых рынков и застраховать инвестиции от потенциального снижения стоимости активов в сырьевом секторе.

Список использованной литературы:

1. Принципы зеленых облигаций. 2021.
https://www.icmagroup.org/assets/documents/Sustainable-finance/Translations/Russian-GBP_2021-06v2-100222.pdf
2. Принципы зеленых облигаций. 2021.
https://www.icmagroup.org/assets/documents/Sustainable-finance/Translations/Russian-GBP_2021-06v2-100222.pdf
3. Green Bond Principles Voluntary Process Guidelines for Issuing Green Bonds // ICMA. 2021. Режим доступа: <https://www.icmagroup.org/assets/documents/Sustainable-finance/2021-updates/Green-BondPrinciples-June-2021-140621.pdf>

ВЕНЧУР ИНВЕСТИЦИЯЛАР ВА УЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЁТНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ МОДЕЛИГА ЎТКАЗИШДАГИ ЎРНИ

Файзуллаев Жонибек Негматуллаевич

ЎзМУ, “Макроиктисодиёт” кафедраси

таянч докторанти,

“Alfraganus University” нодавлат университети “Молия”

кафедраси катта ўқитувчиси

Иқтисодиётнинг фан-техника тараққиёти ютуқларини излаш, синаб кўриш ва жорий этишга йўналтирилган устувор тармоқларини шакллантириш ва инновацион ривожлантиришда венчур инвестициялари муҳим ўрин тутди. “Ўзбекистон -2030” стратегиясида пай ва венчур жамғармалар фаолиятини йўлга қўйиш орқали портфель инвестициялар ҳажмини 2 баробарга ошириш йўли билан мамлакатимизнинг инвестициявий жозибдорлигини янада ошириш ва қимматли қўғозлар бозорини жадал ривожлантириш мақсад қилинган.

Венчур капитали инновацион лойиҳалар ва стартапларни молиялаштиришга қаратилади ва ўз активларини венчур корхоналарга ёки лойиҳаларга киритадиган венчур инвесторларнинг маблағлари ҳисобига амалга оширилади. Венчур инвесторлари венчур инвестициялари соҳасида ишловчи жисмоний шахс, корпорация ёки фондлар бўлиши мумкин.

Венчур инвестициялар анъанавий инвестициялардан юқори рискка эга эканлиги, натижаларни прогноزلанишнинг мураккаблиги, лекин муваффақиятли лойиҳалардан жуда катта фойда олиш мумкинлиги ва компания етуқликка эришганда инвестицион қўйилмалар тўлиқ қопланиши мумкинлиги каби хусусиятлари билан фарқланади.

Венчур молиялаштириш юқори рискли бўлиб, стартапларнинг 20%и фаолиятнинг дастлабки йилнинг охиригача, 50%и 5 йилгача ва 70%и 10 йилгача бўлган муддат ичида омадсизликка учрайди²³². Венчур лойиҳалар янги маҳсулотларнинг бозорда ўз ўрнини топа олмаслиги, маркетинг билан боғлиқ муаммолар, лойиҳани амалга оширувчи ишчи жамоадаги муаммолар, лойиҳани амалга ошириш чоғидаги молиявий узилишлар, лойиҳани молиялаштириш ва амалга ошириш билан боғлиқ ҳуқуқий-институционал етишмовчиликлар ва мураккабликлар каби сабабларга кўра муваффақиятсизликка учраши мумкин:

Инновацион лойиҳалар юқори рискли эканлиги ва лойиҳанинг бошланғич босқичидаги корхоналар гаров сифатида қўйилиши мумкин бўлган катта ҳажмдаги моддий активларга эга бўлмаслиги сабабли бундай лойиҳаларни банк кредитлари орқали молиялаштириш деярли имконсиздир. Шу сабабли, ушбу шаклдаги лойиҳаларни венчур инвесторлари маблағларидан фойдаланиш ҳисобига молиялаштириш амалий жиҳатдан нисбатан қулайроқ ҳисобланади. Венчур инвесторлар мавжуд рискларни камайтириш учун ўз маблағларини қатор венчур корхоналар ва лойиҳаларга йўналтириши мумкин. Бундай шароитда ҳеч бўлмаганда битта лойиҳадан олинган катта фойда бошқа лойиҳалардаги йўқотишлар ўрнини қоплаши мумкин.

Венчур капитали орқали инвестициялаш қуйидаги босқичларда амалга оширилади:

1) **Ғоя босқичи.** Корхонада янги маҳсулот концепцияси мавжуд, лекин тайёр маҳсулот ҳали яратилмаган, унинг устида иш олиб борилаётган бўлади. Бу босқичда тадбиркор бошланғич капитални ўзи тўплаши (ўзининг, қариндошлари ва дўстларининг маблағлари ҳисобига ёки краудфандинг орқали) зарур бўлади. Бундай капитал “уруғ” капитал дейилади. Шунингдек потенциал инвесторни топиш ва уни жорий стартап келажагининг муваффақиятли эканлигига ишонтара олиш зарурдир. Агар бунга эришилса, ушбу инвестор ажратган маблағлар “фаришта” капитал деб аталади.

2) **Стартап босқичи.** Маҳсулотнинг синов шакли мавжуд бўлади. Янада ривожланиш, бозорни ўрганиш, ходимлар сонини ошириш ва маҳсулот хусусиятларини такомиллаштириш

²³² Джин В. Что такое венчурные инвестиции и кто на них зарабатывает. // Тинькофф Журнал. Инвестиция. 15.03.21. – Электронный ресурс: <https://journal.tinkoff.ru/guide/venture-invest/#one>


учун қўшимча капитал талаб этилади. Бу босқичда қўшимча капитални шакллантириш нисбатан осонроқ бўлади.

3) **Эрта босқич.** Корхона маҳсулоти бозорга чиқади ва у бозорда қандай рақобатлашаётганлигини кузатиш мумкинлиги сабабли инвесторларда капитал қўйилмалари билан боғлиқ рисклар даражаси пастроқ бўлади. Ушбу босқичдаги капитал қўйилмалар асосан ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш ва маркетингни ривожлантиришга йўналтирилади.

4) **Кенгайтиш босқичи.** Янги маҳсулот бозорда ўз ўрнини топади, унга бўлган талаб ва савдо ҳажми жадал ошади, корхона барқарор бизнес модели, доимий мижозлар ва ўсиб боровчи даромадларга эга бўлади. Ушбу босқичда молиялаштириш асосан бозорни кенгайтиришга, ишлаб чиқариш қўламини оширишга қаратилган бўлади. Бунга хорижий мамлакатларда ишлаб чиқариш қувватларини яратиш, янги маркетинг воситаларидан фойдаланиш ва янги ишлаб чиқариш линияларини ишга туширишни мисол қилиш мумкин.

5) **Сўнги босқич.** Корхона йирик компанияга айланади ва ўзида корпорация белгиларини намоён қилади. Бу босқичда инвесторлар ўз фойдаларини олган ҳолда лойиҳадан чиқиш учун корхонани корпорацияга айлантиришни мақсад қилишади. Венчур капитали ўз ривожланишининг сўнги босқичида қуйидаги усуллар билан лойиҳадан чиқиб кетиши мумкин: а) лойиҳани бошқа корпорацияга сотиш; б) фонд бозорига оммавий қимматли қоғозларни бирламчи жойлаштириш орқали чиқиш; в) биржадан ташқари битимлар орқали сотиш²³³.

Жаҳон интеллектуал мулк ташкилоти маълумотларига кўра 2022 йилда жаҳонда венчур капитали битимлари сонининг ўсиш тенденцияси (2010-2022 йиллардан йилига ўртача 7.3%дан) сақланиб қолди ва 23 000 дан ортиқ битимлар тузилди (бу 2021 йилга нисбатан 17.6%га кўп). Венчур инвестициялар ҳажми эса 2021 йилдаги 2 баравардан юқори ўсишдан кейин 2022 йилда 37.8%га пасайиб, 380 млрд. АҚШ долларни ташкил этди (2021 йилда 610 млрд. АҚШ доллари). Венчур капитали битимлари сони ошиши шароитида венчур инвестициялар қийматининг пасайиши венчур капитали битимлари ўртача қийматининг 2021 йилдаги 31 млн. АҚШ долларида 2022 йилда 16 млн. АҚШ долларигача камайишига олиб келди (1-расм).



1-расм. Венчур капитали битимлари сони ва уларга киритилган инвестициялар қиймати²³⁴.

²³³ VENTURE MONITOR. Q3. 2020. PITCHBOOK-NVCA. The definitive review of the US venture capital ecosystem. National Venture Capital Association (NVCA). - 2020. <https://img-cdn.tinkoffjournal.ru/-/venture-invest-pdf-04.pdf>.

²³⁴ World Intellectual Property Organization (WIPO) (2023). Global Innovation Index 2023: Innovation in the face of uncertainty. Geneva: WIPO. DOI:10.34667/tind.48220.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 24 ноябрдаги «Тадбиркорлик ва инновация соҳасидаги лойиҳаларни молиялаштириш механизмларини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5583-сонли Фармонида мувофиқ венчур молиялаштиришни ривожлантириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси томонидан 2019 йил 20 майда «Инвестиция в бошқарув компаниялари фаолияти тўғрисида»ги Низом тасдиқланди.

Мамлакатимизда венчур инвестициялаш амалиётини рағбатлантириш мақсадида юқори технологияли тадбиркорлик лойиҳалар-стартапларни биргаликда молиялаштириш учун ташкил қилинадиган венчур фондлар ва венчур фондлардан биргаликда молиялаштириладиган юқори технологияли лойиҳалар-стартаплар 2023 йил 1 январгача бўлган муддатга ягона ижтимоий тўловдан ташқари, барча турдаги солиқ ва мажбурий тўловлар тўлашдан озод қилинди. Бугунги кунда Ўзбекистонда фақат инновацион технопарклар резидентлари бўлган венчур фондлар бундай имтиёзларга эгадирлар.

Ўзбекистонда инновацион ривожланишнинг муҳим механизми ҳисобланган венчур фондлари сони саноқли бўлиб, уларнинг капитали орқали молиялаштирилган стартап битимлар сони ва қиймати кичик ҳажмлардадир. Жумладан бир давлат (UzVC) ва икки хусусий (MOST Ventures, SEMURG VC) венчур фондлари, шунингдек бир корпоратив (UZCARD Ventures) венчур фонди фаолият кўрсатмоқда. Улар томонидан бугунги кунга қадар 18 та стартап лойиҳаларини молиялаштирилиши амалга оширилди²³⁵.

Ўзбекистонда венчур инвестицияларининг самарадорлигини таъминлаш учун қуйидагиларга эътибор қаратиш зарур:

- тегишли молиявий рискларни максимал даражада камайтиришга имкон берувчи инновацион фаолиятни амалга оширишнинг ишончли ва муваффақиятли усулларини қўллаш;
- инновацион фаолиятни амалга оширувчи асосий субъектлар, жумладан, олимлар, кашфиётчилар, инвесторлар, менежерлар ва бошқалар фаолиятларини рағбатлантирувчи тегишли воситаларни йўлга қўйиш.

Венчур инвестицияларнинг ривожланиши ва самарали амал қилишини, шунингдек, барқарор иқтисодий ўсишга муносиб ҳисса қўишини таъминлашда бундай инвестицияларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирларини амалга ошириши муҳимдир. Узок муддатга мўлжалланган венчур лойиҳаларни молиялаштиришни солиқ имтиёзлари билан рағбатлантириш сиёсатини давом эттириш, жумладан, ушбу имтиёзларни инновацион технопарклар резиденти бўлмаган субъектлар учун ҳам қўллаш зарурдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1.Джин В. Что такое венчурные инвестиции и кто на них зарабатывает. // Тинькофф Журнал. Инвестиция. 15.03.21. – Электронный ресурс: <https://journal.tinkoff.ru/guide/venture-invest/#one>
- 2.VENTURE MONITOR. Q3. 2020. PITCHBOOK-NVCA. The definitive review of the US venture capital ecosystem. National Venture Capital Association (NVCA). - 2020. <https://img-cdn.tinkoffjournal.ru/-/venture-invest-pdf-04.pdf>.
- 3.World Intellectual Property Organization (WIPO) (2023). Global Innovation Index 2023: Innovation in the face of uncertainty. Geneva: WIPO. DOI:10.34667/tind.48220.

²³⁵ Венчур молиялаштириш. Инновацион ривожланиш агентлиги. Электрон ресурс: <https://mininnovation.uz/oz/static/venchur-moliyalashtirish>.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИНВЕСТИЦИЯ МУҲИТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

П.З.Хошимов

Ўзбекистон Миллий университети Иқтисодиёт
назарияси кафедраси профессори, и.ф.н.

А.А.Сарманов

Ўзбекистон Миллий университети,
Иқтисодиёт факультети 1-босқич талабаси,
alishersarmanov00771@gmail.com

Эркинлаштириш ва бозор иқтисодиётини ривожлантиришга қаратилган саъй-ҳаракатларга қарамай, мамлакатимизда инвестиция муҳитини шакллантиришдаги баъзи муаммолар, инфратузилма соҳасидаги камчиликлар молиялаштириш имкониятларининг чекланганлиги ва инсон омили билан боғлиқ. Бу муаммоларни ҳал этиш мамлакатнинг иқтисодий салоҳиятини ошириш, барқарор ўсиш ва тараққиётни таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистонда инвестициялар ва инновацияларнинг миллий иқтисодиётдаги ҳал қилувчи ролини ҳисобга олган ҳолда, мустақилликнинг дастлабки кунлариданоқ бу икки иқтисодий таянчга алоҳида эътибор қаратилиб, турли чора-тадбирлар амалга оширилди. Ҳар бир чора мамлакатнинг инвестицион муҳитини яхшилаш ва унинг жозибадорлигини оширишга қаратилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармонининг 26-мақсадида инвестиция муҳитини янада яхшилаш, келгуси беш йилда жами 120 миллиард АҚШ доллари, жумладан, 70 миллиард доллар хорижий инвестициялар жалб этиш, Тошкент шаҳрида ҳар йили «Тошкент халқаро инвестиция форуми»ни ўтказиб бориш, давлат-хусусий шериклик асосида энергетика, транспорт, соғлиқни сақлаш, таълим, экология, коммунал хизматлар, сув хўжалиги ва бошқа соҳаларга 14 миллиард АҚШ долларига тенг инвестицияларни жалб этиш вазифалари белгиланган.²³⁶

Бундан ташқари, Тараққиёт стратегиясининг 51-мақсадида инновацияларни иқтисодиётга кенг интеграциялаш, саноат корхоналари ва илмий муассасалар ўртасида кооперация алоқаларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилган. Ушбу мақсад доирасида инновацион зоналар сифатида белгиланган туманларда мавжуд харажатларни 50 фоизгача қисқартириш ва сифатли хомашё қийматини 2-3 баробар ошириш ташаббуслари кўзда тутилган. Шунингдек, юқори қўшилган қийматга эга маҳсулотларни яратиш учун инновацион ишлаб чиқариш технологияларини жорий этиш, умумий қиймати 165,9 миллиард сўмлик 195 та лойиҳани амалга ошириш назарда тутади.²³⁷

Тараққиёт стратегиясида белгиланган мақсадлар Ўзбекистон миллий иқтисодиётини ривожлантиришда инновациялар муҳим аҳамиятга эга. Ушбу мақсадларни самарали амалга ошириш учун инвестицияларни жалб қилишни кенгайтириш учун қулай муҳитни яратиш режалаштирилган мақсад ва вазифаларга эришишнинг муҳим шарти бўлиб ҳисобланади.

Бутун жаҳонда хорижий инвестицияларни жалб этиш асосий вазифа сифатида белгиланган бўлиб, уларнинг мамлакатга кириб келиши учун бир қанча омиллар муҳим роль ўйнайди. Биринчи навбатда, давлат “Очиқ эшиклар” сиёсатини юритаётганлиги бўлса, келгуси ўринларда эса инвесторлар учун қулай инвестиция муҳити ва имтиёз ҳамда афзалликлар тизимининг жорий этилганлигидир.

²³⁶Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. www.lex.uz/docs/5841063

²³⁷Ўша манба.

Шу ўринда инвестиция муҳитига таъсир этувчи омилларни ҳам келтириш мумкин. Бу омиллар ижобий ва салбий кўринишда намоён бўлади.


Ижобий таъсир этувчи омиллар:

- сиёсий ва макроиктисодий барқарорлик;
- инвесторлар ҳуқуқларининг кафолатлари;
- ҳалқаро стандартларга жавоб берадиган молия-ҳисоб тизими;
- инвесторларга бериладиган солиқ ва божхона тўловлари бўйича имтиёз ва афзалликлар;
- истеъмолчи бозорларга нисбатан қулай географик жойлашув ва оптимал транспорт коридорларининг мавжудлиги.

Салбий таъсир қилувчи омиллар:

- инвесторлар учун яратилган имтиёз ва афзалликлардан фойдаланишдаги тўсиқлар;
- солиқ, божхона, банк соҳаларида, шунингдек инвесторларга ер ажратиш билан боғлиқ муаммо ва тўсиқлар;
- тадбиркорлик субъектлари молия-хўжалик фаолиятини назорат қилувчи органлар томонидан текширувларнинг кўплиги;
- ҳудуддаги айрим инвесторларга яратилган шароитлар ва уларга бўлган муносабат;
- маҳаллий ҳокимликлар томонидан у ёки бу масалаларни ҳал этишга оид қарорларни тезкорлик билан қабул қилинмаслиги, бюрократик тўсиқларнинг мавжудлиги.

Республикага кириб келаётган инвестициялар ҳажми йилдан-йилга кўпайиб бормоқда. Шунингдек, инвестицияларнинг ҳажмини ЯИМга нисбатан улуши ҳам ошиш тенденциясини намоён қилмоқда. Бунга эса инфратузилмани ривожлантириш, чет эл инвестицияларини жалб қилиш ва технологияларнинг ривожланиши каби омиллар таъсир кўрсатмоқда. (1-расм).



1-расм. Ўзбекистон Республикасига 2017-2023 йилларда киритилган инвестициялар ҳажми, ЯИМга нисбатан (фоизда, %) ²³⁸.

Умуман олганда, 2017-2023 йилларда Ўзбекистонда инвестициялар йилига ўртача 14,5%дан ўсиб, жами 1 460,4 трлн. сўмлик капитал қўйилмалар амалга оширилган. 2017-2023 йилларда ЯИМнинг ўртача ўсиши 5,3%ни ташкил этиб, мазкур ўсишнинг 3,9 ф.б. инвестициялар ҳисобига тўғри келган. Расм маълумотларининг кўрсатишича, инвестицияларнинг ЯИМдаги улуши 2017 йилда 22,7%ни ташкил этган бўлса, 2019 йилда бу энг юқори даража—36,8%га етган. Сўнгги йилларда инвестициялар ҳажми ЯИМга нисбатан барқарорлашиб, 2023 йилда 33,0% (352.1 трлн. сўм)га етган.

²³⁸Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика Агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

Юқорида қайд этилган муаммоларни ҳал қилиш ва мамлакатимиз инвестицион жозибадорлигини янада ошириш учун қуйидагилар тавсия этилади:

1. Республикада тадбиркорлик фаолиятини тартибга солиш тизими шаффофлигини таъминлаш ва бу борадаги бюрократик тўсиқларни бартараф этиш.

2. Ёш тадбиркорларнинг лойиҳаларига инвестиция жалб қилиш мақсадида онлайн платформа яратиш ва уни доимий равишда назорат қилиш.

3. Инновация соҳасида маҳаллий ва хорижий компаниялар ўртасида илмий-тадқиқот ва тажриба конструкторлик ишларини ҳамда уларнинг интеграциясини ривожлантириш.

4. Янги инвесторларни жалб қилиш учун тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш билан боғлиқ рухсат берувчи ҳужжатлар сонини қисқартириш ва соддалаштириш.

5. Стартап лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш учун зарур инфратузилмаларни ривожлантириш ва давлат томонидан субсидиялар ажратиш.

6. Ўзбекистонда инвесторлар учун яратилган инвестицион муҳит ва мамлакатимизнинг инвестицион жозибадорлигини хорижий ОАВ ва интернет тармоғи орқали кенг тарғиб қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. www.lex.uz/docs/5841063

2. Пулатова Р., Шопулатова К., Хаитов О. Ўзбекистон Республикасида инвестиция фаолиятини рағбатлантириш йўналишлари // Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning. – 2023.

3. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. – Т.: Молия, 2010.

4. Фозилбеков Бекзод Тоҳир ўғли. Инвеститсион фаолият тушунчаси ва унинг таснифланиши // ORIENSS. 2022. №4.

www.stat.uz

КОРПОРАТИВ ТУЗИЛМАЛАР ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ДИВИДЕНД СИЁСАТИНИНГ ЎРНИ

Шеркузиева Насиба Абборовна

Тошкент давлат иқтисодий университетини доценти

nsh272707@gmail.com

Бугунги кунда ҳар бир бизнес шаклининг олдида турган энг муҳим муаммолардан бири - бу унинг инвестицион жозибадорлигини таъминлашдир. Албатта, бизнеснинг инвестицион жозибадорлигини турли ички ва ташқи омиллар таъминлайди. Назаримизда, корпоратив тузилмалар фаолиятида уларнинг ичида энг асосийси самарали дивиденд сиёсатини юритишдир.

Бизга маълумки, акциядорлик жамиятлари инвестицион жозибадорлигига турли омиллар таъсир этади. Зеро, тадқиқотчилар Е.А.Мелай, А.В.Сергееваларнинг таъкидлашича, “Инвестицион жозибадорлик – компания капитали рентабеллигини, унинг активлари, бизнес-субъекти инвестицион risks ҳолатини, иқтисодий ривожланиши имкониятларини тавсифловчи кўрсаткичлар мажмуи бўлиб, у реал инвестицияларга бўлган талабни ҳосил бўлишига таъсир этиши билан бирга, объект ўз фаолиятини доимий олиб боришини тахмин

қилган ҳолда юқори рақобат муҳитида доимий ривожланиш имкониятларини ҳам ҳосил қилади”²³⁹.

Умуман олганда, акциядорлик жамиятлари инвестицион жозибадорлига таъсир эувчи омилларнинг таркиби ва таснифи бўйича олимлар ўртасида ҳозиргача бир фикрга келинмаган. Олиб борилган тадқиқотларнинг аксариятида улар, асосан ташқи омиллар (улар ташқи муҳитдан ташкилотга таъсир қилади ва уларга корхона бошқарувининг таъсири бўлмайди) ва ички омиллар (улар ташкилот ичида амал қилади ҳамда бошқарув қарорлари билан ўзгартирилиши мумкин) каби гуруҳларга ажратилади. Ички ва ташқи омилларнинг моҳияти турлича бўлиши билан бирга, уларнинг таъсир этиш хусусиятлари ҳам бир-биридан тубдан фарқ қилади. Бунда ҳар бир инвестиция объекти бўйича омилларнинг таъсири доираси ҳам индивидуал характерга эга бўлиши, табиий ҳол, албатта, Фикримизча, бунинг сабаби асосан, инвестицион мақсадлардаги фарқларга, яъни капитал эгасининг инвестицион мақсадлари хусусиятидан келиб чиқиб, маблағларни муайян объектга йўналтириш сабабига боғлиқ. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда айтишимиз мумкинки, ҳар бир акциядорлик жамиятининг инвестицион жозибадорлигига таъсир этувчи омилларни аниқлашда ва уларнинг муайян инвестицион объект учун ўрнини баҳолашда инвестицион мақсадларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш муҳим аҳамиятга эгадир.

Фикримизча, маълум бир капитал эгаси учун ўз маблағларини акциядорлик жамиятлари қимматли қоғозларига инвестиция қилишда пировард мақсад, инвестицион объект бозор қийматини ўзгариши, ошиши ҳисобланади, бу эса бошқа потенциал инвесторлар учун ҳам корхонанинг инвестицион жозибадорлигини оширувчи асосий омиллардан бири ҳамдир. Мазкур жараёни эса самарали шакллантирилган ва юритилаётган дивиденд сиёсатисиз тасаввур эта олмаймиз.


Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, акциядорлик жамиятлари томонидан амалга ошириладиган дивиденд сиёсати инвестицион фаолият билан боғлиқ бўлиб, уни самарали шакллантирилишида ушбу жараёнга таъсир этувчи омилларни тадқиқ этиш муҳим ҳисобланади. Ўрганишларимиз натижаси шуни кўрсатдики, аксарият тадқиқотларда дивиденд сиёсатига таъсир этувчи омиллар институтчионал, инвестицион, молиявий, акциядорлар танлови, макроиктисодий каби ҳамда тармоқ хусусиятидан келиб чиқиб гуруҳларга ажратилиб ўрганилади.

Бунда қонунчиликда дивиденд тўловларини тўлашга доир чекловлар “Институтчионал омиллар”нинг бири сифатида келтирилганлигини кўришимиз мумкин. Уни Республикамиздаги қонунчилик доирасида кўриб ўтадиган бўлсак, Республикамизда “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуннинг 54-моддасига кўра акциядорлик жамиятлари томонидан қуйидаги ҳолларда дивидендларни тўлаш тўғрисида қарор қабул қилиш ва тўлаш мумкин эмас эканлиги белгилаб қўйилган (1-расм).

Навбатдаги ташқи омиллар гуруҳи “Макроиктисодий ва тармоқ хусусияти бўйича омиллар” гуруҳи бўлиб, мазкур йўналишларда амалга оширилган тадқиқотларни ўрганар эканмиз, уларга кўра, агар компаниялар барқарор даромад келтирувчи тармоқларда фаолият юритса, у ҳолда дивиденд сиёсати ҳам барқарор бўлиши лозимлигини кўрсатувчи²⁴⁰ тадқиқот натижалари мавжуд эканлигини алоҳида қайд этиб ўтишимиз лозим.

²³⁹ Е.А. Мелай, А.В. Сергеева. Подходы к оценке инвестиционной привлекательности организации: сравнительный анализ // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. 2015. С.80-93.

²⁴⁰ Чехова А.Е. Теоретические аспекты дивидендной политики // Социально-экономическое развитие стран, регионов и оптимизация секторов экономики: анализ и прогнозы: сборник научных трудов по материалам I Международной научно-практической конференции. – Санкт-Петербург: НОО «Профессиональная наука». – 2017. – С. 107-122. – URL:<https://elibrary.ru/item.asp?id=30132055>.



1-расм. Акциядорлик жамиятлари томонидан дивидендларни тўлаш тўғрисида қарор қабул қилиш ва тўлаш мумкин бўлмаган ҳолатлар.²⁴¹

Ички омиллар гуруҳининг дастлабкиси, бизнеснинг инвестицион талаблари билан боғлиқ бўлиб, дивиденд сиёсатини амалга оширишда айнан бизнеснинг ҳаётийлик цикли даражаси ушбу гуруҳ хусусиятини яққолроқ кўрсатиб беради, назаримизда. Чунки, бизнесни юритишнинг дастлабки босқичларида акциядорлик жамиятлари аксарият ҳолларда консерватив дивиденд сиёсатини қўллайди. Мазкур жараёни биз, республикаimizдаги маҳаллий акциядорлик жамиятлари фаолиятида ҳам кузатишимиз мумкин. Бунга сабаб сифатида бизнесни юритишнинг дастлабки босқичларида фаолиятни молиялаштиришга бўлган талабнинг юқори бўлишини келтиришимиз мумкин.

Кейинги гуруҳ омиллари бу “Молиявий омиллар” бўлиб, тадқиқотчилар ушбу гуруҳга асосан рентабеллик кўрсаткичларини, молиявий рычаг, капитал баҳоси, ликвид ресурсларнинг мавжудлиги каби кўрсаткичларни киритади. Жумладан, Н.Н.Николашина томонидан амалга оширилган тадқиқотда “дивиденд тўловчи акциядорлик жамиятлари, уларни тўламайдиганлардан кўра рентабеллик даражаси юқорироқ бўлиши” аниқланган²⁴².

Шу билан биргаликда, биз, айнан ушбу молиявий омиллар гуруҳи қаторига акциядорларнинг умумий даромадлилиги (TSR, total shareholder return) кўрсаткичини ҳам киритиш керак, деб ҳисоблаймиз. Чунки, юритилаётган дивиденд сиёсати нафақат акциядорлик жамияти мулкдорлари учун, балки янги инвесторларни акциядорлик жамиятига жалб қилиш хусусиятига ҳам эга бўлиши керак, назаримизда.

Умуман олганда, биз, акциядорлик жамиятлари томонидан самарали дивиденд сиёсатини шакллантиришда ва унинг инвестицион жозибadorликка таъсир этишини оширишда, ушбу жараёнга таъсир этувчи омиллар билан бирга, ушбу сиёсатни бир қатор ўзига хос хусусиятлари, унинг имкониятлари ҳам инобатга олиниши лозим, деб ҳисоблаймиз.

Шу билан биргаликда ушбу сиёсатни акциядорлик жамиятларида самарали қўлланилиши натижасида инвестицион жозибadorликни оширишга сабаб бўлиши учун уни қўллашдан аввал барча ўзига хос хусусиятларни ўрганиш, дивиденд сиёсати мақсади, вазифалари, тамойилларини аниқлаган ҳолда, жараёнга таъсир этувчи омилларни таҳлил этиш лозим бўлади. Фикримизча, бунда шаффофлилик, муддатлилик, асосланганлик, адолатлилик, изчиллик, ривожланиш, барқарорлик каби тамойилларга риоя этилиши лозим бўлади.

²⁴¹ Ўзбекистон Республикаси “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни 54-моддасига кўра. 2014 йил 6 май.

²⁴² Николашина Н.Н. Эмпирический анализ зависимости дивидендной политики от стадии жизненного цикла компании // Финансовая аналитика: проблемы и решения. – 2015. – № 23 (257). – С. 51-61. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/empiricheskiy-analiz-zavisimosti-dividendnoy-politiki-ot-stadii-zhiznennogo-tsikla-kompanii>.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни. 2014 йил 6 май.
2. Чехова А.Е. Теоретические аспекты дивидендной политики // Социально-экономическое развитие стран, регионов и оптимизация секторов экономики: анализ и прогнозы: сборник научных трудов по материалам I Международной научно-практической конференции. – Санкт-Петербург: НОО «Профессиональная наука».–2017.–С.107-122.– URL:<https://elibrary.ru/item.asp?id=30132055>.
3. Николашина Н.Н. Эмпирический анализ зависимости дивидендной политики от стадии жизненного цикла компании // Финансовая аналитика: проблемы и решения. – 2015. – № 23 (257). – С. 51-61. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/empiricheskiy-analiz-zavisimosti-dividendnoy-politiki-ot-stadii-zhiznennogo-tsikla-kompanii>.
4. Е.А. Мелай, А.В. Сергеева. Подходы к оценке инвестиционной привлекательности организации: сравнительный анализ // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. 2015. С.80-93.

МИНТАҚАВИЙ АГРОСАНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСИДА УНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ ЗАРУРИЯТИ

Д.А. Элов

ЎЗМУ доценти, и.ф.н.
elov.dilshod@mail.ru)

Жаҳон ҳўжалигининг глобаллашуви шароитида аграр соҳа, жумладан агросаноат ишлаб чиқаришидаги рақобат ҳар доим ҳам маҳаллий бозорларда ўз ўрнини эгаллаш ва мустаҳкамлаш учун курашни англамайди. Қишлоқ ҳўжалигида фаолият юритувчи ҳўжалик субъектлари ўртасидаги ўзаро рақобат курашида асосан бошқа минтақаларда, жумладан қулай шарт-шароитлар яратилган, ернинг унумдорлиги юқори бўлган, ишчи кучи нисбатан арзон ва сув таъминотида муаммо бўлмаган ҳудудлардаги нисбатан арзон таннархдаги қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқарувчилар рақобат устунлигига эга бўладилар. Бу турдаги рақобат курашида устун келиш жуда қийин бўлиб, аксарият ҳолатларда рақобат устунлигига эга бўлишнинг имконияти бўлмайди. Шунингдек, айрим ҳолатларда қишлоқ ҳўжалиги субъектлари саноат тармоқлари субъектларидан фарқли ўлароқ, ўз ҳўжалиklarини жойлаштириш учун ҳудудларни танлаш имкониятига эга бўлмайдилар. Бу эса аграр соҳа тармоқларида айрим ҳўжалик юритувчи субъектларнинг қулай ҳудуддан тегишли майдонга эга бўлганликлари ҳисобига рақобат курашида монополистик устунликка эга бўлишларини таъминлайди.

Агросаноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг “мукамал рақобат” шароитида ҳўжалик юритувчи субъектлар ўртасида бирон бир рақобат устунлигига эга бўлган фермер ҳўжалигининг мавжудлиги, бошқаларнинг рақобатбардошлик кўрсаткичини ташқи таъсир ҳисобига заифлашишига олиб келади. Бозор иқтисодиёти муносабатларининг тобора ривожланиб бориши аграр соҳада фаолият юритаётган иқтисодий субъектлар ўртасидаги рақобат курашини горизонтал шаклини бирмунча заифлаштирган ҳолда, вертикал рақобат муносабатларини жадал ривожланишига олиб келди. Аграр соҳадаги рақобат курашининг яна бир ўзига хос жиҳати қишлоқ ҳўжалиги маҳсулотлари маркетингини монополлаштириш хусусиятига эга эканлигида ўз аксини топади. Шунингдек, бир ҳудудда жойлашган қишлоқ ҳўжалиги ва агросаноат маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи иқтисодий субъектлар ўзаро интеграцион муносабатларга киришиш орқали ҳудудлараро ёки мамлакатлараро рақобатга киришган ҳолда, вертикал рақобат курашига киришадилар. Ушбу ҳолат маълум бир ҳудуд

ичидаги ўзаро рақобат курашини интенсивлигини бироз сусайтирган ҳолда, ҳудудий кооперативлар ўртасидаги рақобатнинг ривожланишига олиб келади.

Иқтисодий адабиётда аграр соҳада рақобатнинг ўзига хос хусусиятларини белгиловчи бир қатор ҳолатлар мавжуд. Хусусан, “нарх қайчиси” ҳолати рақобатга киришувчи хўжалик субъектларининг молиявий ҳолатига салбий таъсир кўрсатувчи ҳолатлардан бири бўлиб, баъзи вазиятларда ишлаб чиқарувчилар қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш учун сарфлаган харажатларини тўлиқ қоплаш имкониятидан маҳрум бўладилар. Шунингдек, фермер хўжаликларида юқори маҳсулдорликка эришиш учун фақатгина меҳнат унумдорлигини ошириш ва ишлаб чиқариш жараёнларини технологик жиҳатдан такомиллаштириш талаб этилади. Фермер хўжаликларида ишлаб чиқариш жараёнларига турли комбайнлар, кўпфункционали тракторлар ва шу каби бошқа техникаларнинг жалб этилиши улар томонидан маҳсулот етиштириш сарф-харажатларини минималлаштириш, ишлаб чиқариш ҳажми ва самарадорлигини ошириш учун хизмат қилади. Шунингдек, ушбу техник қуролланиш қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини, айниқса, ўсимликларни етиштириш, экинларни экиш ва ҳосилни йиғиш мавсумидаги меҳнат унумдорлигини ортишига бевосита таъсир кўрсатади.²⁴³

Давлат томонидан амалга оширилаётган иқтисодий ислохот чора-тадбирлари орқали агросаноат корхоналарининг рақобатбардошлигини оширишда иқтисодий дастаклар бевосита ишлаб чиқарилаётган маҳсулот таклифини рағбатлантиришга қаратилганлиги билан характерланади. Шунингдек, иқтисодий дастакларнинг самарали амал қилишига қуйидаги омиллар ўз таъсирини ўтказади:²⁴⁴

- ички бозор сиғимкорлигининг чекланганлиги. Бунда агросаноат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи субъект томонидан етиштирилган маҳсулотларни бошқа мамлакатларга экспорт қилиш, уларни ташиш ва сақлаш бўйича давлат томонидан етарли шарт-шароитларни яратилганлиги;

- маҳсулот етиштириш (ёки ишлаб чиқариш) харажатлари ҳажми. Агросаноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш жараёнларини техник ва технологик жиҳатдан замонавий қуроллантириш орқали маҳсулот таннархини пасайтиришга эришишни давлат томонидан рағбатлантириш зарурияти;

- дастлабки харажатлар. Агросаноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш бўйича янги хўжалик субъектларини очиш, уларнинг фаолиятини ривожлантиришнинг илк босқичларида уларни молиявий ресурслар билан таъминланганлиги ва давлат томонидан қўллаб-қувватланиши;

- давлатнинг иқтисодий сиёсати. Бунда давлат томонидан қишлоқ хўжалиги ва агросаноат соҳаларида қўлланилаётган протекционизм сиёсати, аграр соҳа тармоқларини молиявий қўллаб-қувватлаш, уларга яратилаётган шарт-шароитлар, соҳага давлат кафолати остида жалб этилаётган инвестициялар, аграр соҳада банд бўлган ёлланма ишчиларни ижтимоий ҳимоя қилинганлик ҳолатлари инобатга олинади;

- маҳсулотни тўлиқ ҳажмда сотиш (ёки реализация қилиш) имконияти.

Агросаноат ишлаб чиқаришининг рақобатбардошлик даражасини оширишга давлат томонидан таъсир кўрсатишнинг иккинчи дастаги ҳуқуқий дастак ҳисобланиб, унга қуйидаги омиллар таъсир кўрсатади:²⁴⁵

- бошқарув. Бунда мамлакатда агросаноат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналар бошқарувининг анъанавий ёки инновацион шаклда ташкил этилганлиги назарда тутилади. Анъанавий бошқарувга асосланган иқтисодий субъектларда ишлаб чиқариш жараёнларида

²⁴³ Захаров А.Н. Экономическая сущность и механизмы повышения конкурентоспособности предприятия: [мировой опыт]/ А. Н. Захаров // Внешнеэкономический бюллетень. - 2004. - N 4. - С. 11-20.

²⁴⁴ Каучуков Р., Савка А. Механизм государственного регулирования цен в аграрном секторе развитых стран. Экономист №6 2001. С. 24-25

²⁴⁵ Каучуков Р., Савка А. Механизм государственного регулирования цен в аграрном секторе развитых стран. Экономист №6 2001. С. 25-26.

асосан инсонларнинг меҳнатидан кенг фойдаланилса, инновацион бошқарувда илф-фан ютуқларини ишлаб чиқариш жараёнларига кенг татбиқ этган ҳолда, техник ва технологик жиҳатдан қуролланишга устуворлик қаратилади;

– қонунчилик. Бунда аграр соҳада хўжалик фаолияти юритишга оид яратилган шарт-шароитлар, хўжалик юритувчи субъектларнинг ҳақ-хуқуқлари ва уларнинг мажбуриятлари бўйича мамлакатда амал қилаётган меъёрий-ҳуқуқий асослар назарда тутилади;

– криминоген омиллар. Аграр соҳа маҳсулотларини етиштириш, уларни сотиш, яратилаётган имкониятлардан фойдаланиш бўйича айрим хўжалик субъектларига асоссиз равишда (таниш билишчилик, коррупция асосида) имтиёзларнинг ажратилиши, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари контрабандаси ва шу каби қонунларнинг бузилиши ҳолатлари назарда тутилади. Амалиётда криминал омиллар ҳисобига айрим қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи субъектлар рақобат устунлигига эга бўлишга интилиши ҳолатлари учраб туради.

Минтақавий агросаноат ишлаб чиқаришининг рақобатбардошлигини оширишга давлат томонидан таъсир кўрсатишнинг ташкилий дастакларининг самарали амал қилишига қуйидаги омиллар таъсир кўрсатади:²⁴⁶

– бозор инфратузилмасининг ривожланганлик ҳолати. Бунда агросаноат маҳсулотларни ишлаб чиқариш (етиштириш), жумладан, экинларни экиш, уларни парвариш қилиш, ҳосилни йиғиб олиш, маҳсулотларни етказиб бериш ва узоқ муддат сақлаш, шунингдек, етиштирилган маҳсулотларни тўлиқ сотиш имконини берувчи институционал бирлашмалар, логистик марказлар, техник хизмат кўрсатувчи ташкилотлар ва шу каби бошқа турдаги корхоналар фаолиятининг йўлга қўйилганлиги назарда тутилади;

– аграр соҳа тармоқларининг интеграцион стратегияси. Бунда мамлакат агросаноат тармоқларини узоқ муддатли даврда рақобатбардошлиги кўрсаткичини оширишда агросаноат кластерларини ташкил этиш назарда тутилади. агросаноат кластерлари бугунги кунда қишлоқ хўжалигига сарфланаётган инвестицион лойиҳаларнинг самарадорлигини оширишга хизмат қилмоқда.

Амалга оширилган таҳлиллар натижалари кўрсатишича, агросаноат маҳсулотлари рақобатбардошлиги рақобатчиларга нисбатан ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг нарх ва сифат жиҳатдан жозибадорлиги ва харидоргирлиги билан тавсифланади. Фикримизча, агросаноат тармоқларида фаолият юритаётган иқтисодий субъектларнинг рақобатбардошлиги даражасини комплекс таҳлил қилишда улар томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг нарх ва сифат кўрсаткичлари билан бир қаторда ишлаб чиқариш ҳажми, маҳсулотларни етказиб бериш шартлари, уларни сақлаш шарт-шароитлари каби омилларни ҳам инобатга олиш зарур деб ҳисоблаймиз. Ушбу омиллар аграр соҳа тармоқларида хўжалик фаолияти юритувчи субъектларнинг ўзаро рақобат устунликларига эришишини таъминлайди.

Агросаноат рақобатбардошлигини тушунчаси иқтисодий категория сифатида қишлоқ хўжалиги билан ўзаро боғлиқ ҳолда кўпдаражали характерга эга бўлган ҳолда, мураккаб таркибий тузилишли тушунча ҳисобланиб, унинг ташкилий ва функционал даражалари ўзаро фарқланади (1-жадвалга қаранг). Ташкилий даражадаги рақобатбардошлик қишлоқ хўжалигининг мамлакат, тармоқ, тармоқлараро, қишлоқ хўжалиги фаолияти юритувчи иқтисодий субъектлар ва маҳсулот даражасидаги рақобатбардошлик кўрсаткичини англатади. Функционал даражадаги рақобатбардошлик даражаси эса агросаноат рақобатбардошлигини ошириш механизмининг амал қилишининг турли даражаларидаги, хусусан, рақобатбардошлик даражасига таъсир кўрсатувчи омиллар, маҳсулот ишлаб чиқариш (етиштириш) омилларининг детерминанти ва омиллар детерминантларининг амал қилиш шароитидаги рақобатбардошлик даражаларидан ташкил топади.

1-жадвал

²⁴⁶ Ўша манба

Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлиги даражалари²⁴⁷

Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлиги даражаси ва унинг гуруҳланиши	
Ташкилий даражада	Функционал даражада
Мамлакат қишлоқ хўжалигининг рақобатбардошлиги	Қишлоқ хўжалигининг ишлаб чиқариш омиллари даражасидаги рақобатбардошлиги
Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлиги	Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши омиллариининг детерминанти даражасидаги рақобатбардошлиги 1-жадвалнинг давоми
Қишлоқ хўжалиги тармоқларининг рақобатбардошлиги	
Қишлоқ хўжалиги тармоқларида фаолият юритувчи иқтисодий субъектлар рақобатбардошлиги	Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш омиллари детерминантларининг амал қилиши шароитидаги рақобатбардошлик даражаси
Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари рақобатбардошлиги	

Агросаноат рақобатбардошлигини оширишда унга таъсир кўрсатувчи ички ва ташқи омилларни ҳам инобатга олиш зарур бўлади. агросаноат ишлаб чиқариши рақобатбардошлиги даражасини оширишга таъсир кўрсатувчи ички омиллар қаторига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- ишлаб чиқариш омиллари билан таъминланганлик даражаси;
- ишлаб чиқариш жараёнларининг техник ва технологик жиҳатдан курулланганлиги;
- меҳнат ресурсларининг салоҳияти.

Агросаноат рақобатбардошлигини оширишга ташқи омилларнинг таъсири ички омилларга нисбатан сезиларли таъсир ўтказган ҳолда улар бозор, ташкилий, сиёсий ва географик омиллар гуруҳларига ажратилади. Агросаноат рақобатбардошлигини оширишга таъсир кўрсатувчи ташқи омилларнинг бу тардаги гуруҳланиши рақобат устунлигини тизимли таҳлил қилиш асосида аграр соҳа тармоқларининг самарали фаолият юритиши учун замин яратади.

Амалга оширилган тадқиқотларимиз натижаларига таянган ҳолда айтиш мумкинки, мамлакатда агросаноат рақобатбардошлигини ошириш узоқ муддатли истиқболда миллий озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, жумладан қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг ҳажмини ошириш ва сифатини такомиллаштириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Захаров А.Н. Экономическая сущность и механизмы повышения конкурентоспособности предприятия: [мировой опыт]/ А. Н. Захаров // Внешнеэкономический бюллетень. - 2004. - N 4. - С. 11-20.
2. Каучуков Р., Савка А. Механизм государственного регулирования цен в аграрном секторе развитых стран. Экономист №6 2001. С. 24-25
3. Качанов М.А. Экономические отношения в системе производственного обслуживания сельского хозяйства. – М.: ВНИЭТУСХ, 1998, 226 с. (с. 30)
4. Конкурентоспособность сельскохозяйственных предприятий и фермерской деятельности в странах переходного периода / Под ред. П. Тиллака и В. Зиновчука. Труды ИАМО; Вып. 7, 2000. С. 35-42
- Магомедов М.Д., Алексейчева Е.Ю. Способы оценки конкурентного потенциала предприятия и условия его повышения / М.Д. Магомедов, Е.Ю. Алексейчева // Экономические проблемы хранения и переработки сельхозпродукции. - 2001. - № 7. - С. 23-25.

²⁴⁷ Качанов М.А. Экономические отношения в системе производственного обслуживания сельского хозяйства. - М.: ВНИЭТУСХ, 1998. - 226 с. (с. 30); Конкурентоспособность сельскохозяйственных предприятий и фермерской деятельности в странах переходного периода / Под ред. П. Тиллака и В. Зиновчука. Труды ИАМО; Вып. 7, 2000. С. 35-42; Магомедов М.Д., Алексейчева Е.Ю. Способы оценки конкурентного потенциала предприятия и условия его повышения / М.Д. Магомедов, Е.Ю. Алексейчева // Экономические проблемы хранения и переработки сельхозпродукции. - 2001. - № 7. - С. 23-25. Маълумотлари асосида тузилган

4-SHO‘BA. IQTISODIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA BUDJET-SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

РАСКРЫТИЕ ПОТЕНЦИАЛА: ОЦЕНКА И УВЕЛИЧЕНИЕ НЕНАЛОГОВЫХ ДОХОДОВ В ГОСУДАРСТВЕННОМ БЮДЖЕТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Муродил Шаропов

Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан
Департамент налоговой политики и прогнозирования доходов
Начальник отдела прогнозирования и анализа доходов

Государственный бюджет является важным инструментом финансового планирования и развития страны. Одним из ключевых аспектов бюджета являются доходы, которые обеспечивают финансовую устойчивость государства. Однако, не все доходы государственного бюджета приходят от налогов. Неналоговые доходы также играют важную роль в формировании бюджета и могут быть значительными источниками финансирования²⁴⁸.

Согласно статье 51 Бюджетного кодекса Республики Узбекистан, доходы республиканского бюджета Республики Узбекистан формируются в соответствии с установленными нормативами за счёт поступлений налога на прибыль, подоходного налога с физических лиц, акцизного налога, налога за пользование недрами, таможенных пошлин, налога на добавленную стоимость и прочих неналоговых поступлений.

К прочим доходам относятся государственные пошлины, сборы, возмещения, компенсационные платежи, штрафные санкции и поступления от реализации имущества, обращенного в доход государства, доходы от размещения и предоставления в пользование государственных активов по установленным нормативам, денежные средства, перешедшие в собственность государства по праву наследования, дарения, безвозмездные денежные поступления от юридических и физических лиц, а также иностранных государств, платежи в счет погашения бюджетных ссуд, выданных юридическим лицам — резидентам, кредитов, предоставленных иностранным государствам, дивиденды (доходы) по государственной доле акций (паю), за исключением дивидендов (доходов) по доле органов государственной власти на местах, доля государства в прибыльной продукции по соглашениям о разделе продукции, прибыль Центрального банка Республики Узбекистан и другие доходы, направляемые в республиканский бюджет Республики Узбекистан в соответствии с законодательством.

В целом неналоговые доходы отличаются от налоговых доходов по субъектному составу, содержанию прав и обязанностей участников финансовых правоотношений, возникающих в связи с уплатой и перечислением неналоговых доходов в бюджет.

Доходы госбюджета РУз по итогам 2023 года составили 231,7 трлн сумов, увеличившись по сравнению с 2022 годом на 29,9 трлн сумов (на 14,8%)²⁴⁹.

Таблица 1.

Соотношение налоговых и неналоговых доходов гос бюджета Республики Узбекистан

Показатели	2021 г	2022 г	2023 г
Общие доходы в госбюджет (трлн сум)	164,8	201,9	231,7
налоговые %	83,9	79,1	79,6
Неналоговые %	16,1	20,9	20,4

²⁴⁸ Комягин Д.Л. Неналоговые и налоговые доходы бюджета: в чем разница? // Реформы и право. – 2015. – № 2. – С. 16 - 25

²⁴⁹ https://www.imv.uz/media/gugb/20_02_2023/obzor_ru.pdf

Данная таблица свидетельствуют о том, что налоговые доходы превалируют над неналоговыми.

Прочие поступления и неналоговые платежи в 2023 году составили 47,2 трлн сумов (на 12,1% больше, чем в 2022 году). За отчетный период основная доля прочих доходов и неналоговых платежей пришлась на дивиденды, выплаченные госпредприятиями, и составила 19,4 трлн сумов.

Остальные прочие доходы формировались следующим образом:

- поступления от приватизации государственного имущества в местные бюджеты - 584,7 млрд сумов (в 2022 году - 639,3 млрд сумов);
- госпошлина – 2,9 трлн сумов (2,7 трлн сумов);
- штрафы – 2,1 трлн сум (1,5 трлн сум);
- пошлины – 1,9 трлн сум (1,6 трлн сум)²⁵⁰.

Оценка и увеличение неналоговых доходов может быть сложной задачей. Одна из основных проблем состоит в том, что некоторые источники неналоговых доходов могут быть непредсказуемыми и зависеть от различных факторов. Кроме того, некорректная или недостаточная оценка неналоговых доходов может привести к недофинансированию государственных программ и проектов. Для решения этих проблем необходимо разработать эффективные стратегии оценки и увеличения неналоговых доходов.

Для улучшения оценки неналоговых доходов можно использовать несколько стратегий. Во-первых, необходимо провести анализ источников неналоговых доходов и их потенциала. Это позволит более точно оценить возможные поступления в бюджет. Во-вторых, необходимо разработать систему мониторинга и анализа неналоговых доходов, которая позволит отслеживать их состояние и прогнозировать будущие изменения. Кроме того, важно улучшить сбор данных о неналоговых доходах и внедрить эффективные методы их учета.

Существует множество примеров успешных инициатив по увеличению неналоговых доходов в государственном бюджете. Например, некоторые страны активно развивают туризм и получают значительные доходы от туристического сектора. Другие страны успешно развивают государственные предприятия и получают прибыль от их деятельности. Кроме того, некоторые страны активно привлекают инвестиции и получают доходы от продажи акций и облигаций. Это лишь некоторые примеры успешных инициатив, которые могут быть использованы для увеличения неналоговых доходов.

Управление неналоговыми доходами в государственном бюджете требует использования лучших практик. Во-первых, необходимо разработать эффективные системы учета и управления неналоговыми доходами. Это позволит более эффективно использовать ресурсы и снизить возможные риски. Во-вторых, важно обеспечить прозрачность и ответственность в управлении неналоговыми доходами. Государственные органы и предприятия должны быть подотчетными и предоставлять отчетность о доходах и их использовании.

Существуют различные инструменты и технологии, которые могут быть использованы для отслеживания и анализа неналоговых доходов. Например, автоматизированные системы учета и анализа могут помочь собирать и обрабатывать данные о неналоговых доходах. Также существуют специализированные программы и приложения, которые позволяют проводить анализ доходов и прогнозировать их изменения. Эти инструменты и технологии могут значительно улучшить процесс учета и анализа неналоговых доходов.

Прозрачность и ответственность играют важную роль в управлении неналоговыми доходами. Государственные органы и предприятия должны предоставлять отчетность о доходах и их использовании. Это позволит общественности и заинтересованным сторонам оценить эффективность управления неналоговыми доходами и предотвратить возможные

²⁵⁰ https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_23_ru.pdf

злоупотребления. Кроме того, прозрачность и ответственность создают доверие и уверенность в финансовой устойчивости государства.

Сегодня из-за низкой эффективности механизмов использования рекламной деятельности объем поступлений от этого направления в бюджет очень мал. Системное регулирование рекламной отрасли, установление жесткого контроля в этом направлении, цифровизация отношений в сфере дадут возможность увеличить поступления в бюджет.

В целях эффективного использования государственного имущества необходимо увеличить поступления в бюджет путем осуществления аренды государственного имущества через единую электронную систему и наладить точный учет вакантного государственного имущества.

На сегодняшний день возникают спорные ситуации при начислении и выплате дивидендов в хозяйственных обществах и государственных унитарных предприятиях с государственной долей в уставном фонде. Для решения данных спорных вопросов, увеличения поступлений в бюджет и своевременного их сбора необходимо разработать проект решения о порядке начисления и выплаты дивидендов от чистой прибыли предприятий с государственным участием.

В целях обеспечения будущей защиты экологии и окружающей среды целесообразно ввести плату за утилизацию продукции, оказывающей воздействие на окружающую среду.

Неналоговые доходы играют важную роль в государственном бюджете и могут быть значительными источниками финансирования. Оценка и увеличение неналоговых доходов требуют разработки эффективных стратегий и использования инструментов и технологий. Кроме того, прозрачность и ответственность в управлении неналоговыми доходами являются ключевыми факторами для обеспечения финансовой устойчивости государства. Развитие и использование неналоговых доходов позволит раскрыть потенциал и обеспечить устойчивое развитие Республики Узбекистан.

Использованная литература:

1. Комягин Д.Л. Неналоговые и налоговые доходы бюджета: в чем разница? // Реформы и право. – 2015. – № 2. – С. 16 – 25
2. https://www.imv.uz/media/gugb/20_02_2023/obzor_ru.pdf
3. https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_23_ru.pdf

STRATEGIC DEVELOPMENT OF THE FINANCIAL AND CREDIT SYSTEMS BETWEEN UZBEKISTAN, MALAYSIA AND SINGAPORE.

**Noorsidi Aizuddin Mat Noor^{1ab}, Farhana Diana Deris^c, Nurul Syakima Mohd Yusoff^b, Siti
Zaleha Daud^b, Mustafa Omar^d and Rohaizal Idris^e**

^aCentre for Real Estate Studies (UTM CRES), Institute for Smart Infrastructure and Innovative
Construction (ISIIC), Universiti Teknologi Malaysia, 81310, Johor Bahru, Malaysia

^bMass Appraisal, Housing and Planning Research Group, Real Estate Department, Faculty of Built
Environment and Surveying, Universiti Teknologi Malaysia, Johor, Malaysia

^cFaculty of Social Sciences and Humanities, Universiti Teknologi Malaysia, Malaysia

^dReal Asset Research Group, Real Estate Department, Faculty of Built Environment and Surveying,
Universiti Teknologi Malaysia, Johor, Malaysia

^eProlander Group, The Grand SOFO A-10-06 Kelana Damansara Suite, No.3, Jalan SS6/2, Kelana
Jaya, 47301 Petaling Jaya Selangor Darul Ehsan
Corresponding Email Address

¹noorsidi@utm.my

Emerging from considerable route changes in the past two decades such as globalization, technological progress and economic environment are the financial and credit systems of Uzbekistan, Malaysia and Singapore[4]. This study mainly focuses on the financial and credit systems of these countries between 2000 and 2024, reviewing the core difficulties, achievements, and future plans.

Uzbekistan commenced the implementation of economic reforms in the early 2000s in attaining the move from a centrally planned to free market economy. The financial sector suffered from problems including credit unavailability, a weakened capital market, and regulatory obstacles. Yet, the attempts made by the government to do away with exchange controls and bring in fresh investments created an environment for the banking sector to thrive. By 2010 one can say that the financial inclusion in Uzbekistan has been advanced, as the expansion of microfinance institutions and adoption of digital banking solutions show [8]. Although a progress has been made, significant problems, including governance faults and bad loans, have remained

Financial sector in Malaysia at the turn of the 21st century registered a rapid growth along with its diversification, which was the result of the development of Islamic finance and the designation of Kuala Lumpur as the international Islamic financial hub[5]. To achieve the objective of the Vision 2020 plan which is to make Malaysia one of the high income nations, the financial sector becomes a vital engine for the economic growth [6]. During this era, the government worked intensively to improve the regulatory frameworks and raise the financial literacy rate and financial inclusion[5]. Nonetheless, issues like household debt are still there and foreign capital flows are still one of the main sources of funding.

As time goes by, Singapore has confidently emerged as a premier place on the world for quality financial services, characterized by an advanced and complex financial sector [2]. The state's geographical location has complemented its well-established regulatory structures as well as its focus on invention, making it appealing to foreign investment and talented individuals. On the upside, successful international expansion has many benefits. However, Singapore's dependence on external demand and the smallness of the domestic market are the most awkward problems for its growth [1].

Over recent times, the Southeast Asia region has been reporting an increase in setting up real-time payment linkages with Singapore having direct links with Indonesia, Thailand and Malaysia [2]. This is the first real-time payment system bridge which is cloud-based and operates using scalable infrastructure. The PayNow-UPI linkage between Singapore and India used an integration that did

not involve a banking institution[10], hence making it the first bridge of its class in the entire world. The implementation has resulted in a decline in the expense incurred to transfer remittances of foreign workers from Singapore and India. More so, this move has strongly influenced the Indian remittances market forecast of 100 billion dollars by 2022[2]. Table 1 is the illustration the evolution of what are the key indicators of the financial and credit systems of Uzbekistan, Malaysia, and Singapore during the past two decades.

Table 1.: The evolution of Key Financial and Credit System indicators in Uzbekistan, Malaysia, and Singapore

Indicator	Uzbekistan		Malaysia		Singapore	
	2000	2020	2000	2020	2000	2020
GDP Growth Rate (annual %)	3.2	5.0	8.5	4.3	9.9	1.3
Banking Sector Assets (% of GDP)	29.4	52.7	156.8	201.6	447.2	587.3
Domestic Credit to Private Sector (% of GDP)	7.1	25.9	78.3	142.6	134.5	160.7
Number of Commercial Banks	5	29	39	27	25	109
Financial Inclusion Index (0-100)	-	58.3	-	63.2	-	88.7
Nonperforming Loans (% of total loans)	30.1	8.2	7.2	1.5	2.1	1.6
Regulatory Quality Index (0-100)	-	53.8	-	69.1	-	88.2

Note:

- *GDP Growth Rate, Banking Sector Assets, and Domestic Credit to Private Sector figures are presented as a percentage of GDP.*
- *The number of commercial banks refers to the total number of licensed commercial banks operating in each country.*
- *Financial Inclusion Index measures the extent of access to and usage of financial services among the population, with higher values indicating greater inclusion.*
- *Nonperforming Loans represent the percentage of total loans that are classified as nonperforming.*
- *Regulatory Quality Index assesses the effectiveness of regulatory frameworks in ensuring financial stability and investor protection, with higher values indicating stronger regulatory quality.*

These data can tell us more about how financial and banking systems in Uzbekistan, Malaysia and Singapore transformed during those periods. They displayed the many phenomena including banking sector development, financial inclusion and regulations improvement. The planning area, in which the strategies for the development of financial and credit integration between Uzbekistan, Malaysia, and Singapore are presented in Fig.1.




Fig.1: Strategic Development of Financial and Credit Systems Between Uzbekistan, Malaysia, and Singapore

In the light of Fig.1, it is evident that the strategic development of financial and credit systems for Uzbekistan has been executed based on the integrated approach including the regulatory, technological and social components.

Specific measures could be taken to provide assistance and contribute to the formation and development of the monetary and credit relationship between Uzbekistan, Malaysia and Singapore. The first thing to do is making sure that the financial infrastructure is enhanced and financial clarity is promoted to provide small businesses and entrepreneurs in Uzbekistan with access to finance[7]. Besides, the Malaysian government can keep its aim on enriching the regulatory system and increase financial literacy for the unserved and the underbanked people. Fourthly, Singapore can further establish payment connections with other countries in region which would enable trade and investment in the same way and also serve in deepening financial inclusion in Southeast Asia among the unbanked and underbanked population[2,9]




Fig.2: Simple Strategic Development of Financial and Credit Systems

Financial readiness and security, among other factors, should be approached to may give light in relating them into the components of disaster risk. The national stability is an integral part of the consumers experiences of security and convenience as well as their ease of financial transactions. Therefore, political inability and indiscretion that develop, will eventually reset everything to zero. A good and balanced development is not only a question of the part of Asia but also a complex matter of the multiple facets of the global finance sector which need to keep working well and demand variety of finance instruments.

Hence, the main priority for financial and credit system development between Uzbekistan, Malaysia and Singapore should be stress once again as a necessity of improving financial infrastructure, increasing financial literacy, develop regulatory frameworks, encourage financial inclusion, guaranty stability for financial sector, broad the variety of financial instruments, and foster stability within every part of the sector. Indeed, the effectiveness of these strategies would ensure that along-term sustainable economic growth alongside financial inclusion would have been achieved, and as a result, a strong, stable financial sector would emerge and perform its prime functions. The three countries can join efforts and knowledge sharing among them in order to deal with the weaknesses of their financial systems and guarantee a dynamic and integrated development of the entrepreneurial indices in order to support financial development and enlarge financial inclusion.

We would also like to show our gratitude to the UTM Mass Appraisal, Housing and Planning Research Group members and our Industry partners, Prolander Group members for sharing their pearls of wisdom with us during the course of this exploratory study, and we thank to our anonymous reviewers for their so-called insights although any errors are our own and should not tarnish the reputations of these esteemed persons.

References

1. Buckley, A., & Balakrishnan, M. (2020). Real-time retail payments or faster payments: Evidence from select countries on consumer attitudes and the importance of dependability. *Journal of Payments Strategy & Systems*, 14(2), 172-185.
2. Pairman, S., & Sanggita, W. (2021). Instant payments in Asia are changing business models. *Journal of Digital Banking*, 5(3), 264-276.
3. Hamanaka, S. (2010). ADB Working Paper Series on Regional Economic Integration. Asian Development Bank.
4. Lee, J. W., & Warwick, M. J. (2014). ADBI Working Paper Series.
5. Hajazi, M. A., Chan, S. S., Ya'kob, S. A., Siali, F., & Latip, H. A. (2021). Usage intention of QR mobile payment system among millennials in Malaysia. *International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences*, 11(1), 645-661.
6. Hassan, M. A., Shukur, Z., & Hasan, M. K. (2021). Electronic wallet payment system in Malaysia. In *Data Analytics and Management: Proceedings of ICDAM* (pp. 711-736). Springer Singapore.
7. Normamatov, I. B. (2021, October). Payment system in the context of modernization of the economy in uzbekistan and the application of world experience on it. In *Archive of Conferences* (pp. 213-315).
8. Umarov, Z., Turdiyeva, S., & Pardayeva, Z. (2019). The Main Directions of Improving the Payment System of the Republic of Uzbekistan. *International Finance and Accounting*, 2019(4), 2.
9. Ahunov, M. (2018). Financial inclusion, regulation, and literacy in Uzbekistan (No. 858). ADBI Working Paper.
10. Prêtet, A., & Klang, T. (2019). Enhancing access to finance for SMEs: The case of Central Asia. In *Unlocking SME Finance in Asia* (pp. 23-51). Routledge.
11. Akimov, A., & Dollery, B. (2009). Financial development policies in Uzbekistan: an analysis of achievements and failures. *Economic Change and Restructuring*, 42, 293-318.

MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT TARMOG'INI IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI

Abdualilova Guzal Saydillayevna

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, PhD, Ekonometrika va iqtisodiy
modellashtirish kafedrası katta o'qituvchisi
rasulova2406@gmail.com

Sanoat respublikamiz iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i hisoblanib, o'zining yuqori qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi va iqtisodiyotning turli sohalari ehtiyojini qondirishdagi o'rni hamda yuksak darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish lokomotivi bo'lganligi tufayli o'z afzalligi bilan boshqa tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Sanoat moddiy ne'mat ishlab chiqaradigan tarmoq bo'lib, uning rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan yuksalishiga olib keladi. Sanoat sohasida tabiiy boyliklarni qazib olish va resurslarni qayta ishlash, ulardan yangidan-yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklaturaning ko'payishi hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi.

Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rnining nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan Y.Rodionov, R.S.Porter, D.Deverys, B.Roberts, R.N.Nureyevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo'lsalar, mahalliy olimlardan B.K.G'oyibnazarov, Y.A.Abdullayev, A.Abdusamadov, U.Muxitdinov, A.A.Ortikov, B.T.Salimov, X.Ishbutayeva, Sh.Nizomova, E.X.Maxmudov, M.Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo'lishgan.

Xususan, A.Ortikov "O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari"ga [13], B.T.Salimov "Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning hududlar bo'yicha qiyosiy tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari"ga [11], E.X.Maxmudov "Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yunalishlari birinchi navbatda budjet, soliq, pul kredit, narx va valuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish"ga [12] bog'liqliklariga alohida to'xtalib o'tishgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 22 maqsadida Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish"²⁵¹ vazifasi belgilab berilgan. Chunki, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Shunga muvofiq, izchillik bilan amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar tufayli milliy sanoat salohiyati tobora yuksalib bormoqda.

Tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy va dinamik tahlil, tizimli tahlil, monografik tahlil, statistik guruhlash, iqtisodiy indekslar, vaqtli qatorlar, variatsiya ko'rsatkichlari, statistik jadval va grafiklar, anketa, ekspert baholash, ekonometrik tahlil va prognozlash kabi usullar qo'llanilgan.

O'tkazilgan tahlillar natijalariga ko'ra, 2020-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida bu haqida to'xtalib, "...sanoatning 12 ta yetakchi tarmog'ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda. Natijada o'tgan yili iqtisodiy o'sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko'paydi. Oltin-valuta zaxiralarimiz 2019-yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga yetdi"²⁵² hisobot yilida ham mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida mutanosiblikka erishilgani,

²⁵¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. lex.uz.

²⁵²Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январ. www. Uza.uz

modernizatsiya hamda diversifikatsiya tufayli yuqori sur'atlar ta'minlanganini alohida qayd etgani buning yaqqol tasdig'idir.

Bugungi kunda sanoatda mahsulot ishlab chiqarish darajasi va samaradorligi o'sishini to'xtovsiz ta'minlab turish lozim. Chunki, bu birinchidan, respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko'lamini kengayishiga, ikkinchidan aholining turmush sharoitini yaxshilanishiga, uchinchidan respublikaning sanoat mahsulotlari bo'yicha eksport salohiyatini oshirishga imkon beradi.

Bu borada esa, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Darhaqiqat, bu jarayon aholini ish bilan ta'minlash, daromadlarini oshirish imkoniyatini kengaytiradi, qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik sohalarini, oziq-ovqat, yengil sanoat tarmoqlarini va boshqa tarmoqlar rivojlanishiga turtki beradi; qishloq xo'jaligi, mehnat, moliya resurslari va boshqa resurslar foydalanish samaradorligini, pirovard natijada mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshiradi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, mamlakatimizda va hududlarda ishlab chiqariladigan sanoat mahsuloti hajmini hududlararo hamda hududlarning bu boradagi ko'rsatkichlarini mamlakatimiz ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, shuningdek, sanoat mahsulotining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini tahlil etish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash dolzarbdir.

Yuqorida qayd etilgan sohalar ishlab chiqarishni doimiy ravishda modernizatsiya qilish va ilmfan yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Shu bois sanoat korxonalariga eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish bugungi kundagi ustuvor vazifalaridan biri sifatida dolzarbligicha qolmoqda.

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan jami sanoat mahsulotlari hajmi va undagi tarkibiy o'zgarishlarning yillar davomidagi o'sish dinamikasi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda 2010-2021-yillarda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi, %da

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Sanoat mahsuloti	105,9	104,4	105,7	107,5	104,5	105,3	105,4	105,2	110,8	105,0	100,9	108,8	105,2
Tog'-kon sanoati va ochiq konlar	94,8	98,5	108,8	96,6	93,2	102,9	100,8	117,6	126,5	99,4	78,0	110,8	102,1
Ishlab chiqarish sanoat	108,9	108,1	106,3	112,5	108,0	105,9	106,7	104,2	107,9	106,6	107,9	108,3	105,3

Yuqoridagi jadvaldan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 2022-yilda sanoat mahsuloti hajmi (105,2%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (102,1%) hamda ishlab chiqaradigan sanoat (105,3%) lar bo'yicha ijobiy ko'rsatkichlarni ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, ushbu jadval ma'lumotlaridan sanoatning boshqa tarmoqlarida ham shunga o'xshash o'zgarishlar bo'lganligini ko'ramiz.

Sanoatdagi ushbu tarkibiy o'zgarishlar quyidagi yo'nalishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni talab etadi:

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish orqali chinakam mulkdorlar sinfini yanada ko'paytirish;

- kichik tadbirkorlik ulushini oshirish orqali majmuada raqobat muhitini shakllantirish, mavjud monopol korxonalar sonini imkon qadar tugatish;

- avvaldan shakllangan, xomashyo yetkazib berishga ixtisoslashgan tarmoqlardan voz kechish, ularning o'rnida tayyor mahsulot tayyorlovchi quvvatlarni barpo etish;

- moddiy (yer, kapital) va shaxsiy insoniy (mehnat, tadbirkorlik) resurslardan samarali foydalanish, shu orqali ishlab chiqarishni innovatsion yo'l bilan rivojlantirish;

- sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi subyektlar erkin faoliyat yuritishi uchun davlat tomonidan ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham huquqiy kafolatlar berish;

- xususiylashtirish natijasida tashkil etilgan sanoat korxonalariga ma'lum davr davomida oldingi faoliyatini saqlab qolish talabidan voz kechish. Bu esa ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibini

tubdan o'zgartirish, talab va ehtiyoj katta bo'lgan, import mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi;

- jahon bozoriga O'zbekiston sanoat mahsulotlari kirib borishi uchun zamonaviy xorijiy firmalar tajribasi va texnika-texnologiyalarini mamlakat sanoatiga joriy etish, buning uchun qulay investitsion muhit yaratish;

- mavjud ishlab chiqarish tajribalari, malakali kadrlar salohiyati va barcha intellektual mulkni bosqichma-bosqich rivojlantirish;

- shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida qo'yilgan maqsadlarni muvafaqqiyatli amalga oshirishga yo'naltirilgan qarorlarni ish faoliyatiga izchil tatbiq etuvchi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

- ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash manbalari tomonidan imtiyozlar yaratish, moliyaviy mablag'larni maqsadli yo'nalishlarga jalb etish.

O'zbekiston sanoat majmuida qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida kichik va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish uchun ishlab chiqilgan dasturlar samarasi hamda jahon bozorida sanoat mahsulotlariga, jumladan, oziq-ovqat, yengil va mashinasozlik sanoatlari mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi pirovard – natijada sanoat ishlab chiqarishining qo'shimcha o'sishiga olib keldi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tuzilmasiga e'tiborni qaratsak, mustaqillikning o'tgan davrida yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmoqlari yuqori sur'atlar bilan o'sayotganini ko'rishimiz mumkin.

Mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati hamda yengil sanoatning yirik tarmoqlari: ip yigiruv va to'qimachilik sanoati sezilarli darajada, doimiy yuqori ko'rsatkichlarda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bozor islohotlarini tizimli ravishda kengaytirish, kelgusi davr sanoat majmuidagi tarkibiy o'zgarishlarning muhim ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlaridagi o'sish sur'atlari mazkur tarmoqlarda yaratilayotgan mahsulotlarga bo'lgan ichki va tashqi talab ko'lamiga bog'liq. Mamlakat aholisining real daromadi va xarid qobiliyatini yanada oshirishda iste'mol krediti tizimini keskin kengaytirish va takomillashtirish sanoat majmuida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshiruvchi ichki talab ulushi oshishi bilan xarakterlanadi. Sanoatda yaratiladigan mahsulotlarga jahon bozoridagi bahoning qulay konyunkturaga ega bo'lishi, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi sanoat rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va tashqi omil ta'sirining oshishi bilan tavsiflanadi.

Sanoat majmuida amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlarda davlatning soliq-budjet siyosati, baho va pul-kredit siyosati, umuman, iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida bir qator ijobiy siljishlarga erishildi. Sanoat korxonalarini isloh qilish, tarkibiy qayta tuzish, sanoatda xususiy mulk ulushining yanada oshishi, tarmoq korxonalari boshqaruvini bozor tamoyillari asosida shakllantirish sanoat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, o'tgan davr mobaynida sanoatdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi, mahsulot ishlab chiqarish salohiyati sezilarli darajada oshdi. Lekin hali mamlakatimiz sanoati rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilyapti, deb bo'lmaydi. Bu jarayon quyidagi omillar bilan bog'liq:

- moddiy xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini past darajada ekanligi;

- sanoat majmuiga kiritilgan investitsiyalar tarmoq mahsulotlari eksporti salmog'ining oshishiga hissa qo'sha olmayotganligi, asosan ichki bozor uchun mahsulot yetkazib berish bilan cheklanishi;

- sanoat korxonalarida mavjud kapitalning moddiy va ma'naviy jihatdan eskirganligi, natijada mahsulot yaratishda tannarxning yuqori darajaga chiqib ketishi, sifat darajasi bo'yicha import mahsulotlar sifati bilan raqobatlasha olmayotganligi, elektr energiyasi va qo'l mehnatidan foydalanish qisqarmaganligi.

Bu kabi muammolar sanoatda tarkibiy investitsion siyosatni yanada takomillashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etadi. Shu bilan birga, mamlakat sanoati rivojlanishini ta'minlovchi quyidagi yo'nalishlarni taklif etamiz:

- investitsion ishlab chiqarishni rivojlantirish, keng ko‘lamli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan loyihalar ishlab chiqish;

- korxonalarda innovatsion salohiyatni takomillashtirish, ilm va yuqori texnologiya talab qiladigan yangi korxonalar tashkil etish va import mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish;

- rivojlangan mamlakatlarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi zamonaviy texnika-texnologiyalarini import qilish siyosatini jadallashtirish;

- sanoatda xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlik ulushini oshirish;

- diversifikatsion faoliyatni takomillashtirish, ichki zaxira va mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanishni ta‘minlash;

- zarar ko‘rib ishlayotgan, past rentabelli korxonalarni istiqboli bo‘lmasa tugatish, ularning o‘rniga kichik sanoat zonalarini tashkil etish. Agar bu korxonalarni yangi texnologiyalar asosida yoki xorijiy investorlar bilan hamkorlikda rivojlantirish imkoniyati bo‘lsa, uni qo‘llab-quvvatlash chorasini ko‘rish;

- hududlarning resurs imkoniyatlaridan kelib chiqib, xorijiy investorlarni hududga jalb qilish, ular bilan qo‘shma korxonalar qurish ishlariga e‘tibor qaratilishi lozim.

Bugungi kunda hududlarda sanoatni rivojlantirishning asosiy omillari quyidagilar bo‘lishi ko‘zda tutilmoqda:

- yangi texnologiyaga asoslangan, raqobatbardosh va eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan investitsion loyihalarni hududdagi kichik sanoat zonalariga jalb qilish;

- mahalliyashtirish dasturi va Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi doirasida yaratilgan imtiyoz va preferensiyalardan keng foydalanish;

- qurilish materiallari industriyasini rivojlantirish;

- sanoatni rivojlantirishda bank kreditlari ta‘sirchanligini oshirish;

- sanoatni rivojlantirishda qo‘shma korxonalarning ulushini oshirish;

- mahalliy xomashyoni qayta ishlash;

- ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti ko‘lamini kengaytirish, kichik korxonalar mahsulotlarini eksportga yo‘naltirishga ko‘maklashish;

- yirik va o‘rta korxonalarni barcha hududlar shaharlari bo‘yicha joylashtirishga e‘tiborni qaratish. Qolgan tuman va kichik shaharlarda asosan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kichik sanoat zonalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, respublikada amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlarning barchasi mamlakat makroiqtisodiy barqarorligining oshishi bilan birga, aholi turmush farovonligiga ijobiy ta‘sir etmoqda va ularning davom ettirilishini davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24 yanvar. www. Uza.uz

3. Основы международной статистики: учебник / под ред. Ю.Н. Иванова. М.: Инфра-М, 2013. 621 с.

4. Система национальных счетов 2008. Нью-Ёрк: ООН, 2009.

5. Основы национального счетоводства (международный стандарт СНС 2008 г.): учебник / под ред. Ю.Н. Иванова. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Инфра-М, 2013. - 399 с.

6. Methodology of short-term business statistics — Interpretation and guidelines, Eurostat, 2006.

7. Статистика: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям / под ред. В.М. Гусарова, Е.И. Кузнецовой. 2-е изд., перераб. и доп. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008- 479 с.

8. G‘oyibnazarov B.K. Milliy hisoblar tizimi-makroiqtisodiy tahlil asosi. Monografiya. –Toshkent.: «FAN»,2002, 125 b.
- 9.Симонова М.Д. Информационная база структурного анализа ОЕСР: отраслевые принципы в исследовании рынков товаров и услуг // Вестник МГИМО-Университета. 2015. № 3. С. 190–198; Симонова М.Д. Анализ развития информационной базы экономической глобализации на современном этапе // Вестник МГИМО-Университета. 2011. № 2. С. 182–187.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
- 11.Salimov B.T. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning hududlar bo‘yicha qiyosiy tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil.
- 12.Maxmudov E.X, Ortikov A., Karimov F. Korxona iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini. / Hamkor. 2010-yil 7-fevral.
13. Ortikov A. Sanoat iqtisodi. Darslik. Toshkent, TDIU, 2009. 236 b.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETIGA TUSHUMLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI

Fayzullayev Doston Mahmud o‘g‘li

O‘zMU iqtisodiyot fakulteti “Ekonometrika va
iqtisodiy modellashtirish” kafedrası tayanch doktoranti
fayzullayevdoston12@gmail.com

Boy madaniy merosga ega Markaziy Osiyo davlati O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sezilarli iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Mamlakatning iqtisodiy salomatligining muhim jihatlaridan biri uning davlat budjeti bo‘lib, u hukumatning moliyaviy tayanchini aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti (Davlat budjeti) — davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasi.[1]

Budjet tizimi budjetlari daromadlarining tasnifi daromadlarni ularning turlari va manbalari bo‘yicha kodlashdan iborat bo‘ladi.

Budjet tizimi budjetlari daromadlarining tasnifi tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- budjet tizimi budjetlari mablag‘larining manbalari va darajalari tasnifi;
- daromadlarning turlari;
- tashkiliy tasnif;
- hududiy tasnif.

Budjet tizimi budjetlari mablag‘larining manbalari va darajalari tasnifi kelib tushayotgan daromadlarning tegishli mablag‘lar manbalariga va ushbu budjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo‘llaniladi.


Dunyodagi murakkab va noaniq vaziyat, jahon iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining sekinlashuvi sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘shish sur‘atlarini saqlab kelmoqda. Ta’kidlash joizki, 2023-yil uchun Davlat budjeti global o‘zgarishlar va iqtisodiy noaniqliklar kuchayib borayotgan bir sharoitda shakllantirildi. Tashqi tahdidlar tufayli iqtisodiyot rejalashtirilganidan pastroq sur‘atlarda o‘shishi kutilmoqda. Dastlabki baholashga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shish 5,7 foizni tashkil etdi. 2023-yilda YaIM o‘shishi 5,3 foizgacha sekinlashishi kutilmoqda.[2] Budjet loyihasining 2024-yilga mo‘ljallangan prognoziga ko‘ra, iqtisodiy o‘shish sur‘ati 5,6–5,8 foizni tashkil etadi. 2025–2026-yillarda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari mos ravishda 6,2 foiz va 6,4 foizgacha oshishi kutilmoqda.[3]

Maqolani yozish jarayonida bir qator iqtisodchi olimlarning mahalliy budjetlarning daromadlari va xarajatlari, ularni boshqarishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini o‘z ichiga olgan ilmiy va o‘quv adabiyotlari mavjud. Xususan, xorijiy iqtisodchilardan Maria N.[4], Busch, D., Strehl, W [5] va boshqalar ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Davlat budjet tizimining ilmiy-nazariy

asoslarini shakllantirishga O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.V.Vahobov, T.S.Malikov[6], N.X.Xaydarov[7], T.Eshnazarov[8] va boshqalar hissa qo'shdilar.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun dastavval amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar belgilab olindi. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni jamlash va ularga ishlov berib ma'lum guruhlariga ajratish; guruhlangan ma'lumotlar asosida tasviriy statistikani jadval va grafiklar orqali ifodalash; Davlat budjeti daromadlari va unga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni koorelatsion – regression tahlil qilish orqali, natijaviy belgiga ta'sir etayotgan omil belgilarning bog'liqlik kuchiga baho berish; olingan natijalarni induksiya va deduksiya usullari orqali tanqidiy tahlil qilib, davlat budjeti daromadlarini oshirish imkoniyatlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetiga tushumlar bo'yicha eng katta hissa soliq tushumlariga tegishlidir. Bu – daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va korxonalar hamda jismoniy shaxslardan olinadigan boshqa yig'implarni o'z ichiga oladi. Soliq tushumlarining jami budjet daromadlariga nisbatini o'rganish muayyan soliq toifalariga bog'liqligini tahlil qilishga yordam beradi.



1-rasm. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining tarkibi, foizda (%) [9].

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining tarkibi turli manbalarga borib taqaladi. Shu manbalar ichida qariyb 80 % atrofidagi budjet tushumlari soliq turlaridan kelib tushadigan mablag'lar hisoblanadi. 2022-yil davlat budjeti daromadlari tarkibida soliq turlari bo'yicha tushumlardan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) eng katta ulushga ega bo'lib 26 % ni tashkil etgan. Budjetga tushumlar ulushi bo'yicha keyingi o'rinlarda turadigan soliq turlari: foyda solig'i - 19 % va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i - 12% ni tashkil etgan.

O'zbekiston budjeti daromadlarining hozirgi holatini tushunish uchun tarixiy tendensiyalarni o'rganish zarur. O'zbekiston so'nggi yillarda sezilarli iqtisodiy o'sishga erishdi va uning davlat budjeti o'zgaruvchan iqtisodiyot talablariga javob beradigan tarzda rivojlandi. O'tgan yillar kesimida davlat budjeti daromad shakllarini tahlil qilish mamlakatning fiskal barqarorligi va o'sish trayektoriyasi haqida tushuncha beradi.

Quyidagi 2-rasmda keltirilgan grafik malumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, davlat budjeti daromadlari 2000-yildan toki 2017-yilgacha o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati 29 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2018-2019-yillarda o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati qariyb 51 % ni tashkil etib davlat

budjeti daromadlari tendensiyasida keskin burilish hosil qilganini ko'rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab qilib shu yillarda soliq stafkalaridagi o'zgarishlarni va valuta kursining erkinlashtirilishini keltirishimiz mumkin. 2020-2022-yillar mobaynida budjetga tushumlarning o'rtacha qo'shimcha o'zgarish sur'ati taqriban 22 % atrofida saqlanib qolgan.

O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotiga nisbatan davlat budjeti daromodlarining ulushi tendensiyasiga nazar soladigan bo'lsak 2000-yildan 2008-yilgacha budjet daromadlarining YaIMdagi ulushi o'rtacha 22 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2009-2017-yillarda 5%ga kamayib yillik o'rtacha 17%gacha pasayganini ko'rishimiz mumkin. 2018-2022-yillarda budjet daromadining YaIMdagi o'rtacha ulushi 21% dan oshgan. So'ngi besh yilda budjet daromadining YaIMdagi o'rtacha ulushi tendensiyasida faqat o'sish bo'layotganligi – soliq solinadigan manbalar bazalarining kengayib borayotganligi va budjetdan mablag' oluvchilarning imkoniyatlari oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston davlat budjeti daromadlarining har tomonlama statistik tahlili mamlakat iqtisodiy salomatligining ko'p qirrali manzarasini ochib beradi. Tarixiy tendensiyalar, daromad manbalari va iqtisodiy siyosatning ta'sirini o'rganish siyosatchilar, iqtisodchilar va investorlar uchun qimmatli tushunchalarni beradi. Budjet daromadlari dinamikasini anglagan holda O'zbekiston o'zining iqtisodiy o'sish va rivojlanish yo'lida davom etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjetini mustahkamlash va daromad manbalarini oshirish bo'yicha yetarli manbalarga egadir. O'zbekiston tabiiy resurslarga, xususan, energetika va mineral-xomashyo sohalariga boy. Ushbu resurslarni qazib olish va eksport qilishdan olinadigan daromadlar davlat budjetiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tabiiy resurslardan olinadigan daromadlar dinamikasini tushunish prognozlash va rejalashtirish uchun juda muhimdir.

O'zbekiston budjetini mustahkamlashda tashqi yordam, jumladan, xalqaro tashkilotlar va donor davlatlarning yordam va grantlari muhim rol o'ynaydi. Chet el yordamining o'zgaruvchanligi va tendensiyalarini tahlil qilish mamlakatning diplomatik va iqtisodiy munosabatlari haqida tushuncha beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. <https://www.lex.uz/docs/-2304138/> 01.01.2014
2. “Фуқаролар учун бюджет: 2023 йил учун тасдиқланган бюджет” ахборот нашри. Тошкент – 2023. 57 бет.
3. “Фуқаролар учун бюджет: 2024 лойиҳа” ахборот нашри. Тошкент – 2023. 63 бет.
4. Maria N. Forecast of budget revenues from taxes in the context of economy digitalization. Koniagin 2020. IOP Conf. Ser.: Mater. Sci. Eng. 940 012040.
5. Busch, D., Strehl, W. (2019). Budget Preparation and Forecasting in the Federal Republic of Germany. In: Williams, D., Calabrese, T. (eds) Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-18195-6_4
6. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik (foshkent TII Moliya instituti. – Toshkent: "Noshir", 2012, 712-bet.
7. Хайдаров Н. Х. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар //Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. – 2020.
8. Эшназаров Т.Ш. бюджет муносабатларини такомиллаштириш ва унинг истиқболлари // Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 9 (145). – С. 28-31.
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti (<https://openbudget.uz/>)dan olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi-1.
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti (<https://openbudget.uz/>)dan olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi-2.

XALQARO KAPITAL BOZORI VA UNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

G‘aybullayeva Zilola Raxmatulla qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti
moliya va kredit kafedrası o‘qituvchisi

Haydarov Davlatjon Xurshidovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy
universitetining iqtisodiyot fakulteti talabasi

Tizimdagi eng muhim bozorlar qatorida tovar va xizmatlar bozori va mehnat bozori bilan bir qatorda kapital bozori, yoki, odatda, moliya bozori ham mavjud. Kapital bozori – bu moliyaviy aktivlar: pul, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog‘ozlar sotib olinadigan va sotiladigan bozor.

Kapital bozori (moliyaviy bozor) mukammal hisoblanadi qolgan bozorlarga qaraganda: birinchidan, iqtisodiy hayotning deyarli barcha ishtirokchilari bizning davrimizda uning subyektlariga aylangani bilan allaqachon o‘ziga xosdir: tadbirkorlar, iste’molchilar, davlat va mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari va boshqalar; ikkinchidan, unda sotiladigan obyektlar nisbatan bir xil (ukrain grivnasi, AQSH dollari, yevro, aksiyalar, obligatsiyalar) va bu bitimlar tuzilishini tezlashtiradi va uni yanada prognozli qiladi; uchinchidan, u butun mamlakat (va xalqaro hamjamiyat) uchun amalda bir xil narxni - kredit foizlari, aksiyalar narxi, valuta kursi va shunga o‘xshashlarni belgilaydi; to‘rtinchidan, ajoyib kompyuter-axborot kelishuvi unga eng yuqori darajadagi raqobatbardoshlikni ta’minlaydi: hamma uchun ushbu bozorga erkin kirish va chiqish imkoniyati ochiq.

Kapital bozori tuzilishi jihatidan juda murakkab. Soddalashtirilgan shaklda kapital bozori quyidagi asosiy bo‘linmalarni o‘z ichiga oladi:

- 1) pul bozori yoki kredit bozori;
- 2) qimmatli qog‘ozlar bozori yoki fond bozori;
- 3) valuta bozori;
- 4) oltin va boshqa qimmatbaho metallar bozori;
- 5) sug‘urta bozori.

Bugungi kunda kapitalning qiymati kelajakda qanday kapital ishlab chiqarishi mumkinligiga bog‘liq. Daromad olish uchun kapital egasi kelajakda yuqori mukofot olish umidida joriy iste’moldan voz kechishi kerak. Kelajakdagi daromadlar oqimi bugungi aksiyalarni yaratishni rag‘batlantirishi kerak. Ushbu zaxirani yaratish uchun, o‘z navbatida, tejash oqimini talab qiladi. Vaqt omili (o‘tmishni hozirgi bilan, hozirgi kelajak bilan taqqoslash) kapitalni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kapital daromadi faqat kapital egasi uni samarali foydalanish uchun tadbirkorga topshirgan taqdirdagina hosil bo‘ladi (yoki o‘zi tadbirkorga aylanadi). Bundan tashqari, kapital; bir muddat qarzgga berilgan bo‘lsa, bosqichma-bosqich qaytishi kerak. Kapital egasiga qaytarilgan ushbu o‘sish foiz deb nomlanadi. Kredit foizlari bu kapital egasiga ma’lum vaqt ichida uning mablag‘laridan foydalanganligi uchun to‘lanadigan narx. Tahlil odatda kapitalni faqat pul shaklida ko‘rib chiqadi, bu jismoniy kapital pul bilan sotib olinishini anglatadi.

Kapitalning o‘z mablag‘i sifatida ifodalanadi. Mablag‘lar – bu ma’lum bir vaqtdagi kapitalning miqdori. Istalgan vaqtda firma ma’lum miqdorda uskunalari va boshqa turdagi kapitalga ega. Kapitalni tahlil qilishdan maqsad mablag‘larning qanday yaratilishi va o‘zgarishini tushunishdan iborat bo‘lib, buning uchun yangi kapitalni yaratish bilan bog‘liq xarajatlarni va undan foyda olishni o‘rganish kerak.

Yangi kapital yaratish uchun nafaqat firmaning o‘z mablag‘lari, balki ulardan foydalanish uchun ma’lum foizlar olinadigan qarz mablag‘lari ham zarur.

Kapital bozorining xususiyati shundaki, ular ishlab chiqarish omili sifatida kapitalga bo‘lgan talab yoki kapitalga bo‘lgan taklif to‘g‘risida gap ketganda, ular kapital aktivlarini sotib olish uchun

Биржа савдоларини умумий автоматлаштириш нафақат ижобий томонларга эга, балки бутун молия бозори учун жиддий хавфларни ҳам келтириб чиқаради.

Алгоритмик савдонинг ривожланиш тарихи ва замонавий халқаро молия бозорларининг умумий ҳолати 2010 йил 6 майда рўй берган «Flash Crash» номи билан маълум бўлган молиявий инқирозни эслатиб ўтмасдан тўлиқ бўлмайди. Битта трейдер 4 млрд. долларлик қимматли қоғозларни сотувга қўйганидан сўнг, бутун дунё бўйлаб савдо

²⁶⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида» ги ПФ-60-сон Фармони; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.07.2022 йилдаги «2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини амалга ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида» ги ПК-307-сон Қарори.

алгоритмлари инвесторлар портфелидаги қимматли қоғозлар қийматини назоратсиз равишда пасайтира бошлади ва Dow Jones индекси бир неча дақиқага жами 8,6 фоизга пасайди.²⁶⁷

Ушбу ҳодиса билан боғлиқ Америка фонд бозорининг умумий йўқотиши бир триллион доллардан ортиқни ташкил этди. Кўпгина йирик компанияларнинг қимматли қоғозлари тахминан 90% қийматини йўқотди (расмга қаранг). Бу тушиш ҳолати ўтгандан кейинги 90 сония ичида Dow Jones индекси 543 пунктга (4,7%) кўтарилди ва 20 дақиқадан сўнг ўзининг дастлабки қийматларига қайтди.

Бозорнинг пасайиши бошланиши фонида позицияларнинг оммавий ёпилиши билан боғлиқ ликвидликнинг кескин чиқиб кетиши ликвидликнинг янада кўпроқ чиқиб кетишига олиб келди. Бироқ, бу пасайишнинг иқтисодий сабаблари йўқ эди.

Ўзбекистонда қимматли қоғозлар бозорида давлат компанияларининг IPOлари бўйича ишлар давом эттирилмоқда. 2023 йилда фонд биржасида “UzAuto Motors”, “Узтелеком” ва “Ўзбекинвест” компанияларнинг IPO лари ўтказилди. Бунгача фақат иккита: 2018 йилда «Кварц» шиша заводи ва 2019-2020 йилларда «Жиззах Пластмасса» заводи бўйича оммавий таклиф бўлган эди.²⁶⁸

2023 йил декабрь ойи охирида янги “Free of Payment board” савдо платформасида “Қўқон Биокимё” спиртли ичимликлар заводининг 99,68% оддий акцияларини 20,1 миллион долларга сотиш бўйича дебют битими бўлиб ўтди. Янги платформа биржадан ташқари (кулранг) бозордан фарқли равишда битимларда очиклик ва ошкораликни таъминлаш мақсадида ишлаб чиқилган.

Биз кўпроқ IPO бўлишини кутамиз, шунда кўпроқ компаниялар фонд бозорида ўз акциялари ва облигацияларини чиқарадилар. Давлат компанияларининг ўз қимматли қоғозларини IPOга тайёрлаш ва савдога олиб чиқишида давлат бу компанияларга таъсир кўрсатиши билан катта аҳамиятга эга.

Бундан ташқари, ривожланиш режалари орасида Clearstream каби халқаро депозитарийлар ва йирик хорижий банклар кўринишидаги глобал кастодианлар билан узвий алоқа ўрнатиш орқали Ўзбекистонни халқаро фонд бозори билан боғлаш режалаштирилган. Бу йирик институционал инвесторлар учун қулайлик яратади.

Бу каби ўзгариш ва режалар соҳага рақамлаштиришни кенг миқёсда жорий қилишни талаб этади. UCI индексининг 2023 йил 17 апрелидан 2024 17 апрель мобайнида UCI индексининг ўзгаришларида қуйидагилар кузатилади:



1-расм. UCI индексининг ўзгаришлари.²⁶⁹

²⁶⁷ Флэш-краш 2010 года. Крах фондового рынка 6 марта 2010 г. -Режим доступа: <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/equities/2010-flash-crash/>

²⁶⁸ <https://uzse.uz/?locale=uz>

²⁶⁹ https://uzse.uz/price_indices/

Кўрсатилган даврда UCI индексининг фаол ўзгариши қайд этилди – савдо давомида 2023 йил 17 апрелда индекснинг қиймати 512,91 бўлган бўлса, 2024 йилнинг 17 апрелида бу қиймат 652,29 ни ташкил қилди (ўсиш 127,2 фоиз).

2023 йилнинг 31 июлидан 20 ноябригача бўлган даврда индекснинг ўртача кўрсаткичдан пасайиши ҳолатлари кузатилган – 07.08.2023 йилда 627,59; 21.08.2023 йилда 633,0; 25.08.2023 йилда 634,28 қийматни ташкил қилган. 2023 йилнинг 12 июль кунда индекс 767,3 қийматга эга бўлган бўлса, 2024 йил 16 апрелда 650,71 га тенг бўлди ёки бу муддатда индекс қиймати 15,3 фоизга камайди. Жорий 2024 йилнинг ўтган даврида индекснинг қиймати 3 январь санасига тўғри келади ва у 709,84 га тенг бўлган. 2024 йилнинг 17 апрель санасида UCI индексининг шаклланишига “Qizilqumsement” АЖ акцияларининг котировка нархи 92 пунктга тушган бўлса, “Кварц” АЖ акциялари котировка нархи 59,99 пунктга, “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ акциялари котировкаси 0,37 пунктга кўтарилиши, “O‘zRTXB” АЖ да эса 500 пунктга камайдигани таъсир қилди. Шу билан бирга, 2024 йилнинг биринчи чорагида “Ўзбектелеком” ва Қўқон механика заводи акциялари арзонлашди²⁷⁰.

Ўзбекистон фонд бозорида март ойининг сўнгги ҳафтаси UCI индексининг 0,37 фоизга ўсиши билан якунланди. Юқори ликвидли воситалардан 12 тасида ўсиш кузатилди, 15 та қимматли қоғозлар арзонлашди, “Ипотекабанк”нинг оддий акциялари эса бир хил даражада қолди. “UzAuto Motors” нинг бир акцияси учун 2024 йил март ойида 70 минг сўм бўлиб, ўтган IPO нархидан паст. Аммо бу сўнгги 4 ой ичида қимматли қоғозларнинг 1,61 фоизга ўсишини акс эттирмоқда. Эҳтимол, бу динамика Ўзбекистонда BYD электромобиллари ва гибрид автомобиллари ва уларнинг бутловчи қисмларини ишлаб чиқаришни ташкил этиш бўйича инвестиция келишувининг якуний тасдиқланиши ҳамда бир вақтнинг ўзида электр транспорт воситаларининг мамлакатга олиб киришини чеклаш билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Капитал бозорида бугуни кунда **асосий муаммоларни** қуйидагича гуруҳлаш мумкин:

1. Акцияларнинг ликвидлиги пастлигича қолмоқда – фонд биржасида фаол сотиладиган харидоргир қимматли қоғозлар ҳажми ҳамда уларни харид қилувчи инвесторларнинг сони паст даражада қолмоқда. Ўзбекистонда яхши салоҳиятга эга давлат ва хусусий компаниялар сони кўпчилигига қарамасдан, улар турли сабабларни рўқач қилиб, ўз акцияларини биржага чиқармаяптилар.

2. Молия институтлари қимматли қоғозларга инвестиция қилмаяптилар. Масалан, Пенсия жамғармалари, Суғурта компаниялари етарли даражадаги айланма маблағларга эга бўлишига қарамасдан, капитал бозорига инвестиция қилмаяптилар. Бунинг асосий сабаби – бу ташкилотларнинг маблағларини фонд биржасига йўналтириш мумкинлиги қонунчиликда белгиланмаган.

3. Капитал бозорида хорижлик трейдерлар сони кам, чунки республика фонд биржаси халқаро депозитарийлар ва глобал кастодиан (мижозларнинг қимматли қоғозлари ва бошқа молиявий активларини сақлаш, шунингдек уларни бошқариш билан шуғулланувчи) банклар билан ўзаро манфаатли алоқалар ўрнатмаган. Бу ҳолат хорижлик инвесторларнинг республикамизга келишини чекламоқда.

4. Дивиденд сифатида олинган маблағларини конвертация қилиш ва уни хорижга экспорт қилишда муаммолар мавжуд. Бу уларга ўз даромадларини конвертация қилиш ва ватанига қайтариш тақиқланган дегани эмас, балки инвесторлар банкларда ортиқча бюрократик қоидалардан ўтишга мажбур бўлмоқдалар.

5. Ўзбекистонда фаолият юритаётган товар, валюта ва фонд биржаларини ягона битта универсал биржага бирлаштириш самарали ҳисоблансада, бугунги кунда бу масала ўрганилмаяпти. Ягона биржа модели қатор давлатларда (Қозоғистон, Россия, Арманистон,

²⁷⁰ <https://uzse.uz/?locale=uz>

Озарбайжон ва Польша) муваффақиятли ишламоқда. Ягона универсал биржа инвесторлар ва эмитентларни бир жойда тўплаш имконини беради ҳамда ликвидлик ҳолатини ва тўғри баҳолаш учун жуда муҳим ҳисобланади.

Албатта, бу муаммоларни тезкорлик билан ҳал қилиш республика иқтисодиётига узоқ муддатга инвестиция киритишдаги муаммоларни ҳал қилади.

Ўрганишлар ва таҳлиллар натижасида қуйидагича **хулоса қилиш мумкин**.

1. Биржа индексининг барча кескин ўзгаришларига эмитентлар томонидан котировка нархи мавжуд бўлмаган акцияларини савдога киритишлари ҳисобланади. Бу ҳолатда инвесторлар оралиқ нарх чегараларисиз савдоларни амалга оширишган ҳамда бу акцияларнинг савдо нархларини кескин тебранишига олиб келади. Шунинг учун биржа савдоларига котировка баҳоланмаган акцияларни киритишни чеклаш тартибини жорий қилиш ҳамда рақамлаштиришда алгоритмларда бу талабни киритиш зарур ҳисобланади.

2. Республика фонд биржасида қўлланиладиган UCI индексини ҳисоблаш услуби савдо ҳажми ёки сотилган акциялар сонига боғлиқ эмас – у биржа котировка рўйхатига киритилган акция эмитентларининг капиталлашувига узвий боғлиқ. Шунга қўра, акциянинг жорий биржа савдоларидаги нархининг ўзгариши индекснинг ўзгаришига олиб келади.

Демак, UCI индекси капитал бозоридаги ҳолатни тўлақонли ва холис кўрсата олмайди. Шу сабабли, фонд бозоридаги реал ҳолатни, умумий тенденцияларни тўлақонли акс эттириш мумкин бўлган индекс яратиш зарурати мавжуд.

3. Капитал бозорини рақамлаштириш алгоритмларида фонд бозори савдоларида юз бериши мумкин бўлган ҳолатларни инобатга олиш зарур. Акс ҳолда бунда ҳолларда савдодан делистинг қилинган акцияларни инвесторлар томонидан харид қилиши чекланиб қолиши мумкин.

4. Узоқ масофаларга ахборот-маълумотларнинг алмашинувини ташкил қилиш ва бунда инвесторлар томонидан қарор қабул қилишда кечикиш вақтини максимум қисқартиш ҳамда барча иштирокчиларга бир вақтда етказиш тартиб ва мезонларини ишлаб чиқиш ва жорий қилиш керак.

5. Республикадаги товар, валюта ва фонд биржаларини ягона битта универсал биржага бирлаштириш масаласини муҳокама қилиш ва ижобий қарор қилинганда, универсал биржани рақамлаштиришнинг информатик, математик ва техник таъминоти бўйича оптимал ечим ишлаб чиқиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида» ги ПФ-60-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.07.2022 йилдаги «2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини амалга ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида» ги ПҚ-307-сон Қарори.
3. Флэш-краш 2010 года. Крах фондового рынка 6 марта 2010 г. -Режим доступа: <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/equities/2010-flash-crash/>
4. <https://uzse.uz/?locale=uz>
5. https://uzse.uz/price_indices/.

Фойда солиғининг банклар фаолиятига таъсири: кредитлар бўйича йўқотишларга заҳира

Қудияров Кишибай Раматуллаевич

Қорақалпоқ давлат университети
мустақил тадқиқотчиси, PhD, доцент,
Kishibay84@mail.ru

Тижорат банкларининг солиққа тортишни оптималлаштиришда корпоратив солиқ тизимида солиқ базасини камайтиришга олиб келувчи кредитлар бўйича йўқотишларга резервни миқдорини шакллантириш масаласи муҳим ҳисобланади. Шу сабабдан, кредитлар бўйича йўқотишларга резервни шакллантириш тартиби ва резервлар миқдорида корпоратив солиқнинг таъсирини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Кичигина ва Конвисарова таъкидлашича, асосий масса рисклар билан боғлиқ бўлган иқтисодий нобарқарор мураккаб шароитда, банклар учун солиқ солинадиган базани аниқлангандан сўнг, кредит рисклари учун резервлар яратиш ҳеч қандай маънога эга эмас. Аксинча, шакллантирилган заҳира суммаларининг банк харажатларига олиб бориш, банкларнинг барқарорлигини оширади, умумий банк секторини мустаҳкамланишига ижобий таъсир қилади²⁷¹.

Шу билан бирга, корпоратив фойда солиғи тизимининг банкларда молиявий ҳисоботларни тузиш танловига, хусусан, кредитлар бўйича йўқотишларнинг тегишли даврда акс этишига ва унинг қопланишини банклар хулқ-атворида таъсирини ўрганиш муҳим ҳисобланади. Охирги йилларда, қонунчилик ҳужжатларини ишлаб чикувчи ва тартибга солувчи органлар томонидан кредитлар бўйича йўқотишлар учун резервларга солиқ чегирмаларини ошириш имкониятлари кўриб чиқилган, чунки солиқ чегирмалари йўқотишларни тегишли ҳисобот даврида акс этишини таъминлайди. Бироқ, корпоратив фойда солиқ тизимининг кредитлар бўйича йўқотишлар учун резервга таъсирини баҳолаш юзасидан кам сонли эмпирик тадқиқотлар олиб борилган. Бироқ, солиқ имтиёзларининг кредитлар бўйича йўқотишлар учун резерв шакллантирилишига таъсир этиши жуда муҳим ҳисобланади, чунки йўқотишларга заҳира банклар учун молиявий ҳисоботни дискрецион танловида энг муҳим ҳисобланади²⁷².

Andries K., Gallemore J. ва Jacob M. лар томонидан кредитлар бўйича йўқотишлар учун резервни ҳисобга олган ҳолда корпоратив солиқ тизимининг банк молиявий ҳисоботида таъсири таҳлил этилган²⁷³. Таҳлилда мамлакатлараро 2001-2013 йиллардаги даромад солиғининг ўртача ставкалари ва кредитлар бўйича йўқотишларга резерв учун солиқ чегирмалари тўғрисидаги маълумотлардан фойдаланилган. Таҳлил натижасида, солиқ қонунчилигида кредитлар бўйича йўқотишлар учун резервнинг умумий суммасига солиқ чегирмалари кўзда тутилган мамлакатларда, ушбу резерв миқдорининг солиқ ставкаси даражасида ўсиши аниқланган. Агарда умумий резервларга нисбатан солиқ чегирмалари мавжуд бўлса, корпоратив фойда солиғи ставкасининг 1 фоиз кўтарилиши, резервлар миқдорини ўртача 4,9 фоизга ўсишига олиб келади. Умуман олиб қараганда, таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, корпоратив солиқ тизими кредитлар бўйича йўқотишларни ўз даврида акс этишини рағбатлантиради. Шунингдек, корпоратив солиққа тортиш банк секторининг молиявий ҳисоботи шаффофлигини муҳим омили ҳисобланади.

²⁷¹Кичигина А.К., Конвисарова Е.В. Сравнительная характеристика налогообложения прибыли коммерческих банков в России и за рубежом // Налоги и налогообложение. 2016. № 6. С. 457-465. URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=67859

²⁷²Ryan S. G. 2011. Financial Reporting for Financial Instruments. Foundations and Trends in Accounting 6 (3/4):187-188.; Beatty A. and S. Liao. 2014. Financial Accounting in the Banking Industry: A Review of the Empirical Literature. Journal of Accounting and Economics 58 (2/3):339-383.

²⁷³Andries K., Gallemore J., Jacob M. 2017. The effect of corporate taxation on bank transparency: Evidence from loan loss provisions Journal of Accounting and Economics 63 (2017) 307-328.

Аксарият, мамлакатларда банклардан молиявий ҳисоб мақсадлари учун кредитлар бўйича йўқотишларга резервни тан олиниши талаб қилиниб, солиқ режимида ушбу резервларга нисбатан солиқ чегирмалари қўлланилади.

Айрим мамлакатларда солиқ солиш мақсадаларида, банкларга умумий резервларни чегиришга (қадрсизланган сифатида аниқланмаган мавжуд кредитлар бўйича резервлар) рухсат берилган бир вақтда, бошқалар мамлакатларнинг солиқ тизимида эса маълум қадрсизланган кредитлар бўйича резервларга чегирмалар рухсат берилган ёки умуман солиқ чегирмалари мавжуд эмас. Шунини таъкидлаш жоизки, юқори даражадаги резервлар банк бошқарувчилари учун салбий ҳолатларни юзага келтириши мумкин, яъни капиталга нисбатан минимал талабни оширилиши ёки паст даромадлар олиниши оқибатида рентабелликни пасайиб кетишига олиб келади.

Бундан ташқари, кредитлар бўйича йўқотишлар учун резерв шакллантиришга корпоратив солиқ тизими орқали таъсир этиши мумкин бўлган иккита механизм мавжуд. Биринчидан, кредитлар бўйича йўқотишларни ўз вақтида тан олиниши. Иккинчидан, корпоратив солиқ тизими кредитлар бўйича юқори рискларни рағбатлантириши мумкин, яъни банклар ўзининг кредит портфелини рисклилиги тўғрисидаги қарорларини қабул қилинишида, шакллантириладиган резервга солиқ чегирмаси мавжудлиги муҳим аҳамиятга эгадир. Жумладан, кутилаётган зарарни аниқланишининг кечиктирилиши банк фаолиятига боғлиқ қуйидаги 3 та турли рисклар даражасини ўсишига, яъни алоҳида банклар балансини камайиши, тизимли рискка сезувчанликни пасайиши ва умумий банк секторини қисқариш рискин ортишига олиб келади²⁷⁴. Шу билан бирга, кутилаётган зарар миқдорини аниқлашни кечиктириш, пасайиш давларида банклар балансининг сезиларли даражада қисқаришга олиб келувчи юқори риск билан боғлиқ. Бундан ташқари, банкларда кутилаётган зарарни аниқланишининг кечиктирилиши эҳтимоллигини юқорилиги, банк тизими таҳликасини камайитириш рискига нисбатан банкларнинг сезувчанлигини ошириши ва тизимли рискни келтириб чиқариши мумкин. Gallemore томонидан 2007-2009 йиллардаги молиявий инқироз давридаги АҚШ банкларини ўрганиш асосида, кредитлар бўйича йўқотишларни тан олинишини кечиктирилиши билан тартибга солувчи органларнинг аралашувларини эҳтимоллиги ўртасида салбий боғланиш мавжудлиги аниқланган²⁷⁵.

Мазкур тадқиқот натижалари, кредитлар бўйича йўқотишларни тан олинишининг кечиктирилишини тартибга солувчи органларнинг қарорига таъсир этиши мумкинлиги билан изоҳланади. Шунингдек, корпорацияларни солиққа тортиш тизимининг кредитлар бўйича йўқотишлар учун резервга таъсирини ҳар хил мамлакатларда турлича бўлиши кўрсатиб ўтилган. Биринчидан, корпоратив даромад солиғи тизимини таъсири кучли бўлган мамлакатларда, тартибга солувчи органлар нисбатан паст назорат ваколатига эга эканлиги кузатилган бўлиб, корпоратив солиқ тизимида кредитлар бўйича эҳтимолий йўқотишларга резервни рағбатлантириш банк назорат органларининг ўрнини босиши мумкинлиги таъкидлаб ўтилган. Иккинчидан, солиқ декларацияларининг мувофиқлиги юқори бўлган мамлакатларда, солиқ тизимини резервларга таъсир кучлироқ бўлиши кузатилган. Ниҳоят, солиқ тизимининг кредитлар бўйича эҳтимолий йўқотишлар учун резервларни шакллантиришга таъсири тижорат банклари учун бошқа оқибатларни келтириб чиқариши мумкин. Масалан, АҚШ банкларининг 2001-2013 йиллардаги маълумотлари ўрганиб чиқилганда, резервларга чекловлар сабабли, кўпчилик банкларда активлар миқдорини ўсиши 500 млн. АҚШ доллари чегарасидан ошмаганлиги кузатилган.

²⁷⁴Bushman R. M. and C. D. Williams. 2012. Accounting Discretion, Loan Loss Provisioning, and Discipline of Banks' Risk-Taking. *Journal of Accounting and Economics* 54 (1):1-18. Bushman, R. M., and C. D. Williams. 2015. Delayed Expected Loss Recognition and the Risk Profile of Banks. *Journal of Accounting Research* 53 (3):511-553.

²⁷⁵Gallemore J. D. 2016. Bank Financial Reporting Opacity and Regulatory Intervention. Working paper, University of Chicago.

Бу шуни кўрсатадики, корпоратив солиқ тизими банк активлари миқдорини маълум чегарада бўлишига аниқ таъсир этиши мумкин.

Кредитлар бўйича эҳтимолий йўқотишларга резервлар учун солиқ режимлари икки категорияга бўлинади: резерв усули ва ҳисобдан чиқариш усули. Биринчи усулга асосан банклар кредитлар бўйича йўқотишларга резервларни жорий даврдаги солиққа тортиладиган фойдадан чиқариб ташлашлари мумкин. Бу усулда резервларни шакллантиришда кечиктирилган солиқ активлари яратилмайди. Бир қатор мамлакатларда (масалан, Германияда) умумий резервлар учун солиқ чегирмаларига рухсат берилиб, маълум бир кредитлар ёки кредит манбаларига боғланмаган. Бошқа мамлакатларда (масалан, Канада, Франция ва Буюк Британия) фақат маълум бир кредитлар ёки кредит манбалари билан боғлиқ резервлар учун солиқ чегирмалари мавжуд. Айрим мамлакатларда (масалан, Аргентина, Янги Зеландия) ҳисобдан чиқариш усули қўлланилади. Мазкур усулга мувофиқ, банк кредитлар бўйича йўқотишларга резервлар солиққа тортиладиган даромаддан чегириб ташланишига йўл қўйилмайди ва кредит қайтарилмаслигини кутиши керак бўлади. Кредитлар бўйича эҳтимолий йўқотишларга резервларни шакллантирилиши келгусидаги солиқ чегирмаси қийматига тенг бўлган кечиктирилган солиқ активини яратади. Кредит ҳисобдан чиқарилганда, банк солиқ чегирмаларига эга бўлади ва кечиктирилган солиқ активини қоплайди.

Хулоса қилиб айтганда, кредитлар бўйича эҳтимолий йўқотишларга резерв солиққа тортилмайдиган бўлса, резервлар миқдори фойда солиғи ставкаси даражасида ўсиши мумкин. Кредитлар бўйича йўқотишларни ўз вақтида тан олинишига рискларнинг ўсиши эмас, балки корпоратив солиқ тизимининг таъсири муҳим аҳамият касб этади. Шу билан бирга, корпоратив солиқ тизими банкларнинг кредитлар бўйича йўқотишларга резервларни оширишга ундаши орқали, кучли банк фаолияти учун тартибга солувчи қоидалар ўрнини босиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ryan S. G. 2011. Financial Reporting for Financial Instruments. Foundations and Trends in Accounting 6 (3/4):187-188.; Beatty A. and S. Liao. 2014. Financial Accounting in the Banking Industry: A Review of the Empirical Literature. Journal of Accounting and Economics 58 (2/3):339-383.
2. Andries K., Gallemore J., Jacob M. 2017. The effect of corporate taxation on bank transparency: Evidence from loan loss provisions Journal of Accounting and Economics 63 (2017) 307-328.
3. Andries K., Gallemore J., Jacob M. 2017. The effect of corporate taxation on bank transparency: Evidence from loan loss provisions Journal of Accounting and Economics 63 (2017) 307-328.
4. Bushman R. M. and C. D. Williams. 2012. Accounting Discretion, Loan Loss Provisioning, and Discipline of Banks' Risk-Taking. Journal of Accounting and Economics 54 (1):1-18.
5. Bushman, R. M., and C. D. Williams. 2015. Delayed Expected Loss Recognition and the Risk Profile of Banks. Journal of Accounting Research 53 (3):511-553.

АВТОМОБИЛЬ ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАР БОЗОРИДА СОҒЛОМ РАҚОБАТ МУҲИТИНИ РИВОЖЛАНИШИ

Алимжон Қўлматов,
и.ф.н., доцент ALFRAGANUS университети

Мамлакатимиз автомобиль транспорти хизматлари бозорида бозор муносабатларини ва соғлом рақобат муҳитини ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратилмоқда. Автомобиль транспорти хизматлари бозорида рақобат муҳитини шакллантириш ва барча ташувчиларга тенг шароит яратиб бериш бўйича вилоят ва шаҳар ҳокимиятларидаги комиссиялар ҳамда Агентлик қошидаги Идоралараро комиссия томонидан йўловчи ташиш йўналишлари очиқ тендер танловлари орқали жойлаштирилди.

Автотранспорт хизматлари ва сервисни ривожлантиришнинг прогноз кўрсаткичларини бажариш, аҳолига, хусусан, кишлоқ аҳолисига кўрсатилаётган автотранспорт хизматлари ва сервис даражаси ҳамда сифатини ошириш доирасида йўналишли транспорт тармоғи ривожланмоқда. Ҳозирги кунда юртимизнинг энг чекка кишлоқларида ҳам йўловчи ташиш транспорти хизмати етиб бормаган жой қолмади. Вилоятларда ҳокимликлар билан биргаликда йўналишларда йўловчилар оқими ва аҳолининг йўловчи ташишга бўлган эҳтиёжлари ўрганиб чиқилмоқда ва автокорхоналардаги мавжуд автобусларни янгилаш масалаларида амалий ёрдам кўрсатилмоқда.

Ўзбекистоннинг Марказий Осиёдаги ҳал қилувчи транспорт-транзит тармоғига айланиши учун транспорт-коммуникация инфратузилмасини модернизация қилиш ва янгилаш, маҳаллий ҳамда халқаро транспорт хизматлари таркибини диверсификация қилиш, янги транспорт йўлакларини шакллантириш ва ривожлантириш, транспорт хизматлари сифатини ошириш ва таннархини камайтириш талаб этилади.

Ҳаво транспортини ривожлантириш учун инфратузилмани анча модернизациялаш тақозо этилади. Айниқса, бу учиш-қўниш йўл-йўл чизиқларига, рулли йўللарга, самолётлар тўхташ жойларига, ёруғлик сигнализация ускуналарига тегишлидир. Қатор туманларда аэропортлар мавжуд эмас ёки барқарор ишламайди. Айниқса, ҳаво транспорти муқобилига эга бўлмаган жойларда бу масала долзарб бўлиб турибди.

Шундай қилиб, бутун минтақавий транспорт инфратузилмаси техник қайта қурулантиришга муҳтож. Бу транспорт салоҳиятидан самарали фойдаланиш, минтақалар иқтисодиётига хизмат кўрсатиш, юк ташиш ва атроф-муҳит хавфсизлигини таъминлаш учун зарурдир.

Ўзбекистон транспорт инфратузилмаси асосий турлари бўйича қуйидаги вазифаларни тезкор ҳал қилиш зарур:

— темир йўл инфратузилмаси учун ҳозирги вақтда иссиқлик энергияси асосида ишлайдиган кўплаб участкаларни электрлаштиришни яқунлаш зарур;

— автойўл инфратузилмаси учун магистраллар йўл қопламини тиклаш, аҳоли яшаш жойларида ва шаҳарлардаги кўп бўғинли йўл тармоқларида айланма йўللار яратиш талаб қилинади;

— ҳаво транспорти инфратузилмаси учун ишлаб чиқариш асосий объектларини тиклаш ва уларни замонавий ускуналар билан жиҳозлаш зарур.

Умуман, транспортировкада барча турлари бўйича минтақавий транспорт инфратузилмаси ривожланишининг мавжуд даражаси иқтисодиётни модернизациялашнинг ҳозирги вазифалари ва жаҳон иқтисодий маконига интеграциялаш талабларига мос келмайди.

Йўл-транспорт инфратузилмасини тараққий эттириш саноатни жадал ривожлантириш ва унинг салоҳиятини оширишга хизмат қилмоқда. 2022 йилда транспорт

хизматлари ҳажми 69418,3 млрд. сўмга тенг бўлиб, уларнинг ўсиши 2020 йилнинг шу даврига нисбатан 17,0% ни ташкил этди. Кўрсатилган бозор хизматлари умумий ҳажмида ушбу турдаги хизматларнинг улуши 26,8% ни ташкил этди. 2022 йилда транспорт хизматлари умумий ҳажмида автомобиль транспорти хизматларининг улуши 51,0%дан юқорини ташкил этди. 2020 йилда ушбу кўрсаткич 53,1% ни ташкил этган. Транспорт хизматларининг энг катта улуши автомобиль транспортада юк ва йўловчиларни ташиш бўйича хизматларга тўғри келмоқда. Транспортнинг ушбу тури бошқа транспорт турлари билан таққослаганда, ўзининг мослашувчанлиги ва кўрсатилаётган хизматларнинг нисбатан арзонлиги сабабли юқори талабга эга ҳисобланади²⁷⁶.

2022 йилда автомобиль транспортада кўрсатилган бозор хизматлари ҳажми 39114,5 млрд. сўмга тенг бўлди. 2020 йилга нисбатан ушбу хизматлар ҳажми 17,8% га ошган. 2022 йилда автотранспорт хизматларининг юқори ўсишига Самарқанд (26,2%), Наманган (24,5%), Жиззах (23,1%), Фарғона (24,5%), Қашқадарё (20,9%) ва Сурхондарё (20,4%) вилоятларида, шунингдек, Қорақалпоғистон Республикасида (25,6%) эришилди²⁷⁷. Ушбу соҳадаги хизматлар ҳажмининг бир оз ўсиш суръати Сирдарё вилоятида (109,7%) кузатилди.

Ташиш ва сақлаш, ахборот ва алоқа иқтисодий фаолият турларининг ялпи қўшилган қиймати 2020 йилда 38531,5 млрд.сўмни ташкил этиб, 2017 йилга нисбатан 52,3% га ўсган. Ташиш ва сақлаш соҳасининг асосий фондлари қайта тиклаш қиймати бўйича 86987,2 млрд.сўм (2017 йилга нисбатан ўсиш 91,1%), соҳа асосий капиталига киритилган инвестициялар 14132,7 млрд.сўм (221,9%), соҳа корхона ва ташкилотларида ишловчи ходимлар ўртача сони 230,2 минг кишини ташкил этиб, 2017 йилга нисбатан 106,0% га ўсган.

Ўзбекистонда транспорт воситалари ишлаб чиқариш ҳажми кўрсаткичини таҳлил қиладиган бўлсак, 2020 йилда ушбу кўрсаткич автомобиллар сони бўйича 2017 йилдаги 145047 тадан 2029 йилдаги 295226 тага ошди. Бу ўсишда енгил автомобилларнинг улуши 99,8% ни ташкил этгани ҳолда, автобуслар сонининг камайиши кузатилган.

Ўзбекистон ҳудудлари бўйича жисмоний шахсларга тегишли автотранспорт воситаларининг сони бўйича энг юқори улуш Тошкент шаҳри (17,2%), Самарқанд (12,7%), Фарғона (11,2%), Тошкент (9,8%) вилоятларига, энг паст улуш эса Сирдарё (2,9%), Жиззах (2,8%), Навоий (2,9%) вилоятларига тўғри келади²⁷⁸. Ўзбекистонда транспортда ташилган юклар умумий ҳажми 1466,7 млн. тоннани ташкил этади, унинг 92,6% и автомобилга тўғри келиб, темир йўл (6,2%), қувур йўли (5,2%), ҳаво йўли (0,4%) кичик улушга эга. Транспортнинг юк айланмаси 66,9 млрд.т./км ни ташкил қилиб, унинг 42,1% и қувур йўлига, 37,3% и темир йўл, 25,2% и эса автомобиль транспортага тўғри келади²⁷⁹.

Ривожланган хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиб, шуни айтиш мумкинки, бозор муносабатлари шароитида транспорт фаолиятини давлат томонидан кўп бўғинли ва ҳар томонлама тартибга солишнинг ривожланган ва самарали тизимини яратишга интилиш алоҳида роль ўйнайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. www.stat.uz

2. М.С.Бўрихаджаева, МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИДА АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТИ КОРИДОРЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ // ORIENSS. 2023. №1-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mamlakat-i-tisodiyotida-avtomobil-transporti-koridorlarini-rivozhlantirish-isti-bollari>

²⁷⁷ www.stat.uz

²⁷⁸ www.stat.uz

²⁷⁹ www.stat.uz

ДИНАМИКА НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ ЗА 2021-2023 ГОД ПО РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Мавланова Умида Баходирована
преподаватель НУУз им.М.Улугбека
кафедра «Макроэкономика»
эл.почта: umishka_12@mail.ru

Состояние экономики страны в условиях рынка в значительной степени зависит от изменения налогового законодательства. Повышение налоговых нагрузок или частые изменения налоговых ставок и льгот также создают определенные налоговые сложности для ведения бизнеса.

В целях улучшения инвестиционной привлекательности и ускоренного развития Республики Узбекистан с 2018-2019 годы в стране постепенно снижается налоговое бремя как для физических, так и юридических лиц, упрощается система налогообложения. Рассмотрим динамику некоторых видов налогов.

Из данных таблицы наблюдается положительная динамика налогов за последние три года. В 2022 году доходы от налога на прибыль по сравнению с 2021 годом снизились на 1,9%. Это связано с несколькими факторами, в частности, такими как:

- снижение повышенной ставки налога на прибыль на НГМК и АГМК с 75% до 50%, а также увеличением их расходов;
- предоставление субъектам предпринимательства возможности снижения расходов для приобретения онлайн-касс и специальных устройств по идентификации штрих-кодов и кодов цифровой маркировки;
- предоставление участникам специальных экономических зон освобождения от уплаты налога на прибыль в зависимости от инвестиционных вложений.

Таблица - 1

Доходы государственного бюджета Республики Узбекистан за 2021-2023 годы²⁸⁰

(млрд.сум)

Показатели	2021 год	2022 год	2023 год
<i>1.Прямые налоги</i>	58 930,4	64 447,1	73 103,6
1.1.Налог на прибыль	38 363,3	37 649,9 ↓	40 778,9
1.2.Налог с доходов физических лиц	18 917,7	24 284,5	29 917,4
1.3.Налог с оборота	1 649,4	2 512,7	2 407,3 ↓
<i>2.Косвенные налоги</i>	51 525,5	65 644,4	79 719,7
2.1.НДС	38 439,0	52 189,4	57 885,3
2.2.Акцизный налог	13 086,5	13 455,0	15 834,4
<i>3.Ресурсные налоги и налог на имущество</i>	6 540,1	9 321,3	11 987,8
3.1.Налог на имущество	2 457,3	4 015,4	5 097,7
3.2.Земельный налог	4 082,8	5 305,9	6 890,1

В 2023 году поступления от налога на прибыль по сравнению с 2022 годом выросли на 8,3% в связи с увеличением количества налогоплательщиков налога на прибыль и снижения ставок акцизного налога на некоторые виды услуг.

²⁸⁰ <https://www.imv.uz/>

Несмотря на введение единой ставки подоходного налога для физических лиц 12% поступления в доход государственного бюджета не уменьшается, а наоборот растет. На рост поступлений повлияли такие факторы, как повышение минимального размера оплаты труда в бюджетной сфере и легализация численности работников и фонда оплаты труда в негосударственном секторе. Это также повлияло на отчисления социального налога во внебюджетный Пенсионный фонд.

С 2023 года НДС налог снизился с 15% до 12%, но при этом наблюдается увеличение налоговых поступлений по НДС также за счет роста количества налогоплательщиков. Далее совершенствуется порядок возмещения налога, возникающего в результате превышения НДС, относимого в зачет, над суммой начисленного налога. В 2024 году высокий рост поступлений ожидается по «импортному» НДС за счет роста импорта, его легализацией за счет снижения ставок таможенных пошлин, а также за счет снятия льгот по реализации медицинских и ветеринарных товаров и услуг, коммунальных услуг населению.

В 2022 году по сравнению с 2021 годом примерно в 1,63 раза выросли поступления по налогу на имущество. Одним из факторов роста послужило введение нормы расчета, не ниже минимальной стоимости абсолютной величины за 1 кв. метр в зависимости от регионального местоположения. Минимальная стоимость была введена в целях поэтапного перехода на исчисление налога на имущество исходя из кадастровой стоимости, приближенной к рыночной. Но, в целях предотвращения резкой налоговой нагрузки предоставлено право установления понижающего коэффициента к установленной минимальной стоимости в зависимости от экономического развития регионов.

Рост поступлений по земельному налогу реализован за счет индексации базовых налоговых ставок по землям несельскохозяйственного назначения и увеличения понижающего коэффициента в отношении земельных участков отдельных видов объектов.

В 2024 году сохранены следующие ставки налогов:

- по налогу на прибыль – 15% (для отдельных категорий – 20%);
- НДС налог – 12%;
- налог на доходы физических лиц – 12%;
- социальный налог (25% для бюджетных организаций; 12% для предпринимателей);
- налог с оборота – 4%.

Перед Узбекистаном еще стоят задачи по дальнейшему совершенствованию налоговых реформ и развития финансовой системы. Целесообразно продолжать работу по налоговому законодательству, упрощению процедур уплаты налогов, снижению административных барьеров для предпринимателей. Эти меры помогут преодолеть экономические вызовы и создать благоприятную инвестиционную среду как для отечественных производителей, так и для привлечения иностранных инвестиций.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 29 июня 2018 года №УП-5468 «О Концепции совершенствования налоговой политики Республики Узбекистан»
2. Обзор предварительных итогов исполнения доходов Государственного бюджета Республики Узбекистан за 2022 год
3. <https://www.imv.uz/>
4. <https://buxgalter.uz/>

ТРАНСПОРТ МАСАЛАНИНГ ИҚТИСОДИЙ СОҲАДА ҚЎЛЛАНИШИ

Насридинов Салоҳидин (катта ўқитувчи),
Нарманов Отабек (ф.-м.ф.н.(PhD) доцент)

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети
otabek.narmanov@mail.ru

Чизикли дастурлашнинг бошқа масалалари каби транспорт масаласининг оптимал ечимини топиш жараёни бошланғич ечимни топишдан бошланади. Шундай қилиб, транспорт масаласининг математик модели қуйидаги кўринишда бўлади:

$$\text{Номаълумларнинг} \quad Z = \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n c_{ij} x_{ij} \quad (1)$$

чизикли функцияга минимал қиймат берувчи ҳамда

$$\sum_{j=1}^n x_{ij} = a_i \quad (i = 1, 2, \dots, m), \quad (2) \quad \sum_{i=1}^m x_{ij} = b_j \quad (j = 1, 2, \dots, n), \quad (3)$$

$$x_{ij} \geq 0 \quad (i = 1, 2, \dots, m; \quad j = 1, 2, \dots, n) \quad (4)$$

шартларни қаноатлантирувчи қийматлари топилсин. Бу моделда жами захиралар жами

$$\text{эҳтиёжларга тенг эканлиги, яъни} \quad \sum_{i=1}^m a_i = \sum_{j=1}^n b_j \quad (5)$$

эканлиги фараз қилинади. Бундай модель *транспорт масаласининг ёпиқ модели* деб аталади[1].

1-теорема. *Агар транспорт масаласининг $X^* = (x_{ij}^*)$ ечими оптимал бўлса, унга қуйидаги шартларни қаноатлантирувчи $m + n$ та u_i^* ва v_j^* сонлар мос келади:*

$$x_{ij}^* > 0 \text{ лар учун } u_i^* + v_j^* = c_{ij}, \quad x_{ij}^* = 0 \text{ лар учун } u_i^* + v_j^* \leq c_{ij}$$

а) ҳар бир банд катак учун потенциаллар йиғиндиси бир бирлик юк ташишнинг шу катакдаги харажатига тенг бўлиши керак: $u_i + v_j = c_{ij}$; (6)

б) ҳар бир бўш катак учун потенциаллар йиғиндиси бир бирлик юк ташишнинг шу катакдаги харажати бўлиши керак: $u_i + v_j \leq c_{ij}$. (7)

Барча потенциалларнинг сон қийматлари аниқлаб бўлингач, ҳамма бўш катаклар учун қуйидаги катталиклар ҳисобланади: $\Delta_{ij} = u_i + v_j - c_{ij}$ (8)

Агар барча i ва j лар учун $\Delta_{ij} \leq 0$ муносабат ўринли бўлса, топилган ечим оптимал ечим бўлади. Агар i ва j ларнинг камида битта жуфтлиги учун $\Delta_{ij} > 0$ бўлса, топилган ечим оптимал ечим бўлмайди ва у янги ечимга алмаштирилади, бунинг учун қуйидаги ҳисобланади: $\Delta_{kl} = \max_{\Delta_{ij} > 0} \Delta_{ij}$ (9).

Масала. Қуйидаги жадвал асосида берилган транспорт масаласининг бошланғич ечими топилсин: Ечиш. Ушбу транспорт масаласининг бошланғич ечими энг кам харажатлар усули билан топилган бўлсин:

1-жадвал

Етказиб берувчилар	Истеъмолчилар						Захиралар
	u_i	B_1	B_2	B_3	B_4	B_5	
v_j		$v_1 =$ 3	$v_2 =$ 8	$v_3 =$ 12	$v_4 =$ 13	$v_5 =$ 13	
A_1	$u_1 =$ -12	10	7	4	1 100	4	100
A_2	$u_2 =$ -1	2 200	7 50	10	6 0	11	250
A_3	$u_3 =$ -11	8	5	3	2	2 200	200
A_4	$u_4 =$ 0	11	8 150	12 100	16	13 50	300
Эҳтиёжлар		200	200	100	100	250	850

Жами юк ташиш режасининг қийматини топамиз:

$$Z = 100 \cdot 1 + 200 \cdot 2 + 50 \cdot 7 + 200 \cdot 2 + 150 \cdot 8 + 100 \cdot 12 + 50 \cdot 13 = 4300$$

қиймат бирлиги.

Топилган бошланғич ечим емирилган ечимдир, $m + n - 1 = 5 + 4 - 1 = 8$ дан биттага камдир. Бу ечим 7 та банд катакни ўз ичига олади, яъни емирилган ечим бўлади Шунинг учун бўш катакларнинг ичида энг кичик харажати A_2B_4 катакда бўлгани ва цикл қуриш мумкин бўлмаганлиги учун шу катакка нолга тенг ташиладиган юк миқдори жойлаштирилди.

Энг кўп банд катаклари бўлган сатрни, яъни A_4 сатрни танлаб, у учун $u_4 = 0$ деб оламиз. A_4 сатрда u_4 потенциални мос равишда v_2 , v_3 ва v_5 потециаллар билан боғлайдиган учта A_4B_2 , A_4B_3 ва A_4B_5 банд катаклар мавжуд. Ушбу потенциалларни (6) формулага асосан аниқлаймиз: $v_2 = c_{42} - u_4 = 8 - 0 = 8$; $v_3 = c_{43} - u_4 = 12 - 0 = 12$; $v_5 = c_{45} - u_4 = 13$. Энди B_2 , B_3 ва B_5 устунларни галма-галдан кўриб чиқиб, улардаги банд катаклардан мос равишда v_2 , v_3 ва v_5 потециаллар ёрдамида $u_2 = 7 - 8 = -1$ ва $u_3 = 2 - 13 = -11$ потенциалларни аниқлаймиз. Қолган потенциалларни ҳам шу йўсинда топиб, 1-жадвалга мос равишда ёзилган.

Сўнгра барча бўш катаклар учун (8) формулага асосан Δ_{ij} ларнинг ишорасини аниқлаймиз. Масалан, A_1 сатр учун $\Delta_{11} = -12 + 3 - 10 = -19$; $\Delta_{12} = -12 + 8 - 7 = -11$; $\Delta_{13} = -12 + 12 - 4 = -4$; $\Delta_{15} = -12 + 13 - 4 = -3$. Учта бўш катак учун Δ_{ij} лар мусбат бўлади, яъни $\Delta_{23} = 1$, $\Delta_{24} = 6$ ва $\Delta_{25} = 1$. Демак, топилган бошланғич ечим оптимал ечим эмас экан. Янги ечимга ўтишда янгидан

тўлдириладиган катак (9) шартдан топилади. Бу ҳолда бундай катак A_2B_4 экан. Худди шундай, кейинги жадвалларни тўлдириб давом эттириб бир неча кадамдан сўнг қуйидаги натижани оламиз.

2-жадвал

Етказиб берувчилар	Истеъмолчилар						Захиралар
	u_i	B_1	B_2	B_3	B_4	B_5	
v_j		$v_1 =$ 3	$v_2 =$ 8	$v_3 =$ 12	$v_4 =$ 7	$v_5 =$ 13	
A_1	$u_1 =$ -6	10	7	4	- 1 100	+ 4	100
A_2	$u_2 =$ -1	2 200	- 7 50	10	+ 6 0	11	250
A_3	$u_3 =$ -11	8	5	3	2	2 200	200
A_4	$u_4 =$ 0	11	+ 8 150	12 100	16	- 13 50	300
Эҳтиёжлар		200	200	100	100	250	850

Яна барча бўш катаклар учун (8) формулага асосан Δ_{ij} ларнинг ишорасини аниқлаймиз. Тўртта бўш катак учун Δ_{ij} лар мусбат бўлади, яъни $\Delta_{13} = 2$, $\Delta_{15} = 3$, $\Delta_{23} = 1$ ва $\Delta_{25} = 1$. Демак, топилган ечим оптимал ечим эмас экан. Янги ечимга ўтишда янгидан тўлдириладиган катак (9) шартдан топилади. Бу ҳолда бундай катак A_1B_5 экан.

3-жадвал

Етказиб берувчилар	Истеъмолчилар						Захиралар
	u_i	B_1	B_2	B_3	B_4	B_5	
v_j		$v_1 =$ 3	$v_2 =$ 8	$v_3 =$ 12	$v_4 =$ 7	$v_5 =$ 10	
A_1	$u_1 =$ -6	10	7	4	1 50	4 50	100
A_2	$u_2 =$ -1	2 200	7 0	10	6 50	11	250
A_3	$u_3 =$ -8	8	5	3	2	2 200	200
A_4	$u_4 =$ 0	11	8 200	12 100	16	13	300
Эҳтиёжлар		200	200	100	100	250	850

Энди барча бўш катаклар учун (3) формулага асосан Δ_{ij} ларнинг ишорасини аниқлаймиз. Барча бўш катак учун Δ_{ij} лар манфий бўлди. Демак, топилган ечим оптимал ечим экан. Жами юк ташиш режасининг қиймати:

$$Z = 50 \cdot 1 + 50 \cdot 4 + 200 \cdot 2 + 50 \cdot 6 + 200 \cdot 2 + 200 \cdot 8 + 100 \cdot 12 = 4150$$

га тенг. Олдинги натижадан 150 бирликка камайган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Насридинов С.С. “Иқтисодчилар учун математикадан амалиёт” услубий қўлланма, Тошкент МЧЖ. "REN-Poligraf". 2018 й. 324-б.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ УЧЕТ НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ

Пардаев А.Х.

доктор экономических наук,
профессор кафедры “Бухгалтерский учет”
Ташкентского финансового института

a

b

В связи быстрыми темпами развития научно – технического потенциала во всем мире одной из составляющей частью, которого является создание и применение в производстве, а также в сфере оказания услуг, нематериальных активов.

На сегодняшний день более явным становится тот факт, что не только основные средства или же активы, имеющие материальную форму, являются источником обеспечения доходности хозяйствующего субъекта, но и активы, не обладающие таким фактором как вещественно – материальная форма, могут иметь значимость в процессе получения прибыли для предприятия.

На данном этапе экономического развития позиция нематериальных активов в субъектах хозяйственности неуклонно возрастает. Данная тенденция вызвана развитием цифровых технологий и интеллектуальной собственности, их распространения усилением конкурентности. А также субъекты хозяйствования сталкиваются с растущей потребностью в учете, оценке и управлении нематериальными активами, такими как права на интеллектуальную собственность, технологии, дизайн, бренды и т.д. Нематериальные активы являются объектами учета, которые не имеют физической формы, но имеют значительную экономическую стоимость и способны приносить доходы предприятию в долгосрочной перспективе.

В соответствии с Национальным стандартом бухгалтерского учета Республики Узбекистан НСБУ № 7 «Нематериальные активы», зарегистрированный МЮ 22.05.2018 г. № 1485-2 «Нематериальные активы - идентифицируемые объекты имущества, не имеющие материально вещественного содержания, которые предприятие содержит с целью использования их в процессе производства продукции, выполнения работ, оказания услуг или реализации товаров, либо для осуществления административных и иных функций в течение длительного срока».[2]

Так как в соответствии Постановления Президента Республики Узбекистан от 24.02.2020 года, об ускорении перехода бухгалтерского учета на международные стандарты финансовой отчетности, рассмотрим экономическую сущность нематериальных активов в соответствии с МСФО № 38 «Нематериальные активы». Нематериальный актив – идентифицируемый немонетарный актив, не имеющий физической формы.

В связи с переходом предприятий на территории Республики Узбекистан на составление отчетов, согласно МСФО, необходимо рассмотреть учет и признание нематериальных активов в соответствии с МСФО.

На сегодняшний день нематериальные активы становятся все более популярнее на предприятиях, но также они являются одним из сложных элементов учета, в связи с их признанием как нематериальный актив, а также и дальнейший учет. Также актуальны вопросы достоверного отражения в финансовых отчетностях, в связи с особенностями учета в соответствии НСБУ или международными стандартами учета и финансовой отчетности.

В соответствии с IAS 38 «Нематериальный актив – это идентифицируемый неденежный актив, не имеющий физической формы и используемый при производстве товаров, оказания услуг, для сдачи в аренду или для административных целей»[3].

Ниже в таблице рассмотрим сходства и расхождения законодательства Республики Узбекистан с международными стандартами в вопросах признания нематериальных активов.

Таблица - 1

Критерии признания нематериального актива в качестве объекта бухгалтерского учета.²⁸¹

Критерии признания	НСБУ № 7	МСФО № 38 «Нематериальные активы»
Отсутствие материально-вещественной формы	+	+
Срок использования более 12 месяцев	+	-
Способность приносить экономические выгоды	+	+
Участие в процессе производства / хозяйственной деятельности	+	-
Идентифицируемый объект	+	+
Не предназначен для перепродаж	+	+

В сравнении критерий признания нематериальных активов в качестве объекта бухгалтерского учета в зависимости от использования нормативно – правовых документов Республики Узбекистан и МСФО № 38, можем сделать вывод, что НСБУ № 7 и Инструкция по бухгалтерскому учету нематериальных активов идентичны в критериях признания. В соответствии с МСФО № 38 «Нематериальные активы», нет таких четких критерий как срок использования больше 12 месяцев, что актив обязателен в использовании в процессе производства или хозяйственной деятельности. Сложность использования МСФО № 38 заключается в расплывчатости критериев признания и учета нематериальных активов, и многие статьи могут быть применены на основании профессионального суждения самой организации. также сложность заключается, что в МСФО № 38 «Нематериальные активы» перечень объектов нематериальных активов дается на основании рассмотрения объектов, которые не могут быть нематериальными активами:

- а) нематериальных активов, соответствующих требованиям другого стандарта МСФО;
- б) финансовых активов в значении, определенном в МСФО (IAS) 32 "Финансовые инструменты: представление информации";
- в) признания и оценки активов, связанных с разведкой и оценкой;

²⁸¹ Составлено автором на основании изученного материала

г) затрат по разработке и добыче минеральных ресурсов, нефти, природного газа и аналогичных невозобновляемых ресурсов.

Причем, если какой-либо другой стандарт регламентирует порядок учета конкретного вида нематериальных активов, предприятие применяет такой стандарт вместо настоящего стандарта.

Рассмотрим методы начисления амортизации по НСБУ № 7 и МСФО № 38. По НСБУ № 7 существуют такие методы, как:

- равномерный (прямолинейный) метод начисления амортизации;
- начисления амортизации пропорционально объему выполненных работ (производственный метод);
- метод уменьшающегося остатка с удвоенной нормой амортизации;
- метод суммы лет (кумулятивный метод).

По МСФО № 38 описываются следующие методы:

- равномерного начисления;
- уменьшающегося остатка;
- единиц продукции.

Методы начисления амортизации схожи, только по НСБУ № 7 методов больше, чем по МСФО № 38.

Также стоит отметить факт схожести между законодательством Республики Узбекистан и МСФО, относительно определения амортизируемой стоимости нематериального актива. Согласно МСФО 38 амортизируемая сумма равна первоначальной (восстановительной) стоимости объекта минус ликвидационная стоимость. Согласно НСБУ № 7 «амортизируемая стоимость — сумма первоначальной (восстановительной) стоимости актива за минусом предполагаемой (оцененной) ликвидационной стоимости».

Мы можем сделать вывод, что между законодательством Республики Узбекистан и МСФО № 38 есть много схожестей, происходит это в связи с реформированием законодательства, а также в сфере бухгалтерского учета для способствования улучшению инвестиционного климата Республики Узбекистан, привлечения инвестиций, а именно повышению инвестиционной привлекательности на мировой арене.

Список использованной литературы

1. Постановление Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности” от 24 февраля 2020 г. № ПП-4611.
2. Национальный стандарт бухгалтерского учета № 7 НСБУ № 7 нематериальные активы (fmc.uz)
3. minfin.gov.ru/common/upload/library/2015/02/main/IAS38.pdf?ysclid=lixhrs17h2572426713

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ УЧЕТ ТОВАРНО-МАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ

Пардаева З.А.

доцент кафедры “Бухгалтерский учет”

Ташкентского финансового института

z

p

В современном мире в нынешних условиях хозяйствования особое значение имеет правильная организация и учет материальных активов. От эффективного использования товарно-материальных активов и наличия правильной системы управления ими зависит финансовая стабильность организации и уровень ее экономической безопасности.

Обязательным условием осуществления организацией производственной хозяйственной деятельности является наличие оборотных средств наряду с основными средствами и рабочей силой. Недостаточная обеспеченность предприятия оборотными средствами парализует его деятельность и приводит к ухудшению финансового положения.

МСФО (IAS) 2 четко определяет, какие затраты нельзя включить в себестоимость запасов. В качестве расходов в период возникновения следует признать следующие затраты:

- 1) сверхнормативные потери сырья, затраченного труда или прочих производственных затрат;
- 2) затраты на хранение;
- 3) административные накладные расходы, которые не способствуют обеспечению текущего местонахождения и состояния запасов;
- г) затраты на продажу. Однако в себестоимость запасов можно включить, например, затраты на транспортировку или сбыт, которые понесены на промежуточном этапе в процессе производства. Либо затраты, связанные с доставкой запасов от центрального склада к месту продажи [28].

МСФО (IAS) 2 определяет чистую возможную цену продажи как расчетную цену продажи в ходе обычной деятельности за вычетом расчетных затрат на завершение производства и расчетных затрат, которые необходимо понести для продажи (затраты на маркетинг и сбыт). Эта сумма будет специфична для каждого предприятия.

Себестоимость запасов необходимо уменьшить, если она окажется ниже чистой возможной цены продажи. Списание признают в качестве расхода. Это требование согласуется с ключевым принципом МСФО, предусматривающим, что активы не должны учитываться по стоимости, превышающей сумму, которую, как ожидается, можно получить от их продажи или использования. Например, это может произойти в случае повреждения запасов, устаревания, снижения цены продажи или увеличения возможных затрат на завершение или осуществление продажи.

МСФО (IAS) 2 запрещает списывать запасы только на основе их классификации. Например, нельзя списать всю готовую продукцию или все запасы в конкретной отрасли или географическом регионе.

Прекращение признания в МСФО (IAS) 2 «Запасы».

Балансовую стоимость запасов признают в качестве расходов в том периоде, в котором признают соответствующую выручку.

Рассмотрим раскрытие информации о материалах по международным стандартам. В балансе или должна быть отражены общая стоимость запасов и стоимость запасов по видам, используемым данным предприятием. Информация о балансовой стоимости по

видам запасов и о масштабе изменений в этих активах важна для пользователей финансовой отчетности.

В МСФО (IAS) 2 выделено несколько видов запасов: товары, сырье, материалы, незавершенное производство и готовая продукция.

Сравнение особенностей и методологии учета сырья и материалов в соответствии с МСФО и национальными стандартами.

Таблица-1

**Сравнительная характеристика учета материально -
производственных запасов в соответствии с НСБУ № 4 и МСФО (IAS) 2**

Параметр сравнения	НСБУ № 4	МСФО (IAS) 2
Ведение учета	Оба национальных стандарта регламентируют учет только материально–производственных запасов	Международный стандарт регламентирует учет запасов в целом
Состав ТМЗ	Материалы, сырье, готовая продукция, товары для перепродажи	Товары, закупленные и хранящиеся для перепродажи; Сырье материалы; готовая продукция; незавершенное производство
Порядок оценки при поступлении	По фактической себестоимости	По наименьшей из двух величин: – по себестоимости; – по возможной чистой цене реализации
Порядок оценки при выбытии и отпуске в производство	По стоимости каждой единицы, по средней себестоимости, по себестоимости первых по времени приобретения МПЗ (метод ФИФО)	По специфической идентификации затрат по средневзвешенной себестоимости по себестоимости первых по времени приобретения МПЗ (метод ФИФО)

Приведем пояснительное разъяснение к положениям, отраженным в МСФО (IAS) 2 и НСБУ № 4:

1. Ведение учета.

В соответствии МСФО (IAS) 2, если речь идет о поставщике услуг (например, ООО «ФЕРФЕРРО-РОШЕН»), то он должен оценивать запасы по затратам на их производство. Следовательно, стоимость запасов должна включать в себя, в том числе:

- 1) затраты на оплату труда;
- 2) прочие затраты на персонал.

В национальных стандартах НСБУ № 4 (РУ) рассматриваются только материальные запасы.

2. Порядок оценки при поступлении.

По МСФО (IAS) 2 при оценке запасов применим принцип осмотрительности (ситуация, позволяющая в большей степени признать убытки, нежели запланировать прибыль).

3. Учет в себестоимости запасов затрат по займам.

Положения НСБУ № 4, в отличие от МСФО (IAS) 2, могут привести к завышению балансовой стоимости запасов.

4. Способ оценки запасов при выбытии.

В РУз наиболее распространенным является способ списания материалов по средней себестоимости, в то время как в мировой практике – метод ФИФО.

Международный стандарт МСФО (IAS) 2 предъявляет более расширенные требования по раскрытию в финансовой отчетности информации по движению

материалов, НСБУ № 4 предъявляют требования к раскрытию минимума информации с учетом ее существенности. Так, МСФО предписывают предприятиям обеспечивать раскрытие в отчетности по запасам:

- 1) принципов принятой учетной политики в части оценки запасов, а также формулы оценки их себестоимости;
- 2) общей стоимости всех материалов, а также конкретных разновидностей их запасов, которые применяются в деятельности предприятия;
- 3) балансовой стоимости материалов, что учитываются по справедливой стоимости, но за вычетом расходов на продажу;
- 4) размера запасов, что признаются расходами в рамках отчетного периода;

Таким образом, запасы в финансовой отчетности, составленной по МСФО, – это достаточно широкое понятие, охватывающее не только сырье и материалы, но и готовую продукцию, товары и даже оказываемые услуги (выполняемые работы). При этом отличия национальных стандартов по учету материалов РУз от международного стандарта минимальны.

Список использованной литературы

1. Постановление Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности” от 24 февраля 2020 г. № ПП-4611.
2. С.Н.Ташназаров. Финансовая отчетность в контексте модернизации экономики: проблемы и решения. Монографии. Т.: Издательство "Навруз". 2016 г. - 290 с

АНДИЖОН ВИЛОЯТИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИНИНГ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛИШНИ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Режапов Сайдулла Хикматуллаевич
ALFRAGANUS университети
“Молия” ва “Иқтисодиёт” кафедралари
катта ўқитувчиси

Мамлакатимиз иқтисодиётини либераллаштириш бўйича амалга оширилаётган ислохотларга устуворлик қаратилиши бозор иқтисодиётига хос бўлган иқтисодий муносабатлар тизимини тобора ривожланишига олиб келмоқда. Шу билан биргаликда, бу турдаги иқтисодий муносабатлар тобора ривожланиб бориши ижтимоий-иқтисодий соҳадаги эҳтиёжлар ҳажмини кескин ортиб боришига олиб келмоқда. Бу эса давлат харидларини амалга ошириш жараёнларини янада ривожланишига асос бўлмоқда.

Маҳаллий иқтисодчи олим У. Ўроқов томонидан амалга оширилган илмий изланишларда ҳам А.О. Скутельник каби давлат хариди билан давлат буюртмаси тушунчаларини ўзаро умумлаштирган ҳолда давлат хариди атамасининг моҳиятини очиқ берилган. Унга кўра, “давлат буюртмачиларининг эҳтиёжлари учун зарур бўлган товарлар (ишлар, хизматлар) ни белгиланган талаблар ва тартиб таомиллар асосида сотиб олиш жараёни”²⁸², деб тариф берилган. С.А. Туробов эса, “давлат хариди кенг тушунча бўлиб, унга давлатнинг функциялари бажарилишини таъминлаш мақсадида қонун асосида белгиланган тартибда товар (иш, хизмат) ларни харид қилиш юзасидан давлат ва пудратчи ўртасида амалга ошириладиган молиявий муносабатлар тизими”²⁸³ деган хулосага келади.


²⁸² Ўроқов У. Давлат хариди. Ўқув қўлланма – Тошкент, “Nihol print”, 2022, 13 бет.

²⁸³ Турабов С.А. Бюджет ташкилотларининг давлат харидларини амалга оширишдаги молиявий муносабатларини такомиллаштириш йўллари. И.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021, 28 б.

Ушбу тарифда давлат харидларини амалга ошириш жараёнида ҳам конун устуворлигининг таъминланиши, жумладан, давлат харидини молиявий муносабатлар тизими сифатида намоён бўлиш хусусиятига эътибор қаратилган ҳисобланади.

Ж.Т. Умаров давлат хариди атамасининг моҳиятини тушунтиришда уни бюджет тизимининг таркибий компоненти сифатида баҳолаган. Унга кўра, “бюджет тизими иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солишнинг муҳим унсури бўлиб, давлат харидлари эса унинг таркибий воситаси ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасида давлат харидлари тизими миллий иқтисодиётнинг барқарор суръатларда ривожланишига, халқаро иқтисодий ҳамкорликни кенгайтириш ва мустаҳкамлашга асос бўлади. Давлат харидлари бюджет харажатларининг салмоқли қисмини ўзида мужассамлаштиради”²⁸⁴.

Андижон вилоятида давлат харидларини амалга оширишнинг соҳалар кесимидаги таркибий кўрсаткичлари таҳлилига кўра, сўнгги йилларда ижтимоий соҳада хўжалик фаолияти юритаётган бюджет ташкилотларининг молиявий мустақиллиги таъминланиб бораётганлиги аниқланди. Бу эса мамлакатимизда амал қилаётган бозор иқтисодиёти муносабатларининг тобора либераллашиб бораётганлигидан далолат беради.




1-расм. 2019-2023 йилларда Андижон вилоятида амалга оширилган жами давлат харидларининг таркибий тузилиши, жамига нисбатан фоизда.²⁸⁵

2017-2023 йилларда Андижон вилоятида давлат харидларини амалга оширишнинг таркибий кўрсаткичлари таҳлилига кўра, шартномаларнинг 42,3 фоизи электрон дўконлар орқали тузилган бўлса, жами шартномаларнинг 33,3 фоизи тўғридан-тўғри ва 14,8 фоизи сўровнома асосида тузилган шартномалар ҳисобланади. Жумладан, ўрганилаётган даврда шартномаларнинг 42,3 фоизи электрон дўконлар орқали тузилганлиги давлат харидларини амалга ошириш жараёнларида замонавий ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишга устуворлик қаратилаётганлигидан далолат беради. Шунингдек, таҳлил этилаётган даврда тузилган шартномаларнинг қиймати (46,4 фоизи тўғридан-тўғри, 18,7 фоизи сўровнома асосида) бўйича 65,1 фоизи, амалга оширилган давлат харидлари тўловларининг (45,9 фоизи тўғридан-тўғри, 18,9 фоизи сўровнома

²⁸⁴ Умаров Ж.Т. Давлат харидлари тизимини такомиллаштиришнинг методологик жиҳатлари. И.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021, 26 б.

²⁸⁵ Андижон вилояти иқтисодиёт ва молия бошқармаси маълумотлари асосида тузилган.

асосида) 64,8 фоизи марказлашган давлат харидлари учун хос хусусиятга эга эканлигини кўришимиз мумкин (1-расм).



2-расм. Андижон вилоятида амалга оширилган давлат харидларининг шартномалар сони бўйича таркиби, жамига нисбатан фоизда.²⁸⁶

Андижон вилоятида давлат харидларини амалга оширишнинг сўнгги йиллардаги ривожланиш тенденциялари таҳлиliga кўра, 2019-2023 йилларда конкурс (8,1 фоиздан 2,2 фоизга камайган), тендер (0,4 фоиздан 1,0 фоизга етган) ва аукцион (6,6 фоиздан 1,3 фоизга камайган) орқали тузилган давлат харидлари шартномаларининг жами тузилган шартномалар ҳажмидаги умумий улуши 3,4 мартага ёки 15,1 фоиздан 4,5 фоизга қисқарганлигини кўришимиз мумкин. Жумладан, электрон дўкон орқали тузилган шартномаларнинг жами шартномалар таркибидаги улуши 2019-2020 йилларда 39,1 фоиздан 51,5 фоизга етган бўлса, 2020-2023 йилларда эса пасайиш тенденцияси кузатилиб, 30,2 фоизгача камайган. Ушбу кўрсаткич 2019 йилги кўрсаткичга нисбатан 8,9 фоизга кам эканлиги билан характерланади. Шу билан биргаликда, марказлашган ҳолда ташкил этиладиган тўғридан-тўғри шартномаларни тузиш орқали амалга ошириладиган давлат харидларининг жам шартномалаар таркибидаги улуши 2019-2023 йилларда 2,0 мартадан кўпроқ камайган ҳолда 45,7 фоиздан 22,5 фоизга қисқарган бўлса, биргина 2023 йилнинг ўзида сўровнома асосида тузилган шартномаларнинг жами давлат харидлари бўйича тузилган шартномалар сонидagi улуши 42,8 фоизга етган (2-расм).

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўроқов У. Давлат хариди. Ўқув қўлланма – Тошкент, “Nihol print”, 2022, 13 бет.
2. Турабов С.А. Бюджет ташкилотларининг давлат харидларини амалга оширишдаги молиявий муносабатларини такомиллаштириш йўллари. И.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021, 28 б.
3. Умаров Ж.Т. Давлат харидлари тизимини такомиллаштиришнинг методологик жиҳатлари. И.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021, 26 б.
4. Андижон вилояти иқтисодиёт ва молия бошқармаси маълумотлари асосида тузилган.

²⁸⁶ Андижон вилояти иқтисодиёт ва молия бошқармаси маълумотлари асосида тузилган.

OLIIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISHDA ICHKI SIFAT MONITORINGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

*Salimov Akmal Alimjonovich,
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
bosh mutaxassisi, i.f.b.f.d (Phd), professor*

Annotatsiya

Ushbu tezisda oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda ichki sifat monitoringini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi hamda amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, monitoring, tashqi baholash, akkreditatsiya, sifat menejmenti, xalqaro standartlar, raqobatbardoshlik.

В статье дано научно-теоретическое обоснование основных направлений совершенствования внутреннего контроля качества в сфере повышения качества услуг высшего образования, а также разработаны практические предложения.

Ключевые слова: высшее образование, мониторинг, внешняя оценка, аккредитация, управление качеством, международные стандарты, конкурентоспособность.

This article provides a scientific and theoretical basis for the main areas of improving internal quality monitoring in improving the quality of higher education services, and develops practical proposals.

Keywords: higher education, monitoring, external evaluation, accreditation, quality management, international standards, competitiveness.

Bugungi globallashuv va bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Yangi texnologiyalar, mehnat bozoridagi keskin o'zgarishlar hamda xalqaro ta'lim maydonidagi raqobat oliy ta'lim muassasalarini o'z faoliyatini doimiy takomillashtirib borishga undaydi. Shu jihatdan, ta'lim sifatini ta'minlash hamda uning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Xususan, oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda ichki sifat monitoringi tizimini samarali yo'lga qo'yish va uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Ichki sifat monitoringi nafaqat ta'lim jarayonini baholash, balki uning natijadorligini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan mexanizmdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining qator qaror va farmonlarida oliy ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, shuningdek, ichki va tashqi sifat monitoringini kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, ichki sifat monitoringi tizimini ilg'or tajriba va innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish, ta'lim muassasalarining akademik hamda boshqaruv avtonomiyasini oshirish bugungi kunda muhim strategik yo'nalishga aylanmoqda.

Oliy ta'lim sifatini oshirish masalasi ta'limning barcha bosqichlarida muhim o'rin tutadi. Sifat tushunchasi keng qamrovli bo'lib, UNESCO ta'rifi ko'ra, ta'lim sifatining asosiy tarkibiy qismlari sifatida kirish resurslari (input), jarayon (process) va natija (output) ko'rsatiladi. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlashda ichki sifat monitoringi ana shu jarayonni uzviy nazorat qilish, o'rganish va tahlil qilishning samarali vositasi sifatida qaratiladi.

Ichki sifat monitoringi – bu oliy ta'lim muassasasining o'z ichki resurslari, imkoniyatlari va mexanizmlari yordamida ta'lim jarayonini, uning natijalarini muntazam kuzatib borish, tahlil qilish va takomillashtirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Uning asosiy maqsadi – ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, ta'lim standartlari va me'yorlariga rioya etilishini ta'minlash, talabalar hamda boshqa manfaatdor tomonlarning kutgan natijalariga erishishni kafolatlashdan iborat. Ichki sifat monitoringi:

- * ta'lim jarayoni va o'quv dasturlarining sifatini baholash;
- * professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini tahlil qilish;
- * talabalar bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining rivojlanishini o'lchash;

* moddiy-texnik baza va kutubxona-resurslar holatini monitoring qilish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Nazariy jihatdan ichki sifat monitoringiga bir nechta yondashuvlar mavjud. Ulardan asosiylari quyidagilar:

1. Total Quality Management (TQM) – umumiy sifat menejmenti konsepsiyasi asosida sifatni doimiy oshirishga yo‘naltirilgan tizimiy yondashuv. Ushbu modelga ko‘ra, oliy ta‘lim muassasalarida barcha bo‘g‘inlarning sifatga mas‘uliyati oshiriladi, talabalar va manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga qaratilgan yondashuv shakllantiriladi.

2. PDCA sikli (Deming sikli) – rejalashtirish (Plan), amalga oshirish (Do), nazorat qilish (Check) va chora ko‘rish (Act) bosqichlaridan iborat doimiy takomillashtirish modeli. Oliy ta‘lim muassasalari ichki sifat monitoringini aynan ushbu sikl orqali amalga oshirish orqali sifatni muntazam oshirib borishga erishadi.

3. Benchmarking – boshqa ilg‘or oliy ta‘lim muassasalarining tajribasini o‘rganish va o‘z faoliyatiga moslashtirish orqali ichki sifat monitoringi tizimini kuchaytirish.

4. Kompetensiya asosidagi yondashuv – ta‘lim sifatini baholashda asosiy urg‘u bitiruvchilarda shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalarga qaratiladi. Shu orqali ichki monitoringda asosiy e‘tibor natijaviylikka qaratiladi.²⁸⁷

Bugungi kunda ichki sifat monitoringi tizimlariga qo‘yilayotgan talablar ham yanada ortib bormoqda. Jumladan:


- * raqamli texnologiyalar asosida elektron monitoring platformalaridan foydalanish;
- * talabalar fikri va mulohazalarini tizimli ravishda o‘rganish;
- * ichki audit va o‘z-o‘zini baholash (self-assessment) jarayonlarini yo‘lga qo‘yish;
- * ichki sifat ko‘rsatkichlarini tashqi reyting va akkreditatsiya talablariga muvofiqlashtirish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi.

Ichki sifat monitoringi oliy ta‘lim sifatini oshirishning muhim vositasi sifatida nafaqat O‘zbekistonda, balki global ta‘lim bozorida ham ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Total Quality Management (TQM), PDCA sikli, benchmarking va kompetensiya asosidagi yondashuvlar ichki monitoringning asosiy nazariy poydevorini tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston ta‘lim tizimi so‘nggi yillarda sifatni boshqarish bo‘yicha qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Misol uchun, Jahon bankining MHEP loyihasi (42.2 mln dollar) doirasida oliy ta‘lim muassasalarida ichki va tashqi sifat ta‘minoti tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari ichida Quality Enhancement Cells (QEClar) tashkil etilib, ichki sifat monitoringini institutsional darajada qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.²⁸⁸

Oliy ta‘lim sifatini oshirish jarayonida ichki sifat monitoringi uzluksiz takomillashtirish (continuous improvement) tamoyiliga asoslanadi. Bu jarayonning asosiy nazariy modeli sifatida Demingning PDCA sikli keng qo‘llanadi. Grafikda ko‘rsatilganidek, ushbu sikl to‘rtta asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘liq va doimiy aylanishda davom etadi.

²⁸⁷ OECD. Benchmarking Higher Education System Performance. OECD Publishing, Paris, 2018

²⁸⁸ <https://data.worldbank.org/>



1-rasm. PDCA siklining ichki monitoringga qo'llanishi

Plan – sifatni oshirish rejasi: Bu bosqich ichki sifat monitoringining boshlang'ich nuqtasini tashkil qiladi. Unda oliy ta'lim muassasasi o'quv dasturlarining, ta'lim jarayonining hamda boshqa xizmatlarning sifatini oshirish bo'yicha maqsad va vazifalarni aniq belgilaydi. Shuningdek, indikatorlar va o'lchovlar belgilanadi (masalan, talabalar qoniqish darajasi, bitiruvchilarning ishga joylashishi ko'rsatkichlari).

Do – reja asosida o'qitish jarayoni: Ushbu bosqichda ishlab chiqilgan rejalar amaliyotga joriy qilinadi. O'qitish jarayonlari tashkil etiladi, yangi metodlar yoki innovatsion texnologiyalar sinovdan o'tkaziladi. Bu – ichki sifat monitoringining “ijro” bosqichi bo'lib, rejalangan chora-tadbirlarning qanchalik to'liq amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Check – ichki monitoring va self-assessment: Keyingi bosqichda ichki monitoring amalga oshiriladi. Bunda professor-o'qituvchilarning o'quv jarayoni sifatini baholash, talabalar fikrini o'rganish, reytinglar va boshqa sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali jarayon natijalari o'lchanadi. O'z-o'zini baholash (self-assessment) orqali ta'lim muassasasi o'z faoliyatini obyektiv tahlil qiladi va mavjud kamchiliklarni aniqlaydi.

Act – aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish va takomillashtirish: Monitoring natijalariga asoslanib, keyingi qarorlar qabul qilinadi va yangi strategiyalar ishlab chiqiladi. Shu tariqa sifatni oshirishning yangi rejalari shakllanadi va sikl yangidan davom etadi. Bu bosqich PDCA modelining eng muhim jihati bo'lib, doimiy o'zgarishlar orqali sifatning uzluksiz oshib borishini ta'minlaydi.

PDCA sikli ichki sifat monitoringini faqat nazorat qiluvchi emas, balki o'rgatuvchi va rivojlantiruvchi mexanizmga aylantiradi. Bu modelning samaradorligi shundaki, u oliy ta'lim muassasasini doimiy o'zgarishga, xatolardan o'rganishga va yangi yondashuvlarni joriy etishga yo'naltiradi. Shu bilan birga, talaba, o'qituvchi va boshqa manfaatdor tomonlarni faol jalb qilish orqali sifatni oshirishning ijtimoiy jihatlarini ham mustahkamlaydi.²⁸⁹

Bugungi globallashuv va raqobatbardosh bilim iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirish masalasi nafaqat milliy rivojlanish, balki xalqaro integratsiya nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan nazariy asoslar – Total Quality Management (TQM), PDCA sikli, benchmarking va kompetensiya asosidagi yondashuvlar — ichki sifat monitoringining universal poydevorini tashkil qiladi. Ushbu konsepsiyalar oliy ta'lim muassasalarida sifatni oshirish jarayonini doimiy va tizimli tarzda olib borish zarurligini ta'kidlaydi. Amaliy tahlillar va qiyosiy o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, Yevropa

²⁸⁹ <https://data.worldbank.org/>

mamlakatlari va Turkiya kabi davlatlarda ichki sifat monitoringi mustaqil tashqi sifat agentliklari bilan chambarchas bog'liq holda olib boriladi hamda talabalar va ish beruvchilarning faol ishtiroki asosida yo'lga qo'yiladi. O'zbekistonda esa so'nggi yillarda Jahon banki MHEP loyihasi doirasida QEClar faoliyati yo'lga qo'yilib, ichki sifat monitoringini bosqichma-bosqich rivojlantirish ishlari olib borilmoqda. Biroq hali ham ma'lumotlarni raqamlashtirish, self-assessment jarayonlarini chuqurroq yo'lga qo'yish, sifatni oshirish bo'yicha uzluksiz PDCA siklini to'liq qo'llash va manfaatdor tomonlar ishtirokini tizimlashtirish zarurati dolzarb bo'lib turibdi.

Shuningdek, olib borilgan nazariy tahlil asosida xulosa qilish mumkinki, ichki sifat monitoringi — bu faqat nazorat va tekshiruv vositasi emas, balki ta'lim jarayonini doimiy rivojlantiruvchi mexanizm sifatida qaralishi lozim. PDCA siklining oliy ta'limga qo'llanishi sifatni oshirishga tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni ta'minlaydi: rejalashtirish (Plan) orqali aniq maqsadlar qo'yiladi, amalga oshirish (Do) jarayonida innovatsiyalar sinovdan o'tkaziladi, monitoring (Check) orqali natijalar baholanadi hamda (Act) bosqichida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilib, yangi sikl boshlanadi. Xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish orqali O'zbekiston oliy ta'lim tizimi ham ichki sifat monitoringini yanada samarali tashkil etishi, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi ko'rsatkichlar va indikatorlarni joriy etishi mumkin. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi, bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvchanligini oshiradi hamda jamiyatning oliy malakali kadrlar bilan ta'minlanishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OECD. Benchmarking Higher Education System Performance. OECD Publishing, Paris, 2018.
2. ENQA. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG). Brussels, 2015
3. <https://www.uzedu.uz/>
4. <https://stat.uz/>
5. <https://data.worldbank.org/>
6. <http://uis.unesco.org/>

ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИАТИНИНГ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛИШИ ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ ТИЗИМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Н.Р.Самадова

ТДИУ, “Молиявий таҳлил” кафедраси

доценти

nargizasamadova040@gmail.com

Дунёда содир бўлаётган турли хил жараёнлар, геосиёсий муаммоларга қарамасдан бугунги кунда мамлакатимиз иқтисодиётини барқарор ривожланишини таъминлаш долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Миллий ва халқаро иқтисодиётнинг талаб даражасида ривожланмаётганлиги, иқтисодий ресурслар эркин ҳаракатида турли тўсиқларни юзага келтирмоқда.

Мамлакатимизни барқарор ривожланишини таъминлаш мақсадида иқтисодиётимизнинг энг асосий элементларидан ҳисобланган хўжалик субъектларнинг иқтисодий салоҳиятини таҳлил қилиш, фойдаланилмаётган ички ва ташқи резервларни аниқлаш ҳамда улардан самарали фойдаланиш бугунда объектив заруратга айланмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони, 2020 йил 1 майдаги ПҚ-4702-сон «Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида»ги Қарори, 2018 йил

3 июлдаги ПҚ-3832-сон «Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги, 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги, 2022 йил 6 июлдаги ПҚ-307-сон «2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини амалга ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 28 июлдаги 207-сон «Давлат улуши бўлган акциядорлик жамиятлари ва бошқа хўжалик юритувчи субъектлар фаолияти самарадорлигини баҳолаш мезонларини жорий этиш тўғрисида» ва 2018 йил 14 декабрдаги 1013-сон «Давлат иштирокидаги корхоналарни молиявий соғломлаштириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорлари ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда хўжалик юритувчи субъектлар иқтисодий салоҳиятини ўрганиш ва таҳлил қилиш муайян даражада хизмат қилади.

Хўжалик юритувчи субъектлар иқтисодий салоҳияти таркибий тузилиши бўйича иқтисодчи олимлар ва махсус адабиётлар таҳлили натижалари шуни кўрсатадики, иқтисодий салоҳият таркиби бўйича аниқ бир келишувга келинмаган ва барча тадқиқотларда турлича ёндашувлар орқали иқтисодий салоҳият таркиби такомиллаштирилиб борилган. Корхона иқтисодий салоҳияти таркибий тузилишидаги мавжуд барча фарқларга қарамай, таклиф этилган тизимларда мазмун жиҳатдан бир-бирига яқин бўлган элементларни кўриш мумкин. Хусусан, ишлаб чиқариш потенциали, унинг мулкӣ (моддий, техник ва технологик) таркиблари барча таркибларда келтириб ўтилган бўлса, корхонанинг меҳнат ёки кадрлар салоҳияти ҳамда молиявий салоҳият ҳақида ҳам шундай фикрни билдириш мумкин. Инновацион салоҳият ҳам корхона иқтисодий салоҳиятининг таркибий қисми бўлиши кераклиги аксарият олимлар томонидан илгари сурилган. Иқтисодий салоҳиятни мезо даражада тадқиқ этган олимлар эса экологик, табиӣ-экологик, ижтимоӣ-маданий салоҳиятларга ҳам мурожаат қилишган.



1-расм. Илмий адабиётларда корхона иқтисодий салоҳиятининг энг кўп учрайдиган таркибий элементлари.²⁹⁰

Мамлакатимиз иқтисодчи олимлари томонидан корхона иқтисодий салоҳияти таркибида ресурсларга асосланган ёндашув марказий ўрин эгаллайди. Бунинг асосий сабабларидан бири сифатида иқтисодий салоҳият таҳлилининг ахборот таъминоти масаласини келтириш мумкин. Зеро, барча ресурсларнинг қиймат ифодасидаги ўлчови корхона бухгалтерия балансида ўз аксини топган. Шу боисдан иқтисодий салоҳият таркибига моддий, номоддий ва меҳнат ресурсларини, ёки узоқ ва қисқа муддатли активлар ҳамда уларни шаклланиш манбаларини киритишган.

Иқтисодий салоҳият элементларининг ҳар бири тегишли турдаги иқтисодий ресурсларнинг маълум бир қиймати ва сифат ҳолати билан тавсифланади. Корхонанинг иқтисодий салоҳиятини мураккаб, динамик ва иерархик тизим деб фарз қилиш мумкин. Тизимли ёндашувга асосланиб, тизим даражалари бўйича тақсимланган корхона иқтисодий салоҳиятининг таркибий элементларини аниқлаш мумкин (1-расм).

Корхона иқтисодий салоҳияти таркибини белгилашда иқтисодий салоҳит тушунчасига берилган таърифга асосланган ҳолда ресурсли ва натижали ёндашувдан келиб чиқиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Яна бир жиҳати шундаки, белгиланган мақсадга эришишда ресурсларга асосланган иқтисодий салоҳият етарли эмас, чунки ресурслардан самарали фойдаланиш марказий ўринда туради. Шу боисдан, корхонанинг ташкилий-бошқарув салоҳиятига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Шунингдек, бугунги кунда мамлакатимизда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда “Миллий иқтисодиётнинг экспорт салоҳиятини кучайтириш ва унинг таркибида қўшилган қиймати юқори бўлган маҳсулотлар улушини кескин ошириш” ва “Рақамли технологияларни ривожлантирган ҳолда мамлакатни минтақавий «IT-HUB»га айлантириш»²⁹¹ каби стратегик мақсадлардан келиб чиқадиган бўлсак, корхонанинг инновацион ва маркетинг салоҳиятларини ошириш устувор вазифалардан ҳисобланади.

Олиб борилган илмий тадқиқотлар натижасини маълум бўлдики, корхона иқтисодий салоҳияти мураккаб, кўп компонентли ва комплекс ўрганилиши лозим бўлган категория ҳисобланади. Иқтисодий салоҳият таркибига кирувчи элементлар ҳам бир вақтнинг ўзида алоҳида тизим сифатида намоён бўлади. Кўплаб маҳаллий ва хорижий

²⁹⁰ Илмий адабиётлар асосида муаллиф томонидан тизимлаштирилди.

²⁹¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон—2030 стратегияси тўғрисида”ги Фармони, 2023 йил 11 сентябрь, ПФ-158-сон. [ПФ-158-сон 11.09.2023. «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида \(lex.uz\)](#)

олимлар томонидан инновацион, маркетинг, меҳнат, ташкилий-бошқарув салоҳиятлари алоҳида илмий изланишлар мавзуси ўлароқ тадқиқ этилган. Бу изланишлар натижаларида мазкур салоҳият турлари чуқур тадқиқ этилиб, улар ҳам бир қанча таркибий қисмлардан иборатлиги илмий асосланган.

Корхона иқтисодий салоҳиятини таҳлил қилишда кўрсаткичлар тизимини шакллантириш муҳим аҳамият касб этади. Зеро, иқтисодий таҳлил предметининг ўзига хос жиҳатларидан бири бу таҳлил объектларини кўрсаткичлар тизимида ўрганиш ҳисобланади. Шу боисдан қуйида иқтисодий салоҳият ва унинг таркибий қисмлари таҳлилида фойдаланиладиган кўрсаткичлар тизимининг назарий масалаларига тўхталиб ўтамиз.

Барча илмий адабиётларда яқдиллик билан таъкидланган жиҳати шуки, корхона иқтисодий салоҳиятини таҳлил қилиш ва баҳолашнинг асоси иқтисодий ресурсларнинг шаклланиши ва ишлатилишини кўрсаткичларининг фаолият натижалари ифодаловчи кўрсаткичлар билан самарали ўзаро таъсир мезонига асосланиши керак. Бундай ўзаро таъсирнинг табиати корхонанинг ички ва ташқи муҳитининг ўзгариши билан белгиланади, бунда иқтисодий салоҳиятнинг роли корхонанинг барқарор, самарали ишлаши таъминлаш учун ўзини ўзи ривожлантиришнинг ички манбаларини шакллантириш ва амалга оширишдир.

Иқтисодий салоҳият ва унинг таркибий қисмларини таҳлилида қўлланиладиган кўрсаткичлар тизимини шакллантиришда иқтисодий таҳлилнинг объекти, предмети ва фан доирасида ёндашиш муҳим аҳамиятга эга. Шу боисдан, илмий адабиётлар таҳлили, соҳа олимларининг илмий ёндашувларидан келиб чиқиб, қуйида иқтисодий салоҳият ва унинг таркибий қисмларини таҳлилининг кўрсаткичлар тизимини назарий жиҳатдан ёритишга ҳаракат қиламиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. 2017 йил 7 февраль. ПФ-4947. <https://nrm.uz/contentf?doc=575214> 2017 yil.
.Ю Рахимов, Н.Н.Каландарова, Молиявий таҳлил: дарслик. – Т.: “Иқтисод молия”, 2019 йил, 318 б.
.Қ.Пардаев, Ж.И.Исроилов, Б.И.Исроилов. Иқтисодий таҳлил: Ўқув қўлланма – Т, 2017 йил, 280 б.

MUNDARIJA

1-SHO‘BA. MOLIYA-KREDIT TIZIMINI “O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASIDAGI O‘RNI

Шоҳаъзамий Ш.Ш. Концепция стратегии перехода к дуальной модели цифровой финансово-кредитной системы в Узбекистане.....	3
Abdul Jalil Mahama. TOPIC: Justification of the possibility of introducing islamic finance in the conditions of the economic development of new Uzbekistan	10
Rejapov X.X., Oromov B.X. Kapital bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	12
Abdullayev A.B., Mamatov M.M., Isroilov I.I. Barqaror iqtisodiy o‘‘sish va uni ta‘minlashda raqamli menejment va marketingning konseptual jihatlari.....	18
Abrueva S.A. Moliyaviy bozorining holati va rivojlanish yo‘nalishlari	22
Chunayev N. Security issues in electronic payment systems and their analysis.....	24
Chunayev N., Khabibullayev J. Application of blockchain technology to ensuring reliability and data security in the internet of things.....	27
Djabbarov R.A. Iqtisodiyotni raqamlashtirishda bank-moliyalarining ishtiroki	30
Erkinxojiev I.I. Agrosanoat majmuasida moliya-kredit tizimini rivojlantirish asoslari.....	33
Igitov J.K. Korxonalarni moliyalashtirishda korporativ moliyaviy instrumentlardan foydalanishning nazariy asoslari.....	36
Kayumova Sh.S. Davlatimizda fond bozori rivojlanishiga ta‘sir qilayotgan muammolar	39
Maxkamova N.S., Matyaqubova F.A. Davlat moliyaviy nazoratning nazariy va huquqiy asoslari.....	40
Pardayeva Sh.A. Javobgarlik markazlari bo‘yicha daromad va xarajatlarni aniqlash.....	42
Rustamov J.R. Financial foundations of non-performing loans accumulation.....	44
Ruzmanov Sh.U. O‘zbekistonda mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish muammolari va imkoniyatlari.....	46
Sotvoldiyev A.D., Muxammadiyeva M.R. Tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyati va operatsiyalari	49
Tangirqulov I.S. Moliyaviy bozorning mohiyati, zarurligi, asosiy vazifalari va turlari	52
To‘raxo‘jayeva A.I. Davlat sektori muassasalarida buxgalteriya hisobi va nazoratini takomillashtirishning muammolari va istiqbollari.....	55
Xamidullayeva M.X. Monetar siyosat va uning davlat moliyasini samarali boshqarishdagi ahamiyati.....	56
Xolmo‘minov X.O. Logistik korxonalar faoliyatida moliyaviy mexanizmni takomillashtirish.....	59
Yangiboyeva O.A. O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etishdagi mavjud shart-sharoitlar.....	62
Zafarov R.Z. Tashqi qarz: mohiyati, turlari va xususiyatlari.....	65
Бекташева А.Дж. Трансформация финансово-кредитной системы в контексте цифровой революции.....	68
Ғафуров О.Ғ. Milliy valutani tartibga solish mexanizmlari.....	71
Жаббаров К.Й. Циклик тебранишларни тадқиқ этишининг айрим жиҳатлари.....	75
Закимов А.М. Аҳоли фаровонлигини юксалтиришда кишлоқ хўжалигини самарали бошқаришни таъкил этиш.....	78
Каримов К.И. Молиявий рискларни баҳолашнинг самарали воситаси сифатида стресс-тестдан кенг фойдаланиш.....	81
Мусаев О.Ш. Ўзбекистонда кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларини ривожлантириш истиқболлари.....	83

Олимов О. Мировой опыт формирования национальных стратегий социально-экономического развития на долгосрочную перспективу.....	85
Сотволдиев А., Уткурова Д. Мамлакатда ҳудудлар иқтисодий ҳавфсизилигини таъминлашнинг такомиллаштириш йўналишлари.....	88
Ташпулатов Г.Т. Янги Ўзбекистон тараққиёти сиёсатида баҳоловчи ташкilotлар рейтингини баҳолаш ва рейтингини аниқлашнинг комплекс ёдашуви зарурати.....	91
Тошпулатов Ф.Б. Рақамли иқтисодиёт шароитида ички назоратни ташкил этиш	96
Шеркузиева Н.А. “Ўзбекистон-2030” стратегияси доирасида миллий фонд бозорининг инвестицион жозибадорлигини ошириш масалалари.....	98
Якубова У. Некоторые заметки о научных основах финансово-кредитной системы.....	101
2-SHO‘BA. SUG‘URTA BOZORINI STARTEGIK RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	

Abdullayev A.B., Mamatov M.M., Isroilov I.I. O‘zbekistonda sug‘urta bozori va pensiya tizimini rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyot.....	105
Alimov O.N., Qurbonov F.U. O‘zbekiston sug‘urta ta’limida mavjud muammolar	108
Artikova G. Econometric modeling of insurance premiums: a literature review and comparative analysis.....	109
Bekberganova M.R. Sug‘urta tushumlariga ta’sir etuvchi omillar tahlili.....	111
G‘aybullayeva Z.R., Muhamedjonov A.M. Sug‘urta bozorini rivojlantirishning hozirgi kundagi dolzarb masalalari.....	114
Hamroyeva D.Y. Hayot sug‘urtasi bozorini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	116
Hamroyeva D.Y. Hayot sug‘urtasining rivojlantirishning huquqiy asoslari va jahon tajribasi.....	119
Ikromov A. Modeling the dynamics of insurance coverage in car insurance.....	121
Juraeva U.A. The role of social insurance in the development of human capital...	123
Sotvoldiyev A. B., Ahmadqulova.M.X. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari.....	125

Ш. Е. Абдуллаева. Социальное страхование как одна из форм социальной защиты населения	127
Таджибаев Т. М., Раҳмоналиев М.Х. Суғурта соҳасида халқаро ҳамкорликни ривожлантириш	129
Таджибаев З. М., Хомидов С.О. Ўзбекистонда ҳаётни суғурталашнинг долзарб масалалари.....	134
Умурзакова М.Н. Мажбурий тиббий суғуртани молиялаштириш манбалари....	137
Холбўтаев Х.Ж. Суғурта бозорини стартегик ривожлантиришда транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини суғурта қилиш суғурта турининг аҳамияти.....	139
Шорахимова З. Иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши шароитида суғуртанинг ўрни.....	142

3-SHO‘BA. O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI RIVOJLASHTIRISH MUAMMOLARI

Ваҳабов А.В., Ходжибокиев Ш. Х. Экологик инвестициялар барқарор иқтисодий ўсиш омили сифатида.....	145
Умаров А.Т. Ўзбекистон ҳудудларининг инвестицион фаоллик даражаси ошириш имкониятлари.....	151
Odinayev D.Sh. Investitsion salohiyat va undan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari	153

Далиев А.Ш. Алгоритмы и модели структурного распознавания для решения задач классификации, прогноза и управления сложными процессами.....	155
Abdullayev A.B., Mamatov M.M., Isroilov I.I. Iqtisodiy o‘rnatish suratlari ta’minlashning konseptual jihatlari va asosiy yo‘nalishlari.....	157
Aytbaeva G.K. O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalari va ularning nazariy asoslari.....	160
Christian Alexander M.A. Effectiveness of economic sanctions.....	163
Djurayeva M.D. Investitsion loyihalar va ularning samaradorligini oshirish.....	167
Eshqobilova M.X. Chet el investitsiyalari harakatini soliq mexanizmi orqali tartibga solish masalalari.....	169
Mirzayeva A.Sh., Abdunazarov J. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish-milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashning asosi.....	172
Namozov O.B., Alixanov P.Sh. Mamlakatimizda investitsiya muhitini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	175
Tursunova N.X. O‘zbekistonda investitsiya muhitini rivojlantirish.....	178
Vafoyeva M.J. O‘zbekistonda turistik investitsiya muhitini rivojlantirish muammolari.....	180
Yaxshiqulova M.T. Korporativ boshqaruv tizimida ichki auditning investitsion muhitga ta’siri.....	182
Абдуллаева Р.Г. Инвестиция муҳитини ривожлантириш – иқтисодий ўсиш омилли сифатида.....	184
Абуталипов М.Ф. Об определении содержания инвестиционной деятельности коммерческих банков.....	186
Акимниязов Т.Б. Преимущества реализации инвестиционных проектов на основе государственно-частного партнерства.....	190
Даниярова Ф.Б. Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини инвестициялашда Тошкент вилоятининг тутган ўрни ва аҳамияти.....	192
Зиёдуллаева Г.А. Инсон капиталини инвестициялаш билан боғлиқ муаммолар.....	195
Исмаилов Б.А. Хизмат кўрсатиш соҳасинининг иқтисодиётда тутган ўрни.....	197
Кўчқаров Ф.А., Маматов Б.С. Пути дальнейшего улучшения инвестиционного климата в аграрном секторе.....	199
Мараимова У.И. Мамлакат қурилиш соҳасига киритилаётган инвестициялар самарадорлигини ошириш йўналишлари.....	201
O‘ralova N.O‘. O‘zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirish- mamlakatni barqaror iqtisodiy rivojlanishining muhim omili.....	204
Рахмедова М.Н. Зеленые облигации как эффективный инструмент инвестирования.....	206
Файзуллаев Ж.Н. Венчур инвестициялар ва уларнинг иқтисодиётни инновацион ривожланиш моделига ўтказишдаги ўрни.....	208
Хошимов П.З., Сарманов А.А. Ўзбекистонда инвестиция муҳитини шакллантириш ва ривожлантириш хусусиятлари	211
Шеркузиева Н.А. Корпоратив тузилмалар инвестицион жозибадорлигини оширишда дивиденд сиёсатининг ўрни.....	213
Элов Д.А. Минтақавий агросаноат ишлаб чиқаришини ривожлантириш асосида унинг рақобатбардошлигини ошириш зарурияти.....	216

4-SHO‘BA. IQTISODIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA BUDJET-SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Шаровоп М. Раскрытие потенциала: оценка и увеличение неналоговых доходов в государственном бюджете республики Узбекистан.....	220
--	-----

Noorsidi Aizuddin Mat Noor, Farhana Diana Deris, Nurul Syakima Mohd Yusoff, Siti Zaleha Daud, Mustafa Omar, Rohaizal Idris Strategic development of the financial and credit systems between Uzbekistan, Malaysia and Singapore.....	223
Abdujalilova G.S. Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlanishining statistik tahlili.....	227
Fayzullayev D.M. O'zbekiston Respublikasi davlat budjetiga tushumlarning makroiqtisodiy tahlili.....	231
G'aybullayeva Z.R., D.X.Haydarov. Xalqaro kapital bozori va uning rivojlanish xususiyatlari.....	234
G'aybullayeva Z.R., Najmiddinov Sh.F. O'zbekiston Respublikasining davlat budjetining soliqdagi ulushi.....	236
Hakimov U. Reasons for tax arrears and the main directions for its reduction.....	238
Hakimov U. Ways to use experiences of foreign countries in reducing tax liabilities.	240
Jabaraliyev M. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimini isloh qilishning dolzarb muammolar	242
Qurbonov O.T., To'xtamurotova A.O. Tovar zaxiralariga bog'liq to'r tipidagi bir iqtisodiy model haqida.....	244
Rejapov X.X., Raxmatjonov F.S. O'zbekiston Respublikasi budjeti daromatlarining amaldagi holati tahlili	246
Sulaymonov A. Structural problems within developing countries.....	248
Xudoyorov L.N., Noraliyeva S.S., Baxronova N.S. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va hozirgi kundagi ahamiyati.....	251
Xudoyorov L.N., Baxronova N.S., Noraliyeva S.S. Biznesni rejalashtirishning bugungi kundagi ahamiyati.....	253
Ахроров З.О. Солик тизимида фойдани соликка тортишнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти.....	255
Бегленов Н.Д. Стратегии развития маркетинга услуг в условиях нестабильной рыночной среды гостиничного бизнеса.....	259
Далиев Ш. Капитал бозорида муаммолар ва уларни бартараф этиш йўналишлари.....	262
Қудияров К.Р. Фойда солиғининг банклар фаолиятига таъсири: кредитлар бўйича йўқотишларга резерв.....	266
Қулматов А. Автомобиль транспорт хизматлар бозорида соғлом рақобат муҳитини ривожланиши	269
Мавланова У.Б. Динамика налоговых поступлений за 2021-2023 год по республике Узбекистан.....	271
Насридинов С., Нарманов О. Транспорт масаланинг иқтисодий соҳада қўлланиши.....	273
Пардаев А.Х. Международные стандарты финансовой отчетности, регулирующие учет нематериальных активов.....	276
Пардаев А.Х. Международные стандарты финансовой отчетности, регулирующие учет товарно-материальных активов.....	279
Режапов С. Х. Андижон вилоятида амалга оширилган давлат харидларининг таркибий тузилишини ривожланиш тенденциялари.....	281
Salimov A.A. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda ichki sifat monitoringini takomillashtirish yo'nalishlari.....	284
Н.Р.Самадова. Хўжалик юритувчи субъектлар иқтисодий салоҳиятининг таркибий тузилиши ва кўрсаткичлари тизимини шакллантириш.....	288

MOLIYA-KREDIT TIZIMINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHNING MUAMMOLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

Toshkent – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2024

Muharrir:	M.Hayitova
Texnik muharrir:	M.Tursunov
Musavvir:	Sh.Zoxidova
Musahhih:	L.Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	O.Qalandarov

E-mail: nashr2019@inbox.ru. Tel.: +99899920-90-35

№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 24.04.2024.

Bichimi 60x84 ¹/₈. «Times New Roman» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i:19,5. Nashriyot bosma tabog‘i 18,25.

Tiraji: 30. Buyurtma №74.

**«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Ziyo MFY, Talabalar ko‘chasi, 96-1-uy.**